

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI



**AKBAROV AXMATJON**

**SPORT BIOMEXANIKASIDAN PRAKTIKUM**

(o'quv qo'llanma)

5610500-“Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)” va 5210200-“Psixologiya (sport) ”Ta'lim yo'nalishlarida «Sport biomexanikasi» fani bo'yicha  
mashg'ulotlar uchun

Chirchiq – 2020

O'quv qo'llanma - praktikum 5610500-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) va 5210200-Psixologgi (sport) Ta'lim yo'naliishida mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida yordamchi material sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan. Praktikumni tuzilish rejasi jismoniy madaniyat va sport oliv o'quv yurtlarida va fakul'tetlarida ushbu fanlarni o'qitishning namunaviy dasturiga mos holda ishlab chiqilgan bo'lib, u fanning nazariy qismini o'rGANISH bilan mantiqan bog'langan.

Praktikumda sportchilar turli sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarda amalga oshiradigan lokomotsiyalarning mexanizmlari tahliliga asosiy e'tibor qaratilgan. Taklif qilinayotgan ishlarni bajarish talabalar tomonidan bajariladigan mashqlarning biomexanik xarakteristikalarini tushunishini osonlashtirishga xizmat qiladi va o'rGANILAYOTGAN fanlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar, shuningdek, o'z salomatligi darajasini nazorat qilib borish maqsadida bo'lganlar uchun ham foydali materiallari bilan e'tiborga loyiq.

**Taqrizchilar:** Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich – Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Pedagogika va jismoniy tarbiya» kafedrasi professori, b.f.d.

Umarov Jamshid Xasanovich – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti «Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti» kafedrasi mudiri, p.f.n.

## KIRISH

Biomexanika iborasi yunon tilidagi ikkita: Bios - hayot va mexane – mashina, quroq so'zlaridan kelib chiqqan. Ma'lum-ki, mexanika - bu fizikaning bo'limi bo'lib, mexanik harakatni va moddiy jismlarning mexanik o'zaro ta'sirini o'rghanadi. SHulardan kelib chiqadi-ki, biomexanika - bu tirik mavjudotlarning harakatlantiruvchi imkoniyatlarini va harakatlantiruvchi faoliyatini o'rghanadigan fandir. Insonning harakatini o'rGANISH eng katta va muhim ahamiyatli amaliy qiziqishni tashkil qiladi. Hayvonlarning harakatlari to'g'risidagi birinchi ilmiy asarlar Aristotel' (e.o. 384-322 yy.) tomonidan yozilgan. Biomexanikani fan sifatida shakllanishiga bir nechta o'tmishdagi buyuk mutafakkirlardan: Galen (131-202 yy.), Leonardo da Vinci (1452-1519 yy.), Mikelandjelo (1475-1564 yy.), biomexanika bo'yicha birinchi «Hayvonlar harakati» kitobining muallifi - Djovanni Al'fonso Borelli (1608-1679 yy.), I.M.Sechenov (1875 - 1905 yy.), P.F.Lesgaft (1837-1930 yy.), A.A.Uxtomskiy (1875-1941 yy.) va biomexanika maktabining asoschisi N.A.Bernshteyn (1896-1966 y.y.) ulkan ta'sir ko'rsatishgan. Ular biomexanikani fan sifatida rivojlantirish uchun juda ko'p ish qilishgan. Keyingi paytlarda biomexanikaning quyidagi yo'nalishlari: muhandislik biomexanikasi (robototexnika bilan bog'liq); tibbiy biomexanika (shikastlanish profilaktikasi va protezlash); ergonomik biomexanika (insonni tirik tabiat bilan bog'liqligi) keng rivojlanib bormoqda.

Mexanik harakat, ya'ni jismning boshqa jism(lar)ga nisbatan fazodagi ko'chishi materiya harakatining elementar (oddiy) shakli deb hisoblab kelingan. Insonning harakatlanish faoliyati tananing hamma organlarining ishtirokida amalga oshiriladi. Biroq, harakat funksiyasining bevosita ijro etuvchisi inson tanasining harakatlanish apparati hisoblanadi. U skelet suyaklaridan, bog'lamlar va mushaklardan tashkil topgan. Har qanday jismoniy harakat, hattoki oddiy (elementar) harakat ham, materiya harakati shakllarining, eng oddiy - mexanik harakatdan boshlab, to oly shakli – tafakkurgacha bo'lgan butun majmuasini o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Inson harakatlarining mashina harakatlaridan eng muhim farqi shundan iborat-ki, mashina faqat uning dasturiga kiritilgan

harakatlarnigina bajaradi va dasturdan chetga chiqa (o'zicha o'zgartira) olmaydi, inson esa o'z harakatlarini, tashqi muhitning eng qulay sharoitlaridan yoki boshqa sabablardan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy paytda va xohlaganicha (albatta, o'z imkoniyatlari doirasida) o'zgartirishi mumkin.

Sportchi biron - bir harakatni bajarishda muntazam ravishda, doimo uni qanday qilib eng yaxshi holda bajarish, ya'ni qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini qanday amalga oshirish zarur (qulay, oson, eng ratsional)ligini qidiradi. Inson oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'z harakatlarini boshqaradi, hattoki o'zgarib turadigan vaziyat va sharoitlarda ham boshqaradi, chunki sharoitlarning vaqt o'tishi bilan absolyut takrorlanishi bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Biroq, talab qilinayotgan harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar va xalaqit beruvchi to'sqinliklar sabablarini, sharoitlardagi o'zgarishlarni, harakat (mashq)ni bajarish texnikasidagi xatoliklar manbalarini va ushbu xatoliklarni engib o'tish (yoki bartaraf qilish) yo'llarini bilish kerak bo'ladi. Sport iomexanikasi (butun - yaxlit biomexanikaning bir bo'lagi sifatida) aynan ana shu maqsadlar uchun xizmat qiladi hamda murabbiyning amaliy faoliyati jarayonida biomexanika tobora chuqurroq anglab etishiga olib keladi. Biomexanika sohasidagi bilimlar muntazam ravishda sport amaliyoti bilan boyitib va mustahkamlab boriladi.

Umumiy holda, biomexanika tirik tizimlardagi mexanik harakatlar qonunlarini o'rghanadi. Turli tizimlar (biotizimlar) o'rganiladi:

- 1 - yaxlit holdagi organizm (inson);
- 2 - uning organizmini ayrim qismlari (tizim osti), masalan, harakatlanish apparati, yurak - qon tomir tizimi;
- 3 - organizmlarni birikmasi (akrobatlar guruhi, kurashchilar juftligi).

Mexanik harakat deganda butun tizimni yaxlit holda harakatlanishi, shuningdek tizimning ayrim qismlarini bir-biriga nisbatan siljishi, demak tizimdagи yoki uning ayrim qismlaridagi deformatsiyasi ham tushuniladi. Biologik tizimlardagi hamma deformatsiyalar yoki unday, yoki bunday insonning

harakatlarida hal qiluvchi va muhim rol' o'ynaydigan biologik jarayonlar bilan bog'liq.

Organizmda kuchlar va ularning momentlarining kattaligi doimo o'zgarib turadi. SHuning uchun inson va hayvonlar harakatlari mexanikasini biologik mexanika – **biomexanika** deb aytildi.

Inson va hayvonlar biomexanikasi bir - biriga juda o'xshaydi: ulardagi tashqi kuchlari, mushaklarni tortishish kuchlari, his etish organlari ustidan nazorati, energetik ta'minoti - umuman olib qaraganda bir xil. Biroq, inson harakatlar qonuniyatlari va qonunlarini anglaydi va o'rganadi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi, harakatni borigi davomini anglab etadi, ularni nazorat ostiga oladi, ularni ongli ravishda o'rganadi, o'z aqli va irodasi bilan maqsadlarga erishish uchun harakatlarni boshqaradi.

Insonning hamma harakatlari mexanika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu harakatlarda kelib chiqishi turli-tuman bo'lgan kuchlar - gravitatsion (tortishish) kuchlaridan to (mushaklardagi) elastiklik kuchlarigacha ishtirok etishadi; hamma kuchlarning hamma eng murakkab jarayonlarini tashkil qilinishi insonning ruhiyati asosida yotadigan asab jarayonlarining eng murakkab tizimi tomonidan boshqariladi (regulyatsiya qilinadi).

Sport biomexanikasi inson (sportchi)ning u turli harakatlar - amallarni bajarishi davomidagi harakatlarini o'rganadi. U muhit va shart-sharoitlarni o'zgarishiga bog'liq holda harakatlarning mexanik va biologik sabablarini o'rganadi.

Keyingi yillarda harakatlantiruvchi amallarni o'rganishning nisbatan yangi - pedagogik kineziologiyani qo'llash yo'nalishi keng tarqalib bormoqda. Bu biomexanika va pedagogikaning o'ziga xos birlashishi, sintezidan iborat bo'lgan yo'nalish bo'lib, unda mashhur sportchilar texnikasining alohida xususiyatlari o'rganiladi; harakatlarni tashkil qilishning eng ratsional varianti aniqlanadi; harakatlarni o'zlashtirishning uslubiy usullari, texnik o'zini o'zi nazorat qilishning va texnikaning takomillashtirishning usullari ishlab chiqiladi.

Biomexanika jismoniy tarbiya va sport haqidagi fanlar orasida alohida shrin tutadi. U anatomiya, fiziologiya va fundamental ilmiy fanlardan - fizika (mexanika), matematika, boshqarish nazariyasi singari fanlarga asoslanadi.

Biomexanikani bioximiya, psixologiya va estetika bilan o'zaro ta'sirlashishi (hamkorlikda izlanishlar) yangi ilmiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga va ularni rivojlanishiga olib keldi. Ularning ayrimlari, ya'ni «psixobiomexanika», biomexanikaning energostatik va estetik aspektlari, dunyoga kelib ulgurmasdanoq, katta amaliy naf keltirmoqda. Boshqa tibbiy - biologik va pedagogik fanlaridan biomexanika elektron-hisoblash texnikasi yutuqlari sifatida foydalanadi. Biroq, asosiysi - bu biomexanika jismoniy tarbiya va sportning nazariyasi va amaliyoti, sport va ommaviy jismoniy madaniyat o'rtasida bog'lovchi zveno sifatida xizmat qiladi. Biomexanika bo'yicha bilimlarga tayangan holda, pedagog o'z tarbiyalanuvchilarini turli harakatlarga o'rgatganini va ularning harakatlanish faoliyatini tahlil qilib borgani yaxshi.

SHu munosabat bilan, ya'ni biomexanika boshqa fanlar bilan bog'liqligi tufayli, biomexanikani rivojlanishining turli yangi yo'nalishlari shakllanib bordi. Ularda harakatlarni o'rghanish majmualari, harakatlarning ma'lum qonunlari, butun (yaxlit) tirik tizimning ham, uning alohida qismlarini ham, harakatlarining sabablari va baholash o'rganiladi. Bularning orasida tirik tizimdagи harakatlarni mexanik qonunlar asosida o'rghanadigan va tushuntiradigan (tavsiflaydigan) mexanik yo'nalish. Funktsional - anatomik yo'nalishda – biotizimlardagi harakatlarda ularning strukturasi (tuzilishi) va funktsional imkoniyatlari inobatga olinadi. Fiziologik yo'nalish – biotizimlardagi harakatlarni insonning fiziologik rivojlanishi, uning tarkibida kechadigan biomexanik reaktsiyalari va asab tizimi bajaradigan ishi asosida o'rghanadi va asoslab beradi.

Sportchining harakatlanish faoliyati ixtiyoriy sport turi ko'p sonli harakatlanish amallaridan - trenirovka va musobaqa harakatlaridan tashkil topgan bo'ladi. Ular o'z yo'nalishlari bo'yicha bir-biridan o'zaro farq qiladi: trenirovkada sport musobaqalarida rejalshtirilgan natijaga erishish uchun kuch jamlash va maksimal kuch sarflash. Biroq, harakatlanish amallarining hamma ko'rinishlarini

tuzilishi taxminan bir xil. Bo'g'inlar harakatlarining to'plami o'ta murakkab va yaxlit harakatlarga – harakatlar tizimiga birlashadi.

Materiya doimo ma'lum tashkiliy tuzilmaga ega bo'ladi, u aniq (konkret) moddiy tizimlar ko'rinishida mavjud. Tizim - bu ichki (yoki tashqi) tartiblangan o'zaro bir-biri bilan o'zaro bog'langan (yoki o'zaro ta'sirlashuvchi) elementlar to'plami. Tizimning strukturasi (tuzilishi) uni tashkil qilgan elementlarning ichki aloqalari, mazkur aloqalarning qonunlari to'plami sifatida ishtirok etadi.

Strukturaviylik - mavjud tizimlarning hammasini ajralmas elementi hisoblanadi.

Tizimli - strukturaviy yondashuv olamni ilmiy asosda anglashning dialektik usulidan iborat.

U ilmiy tizimli strukturaviy usul ko'rinishida amalga oshiriladi va qo'llaniladi. Bu usulning mazmun va mohiyati tizimni: tizimlar nimalardan yoki qanday elementlardan tashkil topganligini, va ularning strukturasini - aniq (konkret) tizimlar qanday tuzilganligini qidirishdan iborat bo'ladi. Turli bilim sohalarida bunday usul, albatta, turli-tuman mazmunga ega.

Harakatlanish amallarini o'rganishda ularni tizimli tahlil qilish, harakatlar tizimini o'zaro bir-biridan farq qiluvchi tashkil qiluvchi qismlarga bo'laklash keng qo'llanadi. Bu harakatlar tarkibini aniqlash. Bir vaqt ni o'zida esa harakatlanish amallarini tizimli tahlili boshlanadi - vyiyavlenie elementlarni tizimga birlashtirilgan usul aniqlanadi. Bu harakatlar tizimi strukturasini aniqlashdir. Harakatlarni o'rganishdagi tizimli - strukturaviy yondashuv mashhur biomexanik olim N.A.Bernshteyn tomonidan ishlab chiqilgan harakatlarni strukturaviylik nazariyasida namoyon bo'ldi.

***Harakatlarni tahlil qilish nazariyasida quyidagi uch tamoyil bir-biridan ajratiladi.***

***Harakatlar tizimi tuzilishining strukturaviylik tamoyili:*** tizimdagi hamma harakatlar unday yoki bunday o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Ta'sir oddiygina harakatlar yig'indisi bo'lib qolmay, balki o'ta murakkab maqsadga yo'naltirilgan strukturaviy tashkiliy harakatlar jamlanmasidir. Aynan mana

shunday jamlanma ta'sirga uning yaxlitligini shakllantiradi. Harakatlar tizimidagi hamma harakatlar yagona maqsadga yo'naltirilgan va shuning uchun hamma ta'sirlar yaxlit holda shunchalik darajada takomillashgan bo'ladi.

***Ta'sirning yaxlitligi tamoyili*** harakatlar tizimi tuzilishining strukturaviyligi bilan bog'liq. Tizimdag'i strukturaviy o'zaro bog'liqliliklar shunda namoyon bo'ladiki, tizim sharoitlarning turli o'zgarishlaariiga va ta'sirning o'zini borishiga (ta'sir davomiga) yaxlit bir narsa sifatida reaksiya beradi. Agar, biron-bir joyda xatolik sodir bo'lsa, u o'zi ortidan xatoliklar zanjirini keltirib chiqaradi. Bajarish texnikasidagi ana shu xatoliklar yoki kamchiliklar zanjirining bittasini to'g'rilashni uddalansa birdaniga butun ta'sir yaxlit holda yaxshilanadi.

***Harakatlanish ta'sirlarining ongli yo'naltiruvchanligi tamoyili*** shundan iborat-ki, «inson normada oddiy harakatlar qilmaydi, balki doimo ta'sirlarni bajaradi» (N.A.Bernshteyn). Inson, odatda, har doim oldindan nima qilish va qanday bajarish kerakligini, tasavvur (bashoratlar) qiladi, bu degani, uning ta'sirlarida ma'no va maqsad mavjud, unga erishish uchun inson maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni tanlab oladi, ularni maqsadga yo'naltirilgan harakatlar sifatida bitta tizimga birlashtiradi, bajarilishining borishini nazorat qiladi, maqsadga erishish uchun ularni boshqaradi.

Hamma biomexanik tadqiqotlar ham tizimli - strukturaviy usul bo'yicha tuzilavermaydi, albatta. Bunday tahlillarda ta'sir elementlarini sof funksional o'rganish ham katta ahamiyatga ega. U yoki bu sabablar, omillar harakatlarning u yoki bu xususiyatlariiga, xarakteristikalariga qanday ta'sir ko'rsatishini bilash kerak. Jumladan, sportchining mahorati darajasi, uning jismoniy va texnik tayrlanganligi to'g'risida xulosa chiqarsa bo'ladigan ko'rsatkichlarni, tashqi alomatlarni topish kerak. SHuning bilan birga, odatda, yaxlit holdagi butun tizim va uning hamma detallari bilan bir vaqtda qamrab olinmaydi.

Asab faoliyatining boshqaruvchi (regulyatsiya qilinuvchi) mexanizmlarini tadqiq qilish natijalari harakatlarni boshqarish jarayonlarining o'ta murakkabligini ko'rsatdi. N.A.Bernshteyn tomonidan hozirgi kunda umumqabul qilingan

harakatlarni boshqarishning muhim tamoyili aniqlangan. U quyidagidan tashkil topgan, ya’ni harakatlarni boshqarish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

- harakatni amalga oshirish davomida asab tizimining impul’slarini (buyruqlarini) harakatni ijro etishning aniq shart-sharoitlariga moslashishi ;
- harakatlar vazifalarini hal qilishdagi og’ishlarni bartaraf etish (bevosita harakatlar jarayonida korrektsiyalash, ya’ni tuzatmalar kiritish).

Harakatlarni o’rganish, oxir oqibatda, harakatlantiruvchi ta’sirlarning eng takomillashgan usullarini topishga va ularni eng yaxshi bajarilishini o’rgatishga yo’naltirilgan. A.A.Uxtomskiy ta’rifiga ko’ra, biomexanika «qanday qilib olingan mexanik energiya va kuchlanish (zo’riqish) amaliy ishda qo’llanishi mumkin»ligini tadqiq qiladi, ya’ni trenirovka jarayonini ilmiy asoslash, yordamchi mashqlarni tanlash, trenirovka usullarining samaradorligini nazorat qilish bilan shug’ullanadi. YUqorida aytib o’tilganlardan kelib chiqqan holda, sport biomexanikasida inson harakatlarini o’rganishning umumiyligi vazifasini shakllantirish mumkin - bu qo’yilgan maqsadga yanada takomillashghanroq holda erishish uchun kuchlarni qo’llash samaradorligini baholash. Harakatlarni o’rganishning butkul sohasini qamrab oladigan umumiyligi vazifadan xususiy vazifalar ajratiladi va ular o’rganilayotgan hodisalarning harakatga ta’sirini aniq (konkret) masalalarini qarab chiqishda va tadqiq qilishda jamlanadi.

Ularning asosiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Sportchilarning tayanch-harakatlanish apparati tuzilishining xususiyatlarni, uning mexanik xossalari va funktsiyalarini yoshga oid xususiyatlarni inobatga olgan holda o’rganish va hokazo;
2. Sportchi tanasining tuzilishi xususiyatlarni inobatga olgan holda tananing ayrim qismlari harakatlarini xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan ratsional sport texnikani izlash;
3. Sportchining texnik takomillashganlik darajasini baholash - uning sport tayyorlanganlik darajasini, texnik va jismoniy tayyorgarlik uchun maxsus mashqlarning ratsionalligi va tanlab olinishini, trenirovka usullarini va ularning samaradorligini baholash.

# **1-bob. O'QUV - TRENIROVKA JARAYONINI O'RGANISH VA TAKOMILLASHTIRISH UCHUN BIOMEXANIK USULLARNI QO'LLANISHI**

## **1.1. Biomexanik tadqiqot usullari va vositalari**

O'zining rivojlanishi davomida jismoniy mashqlar biomexanikasi tirik organizmning oddy mexanik harakatidan jonli harakatga, undan insonning harakatlanish ta'siriga, va nihoyat, shaxsning maqsadga yo'naltirilgan harakatga tomon o'sib bordi. Biroq, jismoniy mashqlar biomexanikasining asosiy vazifasi hozir ham qo'yilgan maqsadga yanada takomillashgan holda erishish uchun uchun kuchlar ta'siri samaradorligini baholash bo'lib qolmoqda. Bu masalani echilishi, ko'p jihatdan, quyidagi savollarga javoblarning qanchalik to'liqligi va aniqligi bilan bog'liq: sportchi tanasining tuzilishi, xossalari va harakatlantiruvchi funktsiyalari qanday? Ratsional sport texnikasi qanday? Sportchining texnik takomillashganlik jarayoni qanday amalga oshirilishi kerak? SHuning bilan birga, jismoniy mashqlarning modeligi yaratish muhim rol' o'ynaydi.

Jismoniy mashqlar modeli biomexanik, fiziologik, psixologik aspektlarni aks ettiradi va bu erda kirish sportchining ruhiyati hisoblanadi, chiqish esa – uning harakatlarini biomexanik xarakteristikalarini hisoblanadi. Adekvat boshqariluvchi ta'sirlarni ishlab chiqish uchun bu xarakteristikalarini o'lchash kerak, olingan natijalarni tahlil qilish va kerakli ma'lumotlarni «murabbiy-sportchi» tizim ostiga (podsistemaga) uzatish kerak.

Mazmun-mohiyatli xulosalar aniq va ishonchli ma'lumotlar asosida chiqarilishi mumkin. Bundan biomexanik tadqiqotlarda qzllanadigan usullar va apparaturalar ishonchli natijalar olinishini ta'minlashi kerakligi kelib chiqadi. Bu o'lchashlar aniqligining darajasi tadqiqot maqsadlariga mos kelishi zarurligini, usullar va apparaturalar tadqiq qilinayotgan jarayonga ta'sir o'tkazmasligi

kerakligini, ya’ni natijalarni buzib ko’rsatmasligini va tadqiqotchiga xalaqit bermasligi lozimligini anglatadi.

Bir (yuzaki) qaraganda, inson tanasi massasi va geometriyasi to’g’risidagi jismoniy qonuniyatlardan va statistik ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan **hisoblash usullari** (bilvosita o’lchashlar, mexaniko-matematik modellashtirish) bu talablarga to’liq javob beradigandek ko’rinadi. Bunday hisoblash usullari, ko’pincha, turli xil sabablarga ko’ra bevosita o’lhash (qayd qilish) imkonи bo’lmaydigan hollarda, masalan musobaqa sharoitlarida, biomexanik xarakteristikalarни bilvosita aniqlash uchun qo’llanadi.

Biomexanikada klassik hisoblashlar usullari asosida tirik va notirk massaning ekvivalentligi gipotezasi yotadi. Bunday gipoteza biologik jism boshqariluvchi kuchlar va momentlar ta’siri ostida o’z ichki strukturasini o’zgartirmasligini, shuningdek o’zgarmas vaziyatda (pozada) bo’lishini nazarda tutadi (faraz qiladi). Agar bu shart bajarilmasa, u holda klassik biomexanika usullari qo’llab bo’lmaydigan bo’lib hisoblanadi.

Ko’pchilik etakchi biomexanika sohasida izlanishlar olib boradigan laboratoriyalarda (jumladan, VNIIFKda - jismoniy madaniyat bo'yicha Butunittifoq ilmiy tadqiqot instituti) keyingi ko’p yillar davomida amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar «... nuqtalarni ko’chish kattaligi bo'yicha, tana vaziyatini (pozani) o’zgarishi bilan harakatlantruvchi ta’sirlardagi tezlanish va kuchlarni kattaliklari to’g’risidagi ma’lumotlarni olish uchun klassik hisoblashlar usullarini cheklanganligini” ko’rsatdi. Bu cheklanganlik hozirgi vaqtida ichki organlarning, qon massasini va limfalarni (organizmda kon bilan to’kimalar o’rtasida modda almashinuvini ta’minlovchi suyuqlik) siljish yo’nalishlarini ob’ektiv baholash uchun imkoniyatlari yo’qligi sharoitlaridan kelib chiqadi.

Hisoblashlar algoritmlari doirasida, shuningdek kuch yoki energiyani bir zvenodan boshqa zveoyoq o’tishi yoki ularning yutilishi va sochilishi ham inobatga olinmaydi.


Aynan shu tadqiqot mualliflari tajriba yo’li bilan (eksperimental) N.A. Bernshteynning mushak kuchlanishlari va mexanik harakat (chunki har bir harakat

- faol va reaktiv kuchlarning o'zaro ta'siri natijasidir) o'rtaida bir qiyamatli bog'liqlik mavjud emasligi to'g'risidagi fikrini tasdiqladilar va biomexanik tizimlarda «kuch-kuchlanish» funksiyasi - chiziqli emasligini, ya'ni massalarni siljishida kuchlanishlar paydo bo'lmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan ahamiyatga molik bo'lgan tezlanishlarni ko'rsatdilar.

**Tadqiqotning instrumental usullari** harakatlarning kinematik, dinamik, energetik xarakteristikalarini, shuningdek jismoniy mashqlarni bajarishdagi bioelektrik faolligini to'g'ridan-to'g'ri qayd qilish uchun qo'llanadi. Odatda, instrumental usullarning ikki guruhi: optik va optik-elektron (foto-, kino-, videos'emka) hamda mexanoelektrik (gonio-, mexano-, tenzodinamo-, akselerografiya va shu singarilar), shuningdek ularning boshqa turlari va birikmalari usullari bir-biridan o'zaro farq qilinadi.

Musobaqalar va trenirovkalar sharoitlarida yuqori chastotali informatsion texnologiyalardan foydalanish mashqlarni bajarish samaradorligini baholash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, oddiy tahlilda erishib bo'lmaydigan harakatlarning ta'siri tarkibining nozik o'zaro bog'liqligini ajratish imkonini beradi. Instrumental usullardan, shu jumladan harakatlantiruvchi ta'sir mexanizmlarini boshqarishni, o'quv-trenirovka jarayonini takomillashtirishni o'rganish uchun eng oddiy usullardan, muvaffaqiyatli foydalanishga oid ko'pgina misollar mavjud.

YUrish kinematikasini tahlil qilish N.A. Bernshteynga (1935) hattoki avtomatlashtirilgan harakatlar ham aniq qayta takrorlanmaydi, balki har safar qaytadan quriladi («takrorlamasdan takrorlash») degan xulosa chiqarish imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. Lokal ta'sir ko'rsatuvchi (tovon tagligini egilishi) mashqini bajarilishida biomexanik va elektrofiziologik jarayonlarni uzluksiz parallel yozish (qayd qilish)ning umumiyligi ko'rinishi.

Belgilashlar: 1 - tenzodinamogramma, 2 - integrallashgan elektromiogramma, 3 - elektromexanogramma. Strelkalar jarayonlarning rivojlanish yo'naliishlarini ko'rsatadi. Bitta harakatlanish tsikliga kiruvchi grafiklar shtrixlangan.

Tajriba yo'li bilan (instrumental) tadqiqotlardan foydalanish asosida ko'pgina yuqori sport natijalariga erishishning asosi hisoblanadigan qimmatli va ahamiyatga molik bo'lган tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Instrumental tadqiqot materiallari, ya'ni harakatlantiruvchi ta'sirni bajarishdagi biomexanik jarayonlarni qayd qilinishi fotosuratlar, kinotasmalar va shu singarilar, shuningdek turli xil o'zi qayd qiluvchi qurilmalarda chizilgan grafiklar ko'rinishida tasvirlanishi mumkin. Bularning birinchilari rasshifrovkani (otsifrovkani) talab qiladi, ikkinchilari tarkibida ma'lumot deyarli tayyor ko'rinishda bo'ladi.

Sport texnikasini miqdoriy tahlil qilish jismni boshqarish mexanikasi nuqtai nazaridan bajariladi. SHuning bilan birga, jismning yaxlit holdagi ilgarilanma va aylanma harakatlarini dasturlari, boshqariluvchi kuchlar va kuch momentlari, massalarning kerakli o'zaro siljishlari, bosh va aniqlanuvchi boshqariluvchi harakatlar, qaddi-qomatning dinamik elementlari ketma-ket aniqlanadi.

SHunday qilib, jismoniy mashqlar biomexanikasi - tajriba va hisoblash yo'llari bilan olingan ma'lumotlarga tayanadigan tabiiy fan. Bu ma'lumotlarni tahlil qilish insonning harakatlarini takomillashtirish qonuniyatlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Harakatning biologik va mexanik xarakteristikalarini majmuaviy qayd qilish insonning harakatlarini boshqarish qonuniyatlarini o'rganishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Harakatlantiruvchi ta'sirni tahlil qilishning umumqabul qilingan muoljasи, ko'pchilik hollarda, dinamikaning to'g'ri masalasini echishni borishiga mos keladi (2-rasm), biroq ob'ektning harakatini vujudga keltiradigan va o'zgartiradigan sabablarini aniqlash bilan chegaralanmaydi, balki shuningdek ishlayotgan mushaklarning topografiyasini aniqlashni, energetik sarflarni aniqlashni, optimal harakatlantiruvchi rejimlarni aniqlashni o'z tarkibiga oladi.



**2-rasm.** Dinamikaning masalasining to'g'ri ( $\rightarrow$ ) va teskari ( $\rightarrow$ ) yechimini bajarish tartibi

Tajriba o'tkazish davomida biomexanik parametrlarni o'lchash va kuzatish hamda hisoblash yo'llari bilan olingan ma'lumotlar, albatta, umumqabul qilingan tartib va amallar asosida bo'lishi kerak. Bular qatoriga, birinchi navbatda, fizik kattaliklarning o'lchov birliklari, ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan birliklar tizimlari, asosiy, hosilaviy, karrali va ulushli o'lchov birliklari, ularning birini boshqasi orqali ifodalash yoki kattalikning o'lchov birligini biridan ikkinchisiga o'tkazish va shu singarilar kiradi. Eng avvalo, biomexanik parametrlar, ularni

o'lchash va ularning ayrim xarakteristikalariga qisqacha to'xtalib o'taylik (1-jadvalga q.).

Umumiy holda, o'lchash jarayoni o'lchanayotgan miqdorni birlik sifatida qabul qilingan miqdor bilan taqqoslashdan iboratdir. Bunday taqqoslash jarayonida o'lchanayotgan miqdorning qiymatini birlik sifatida qabul qilingan miqdorga nisbati aniqlanadi. Masalan, 4 metr deganda o'lchangan masofa birlik sifatida qabul qilingan miqdor, ya'ni metrdan 4 marta katta ekanini anglatadi.

## 1.2. SI XALQARO BIRLIKLAR TIZIMI

O'lchov birliklarini butun jahon bo'ylab muvofiqlashtirish maqsadida XI Bosh konferentsiya tavsiyasiga binoan **birliklarning xalqaro tizimi qisqacha SI** (Ingliz tilidagi SYSTEM INTERNATIONAL so'zlarining bosh harflaridan olingan) kiritildi.

Quyidagi jadvallarda amaliyotda keng qo'llanadigan SI – Xalqaro Birliklar tizimidagi asosiy kattaliklar va ularning o'lchov birliklari (1-jadvalga qarang), hosilaviy birliklari (2-jadvalga qarang) hamda old qo'shimcha qo'shish yordamida hosil qilinadigan (3-jadvalga qarang) birliklar keltirilgan.

*1-jadval*

### Xalqaro Birliklar tizimi SI asosiy kattaliklari va ularning o'lchov birliklari

T.r.	Asosiy kattalikning		
	O'lchov birligini		Etaloni uchun qabul qilingan kattalik
To'liq nomi	nomi	qisqacha belgi-lanishi	
			Vakuumda yassi elektro-magnit to'lqinni

1.	uzunlik	metr	<i>m</i>	soniyaning $\frac{1}{299792458}$ ulushi davomida bosib o'tgan masofa
2	massa	kilo-gramm	<i>kg</i>	Kilogrammning xalqaro prototipiga teng bo'lган massa birligi
3	vaqt	soniya	<i>s</i>	Soniya – bu TSeziy-133 atomi asosiy holatining ikki o'ta nozik sathlari orasidagi o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9192631770 davriga teng vaqt birligi
4	elektr tokining kuchi	Amper	<i>A</i>	Amper – bu vakuumda bir-biridan 1 <i>m</i> uzoqlikda joylashgan, cheksiz uzun va o'ta kichik ko'ndalang kesimga ega ikki o'zaro parallel o'tkazgichdan o'tganida o'tkazgichning har 1 <i>m</i> uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ N ga teng bo'lган o'zaro ta'sir kuchi hosil qiladigan o'zgarmas tok kuchidir
5	termodinamik harorat	Kelvin	<i>K</i>	Kelvin – bu suvning uch-lanma nuqtasi termodinamik haroratining $\frac{1}{273,16}$ ulushiga teng bo'lган termodinamik harorat birligi
6	modda miqdori	mol	<i>mol</i>	Mol – bu massasi 0,12 <i>kg</i> bo'lган Uglerod-12 tarkibida qancha atom bo'lsa, o'z tarkibida shuncha struktura elementlariga (atomlar, molekulalar, ionlar, elektronlar yoki boshqa zarralar guruhiga) ega bo'lган tizimining modda miqdori birligidir.
				Kandella – bu ma'lum yo'nalişda chastotasi $540 \cdot 10^{12}$ Gerts (540 TGts)

7	yorug'lik kuchi	kandel la	Kd	bo'lgan monoxromatik nur-lanish tarqatuvchi manbaning yorug'lik kuchiga teng. Mazkur nurlanishning energetik nurlanish kuchi berilgan yonalishda $\frac{1}{683} \frac{V_t}{Srd}$ ga teng bo'lgan yorug'lik kuchi birligi
---	--------------------	--------------	----	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Qo'shimcha kattaliklarning

T.r.	To'liq nomi	O'lchov birligini		Etaloni uchun qabul qilingan kattalik
		nomi	qisqacha belgilani shi	
1	tekislikdag i burchak	radian	rad	Radian – bu aylananing ikki radiuslari orasidagi burchak. Ushbu radiuslar orasidagi yoyning uzunligi radiusga teng.
2	fazodagi burchak	steradi an	strd	Steradian – bu uchi sferaning markazida bo'lgan, sfera sirtida mazkur sfera radiusiga teng bo'lgan kvad-rat yuzasiga teng yuza ajratgan fazoviy burchak birligidir.

2-jadval

**Xalqaro Birliklar tizimi SIda hosilaviy kattaliklar va ularning o'lchov birliklari**

T.r.	Hosilaviy kattalikning		
	To'liq nomi	O'lchov birligini	

		nomi	qisqacha belgi- lanishi	Ta'rifi
1.	yuza	metr kvadrat	$m^2$	tomonlarini uzunligi 1 $m$ bo'lgan kvadratning yuzi
2	hajm, sig'im	metr kub	$m^3$	qirralarini uzunligi 1 $m$ bo'lgan kubni hajmi
3	tezlik	soniyaga metr yoki metr taqsim soniya	$\frac{m}{s}$	To'g'ri chiziqli va tekis harakatlanayotgan jismning 1 $s$ vaqt davomida 1 $m$ masofaga ko'chish tezligi
4	tezlanish	metr taqsim soniya kvadrat	$\frac{m}{s^2}$	To'g'ri chiziqli va tekis o'zgaruvchan harakat- lanayotgan jismning har 1 $s$ vaqt davomida tezligi 1 $\frac{m}{s}$ miqdorga o'zgarish tezlanishi
5	burchak tezlik	soniyaga radian yoki radian taqsim soniya	$\frac{rad}{s}$	bir tekis aylanuvchi jismning barcha nuqtalari 1 $s$ vaqt davomida o'z o'qiga nisbatan 1 $rad$ burchakka aylanish tezligi
6	burchak tezlanish	radian taqsim soniya kvadrat	$\frac{rad}{s^2}$	tekis o'zgaruvchan harakatlanayotgan jismning 1 $s$ vaqt davomida o'z burchak tezligini 1 $\frac{rad}{s}$ ga o'zgartiradigan burchak tezlanish
7	davr	soniya	s	Bitta to'liq siklning tugallanishi

				uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i
8	davriy jarayon chastotasi	Gerts	$gts$	Vaqt birligi (1 s) davomida amalga oshadigan davriy jarayonning bir tsikl sur'ati
9	aylanish chastotasi	soniya darajasi minus bir	$s^{-1}$	Bir me'yorda aylanayotgan jismning 1 s vaqt davomida bir mar-ta to'la aylanish sur'ati
10	zichlik	kilogramm taqsim metr kub	$\frac{kg}{m^3}$	Hajmi 1 $m^3$ bo'lgan 1 kg massaga ega bir jinsli moddaning zichligi
11	harakat miqori	Kilogramm metr taqsim soniya	$\frac{kg \cdot m}{s}$	Massasi 1 kg bo'lgan jismning 1 $\frac{m}{s}$ tezlik bilan harakatlanish miqdori
12	harakat miqdori momenti	Kilogramm metr kvadrat taqsim soniya	$\frac{kg \cdot m^2}{s}$	Radiusi 1 m bo'lgan aylana bo'ylab harakatlanayotgan va harakat miqdori 1 $\frac{kg \cdot m}{s}$ ga teng moddiy nuqtaning harakat miqdori
13	Inertsiya momenti	Kilogramm metr kvadrat	$kg \cdot m^2$	Aylanish o'qidan 1 m masofada joylashgan massasi 1 kg bo'lgan moddiy nuqtaning inertsiya momenti
14	kuch	Nyuton	$N$	1 kg massali moddiy nuqtani 1 $\frac{m}{s^2}$ tezlanish bilan harakatga keltiradigan kuch miqdori
15	Kuch momenti	Nyuton metr	$N \cdot m$	Kuchning ta'sir chizig'idan 1 m masofada joylashgan nuqtaga

				nisbatan 1 $N$ ga teng kuch momenti
16	Kuch impulsi	Nyuton soniya	$N \cdot s$	1 $N$ ga teng kuchning 1 $s$ vaqt davomida ta'sir etuvchi impulsi
17	Ish va energiya	Joul	$J$	Kuch ta'sisri yo'nalishida jismni 1 $m$ masofaga siljitudigan 1 $N$ kuchning bajargan ishi
18	Quvvat	Vatt	$Vt$	1 $s$ vaqt davomida 1 $J$ ish bajara oladigan tizimning quvvati

3-jadval

**Xalqaro Birliklar tizimi SIda o'nga karrali va ulushli o'lchov birliklarini hosil qilish uchun qo'shiladigan old qo'shimchalar**

t.r.	Old qo'shimcha			
	Old qo'shimchaga mos ko'paytiruvchi (10 ning darjasи )	To'liq nomi	Belgilanishi	
		Kirill yozuvida	xalqaro	
1	18 (ya'ni $10^{18}$ )	eksa	E	E
2	15 (ya'ni $10^{15}$ )	peta	P	R
3	12 (ya'ni $10^{12}$ )	Tera	T	T
4	9 (ya'ni $10^9$ )	giga	G	G
5	6 (ya'ni $10^6$ )	mega	M	M
6	3 (ya'ni $1000 = 10^3$ )	kilo	k	K
7	2 (ya'ni $100 = 10^2$ )	gekto	G	h
8	1 (ya'ni $10 = 10^1$ )	deka	dk	dk
9	-1 (ya'ni $0,1 = 10^{-1}$ )	detsi	d	D
10	-2 (ya'ni $0,01 = 10^{-2}$ )	santi	s	s
11	-3 (ya'ni $0,001 = 10^{-3}$ )	milli	m	m
12	-6 (ya'ni $10^{-6}$ )	mikro	mk	mk

13	$-9 (\text{ya'ni } 10^{-9})$	nano	n	N
14	$-12 (\text{ya'ni } 10^{-12})$	piro	p	P
15	$-15 (\text{ya'ni } 10^{-15})$	femto	f	F
16	$-18 (\text{ya'ni } 10^{-18})$	atto	a	a

3-jadvaldan foydalanishga oid misollar keltiramiz.

- $3 \text{ kg} = 3 \cdot 1 \text{ kg} = 3 \cdot 1000 \text{ g} = 3000 \text{ g}$  (ya'ni kilo degani 1000 marta katta ekanligidan foydalandik).
- $4,5 \text{ kA} = 4,5 \cdot 1 \text{ kA} = 4,5 \cdot 1000 \text{ A} = 4500 \text{ A}$  (yuqoridagi misol kabi)
- $6,75 \text{ mA} = 6,75 \cdot 1 \text{ mA} = 6,75 \cdot 0,001 \text{ A} = 6,75 \cdot \frac{1}{1000} \text{ A} = 0,00675 \text{ A}$ .

(milli (qisqacha *m*) degani mingdan bir ulush ekanligidan foydalandik)

-  $6,75 \text{ MA} = 6,75 \cdot 1 \text{ MA} = 6,75 \cdot 1000000 \text{ A} = 6750000 \text{ A}$  (mega (qisqacha *M*) degani million marta katta ekanligidan foydalandik). Oxirgi ikki misolda keltirilgan kattaliklar old qo'shimcha bitta harfning o'zi, biroq bosh harf yoki kichik harf bo'lganda qanchalik tafovutga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda old qo'shimcha o'rnida kelgan m harfini yanglishib M harfi ko'rinishida yozib yuborsak, ushbu kattalikni  $10^{12}$  marta, ya'ni trillion martaga xatolikka yo'l qo'yilgan bo'ladi.

$$- 1 \text{ ns} = 10^{-9} \text{ s} = 0,000000001 \text{ s} = \frac{1}{1000000000} \text{ s}$$

(nano, ya'ni milliarddan bir ulushidan foydalanildi).

Demak, har qanday birlikni oldiga 3-jadvalda keltirilgan old qo'shimchalardan biri qo'shib yozilsa, u holda ushbu birlik old qo'shimchani jadvaldagagi qiymatiga mos ravishda o'zgaradi (ortadi yoki kamayadi).

Tajriba va uzoq davom etgan kuzatish ishlari eslab qolish oson yoki imkon qadar kamroq ma'lumotlarni eslab qolish uchun quyidagicha ish yuritilsa maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi.

Umumiy holda aniq mavzu yoki matematik ifodaga oid formula, uning ta'rifi yoki qoidasi va o'lchov birliklarini bilish talab etiladi.

Biroq, diqqat bilan qaraganda, berilgan fizik kattalikning matematik ifodasi, uning ta'rifi va o'lchov birligi o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish qiyin emas. Ana shu bog'liqlikdan foydalana bilish kerak.

Boshqacha aytganda, yuqorida zikr etilgan uch xarakteristikaning (ya'ni, kattalikning matematik ifodasi, uning ta'rifi va o'lchov birligining) bittasini xotirada eslab qolish kifoya. SHu bilan eslab qolinishi zarur bo'lgan ma'lumotlar miqdori uch marta kamayadi.

Bittasini bilsak, qolganlarini bilish shart emasmi yoki qolganlarini qay yo'l bilan eslab qolinadi kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Buning javobi esa oddiy.

Ushbu uch xarakteristikani o'zaro bir-biri bilan bog'liqlidan foydalangan holda boshqalarini keltirib chiqarish malakalariga ega bo'lish talab etiladi.

Oddiy bir misolni ko'rib chiqaylik.

Fizikada, jumladan, biomexanikada asosiy o'lchov birliklardan biri bo'lgan kuchni olib qaraylik. Umumiy holda, ushbu birlik, kuch tushunchasi, mexanikaning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan Nyutonning ikkinchi qonuni hamda ushbu qonunda ifodalangan massa va tezlanish to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni bilish maqsadga muvofiq. Bular Nyutonning ikkinchi qonuni matematik ifodasi

$$F = m \cdot a \quad (1)$$

kuch tushunchasi, kuchning SI – Xalqaro birliklar tizimidagi birligi Nyuton (qisqacha N) va bu birlikni (1) formuladagi boshqa kattalik birliklari orqali ifodasi, ya'ni

$$1H = 1 \frac{kg \cdot m}{s^2} .$$

SHunday qilib, kuchni Nyutonning ikkinchi qonuni matematik ifodasidan foydalangan holda kuchga yoki qonunga ta'riflar keltirish mumkin.

***Jismga ta'sir etayotgan kuchning son qiymati jism massasini ushbu kuch ta'siri ostida jismning olgan tezlanishiga ko'paytmasiga teng bo'ladi.***

**Jism massasini u olgan tezlanishga ko'paytmasi son jihatdan ushbu jismga ta'sir etayotgan kuchga teng bo'ladi.**

SHunga o'xshash (1) formulani bilgan holda kuchni SI tizimdag'i o'lchov birligini keltirib chiqarish oson. Buning uchun massani va tezlanishni ushbu tizimdag'i birliklarini (1) formulaga keltirib qo'yiladi va ixchamlashtiriladi :

$$1 \text{ N} = 1 \text{ kg} \cdot 1 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} = 1 \frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\text{s}^2}.$$

YOki aksincha, kattalikning birligini bilgan holda unung matematik ifodasi va ta'rifini keltirib chiqarish mumkin.

Kuch birligi N'yuton (N) va uning formuladagi boshqa karraliklar birliklari orqali

$$1 \text{ N} = 1 \frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\text{s}^2}$$

ifodasini bilgan holda kuch birligi orqali bevosita aniqlanadigan Nyutonning ikkinchi qonuni matematik ifodasini keltirib chiqarsa bo'ladi.

Bilimlarimizga asosan kg bu massani o'lchov birligi bo'lib uni  $m$  harfi bilan belgilanadi, shuningdek,  $m$  masofani o'lchov birligi bo'lib uni  $s$  harfi bilan belgilanadi,  $s$  (ya'ni soniya) vaqtini o'lchov birligi bo'lib uni  $t$  harfi bilan belgilanadi. Endi aytilganlar asosida, ya'ni kasrning suratida massa va masofani ko'paytmasi, maxrajida esa vaqtning kvadrati ifodalangan formulani yozamiz, ya'ni:

$$F = \frac{m \cdot s}{t^2} = \frac{m \cdot \frac{s}{t}}{t}$$

tasavvur hosil qilinadi. Bu erda masofa ( $s$ )ni vaqt ( $t$ )ga nisbati tezlik ekani va tezlikni vaqtning biror t oralig'ida o'zgarishi esa

$$\frac{\frac{s}{t}}{t} = \frac{\Delta V}{\Delta t} = a$$

tezlanish ekanligi ma'lum. Bundan kuch uchun odatdagи (1) formula orqali ifodalanadigan qonunni matematik ifodasi hosil qilinadi.

SHunday qilib, ba'zi bilgan yoki xotirada saqlangan ma'lumotlardan foydalanib boshqa zarur bo'lgan matematik ifoda yoki kattaliklarning o'lchov birliklarini keltirib chiqarish mumkin.

### **1.3. KATTALIKNI MA'LUM O'LCHOV BIRLIGIDAN BOSHQASIGA O'TKAZISH**

Amaliyotda ma'lum bir kattalikning turli o'lchov birliklari orasidagi o'zaro munosabatlarni bilish va bir o'lchov birligidan boshqa birlikka o'ta olish malakalarini egallash juda muhim.

SHuning bilan birga, bir qaraganda oddiy, biroq tez-tez anglashilmov-chilikka olib keladigan quyidagi tushuncha, kattalik va ularning o'lchov birliklariga alohida e'tibor berish lozim.

1) asosiy kattaliklardan biri – masofa - o'lchamligi L (qanday shart sharoitda ish ko'rileyotganligiga qarab uzunlik, balandlik, qalinlik, bo'yi, eni, tomoni, diagonali kabi masofa bilan bevosita bog'liq tushunchalar ham ishlatiladi. Astronomiyada ko'p ishlatiladigan "Astronomik birlik – A.b." va "Parsek - ps" kabilar ham masofani anglatadi).

Masofani xalqaro SI birliklar tizimidagi o'lchov birligi metr (qisqacha m) bo'lib, u masofani ifodalaydigan boshqa birliklar (millimetru – qisqacha mm, santimetr – sm, detsimetr – dm, kilometr – km, Angstrem –  $\text{\AA}$ , dyuym, fut kabi birliklar) orqali quyidagicha ifodalanadi.

$$1 \text{ m} = 1000 \text{ mm} = 10^3 \text{ mm}.$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm} = 10^2 \text{ sm}.$$

$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm} = 10^1 \text{ dm}.$$

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m} = 10^3 \text{ m}$$

$$1 \text{ } \overset{\circ}{A} = 10^{-10} \text{ m}$$

$$1 \text{ dyuym} = 2,54 \cdot 10^{-2} \text{ m} = 2,54 \text{ sm}.$$

$$1 \text{ fut} = 0,3048 \text{ m} = 30,48 \text{ sm} = 30 \text{ sm } 48 \text{ mm}$$

$$1 \text{ mm} = 10^{-3} \text{ m} = 0,001 \text{ m} = \frac{1}{1000} \text{ m}$$

$$1 \text{ sm} = 10^{-2} \text{ m} = 0,01 \text{ m} = \frac{1}{100} \text{ m}$$

$$1 \text{ dm} = 10^{-1} \text{ m} = 0,1 \text{ m} = \frac{1}{10} \text{ m}$$

$$1 \text{ m} = 10^{-3} \text{ km} = 0,001 \text{ km} = \frac{1}{1000} \text{ km}$$

2) biror sirtning yuzasi (yoki yuzi ham deb ishlataladi) o'lchamligi  $L^2$  (jismning yon va to'la sirti kabi tushunchalar ham ishlataladi). YUzani xalqaro SI birliklar tizimidagi o'lchov birligi metr<sup>2</sup> (qisqacha  $m^2$  - metr kvadrat deb o'qiladi) bo'lib, hayotda bundan tashqari  $dm^2$ ,  $mm^2$ ,  $sm^2$ ,  $km^2$ , barn, hektar (*ga*), *ar*, "sotix" kabi birliklari keng ishlataladi.

$$1 \text{ m}^2 = (10 \text{ dm})^2 = 100 \text{ dm}^2.$$

$$1 \text{ m}^2 = (100 \text{ sm})^2 = 10000 \text{ sm}^2.$$

$$1 \text{ m}^2 = (1000 \text{ mm})^2 = 1000000 \text{ mm}^2$$

$$1 \text{ km}^2 = (1000 \text{ m})^2 = 1000000 \text{ m}^2$$

$$1 \text{ barn} = 10^{-14} \text{ m}^2$$

$$1 \text{ ga} = (100 \text{ m} \times 100 \text{ m}) = 10000 \text{ m}^2 = 100 \text{ ar}$$

$$1 \text{ ar} = 1000 \text{ m}^2$$

$$1 \text{ sotix} = (10 \text{ m} \times 10 \text{ m}) = 100 \text{ m}^2$$

$$1 \text{ dm}^2 = (10^{-1} \text{ m})^2 = 0,01 \text{ m}^2 = \frac{1}{100} \text{ m}^2$$

$$1 \text{ sm}^2 = (10^{-2} \text{ m})^2 = 10^{-4} \text{ m}^2 = 0,0001 \text{ m}^2 = \frac{1}{10000} \text{ m}^2$$

$$1 \text{ mm}^2 = (10^{-3} \text{ m})^2 = 10^{-6} \text{ m}^2 = 0,000001 \text{ m}^2 = \frac{1}{1000000} \text{ m}^2$$

$$1 \text{ m}^2 = 10^{14} \text{ barn}$$

$$1 \text{ m}^2 = 0,0001 \text{ ga} = 10^{-4} \text{ ga} = \frac{1}{10000} \text{ ga}$$

$$1 \text{ m}^2 = 0,01 \text{ sotix} = 10^{-2} \text{ sotix} = \frac{1}{100} \text{ sotix}$$

3) biror jism yoki ob'ektning hajmi. O'lchamligi l<sup>3</sup>. Hajmni xalqaro SI birliklar tizimidagi o'lchov birligi metr<sup>3</sup> (qisqacha m<sup>3</sup> - metr kub deb o'qiladi) bo'lib, hayotda bundan tashqari dm<sup>3</sup>, mm<sup>3</sup>, sm<sup>3</sup>, km<sup>3</sup>, litr, (Xalqaro munosabatlarda) barel kabi birliklari keng ishlataladi.

$$1 \text{ m}^3 = (10 \text{ dm})^3 = 1000 \text{ dm}^3 = 10^3 \text{ dm}^3$$

$$1 \text{ m}^3 = (100 \text{ sm})^3 = 1000000 \text{ sm}^3 = 10^6 \text{ sm}^3$$

$$1 \text{ m}^3 = (1000 \text{ mm})^3 = 1000000000 \text{ mm}^2 = 10^9 \text{ mm}^3$$

$$1 \text{ km}^3 = (1000 \text{ m})^3 = 1000000000 \text{ m}^3 = 10^9 \text{ m}^3$$

$$1 \text{ m}^3 = 1000 \text{ litr} = 10^3 \text{ litr}$$

$$1 \text{ l} = 1 \text{ dm}^3 = 0,001 \text{ m}^3 = \frac{1}{1000} \text{ m}^3$$

$$1 \text{ barrel} = 158 \text{ l.}$$

$$1 \text{ dm}^3 = (10^{-1} \text{ m})^3 = 0,001 \text{ m}^3 = \frac{1}{1000} \text{ m}^3$$

$$1 \text{ sm}^3 = (10^{-2} \text{ m})^3 = 10^{-6} \text{ m}^3 = 0,000001 \text{ m}^3 = \frac{1}{1000000} \text{ m}^3$$

Endi kattaliklarning bir o'lchov birligidan boshqasiga o'tishga oid misollarni qarab chiqamiz va eng oddiy misoldan boshlaymiz.

1-misol. Tezlikning 180  $\frac{\text{km}}{\text{soat}}$  birligidan  $\frac{\text{m}}{\text{s}}$  birliklariga o'ting. Buning uchun misolni 180  $\frac{\text{km}}{\text{soat}}$  shartidagi km ni m orqali soatni s (ya'ni soniya) orqali ifodalash zarur.

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m},$$

$$1 \text{ soat} = 60 \text{ min} = 60 \cdot 60 \text{ s} = 3600 \text{ s}.$$

$$180 \frac{km}{soat} = 180 \cdot \frac{1000 m}{3600 s} = \frac{180 \cdot 1000 m}{3600 s} = 50 \frac{m}{s}$$

SHunday qilib,  $180 \frac{km}{soat}$  tezlik boshqa tomondan  $50 \frac{m}{s}$  tezlikning qiymatiga teng ekan. Boshqacha aytganda soatiga  $180 km$  masofani o'tib harakatlanayotgan jismning tezligi deb ifodalash bilan har soniyada  $50 m$  masofani o'tgan jism tezligi deb ifodalash bir xil ekan.

2-misol. Tezlikning  $180 \frac{km}{soat}$  birligidan  $\frac{sm}{s}$  birliklariga o'ting. Buning uchun misolni  $180 \frac{km}{soat}$  shartidagi km ni sm orqali va soatni soniya orqali ifodalash zarur.

$$1 km = 1000 m = 1000 \cdot 1000 mm = 10^6 mm = 1000000 mm,$$

$$1 soat = 60 min = 60 \cdot 60 s = 3600 s.$$

$$180 \frac{km}{soat} = 180 \cdot \frac{1000000 mm}{3600 s} = \frac{180 \cdot 1000000 mm}{3600 s} = 50000 \frac{mm}{s}$$

SHunday qilib,  $180 \frac{km}{soat}$  tezlik boshqa tomondan  $50000 \frac{mm}{s}$  tezlikning qiymatiga teng ekan. Boshqacha aytganda soatiga  $180 km$  masofani o'tib harakatlanayotgan jismning tezligi deb ifoalash bilan har soniyada  $50000 mm$  masofani o'tgan jism tezligi deb ifodalash bir xil ekan.

3-misol. Endi oldingi misollarga nisbatan teskari misolni, ya'ni tezlikning  $25 \frac{m}{s}$  birligidan  $\frac{km}{soat}$  birligiga o'tishni ko'raylik. Buning uchun misolni  $25 \frac{m}{s}$  shartidagi m ni km orqali soniyani (ya'ni s ni) soat orqali ifodalash zarur.

$$1 m = 10^{-3} km = 0,001 km = \frac{1}{1000} km$$

$$1 soat = 3600 s$$

$$1 s = \frac{1}{3600} soat$$

Olingan natijalarini misolning shartida berilgan tezlikning  $25 \frac{m}{s}$  qiymatiga keltirib qo'yamiz va soddalashtiramiz:

$$25 \frac{m}{s} = 25 \cdot \frac{1m}{1s} = \frac{\frac{1}{1000} km}{\frac{1}{3600} soat} = \frac{25 \cdot 3600}{1000} \frac{km}{soat} = 25 \cdot 3,6 \frac{km}{soat} = 90 \frac{km}{soat}$$

Demak, tezlikning ushbu misoldagi qiymatini ikki xil ifodalash mumkin :

- har soniya davomida  $25 m$  masofaga siljib harakatlanayotgan jismning tezligi,
- soatiga  $90 km$  masofani o'tib harakatlanayotgan jismning tezligi

Eng asosiy xulosa shu-ki, ushbu ifodalarning ikkalasi ham teng kuchga ega.

## XULOSA

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati sohasida tajriba o'tkazish davomida biomexanik parametrlarni o'lchash va kuzatish hamda hisoblash yo'llari bilan olingan ma'lumotlar, albatta, umumqabul qilingan tartib va amallar asosida bo'lishi kerak. Bular qatoriga, birinchi navbatda, fizik kattaliklarning o'lchov birliklari, ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan birliklar tizimlari, asosiy, hosilaviy, karrali va ulushli o'lchov birliklari, ularning birini boshqasi orqali ifodalash yoki kattalikning o'lchov birligini biridan ikkinchisiga o'tkazish va shu singarilar kiradi. SHuning bilan birga, Xalqaro SI birliklar tizimi va unga kiritilgan asosiy kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, shuningdek hosilaviy, ulushli va karrali o'lchov birliklarini bilish olingan natijalarga ishlov berish muhim ahamiyat kasb etadi.

## NAZORAT SAVOLLARI


- 1) hisoblash usullari deganda nimani tushunasiz? Bunday usullarga misollar keltiring.
- 2) biomexanikada klassik hisoblashlar usullari asosida qanday gipoteza yotadi?
- 3) tadqiqotning instrumental usullari harakatlarning qanday xarakteristikalarini to'g'ridan-to'g'ri qayd qilish uchun qo'llanadi?

- 4) Dinamikaning to'g'ri echimini bajarish tartibini ayting.
- 5) Dinamikaning teskari echimini bajarish qanday tartibda amalga oshiriladi?
- 6) SI – Xalqaro Birliklar tizimi tarkibiga nechta asosiy kattaliklar kiritilgan?
- 7) SI – Xalqaro Birliklar tizimi tarkibiga kiritilgan asosiy kattaliklarning o'lchov birliklarini ayting.
- 8) Hosilaviy o'lchov birliklarini ayting va misollar keltiring.
- 9) Karrali o'lchov birliklarini ayting va misollar keltiring.
- 10) Ulushli o'lchov birliklarini ayting va misollar keltiring.
- 11) SI tizimidan tashqari birliklarga misollar keltiring.

## **2-bob. GRAFIKLAR VA MATEMATIK MODELLAR KO'RINISHIDA IFODALANGAN MA'LUMOTLAR BO'YICHA BIOMEXANIK XARAKTERISTIKALARINI ANIQLASH**

### **2.1. Grafiklarga ishlov berish.**

Har qanday grafik katta yoki kichik ko'rgazmalilik darajasida o'r ganilayotgan jarayonni - uning miqdoriy ko'rsatkichlarini va xususiyatlarini: harakatlarning maksimumlarini, minimumlarini, harakatlanish tezligining eng katta va eng kichik o'zgarishlarini, davriyigini va shu singarilarni aks ettirishni tashkil qiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun grafik rasshifrovka (qo'l yordamida, yarim avtomatik, avtomatik) qilinadi. SHuning bilan birga, ayrim ko'rsatkichlarning qiymatlari grafikda to'g'ridan-to'g'ri o'lchash yo'li bilan aniqlanadi, boshqalari esa hisoblanadi (xususan, ko'rsatkichning o'zgarish tezligi). O'lchash grafikdagi amplitudalarni kalibrланuvchi signalning amplitudasi bilan solishtirishdan tashkil topgan bo'ladi (3-rasm). Jarayonning davomiyligi ma'lumotlar yozib borilayotgan tasma (lenta, plenka)ning tortilish tezligi bo'yicha aniqlanadi. SHunda, tasmani tortilish tezligi 50 mm/s bo'lganida grafikning 1 mm qiymati 0,02 s ga mos keladi.



**3-rasm.** a) silliqlangan (integrallangan) elektromiogramma hamda mushak tolalari kuchlanishini tez (1), oraliq (2) va sekin (3) rivojlanish ulushlariga mos maydonlar; b) kalibrovkali signal; v) bioelektrik faollilikning tasvir masshtabi.

Qandaydir bir shart-sharoitlarda mushaklar tomonidan dastlabki yon beruvchi (salbiy-manfiy) ishni bajarilishi engib o'tuvchi harakatning quvvatini ahamiyatli darajada oshiradi. SHuning uchun mushaklarning aralash rejimli ish bajarilishini tadqiqot qilinishida grafiklarning yon beruvchi harakatlarga mos keluvchi qismlarini inobatga olish (tahlil qilish) maqsadga muvofiq. Bu mushaklar va pay (reakтив kuch)larning harakatlarni bajarishda elastik deformatsiya kuchlarining hissasi to'g'risida ma'lumotlarni berishi mumkin.

Demak, biomexanik jarayonlarni majmuaviy qayd qilish materiallari bo'yicha mushaklarning uyg'onishi (zo'riqishi) va bo'shashishi jarayonlarining lokallanishi, shuningdek harakatlar chegaralaridaga kuchlanishlarini lokallanishi aniqlanishi mumkin (1-rasm). SHu asosda harakatni bajarilishida faol va reaktiv kuchlarning nisbati to'g'risida, ya'ni uning biomexanik strukturasi xulosa chiqarish mumkin.

Grafiklarni tahlil qilish faqatgina qayd qilingan jarayon haqida ma'lumotlar berish bilan cheklanmasligi mumkin. Integrallangan elektromiogrammadan mushaklardagi uyg'onishda vujudga keladigan mexanik hodisalarning (kuchlanish, og'irlik) ekvivalenti sifatida foydalanimishi mumkin.

Silliqlangan elektromiogramma bo'yicha kuchlanishni rivojlanishidagi tezkor, oraliq va sekin mushak to'qimalari to'g'risida bilvosita xulosa chiqarish mumkin (3-rasm). Dinamogramma bo'yicha siljiyotgan ob'ekt harakat miqdorining o'zgarishi va demak o'zaro ta'sir vaqtida uning tezligi o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin:

$$F \cdot t = m \cdot \Delta V, \quad (1)$$


bunda  $F \cdot t$  - kuch impul'si bo'lib, u son jihatidan «kuch - vaqt» egri chiziq ostidagi maydonga teng,  $m$  - siljiyotgan jismning massasi,  $\Delta V$  - o'zaro ta'sir vaqtida jism tezligini o'zgarishi. Ko'rib turibmiz-ki, grafikni qayta ishslashda ba'zan uning maydonini aniqlashga to'g'ri keladi.

Buning uchun egri chiziq ostidagi umumiy maydon yuzasi kichik bo'lган maydonli figuralarga (uchburchak, to'g'ri burchakli to'rtburchak va shu singarilar) bo'linadi, keyin ularning maydonlari hisoblanadi va yig'indisi olinadi. Qo'lда qayta ishlanganda grafikning umumiy maydonini tomonlarining kattaligi ( $a$ ) grafikning o'lchamlari va shaklidan, tadqiqot vazifalaridan va tadqiqotchi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadigan o'zaro teng kvadratlarga bo'linadi. Grafikni ustiga qo'yiladigan shaffof trafaretdan foydalanish mumkin, u qulay va ishni osonlashtiradi.

Har qanday holda ham keyin maydonni o'lchanayotgan jarayon birliklariga o'tish - grafikning birlik maydoni ( $a^2$ )da qancha miqdordagi o'lchanayotgan kattalik mavjudligini hisoblash kerak. O'lchanayotgan kattalikni o'tkazish koefitsienti ( $k$ ) (2) - formula bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$k = X \cdot Y \cdot a^2 / (x \cdot y), \quad (2)$$

bunda  $Y$  - qayd qilinayotgan jarayonning kattaligi (amplitudasi),  $X$  - uning davomiyligi,  $x, y$  - esa  $X$  va  $Y$  o'qlari bo'yicha mos masofalar (4-rasm).



4-rasm. «  $F$ - $t$  » grafik bo'yicha impul'sni hisoblab topishni namoyish etilishi.

## 2.2. Matematik modellardan foydalanib pedagogik - biomexanik nazorat qilish xususiyatlari.

Model' - ma'lum sathda (darajada) jarayonning borishi bilan bog'liq bo'lган (hattoki uni ta'minlashga xizmat qiladigan) parametrlar to'plami. Matematik modellar, odatda, tajriba (eksperimental) tadqiqotlarda olingan materiallarni statistik qayta ishlash natijalari bo'ladi tenglamalar, grafiklar va shu singarilardan tashkil topgan bo'ladi.

Insonning tanasi, uning harakatlantiruvchi faoliyati biomexanik tizimni tashkil qiladi. Tizimning atributi (atribut - narsalarning, hodisalarning ajralmas qismi, xususiyati) - tizimning elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (aloqa)ni mavjudligi. Bu aloqalar funktsional yoki korrelyatsion bo'lishi mumkin. Funktsional bog'lanish bo'lган holda bir alomatning bitta qiymatiga ikkinchi alomatning aniq belgilangan qiymati mos keladi (4-rasm). Masalan, nuqtaning burchak tezligi ( $\omega$ )ning aynan bitta

qiymatida uning bir qiymatli chiziqli tezligi ( $V$ ) aylanish o'qigacha bo'lган masofa ( $r$ ) bilan aniqlanadi:

$$V = \omega \cdot r .$$

Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlarda korrelyatsion bog'lanishlar ko'proq uchraydi va bu hollarda bir o'zgaruvchining bitta qiymatiga ikkinchi o'zgaruvchining bir nechta qiymatlari mos keladi.

Va birinchi o'zgaruvchining son qiymati o'zgarishi bilan ikkinchi o'zgaruvchi taqsimoti qatori joylashishida ham qonuniyatli o'zgarishlar sodir bo'ladi. CHunonchi, bo'yi bir xil bo'lган odamlar turli kattalikdagi vaznlarga ega bo'lishlari mumkin, biroq o'sha insonlar tanasining bo'yi o'sishi bilan uning massasi ham, odatda, ortadi.


Bunday ikki o'zgaruvchi bog'lanishining eng oddiy shakli quyidagi ko'rinishdagi ifoda

$$Y = a + b X \pm S_{yx}$$

hisoblanadi. Bundagi parametr  $a$  (boslang'ich paytdagi ordinata) grafik ravishda bir bo'lak (kesma) ko'rinishiga ega bo'ladi va uni regressiya chizig'i  $Y$  ordinata o'qida  $X=0$  bo'lganda kesib o'tadi.

Parametr  $b$  (regressiya koeffitsienti) agar  $X$  bir birlikka ortsa  $Y$  kattalik o'rta hisobda qanchaga o'zgarishini ko'rsatadi. Regressiya koeffitsienti regressiya chizig'i bilan abstsissa o'qi orasidagi burchakning tangensiga teng.

$S_{yx}$  (regressiya tenglamasining standart xatoligi)  $Y$  kattalik son qiymatlari hammasining taxminan 68,3 % i joylashishi kerak bo'lган sohani ko'rsatadi (5-rasm).



**5-rasm.**  $Y = a + bX \pm S_{yx}$  bog'lanishni grafik ifodalanishi

Ikkita alomat orasidagi kuchli (zich) bog'lanish ta'siri darajasiga bu bog'lanishga tajribada inobatga olinmagan argumentlarni ta'siriga bog'liq. Ularni hodisaming manzarasini aniqlashtrish (yanada aniqroq model' yaratish) uchun tahlil qilishga kiritish mumkin. Bunday holda regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

$$Y = \mathbf{a} + \mathbf{b}_1 x_1 + \mathbf{b}_2 x_2 + \dots + \mathbf{b}_n x_n.$$

Bunday tenglamaning koeffitsientlarini oddiy mikrokal'kulyator yordamida hisoblash jarayoni hattoki o'zgaruvchilar soni uncha ko'p bo'lmasan (4-5 ta) holda ham o'ta sermehnat bo'ladi. Buning hisobiga esa aniq (korrekt) ishlab chiqilgan matematik modellardan foydalanish orqali o'quv-trenirovka jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Masalan,  $\mathbf{b}$  – koeffitsientlarning son qiymatlari asosida son qiymatlarini yaxshilanganda musobaqa mashqlari natajalarida eng katta o'sish beradigan ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin.

Matematik modellardan foydalanish bilan aniq (konkret) ijrochi texnikasining amalga oshirilish (realizatsion) samaradorligini - shug'ullanuvchining jismoniy va texnik tayyorlanganlik darajasi nisbatini ishonchli holda aniqlash mumkin. Ana shunday yo'l bilan yadroni uloqtirish bo'yicha sport natijasi ( $Y$ ) bilan yotgan holda shtangani ko'tarib – tushirish (jim  $x_1$ ), elkada shtanga bilan o'tirib – turishlar ( $x_2$ ), joyida turib yadroni uloqtirish ( $x_3$ ), joyida turib yuqoriga sakrash ( $x_4$ ), boshi uzra yadroni uloqtirish ( $x_5$ ) natijalari orasidagi bog'lanish aniqlangan:

$$Y_1 = 7,455 + 0,010 x_1 + 0,028 x_2, \quad (3)$$

$$Y_2 = 0,252 + 0,953 x_3 + 0,023 x_4 - 0,0001 x_5. \quad (4)$$

SHuning bilan birga, texnik tayyorlanganlik mezon sifatida yadro uloqtirishdagi haqiqiy va hisoblab topilgan natijalarning farqidan foydalangan holda baholanadi (1-jadval).

#### *1 - jadval*

YAdroni uloqtirish texnikasining samaradorligini baholash

$Y_{\text{haqiqiy.}} - Y_{\text{hisoblash}}$	$>1,65 \text{ m}$	$0-1,65 \text{ m}$	$0- 1,65 \text{ m}$	$< -1,65 \text{ m}$
samaradorlik	a'lo	yaxshi	o'rtacha	yomon

Matematik modellardan foydalanib sportda bashorat qilishni va saralashni optimallashtirish mumkin. Masalan, yosh sportchilarning keljakdagi bo'yi (tana uzunligi)ni otasini ( $l_e$ ) va onasini ( $l_a$ ) bo'yi quyidagi tenglamalar asosida aniqlash mumkin:

$$\text{O'g'il bolaning kelgusidagi bo'yini o'sishi} = (l_e + 1,08 l_a) / 2, \quad (5)$$

$$\text{Qiz bolaning kelgusidagi bo'yini o'sishi} = (l_a + 0,923 l_e) / 2. \quad (6)$$

Biomexanik tadqiqotlarda matematik modellar insonning tanasi massasi geometriyasining ayrim ko'rsatkichlarini, masalan tananing umumiyligini og'irlik massa markazini (UOMM), aniqlash uchun qo'llanishi mumkin. Xususan, V.N. Seluyanov ma'lumotlariga ko'ra, erlar uchun yotgan asosiy stoyka holatida:

$$Y_{OMM} = 11,066 + 0,675 x_1 - 0,173 x_2 - 0,299 x_3, \quad (7)$$

bunda  $x_1$  – tik turgan holatdagi bo'yisi,  $x_2$  - boldir aylanasi uzunligi,  $x_3$  - bo'yini minus oyoq uzunligi.

L.P. Raytsina (1976) ma'lumotlariga ko'ra ayollarda:

$$Y_{OMM} = -4,667 + 0,289 x_1 + 0,383 x_2 + 0,301 x_3, \quad (8)$$

bunda  $x_1$  - oyoq uzunligi,  $x_2$  - yotgan holatdagi bo'yisi,  $x_3$  - tos kengligi.

## XULOSALAR

Grafik o'r ganilayotgan jarayonni - uning miqdoriy ko'rsatkichlarini va xususiyatlarini: harakatlarning maksimumlarini, minimumlarini, harakatlanish tezligining eng katta va eng kichik o'zgarishlarini, davriyilagini va shu singarilarni aks ettirishni tashkil qiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun grafik rasshifrovka (qo'l yordamida, yarim avtomatik, avtomatik) qilinadi.

Grafiklarni tahlil qilish faqatgina qayd qilingan jarayon haqida ma'lumotlar berish bilan cheklanmasligi mumkin. Integrallangan elektromiogrammadan mushaklardagi uyg'onishda vujudga keladigan mexanik hodisalarining (kuchlanish, og'irlik) ekvivalenti sifatida foydalaniishi mumkin. Silliqlangan elektromiogramma bo'yicha kuchlanishni rivojlanishidagi tezkor, oraliq va sekin mushak to'qimalari to'g'risida bilvosita xulosa chiqarish mumkin

Model' - ma'lum sathda (darajada) jarayonning borishi bilan bog'liq bo'lган (hattoki uni ta'minlashga xizmat qiladigan) parametrlar to'plami. Matematik modellardan foydalanish bilan aniq (konkret) ijrochi texnikasining amalga oshirilish (realizatsion) samaradorligini - shug'ullanuvchining jismoniy va texnik tayyorlanganlik darjasini nisbatini ishonchli holda aniqlash mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1) Har qanday grafik o'rganilayotgan jarayonni qanday ifodalanishiga xizmat qiladi?
- 2) Elektromiogramma nimalar to'g'risida bilvosita xulosa chiqarish imkonini beradi?
- 3) Model' deganda nimani tushunasiz?
- 4) Model' qanday parametrlar to'plamidan iborat bo'ladi?
- 5) Jismoniy tarbiya va sportda modellarni rolini aytинг.
- 6) Sport sohasida yuqori yutuqlarni bashorat qilishda modellardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikringiz qanday?
- 7) Matematik modellardan foydalanib sportda bashorat qilishga misollar keltiring.

## **BIOMEXANIK XARAKTERISTIKALARINI FOTOKINOMATERIALLAR ASOSIDA ANIQLASH**

Foto-, kino-, videos' emkalarning tashkil qilinishiga qo'yiladigan texnik talablarga rioya qilgan holda olingan materiallar bo'yicha sport texnikasini miqdoriy tahlil qilish uchun bir qancha biomexanik xarakteristikalarini aniqlash mumkin.


Oddiy fotografiya yoki kinotasmaning kadri rasmga olish tekisligida: tana massasining geometriyasini, og'irlik kuchi momentlarini va biomexanik tizimning inertsiya momentlarini, tana o'qining orientatsiyasini, bo'g'im burchaklarini, tana turg'unligining mexanik mezonlarini, skelet va nafas olish muskulaturasini faoliyat ko'rsatish shartlarini aniqlash uchun hujjat hisoblanadi.

Tana vaziyat (poza)lari seriyasini tahlil qilish xuddi o'sha xarakteristikalarini vaqt o'tib borishi bilan kuzatib borishdan tashkil topgan. SHunday qilib, tanlangan nuqtalarning va butun jismning harakatlari qonunlari, tana vaziyat (poza)sini o'zgarishi, boshqaruvchi kuchlar va kuch momentlari aniqlanadi.

Biomexanik tahlil uchun kadrni tayyorlash quyidagilardan iborat bo'ladi. Tananing 14 zvenoli sxemasini tuzishda (6-rasm) tasvirda tanani **tayanch nuqtalari** - boshning va qo'l panjalarining og'irlik markazlari, bo'g'imlar markazlari belgilanadi.

Keyin tana zvenolarining bo'ylama o'qlari chizib chiqiladi. Qaysi bir tana vaziyati (pozasi) tahlil qilinishidan qat'iy nazar, elkalar o'qlari o'rtasi bilan tosni birlashtiradigan to'g'ri chiziq gavdaning o'qi hisoblanadi.

Biomexanik tadqiqotlarda inson tanasining bundan ham mukammal (batafsil)roq modellaridan, masalan tana vaziyati (poza)ning dasturini aniqlashda, foydalanish mumkin. Biroq, tasvirlarning tadbiqiy biomexanik tahlilini o'tkazish uchun inson tanasining 14 zvenoli sxemasidan foydalanish eng qulay.



**6-rasm.** Inson gavdasining 14 zvenoli sxemasi.

$g_s$  - boshning,  $g_m$  - qo'llarning og'irlilik markazlari.  $b$  - yelka,  $a$  - tirsak,  $m$  - bilak-bilakuzuk,  $f$  - tos-son,  $s$  - tizza,  $p$  - boldir-tovon bo'g'imlarining markazlari.  $d$  - oyoqning barmoqlarini uchi.

Tasvirning aniq (korrekt) va imkon qadar batafsil biomexanik tahlilini amalga oshirish mumkin, agar uning ( $M$ ) masshtabi ma'lum bo'lsa. Ob'ektning ( $L$ ) o'lchamlarini ularning tasvirdagi mos o'lchamlari ( $l$ ) bilan solishtirib masshtabni taxminan aniqlash mumkin:

$$M = l / L \quad (9)$$

Kinogrammalarni tahlil qilishda, shuningdek harakatning davom etgan vaqtini ( $t$ )ni aniqlash uchun kinos'emka chastotasini ( $\gamma$ ) ham bilish kerak:

$$t = \beta / \gamma, \quad (10)$$

bund  $\beta$  - tahlil qilinayotgan kadrlar orasidagi intervallar soni (ularning tartib raqamlari (nomerlari)ni farqi).

Bundan tashqari, kinogrammaning o'zi tadqiqot ob'ektining fazodagi siljishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirishi yoki har bir kadrda qo'zg'almas mo'ljal (orientir)lar bo'lishi kerak.

Faqat mana shu shartlarning hammasi bajarilganida promer (kinotsiklogramma)ni - ma'lum masshtabda o'lchashlar uchun yaroqli ko'rinishda bajarilgan harakatning fazoviy-vaqt diagrammasini yaratish mumkin (promer - ...ni o'lhash uchun harakatlar to'plami; ...ning rel'efini va xarakterini aniqlash). Ilmiy tahlillar qilish uchun 1:4, 1:5 masshtablarda bajarilgan promerlardan foydalaniladi. O'quv maqsadlari uchun 1:10, 1:15, 1:20 masshtablarda bajarilgan promerlar yaroqli hisoblanadi.

Foto-kinomateriallarni biomexanik tahlil qilish tana massasining geometriyasini to'g'risidagi statistik ma'lumotlardan foydalanishga asoslanadi. Bu ma'lumotlar tana segmentlari vaznlari bilan insonning butun tanasi vazni orasidagi; segmentlar uzunligi bilan ularning og'irlik markazlari orasidagi chiziqli bog'lanishni tavsif (xarakter)laydigan jadvallar ko'rinishida shakllantirilishi mumkin. Bu chiziqli regressiya tenglamasidan tashqari tananining segmentlari massalari bilan inson tanasining massasi va uzunligi orasidagi bog'lanishni tavsiflaydigan tenglamalar ham mavjud. Hamma hollarda ham bir-biriga o'xshash natijalar olinadi. SHuning uchun inson tanasi massasining geometriyasini ko'rsatkichlarini hisoblab topish usuli faqat tadqiqotchining ixtiyorida mavjud bo'lgan hisoblash texnikasining imkoniyatlariiga bog'liq, xolos.

24 k/s (boshqacha aytganda sekundiga 24 kadr o'tadigan) chastota bilan oddiy sharoitlarda suratga olingan kinogrammalarni tahlil qilishda tananining nuqtalarini lokallashtirish va siljishi to'g'risida hamda, uning ustiga, harakatlarning dinamik xarakteristikalarini to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni olish qiyinligini esda saqlab turish kerak. Solishtirish uchun, kino usuli (pretsizion yuqori tezlikdagi tortishi  $\pm 1$  kadr aniqlik, kinos'emka chastotasi 500 k/s va komp'yuterlashgan analizatorli kinokamerani qo'llanishi bilan) maxsus tashkil qilingan sharoitlarda

siljishlarni o'lchashlari uchun 0,005 m; tezliklari uchun - 0,1 m/s; tezlanishlar uchun esa  $6 \text{ m/s}^2$  absolyut xatolik beradi (pretsizion – aniqlik bilan yoki parametrlarning yuksak aniqligiga rioya qilingan holda yaratilgan; yuqori aniqlikli uskuna).

Biomexanikada boshqariladigan jismlar mexanikasi nuqtai nazaridan kelib chiqib harakatlarni o'rganish yo'nalishi yaxshi ishlab chiqilgan. Sport biomexanikasida bu yondashish «jismoniy mashqlarda tana holatini aniqlash dasturi» nomini olgan. Bu yondashishdan sportchi tanasining fazodagi holati tananing UOM (umumi og'irlik markazi) koordinatalari, tananing xususiy o'qlari va tana vaziyati (poza) orientatsiyasi orqali tavsiflanishi kelib chiqadi.

Jismoniy mashqlar tadqiqotining har biri ham tananing holati to'liq dasturini aniqlashni talab qilmaydi. Bundan tashqari, harakatlarni tadqiq qilishning boshqa usullari, masalan, mashqlarning fazoviy tarkibini ko'rgazmali ko'rinishda tasavvur qilish usuli – xronogrammani qurish yoki uloqtirishlarda harakat miqdorini uzatilishini o'rganish uchun kinematik grafiklarni chizish usuli ham mavjud.

### **3.1. Joy dasturini aniqlash.**

***Joy dasturi*** - jismoniy mashqlarda butun tanani siljishiga qo'yiladigan talablar.

Uni bilish fazoda vaqtning ixtiyoriy momentida tananing UOMni aniqlash imkonini beradi. Joy dasturini empirik (faqat tajribaga asoslanib) aniqlash va «yo'l – vaqt» grafik ko'rinishida, mazkur grafikni tavsiflovchi tenglama, tezliklar va tezlanishlar jadvallari ko'rinishida tasvirlash mumkin

***Tananing UOM*** - tanani hamma zvenolarining (segmentlarining) og'irlik kuchlarini teng ta'sir etuvchisi qo'yilgan va tasavvur qilinadigan nuqta. Tananing UOM holati faqat tajriba yo'li (eksperimental yo'l) bilan, balki Varin'on teoremasidan: biron-bir o'qqa nisbatan kuchlar yig'indisi momentiga teng bo'lgan jismga mazkur o'qqa nisbatan ta'sir ko'rsatadigan kuchlar momentlari

yig'indisidan foydalanib amalga oshiriladigan analitik yo'l bilan ham aniqlanishi mumkin. Bundan quyidagi kelib chiqadi:

$$\underline{X} = \Sigma r \cdot \underline{x} / R$$

$$\underline{Y} = \Sigma r \cdot \underline{y} / R, \quad (11)$$

bunda  $\underline{X}$  va  $\underline{Y}$  - tananing UOM koordinatalari,  $r$  - tana segmenti vazni,  $\underline{x}$  va  $\underline{y}$  - mazkur segmentning og'irlilik massasi koordinatalari,  $R$  - tana vazni.

SHunday qilib, inson tanasining UOM holatini aniqlash tananing har bir zvenosining massasini va har bir zvenoning uning o'qidagi og'irlilik markazi holatini aniqlanishiga, tana zvenolarining og'irlilik markazi koordinatlarini aniqlanishiga va, nihoyat, standart hisob - kitob ishlarini bajarilishiga olib kelinadi.

SHuningdek, tananing UOM holatini aniqlashning ***grafik - analitik usuli*** ham mavjud. U richagning muvozanati: kuchlar elkalari (d) ta'sir ko'rsatayotgan (F) kuchlarga teskari proportsionalligi shartidan foydalanishga asoslangan, ya'ni:

$$F_1 \cdot d_1 - F_2 \cdot d_2 = 0 \quad (12)$$

Bu usulning aniqligi ancha past, biroq u katta hajmdagi hisoblash ishlarini bajarishni talab qilmaydi.

***Nuqtaning tezligi*** uning fazodagi holati qanchalik tez o'zgarishini ko'rsatadi. Masalan, gorizontal ko'chish uchun:

$$V_x = (x_2 - x_1) / (t_2 - t_1) = S_x / \Delta t, \quad (13)$$

bunda  $x$  - nuqta koordinatalari,  $t$  - vaqt momentlari,  $S_x$  - nuqtaning chiziqli ko'chishi,  $\Delta t$  - ko'chish davomiyligi.

***Nuqtaning tezlanishi*** uning tezligi qanchalik tez o'zgarishini ko'rsatadi:

$$a = (V_2 - V_1) / (t_2 - t_1) = \Delta S / (\Delta t)^2, \quad (14)$$

bunda  $\Delta S$  - chiziqli ko'chishlar farqi.

Tezliklar va tezlanishlarning aniqlanishini aniqlak darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tahlil qilinayotgan ko'chishlarning kattaligi shunchalik kichik bo'ladi.

Promer bilan ishlashda fazoviy xarakteristikalarining (o'lchamlar, ko'chishlarning) haqiqiy kattaliklarini aniqlash uchun o'lchashning (mm da ifodalangan) natijasini promer masshtabiga teskari bo'lган ( $\alpha$ ) songa ko'paytiriladi va millimetrlardan metrga o'tish uchun 1000 ga bo'linadi. SHuning bilan birga, vaqt xarakteristikalarini (8) - formula bo'yicha aniqlanadi. Demak, (10) va (11) - ifodalar quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V = (\gamma \cdot \alpha / \beta \cdot 1000) \cdot S \quad (15)$$

$$a = (\gamma^2 \cdot \alpha / \beta^2 \cdot 1000) \cdot \Delta S \quad (16)$$

Ko'chishlar, tezliklar, tezlanishlar, kuchlar va boshqa bir nechta mexanik xarakteristikalar vektor ko'rinishida tasvirlanishi mumkin. Vektorlar kattaligi (moduli), yo'nalishi va ta'sir ko'rsatayotgan nuqtasi bilan tavsiflanadi (xarakterlanadi). Tezlik vektori yo'nalishi bo'yicha ko'chish vektorining yo'nalishi bilan, kuch vektori esa - tezlanish vektori bilan mos tushadi.

### 3.2. Mo'ljal (orientatsiya) dasturini aniqlash

*Mo'ljal (orientatsiya) dasturi* – jismoniy mashqlarni bajarish jarayonidagi butun jismning aylanishiga qo'yiladigan talablar. Bu dasturni bilish jism o'qlarining ixtiyoriy vaqt momentidagi mo'ljali (orientatsiyasi)ni aniqlash imkonini beradi. Joy dasturi singari mo'ljal (orientatsiya) dasturi empirik yo'l bilan ham aniqlanishi va «burchak-vaqt» grafigi, mazkur grafikni tavsiflaydigan

tenglama, jism o'qlarining burchak tezliklari va tezlanishlari jadvallari ko'rinishida tasvirlanishi mumkin.

Biomexanikada jismning aylanish o'qini aniqlash usuli anatomiyada qabul qilingan insonning aylanish o'qini aniqlash usulidan bir muncha farq qiladi.

Bo'ylama (OY) o'q tananing yuqori va pastki qismlarining markazlari hamda, mos ravishda, tananing UOM orqali o'tadigan to'g'ri chiziq hisoblanadi.

Tananing bo'ylama o'qiga perpendikulyar holda UOM orqali ko'ndalang (OZ) va old-orqa (OX) o'qlari o'tadi. SHuning bilan birga, OX o'jni tos simmetriyasi tekisligida yotishi shart emas, biroq ular doimo o'zaro parallel bo'ladi.

SHunday qilib, tananing xususiy o'qlari u bilan bir joyda siljimaydigan, mustahkam emas, balki siljiydigan holda bog'liq. Rasmida o'qlar strelkalar bilan belgilangan. Ularning yo'nalishlari: OY - oyoqlardan boshga tomon, OX - elkadan qoringa tomon, OZ - chapdan-o'ngga tomon yo'nalgan.


Tananing fazoda mo'ljali (orientatsiyasi)ni Eyler burchaklari - tananing xususiy o'qlari bilan qo'zg'almas koordinatlar tizimi o'qlari orasidagi burchaklar tavsiflaydi. Burchaklarni quyidagi tartibda tanlash tavsiya qilinadi (7 - rasm).

$\alpha$  burchak - jismning fazoda doimiy orientirlangan OZ o'qi atrofida burilish me'yori, masalan, sal'to bajarilishida.

$\beta$  burchak tananing xususiy OY o'qi atrofida burilish kattaligini tavsiflaydi (xarakterlaydi), masalan, joyida turib burilishlarida.

$\gamma$  burchak OX o'qi atrofida burilish kattaligini tavsiflaydi (xarakterlaydi), masalan, «Kon» ustida qanot qoqishlarni bajarishda. Biroq, burchakni tananing sagittal (XOY) tekisligi bilan qo'zg'almas ( $X_1OZ_1$ ) koordinatalar tizimining gorizontal tekisligi orasidagi og'ish burchagi sifatida aniqlash maqsadga muvofiqroq. Bu birdaniga qo'zg'almas koordinatalar tizimining  $OY_1$  o'qiga nisbatan OY o'jni konussimon burilishi (tsirkumduktsiyasi) to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

O'qning oxiridan kuzatilganda soat strelkasi bo'yicha burilish burchagi «-», soat strelkasiga qarama - qarshi yo'nalishdagi burilish burchagi «+» ishora bilan yoziladi.



Belgilashlar: OXYZ - jism bilan bog'langan o'qlar tizimi (jismning xususiy o'qlari). OX<sub>1</sub>Y<sub>1</sub>Z<sub>1</sub> - fazoda qo'zg'almas holda joylashgan (orientirlangan) o'qlar tizimi.  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  burchaklar to'g'risida - matnga qarang.

Jismning burchak tezligi ( $\omega$ ) jismning fazodagi mo'ljali (orientatsiya)si qanchalik tez o'zgarishini ko'rsatadi:

$$\omega = (\varphi_2 - \varphi_1) / (t_2 - t_1) = \Delta\varphi / \Delta t \quad (17)$$

bunda  $\varphi$  - burilish burchagi,  $\Delta\varphi$  - burchak siljishi,  $t$  - vaqt momenti,  $\Delta t$  - burchak siljishi davomiyligi.

Burchak tezlanishi ( $\varepsilon$ ) burchak tezlikning o'zgarish tezligini tavsiflaydi (xarakterlaydi):

$$\varepsilon = (\omega_2 - \omega_1) / (t_2 - t_1) = \Delta^* \varphi / \Delta t^2 \quad (18)$$

bunda  $\Delta^* \varphi$  – burchak siljishlari farqi.

Burchak xarakteristikalari graduslarda va radianlarda ifodalanishi mumkin. Biroq, burchak xarakteristikalardan chiziqli xarakteristikalarga o'tish uchun o'lhash natijalarini radianlarda bajarish kerak.

$$1 \text{ radian} = 57,295781^\circ;$$

$$1^\circ = 0,0174533 \text{ radian.}$$

CHiziqli tezlik va tezlanishlarni hisoblab topilgani singari burchak tezlik va tezlanishlarni ham farqlar usuliga asoslanib hisoblab topish mumkin:

$$\omega = \Delta \varphi \cdot \gamma / \beta \quad (19)$$

$$\varepsilon = \Delta^* \varphi \cdot \gamma / \beta^2 \quad (20)$$

Burchak siljishi, tezligi va tezlanishlari – vektor kattaliklardir. Vektoring absolyut qiymati ko'rsatkichning kattaligiga (son qiymatiga) teng. Vektoring yo'naliш chizig'i aylanish o'qini ko'rsatadi. Belgi yonidagi strelka aylanish yo'naliшini ko'rsatadi.

Demak, burchak xarakteristikasi vektori rasm tekisligida jarayonning yo'naliшini, bu tekislikka perpendikulyar vektor esa - kuzatuvchidan yoki undan yo'naliшni ko'rsatadi. Bu aspekt parma qoidasi bo'yicha aniqlanadi: parmaning uchi aylanish o'qi bilan, aylanish dastasining yo'naliш esa sanoq chizig'i aylanishining yo'naliш bilan mos tushsa, u holda parmaning uchining harakat yo'naliш mazkur jarayon vektorining yo'naliш bilan mos tushadi.

Jismning tezlanuvchan aylanishida burchak aylanish vektori burchak tezlik vektori yo'naliш bilan bir xil yo'naliшda bo'ladi. Sekinlanuvchan aylanishda – teskari tomonga yo'nalgan bo'ladi.

### **3.3. Gavdaning vaziyati (pozasi) o'zgarishi dasturini aniqlash**

Gavda vaziyati (pozasi)ni o'zgarishi - bu bo'g'imlar burchaklarining ma'lum o'zgarishlari. Bunday o'zgarishlar tufayli inson maqsadga yo'nalgan holda harakatlanadi. Demak, bo'g'imlar burchaklarining o'zgarish tezlik va tezlanishlari yaxlit harakatlarga nisbatan boshqaruvchilik funktsiyasini bajaradilar.

Umumiy holda, bosh va tuzatish kirituvchi boshqaruvchi harakatlar o'zaro farq qilinadi. Ularning birinchisi aniq bir mashqni har safargi bajarishda zarur. Ikkinchisisiz ham, umuman olganda, bajarsa bo'ladi, biroq ular mashqlarni ijrosini engillashtiradi, uning ko'rish orqali qabul qilishni kuchaytiradilar va shu singarilar. SHuningdek, shovqinli harakatlarni ham ajratadilar, ular harakatlantiruvchi ta'sir mexanikasiga ta'sir ko'rsatmaydilar, biroq ularidan qutulish juda ham qiyin yoki buni iloji yo'q.

*Gavda vaziyati (pozasi) dasturi* - harakatlanish amalini bajarishda tana bo'laklarining holatlarining o'zgarishiga qo'yiladigan talablar. Mazkur dastur, yuqorida qarab chiqilgan dasturlar singari, empirik yo'l bilan aniqlanishi va ko'rakm (chiroyli ko'rindigan) shaklda (promer, xronogramma) yoki matematik ifoda (bo'g'im burchaklari, tezliklari matritsasi) shaklida ifodalanishi mumkin.


Xronogramma (harakatlanish amali (ta'siri) fazalarining diagrammasi) ustivorlik bilan (yoki asosan) harakatlanish ta'sir koordinatsion strukturasini sifat jihatidag tahlil qilish uchun material beradi (8-rasm). Xronogramma harakatlanish ta'sirining (amalining) (harakatlanish ritmining) nisbatini ko'rgazmali holatda tasvirlashi bilan qulay, shuningdek harakatlar guruhlari va qatorlarining mavjudligini, ya'ni bir vaqtda va ketma ket bajariladigan harakatlarni ko'rsatadi.

Gavda vaziyati (pozasi)ni indeksli yozish (qayd qilish) va uning o'zgarishlari ko'z (ko'rish) orqali qabul qilish uchun noqulay. Biroq, u jarayonning aniq miqdoriy tavsifini beradi va uni hisoblash texnikasidan foydalanib tahlil qilish imkonini yaratadi.

Таянчсиз давр 0,292 с		Таянчли давр 0,125 с		Таянчсиз давр 0,208	
Амортизация фазаси		0,083 с	0,042 с	Депсиниш фазаси	
Сонларни ажратиш 0,083 с	Сонларни учрашиши 0,208 с	Сонларни ажратиш 0,208 с		Сонларни учрашиши 0,125 с	
кадр № 0	2	7		12	0
t, с 0	0,08	0,29		0,50	0

8-rasm. YUgurishda ikkilangan qadamning chiziqli xronogrammasi

Ko'pchilik sport harakatlarini inson tanasining 14 zvenoli modelidan foydalananib tahlil qilish mumkin (6-rasm). Biroq, inson gavdasi vaziyati (pozasi)ni indeksli tavsiflash uchun ba'zi hollarda gavdani 21 zvenoli biokinematik tizim ko'rinishida tasavvur qilinadi (9-rasm).



9-rasm. Gavda vaziyati (pozasi)ni indeksli tavsiflashda inson tanasining biokinematik zanjirlarning va ularning qismlarini (V.T. Nazarov, 1984

ma'lumotlariga ko'ra) tartib raqamlari (numeratsiyasi).

Zanjirlar: 1 - o'ng oyoq, 2 - chap oyoq, 3 - o'ng qo'l, 4 - chap qo'l, 5 - bosh bilan umurtqa pog'onasi. Oyoqlarning qismlari: 1 - tos-son bo'g'imi, 2 - tizza bo'g'imi, 3 - boldir-tovon bo'g'imi, 4 - plyusnofalangoviy bo'g'im. Qo'llarning qismlari: 1 - elka bo'g'imi, 2 - tirsak bo'g'imi, 3 - bilak bo'g'imi, 4 - pyastnofalangoviy bo'g'im. Umurtqa pog'onasining qismlari: 1 - kresttsovo-

poyasnichnoe, 2 - poyasnichno-grudnoe, 3 - grudo-sheynoe. 4 - atlanto-zatyllochniy bo'g'im.

Bo'g'im harakatlari ham tartib raqamlari bilan belgilangan (numerlangan). 1 - uzoqlashtirish-keltirish (yig'ish-yoyish), 2 - rotatsiya-aylanish (supinatsiya-pronatsiya), 3 - tsirkumduktsiya (konussimon harakat).

Burchak ( $\phi$ )ni indeksli yozish (qayd qilish)da quyidagilar ketma - ket ko'rsatiladi: biokinematik zanjir, bo'g'im, harakat turi. Masalan,  $\phi_{321} = 90^\circ$  ifodasi (2) - tirsak bo'g'imidagi (3) - o'ng qo'190° ga burilishini (1) anglatadi.

Mazkur gavda vaziyati (pozasi) qayd qilingan vaqt momentini ko'rsatish uchun yuqori indekslar qo'llaniladi, masalan,  $\phi_{321}^{0,5} = 90^\circ$  - tirsak bo'g'imida o'ng qo'lni yig'ish kuzatish boshlangandan 0,5 s o'tganidan keyin sodir bo'ldi. Biroq, bu vaqt momentini ( $t = 0$ ) belgilamaydilar.

Amaliyotda qaralayotgan to'plamning mumkin bo'lган elementlardan birontasi to'g'risida gpirilayotganligini anglatishini ko'rsatishini qayd qiladigan (ingliz alfavitidagi a dan h gacha oraliqdagi harflar) qayd qiluvchi indekslar; hamma mumkin bo'lган elementlarning qatori ketma-ketligini ko'rsatuvchi va o'qlar, koordinatlar, tezliklar va shu singarilarni belgilovchi maxsus sijuvchan ( $t$  dan  $z$  gacha)o'zaro farqlanadi. Maxsus indekslar har bir aniq (konkret) holda eslatib o'tiladi.

Mazkur usul boshqa ob'ektlarni ham tavsiflashda qo'llanishi mumkin. Masalan,  $Z_{41}$  - to'rtinchи zanjirning birinchi zvenosi, ya'ni chap elka.  $V_{32}$  - o'ng bilakning tezligi (predplech'e bilak).

Bo'g'im burchaklarini aniqlashning umumiyligi qoidalari 2- ilovada keltirilgan bo'lib, quyida esa zaruriy minimum bayon etilgan.

1. Asosiy stoyka holatida hamma bo'g'im burchaklar gulga teng deb hisoblanadi.

2. Burchaklarni o'lchash tartibi biokinematik zanjirlarning hadlarini tartib raqamlari (numeratsiyasi)ga mos keladi.

3. Zvenolar orasidagi burchak emas, balki distal zveno xususiy o'qini proksimal zveno xususiy o'qiga nisbatan burilish burchagi o'lchanadi. Elka va son uchun umurtqa pog'onasining mos bo'limi yoki gavda o'qi (tananing 14 zvenoli sxemasidan foydalanishda) proksimal zveno hisoblanadi.

4. YOn omonga yo'nalishdagi 1-tipdagi harakat yo'nalishi konussimon burilish burchagini burilishini va aksincha burilishni ko'rsatilishi bilan aniqlashtirilidi. Masalan,  $\varphi_{311} = 45^\circ$  ( $\varphi_{313} = 90^\circ$ ) - o'ng qo'l pastga-yon tomonga.

Frontal tekislikdagi egilishda yashirinmagan (neiskajennye) bo'g'im burchaklari ko'krak tomondan ko'rindi, sagittal tekislikda esa u - o'ng tomondan ko'rindi.

Harakatlar ko'p bo'g'irlarda bajariladigan hollarda gavda vaziyati (pozasi) matritsali tavsiflanishi qo'llanadi (10-rasm).

$$\Phi_{ikl} = \begin{vmatrix} \varphi_{11} & \varphi_{12} & \varphi_{13} & \varphi_{14} \\ \varphi_{21} & \varphi_{22} & \varphi_{23} & \varphi_{24} \\ \varphi_{31} & \varphi_{32} & \varphi_{33} & \varphi_{34} \\ \varphi_{41} & \varphi_{42} & \varphi_{43} & \varphi_{44} \\ \varphi_{51} & \varphi_{52} & \varphi_{53} & \varphi_{54} \end{vmatrix}^l \quad t$$

10-rasm. Tananing vaziyati (pozasi)ni tavsiflash uchun qo'llanadigan matritsa.

Satrlar - kinematik zanjirlar. Ustunlar - zanjirlarning hadlari (bo'laklari).

Umumiy holda, tananing gavda vaziyati (pozasi)ni tavsiflashda hamma tipdagi harakatlar natijasida vujudga keladigan burchaklar matritsasidan foydalanish kerak. Biroq, agar biron-bir tipdagi bo'g'im harakatlari bajarilmasa, u holda bunday burchaklarning matritsalari yozilmaydi.

O'zgaruvchan gavda vaziyati (pozasi)ni yozish uchun

$$Y = \mathbf{a} + \mathbf{b} \cdot X$$

tipidagi quyidagi oddiy chiziqli regressiya tenglamaridan foydalilanildi:

$$\varphi_{\text{avs}}^{t \rightarrow t_k} = \varphi_{\text{avs}} + \omega_{\text{avs}}^{t \rightarrow t_k} \cdot t \quad (21)$$

bunda  $\varphi_{\text{avs}}^{t \rightarrow t_k}$  – vaqtning harakatni boshlanishidan oxirigacha bo’lgan ixtiyoriy momentidagi bo’g’im burchagi,  $\varphi_{\text{avs}}$  – kuzatish boshlangan vaqt momentidagi burchak,  $\omega_{\text{avs}}^{t \rightarrow t_k}$  – kuzatish vaqtining bosh momentidan oxirgi momentigacha sodir bo’lgan mazkur harakatning o’rtacha burchak tezligi,  $t$  – bo’g’im burchagi aniqlanadigan vaqt momenti.

Bitta bo’g’im burchagi tezligi o’rniga burchak tezliklar matritsasi yozilishi mumkin va (18) formula quyidagi ko’rinishga keladi:

$$\varphi_{ikc}^{t \rightarrow t_k} = \varphi_{ikc} + \left\{ \begin{array}{|ccccc} \hline & \omega_{11} & \omega_{12} & \omega_{13} & \omega_{14} \\ & \omega_{21} & \omega_{22} & \omega_{23} & \omega_{24} \\ & \omega_{31} & \omega_{32} & \omega_{33} & \omega_{34} \\ & \omega_{41} & \omega_{42} & \omega_{43} & \omega_{44} \\ \hline & \omega_{51} & \omega_{52} & \omega_{53} & \omega_{54} \\ \hline \end{array} \right\}_{t_0 \rightarrow t_k}^t C \quad (22)$$

### 3.4. Harakatning dinamik xarakteristikalarini aniqlash

**Kuch** - jismoniy jismlarni o’zaro ta’sirining me’yordir. Massasi  $m$  bo’lgan jismga ta’sir ko’rsatayotgan  $F$  kuchning kattaligini bunday o’zaro ta’sir natijasida jism olgan  $a$  tezlanish asosida aniqlash mumkin:

$$F = m \cdot a \quad (23)$$

Biomexanikada ta’sir qiluvchi kuchlarni ichki va tashqi kuchlarga bo’lish qabul qilingan. Biroq, gavdaning holati dasturini aniqlashda ta’sir qiluvchi kuchlar

tabiiy (tashqi jismlar tomonidan ta'sir etuvchi) va boshqaruvchi (mos bo'g' imlarda mushak tortuvchi kuchlari bilan bog'liq) kuchlar sifatida qaraladi.

**Boshqaruvchi kuch** butun jismni ilgarilanma harakatini amalga oshiradi. Uning kattaligini (son qiymatini) va ta'sir ko'rsatish yo'nalishini ob'ektning haqiqiy (boshqaruvchi) harakati xarakteristikalarini uning o'zgarmas (qotib qolgan) gavda vaziyati (pozasi)da tabiiy kuchlar ta'siri ostida sodir bo'ladigan gipotetik harakati xarakteristikalarini bilan o'zaro solishtirib aniqlash mumkin.

Ob'ektning tabiiy (gipotetik) harakatini miqdoriy baholash uchun uning inertlik me'yорини, ya'ni harakat xarakterini o'zgarishiga qarshilik ko'rsata olish qobiliyatini bilih kerak. Aylanma harakat uchun **inertsiya momenti**, ilgarilanma harakat uchun esa – **ob'ekt massasi** ana shunday me'yор hisoblanadi.

N'yutonning ikkinchi qonunidagi (23-formula) - kuch *momenti* ( $M$ ), inertsiya momenti ( $J$ ) va burchak tezlanishi ( $\varepsilon$ ) orasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$M = J \varepsilon \quad (24)$$

Agar aylanish o'qi ob'ektning og'irlilik markazi orqali o'tmasa yoki umuman u bilan bog'lanmagan bo'lsa (tashqi aylanish o'qi), u holda qattiq jismning inertsiya momentini quyidagi yig'indi sifatida tasavvur qilish mumkin.

$$J = J_o + m \cdot R_{in}^2 \quad (25)$$

bunda,  $J_o$  – o''ektning tashqi o'qqa parallel bo'lган va uning umumiyligi og'irlilik markazi (UOM) orqali o'tgan o'qqa nisbatan markaziy (xususiy) inertsiya momenti;  $R_{in}$  – bu ikki o'q orasidagi masofa;  $m$  – ob'ekt massasi

Agar o'rganilayotgan ob'ekt jismlar tizimidan iborat bo'lsa, u holda uning markaziy **inertsiya momenti** ( $J_o$ ) mazkur tizimga kirgan barcha elementlarning inertsiya momentlari yig'indisiga teng bo'ladi:

$$J_{jt} = \sum J_{oi} + \sum m R_{in,i}^2 \quad (26)$$

bunda  $R_{in. i}$  – tizimning har bir elementi og’irlik markazi orqali o’tgan o’q bilan jismlar tizimi umumiyligi og’irlik markazi orqali o’tgan o’q orasidagi masofa.

Inson tanasi zvenosining markaziy inertsiya momenti kattaligini taxminan baholash uchun ushbu zvenoni bir jinsli jism deb tasavvur qilinadi va quyidagi formulalar bo'yicha hisoblab topish mumkin.

Bosh uchun:

$$J_o = m l^2 / 4 \quad (27)$$

Tananing boshqa zvenolari uchun:

$$J_o = m l^2 / 12 \quad (28)$$

bunda  $m$  - tana zvenosining massasi,  $l$  – zveno uzunligi (bosh diametri).

Inson tanasi zvenolarining markaziy inertsiya momentlarini aniqroq hisoblab topish uchun ilovadagi ma'lumotlardan foydalaniladi. SHuning bilan birga, tana zvenolarining hisoblab topilgan markaziy inertsiya momentlari yig'indisi taxminan hisoblangan natijaga nisbatan 5-6 marta kam bo'ladi. Hamma o'r ganilgan hollarda inson tanasi zvenolari markaziy inertsiya momentlari yig'indisi gavdaning to'liq inertsiya momentini ahamiyatsiz darajadagi kam qismini tashkil etadi.

Jismoniy mashqlarni tahlil qilishda butun gavdani aylanma harakatini amalga oshiradigan boshqaruvchi kuch momentlarini aniqlash muhim bo'lib qoladi. Ularning kattaliklari va yo'nalishlari dasturiy va tabiiy harakatlar xarakteristikalarini solishtirish orqali aniqlanadi. Buning uchun dinamikaning asosiy formulasidan foydalaniladi:

$$M_{tash.} = \Delta L / \Delta t, \quad (29)$$

bunda  $M_{tash.}$  - tashqi kuchlar momenti,  $\Delta L$  - jismning kinetik momenti,  $\Delta t$  – shu o'zgarish sodir bo'lgan vaqt oralig'i.

Konfiguratsiyasi o'zgarib turadigan, masalan inson gavdasi, *jismning kinetik momenti* gavda zvenolarining kinetik momentlarini - markaziy ( $L_o$ ) va sanoq nuqtasiga nisbatan zvenolarning og'irlik markazini harkati bilan bog'liq bo'lgan ( $L$ ) vektorlarning yig'indisidan iborat summa ( $L_{to\cdot la.}$ ) sifatida tasavvur qilinish mumkin:

$$L_{to\cdot la} = \sum L + \sum L_o = \sum m_i \vec{V}_i d_i + \sum \omega J_{oi}, \quad (30)$$

bunda  $m_i$  – gavdaning  $i$ - zvenosi massasi,  $\vec{V}_i$  - zveno og'irlik markazining chiziqli tezlik moduli,  $d_i$  - zvenoning sanoq nuqtasiga nisbatan harakat miqdori elkasi,  $J_{oi}$  - zvenoning markaziy inertsiya momenti,  $\omega_i$  - zvenoning burchak tezligi.

### 3.5. Harakatning energetik xarakteristikalarini aniqlash

Agar (moddiy nuqta deb qabul qilish mumkin bo'lgan) qattiq jismga ta'sir ko'rsatayotgan kuchning kattaligi o'zgarmas bo'lib qolsa, u holda bu kuchning to'g'ri chiziqli ko'chishda ( $A$ ) bajargan ishi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$A = F S \cos \alpha, \quad (31)$$

bunda  $\alpha$  - kuch vektori yo'nalishi bilan ko'chish vektori yo'nalishi orasidagi burchak.

Ko'pchilik hollarda harakatlarni bajarishda kuch doimiy bo'lib turavermaydi, balki harakatni o'zi ozmi ko'pmi egri chiziqli bo'lishi mumkin. Bunday holda kuchni bajargan ishi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$A = \Sigma F \cos\alpha dS, \quad (32)$$

bunda  $dS$  - traektoriya bo'y lab o'lchangan cheksiz kichik ko'chish.

Quvvat ( $N$ ) ishni bajarishga sarflangan vaqt bo'yicha ishni tavsif (xarakter)laydi:

$$N = A / t = F \cdot V \quad (33)$$

Kuch bajargan ishni, shuningdek jismning energiyasini o'zgarishi to'g'risidagi teoremadan foydalanib ham hisoblab topish mumkin:

$$\Delta E_k + \Delta E_p = \delta W_1 - \delta W_2, \quad (34)$$

bunda  $\Delta E_k$  - jismning kinetik energiyasini o'zgarishi,  $\Delta E_p$  - jismning potentsial energiyasini o'zgarishi,  $\delta W_1$  - tashqi kuchlarning kelgan energiya hisobidan bajargan elementar,  $\delta W_2$  - qarshiliklarni engib o'tishga sarflangan (yo'qotilgan) energiya smqdori.

Jismni er sirtidan  $h_1$  balandlikdan  $h_2$  balandlikkacha ko'chishida potentsial energiyani o'zgarishi:

$$\Delta E_p = m g (h_2 - h_1), \quad (35)$$

bunda  $m$  - jism massasi,  $g$  - erkin tushish tezlanishi ( $9,81 \text{ m/s}^2$ ).

Ilgarilanma ko'chishda jismning kinetik energiyasini o'zgarishi quyidagi ifodadan hisoblab topilishi mumkin:

$$\Delta E_{k(t)} = m (V_2^2 - V_1^2) / 2, \quad (36)$$

bunda  $V_2$  va  $V_1$  - jismning oxirgi va boshlang'ich tezliklari.

Jism aylanma harakat qilayotgan holda:

$$\Delta E_{k(p)} = (J_{t,2} \omega_2^2 - J_{t,1} \omega_1^2) / 2, \quad (37)$$

bunda  $J_{t,1}$  va  $J_{t,2}$  - jismning boshlang'ich va oxirgi paytlardagi to'la inertsiya momenti,  $\omega_1$  va  $\omega_2$  – jismning boshlang'ich va oxirgi paytdagi burchak tezligi.

## XULOSA

Foto-, kino-, videos' emkalarda olingan materiallar bo'yicha sport texnikasini miqdoriy tahlil qilish uchun bir qancha biomexanik xarakteristikalarini aniqlash mumkin. Bunda tanlangan nuqtalarning va butun jismning harakatlari qonunlari, tana vaziyat (poza)sini o'zgarishi, boshqaruvchi kuchlar va kuch momentlari aniqlanadi.

Tasvirning aniq va imkon qadar batafsil biomexanik tahlilini amalga oshirish mumkin. Bunda uning masshtabi ma'lum bo'lishi kerak. Ob'ektning o'lchamlarini ularning tasvirdagi mos o'lchamlari bilan solishtirib masshtabni aniqlash mumkin.

Joy dasturi - jismoniy mashqlarda butun tanani siljishiga qo'yiladigan talablar. Uni bilish fazoda vaqtning ixtiyoriy momentida tananing UOMni aniqlash imkonini beradi. Tananing UOM - tanani hamma zvenolarining (segmentlarining) og'irlik kuchlarini teng ta'sir etuvchisi qo'yilgan va tasavvur qilinadigan nuqtadir. Gavda vaziyati (pozasi) dasturi - harakatlanish amalini bajarishda tana bo'laklarining holatlarining o'zgarishiga qo'yiladigan talablar. Mazkur dastur, yuqorida qarab chiqilgan dasturlar singari, empirik yo'l bilan aniqlanishi va ko'rakam (chiroyli ko'rinaligan) shaklda (promer, xronogramma) yoki matematik ifoda (bo'g'im burchaklari, tezliklari matritsasi) shaklida ifodalanishi mumkin.

Xronogramma (harakatlanish amali (ta'siri) fazalarining diagrammasi) ustivorlik bilan (yoki asosan) harakatlanish ta'sir koordinatsion strukturasini sifat jihatidag tahlil qilish uchun material beradi hamda harakatning kinematik va dinamik xarakteristikalarini aniqlash imkonini beradi.

## NAZORAT SAVOLLARI

Masshtab deganda nimani tushunasiz va u qaerlarda qo'llanadi?

Inson gavdasining 14 zvenoli sxemasi nima va u nima uchun kerak?

Masshtabni 1:5 ko'rnishda ifodalanishi nimani anglatadi?

Joy dasturi nima?

Tananing UOM nima va nima uchun kerak?

Gorizontal ko'chish uchun tezlik formulasini yozing va izohlang.

Nuqtaning tezlanishi formulasini yozing va izohlang.

Mo'ljal (orientatsiya) dasturi nima?

Jismning burchak tezligi formulasini yozing va izohlang.

Burchak tezlanishi nimani ifodalaydi, formulasini yozing va izohlang.

Gavda vaziyati (pozasi) dasturi nima?

Harakatning dinamik xarakteristikalariga nimalar kiradi?

Harakatning energetik xarakteristikalarini aniqlash formulalarini yozing va izohlang.

Kuchning to'g'ri chiziqli ko'chishda bajargan ishi formulasini yozing va izohlang.

Quvvat formulasini, o'lchov birligini yozing va izohlang.

## SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 4.1. INSON HARAKATLANISH APPARATINING BIOMEXANIKASI. BIOMEXANIK TADQIQOT VA JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA NAZORAT QILISH USULLARI.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati davomida, shuningdek o'z salomatligi holatiga befarq bo'limgan sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan odamlar hayotida ham salomatlikni nazorat qilish, yaxshilash va mustahkamlash borasida nimalarga e'tibor berish kerakligi, bunda qanday ko'rsatkichlar muhimligi va ularni aniqlash (hisoblash) kerakligi, ularning normalari va yaxshilash vosita va usullari har qanday insonni ham qiziqtirmay qo'ymaydi.

#### 4.1. 1. GAVDA EGILUVCHANLIGINI BAHOLASH

**Mashg'ulot maqsadi:** Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan egiluvchanlik sifati to'g'risida tasavvur shakllantirish va uni amalda baholash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob-uskunalar:** chizg'ich (santimetrli tasma), o'rtamiyona skameyka, kal'kulyator.

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI:

Skameykada (yoki zinada) tik turib, tizzalarni bukmasdan, oldinga qo'llarning barmoqlari bilan tayanchning quyi chegarasiga etishga intilgan holda maksimal egiling. CHizg'ich yordamida qo'llar barmoqlari bilan tayanch tekisligigacha masofani o'lchash kerak.

Agar, barmoqlar tayanch tekisligidan pastda bo'lsa, «+» ishorasi qo'yiladi, agar barmoqlar tayanch tekisligigacha etmagan bo'lsa – «-» ishorasi qo'yiladi.

**Natijalar va unga mos baholar:** yosh yigitlar uchun o'lchangan maslfa + 6...+ 9 sm; qizlar + 7...+ 10 sm bo'lsa «yaxshi».

«qoniqarli» - bulardan past, lekin musbat natijalar bo'lsa;

«qoniqarsiz» - manfiy ko'rsatkichlar uchun (egiluvchanlik etarlicha emas).

Olingan natijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Natija X, sm.	Baho	Izoh
1			
2			
3			
...			

**Ishning natijalari:** olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring. O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalar uchun absolyut va nisbiy xatoliklar hisoblangan holda yakuniy natija yozishdan iborat bo'ladigan olingan natjalarga eng oddiy ishlov beriladi.

Quyida ushbu oddiy ishlov berishning tartibi tushuntirib o'tiladi:

- 1) olingan natijalar  $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$  ko'rinishida yozib olinadi. Bunda n - o'lchash natijalari soni (yoki urinishlar soni yoki guruhdagi sinovda ishtirok etayotgan sportchilar soni);
- 2) olingan natijalar uchun o'rtacha arifmetik qiymat

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{n}$$

hisoblab topiladi;

- 3) har bir natija uchun  $\Delta x_i = x_i - \bar{x}$  absolyut xatoliklar, ya'ni

$\Delta x_1 - \bar{x}, \Delta x_2 - \bar{x}, \Delta x_3 - \bar{x}, \dots \Delta x_n - \bar{x}$  kattaliklar hisoblanadi;

- 4) hamma absolyut xatoliklar qiymatini yig'indisini hisoblab yo'limiz to'g'riligini, ya'ni yig'indi nulga teng bo'lishini (yoki nulga juda yaqin va kichik son ekanligini) tekshiramiz. Agar bu yig'indi, ya'ni  $\Delta x_1 + \Delta x_2 + \Delta x_3 + \dots + \Delta x_n$

yig'indi nulga teng yoki juda ham kichik bo'lsa, demak bu hisoblashlar to'g'ri ekanligini anglatadi.

5) absolyut xatoliklarining o'rtacha arifmetik qiymati, ya'ni  $|\bar{\Delta x}|$  quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi:

$$|\bar{\Delta x}| = \frac{|\Delta x_1| + |\Delta x_2| + |\Delta x_3| + \dots + |\Delta x_n|}{n};$$

6) o'lchash natijalarining nisbiy xatoligi hisoblanadi

$$\varepsilon = \frac{|\bar{\Delta x}|}{\bar{x}} \bullet 100\%$$

7) yakuniy natija quyidagicha yoziladi:  $x = \bar{x} \pm |\bar{\Delta x}|$ ;  $\varepsilon = \dots$ ; bu erda nisbiy xatolik  $\varepsilon = \dots$  (... o'rniiga 6-banddagi natija yoziladi) bo'lgan holda o'lchanayotgan kattalikni qiymati  $x = \bar{x} \pm |\bar{\Delta x}|$ , ya'ni boshqacha aytganda  $x = \bar{x} - |\bar{\Delta x}|$  dan  $x = \bar{x} + |\bar{\Delta x}|$  gacha oraliqda bo'lishi aniqlanadi.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu 7 banddan iborat hisoblash ishlarini amalga oshirishda quyidagi jadvaldan foydalanish (hisoblashlarda quylayliklarga olib kelishi va hisob ishlarida xatolik ehtimolini pasaytirishi sababli ham) maqsadga muvofiqroqdir.

T.r.	$X_i$	$\Delta X_i$	$ \Delta X_i $
1			
2			
...			
O'rtacha qiymat	$\bar{x}$		$ \bar{\Delta x}  =$

Endi ushbu tartibni bir misolda (aytaylik sportchi 100 metr masofaga yugurishni uchun 5 marta bajarsin) ko'rib chiqaylik:

1)  $X: 11,3; 11,4; 11,6; 10,9; 11,2; (n = 5)$ .

$$2) \bar{x} = \frac{11,3 + 11,4 + 11,6 + 10,9 + 11,2}{5} = \frac{56,4}{5} = 11,28$$

$$3) \quad \Delta x_1 = \bar{x} - x_1 = 11,28 - 11,3 = -0,02$$

$$\Delta x_2 = \bar{x} - x_2 = 11,28 - 11,4 = -0,12$$

$$\Delta x_3 = \bar{x} - x_3 = 11,28 - 11,6 = -0,32$$

$$\Delta x_4 = \bar{x} - x_4 = 11,28 - 10,9 = 0,38$$

$$\Delta x_5 = \bar{x} - x_5 = 11,28 - 11,2 = 0,08$$

$$4) \quad \sum \Delta x_1 + \Delta x_2 + \Delta x_3 + \Delta x_4 + \Delta x_5 = \\ = -0,02 + (-0,12) + (-0,32) + 0,38 + 0,08 = 0$$

$$5) \quad |\overline{\Delta x}| = \frac{|\Delta x_1| + |\Delta x_2| + |\Delta x_3| + |\Delta x_4| + |\Delta x_5|}{5} \\ = \frac{|-0,02| + |-0,12| + |-0,32| + |0,38| + |0,08|}{5} = \frac{0,92}{5} = 0,184$$

$$6) \quad \varepsilon = \frac{|\overline{\Delta x}|}{\bar{x}} \cdot 100\% = \frac{0,184}{11,28} \cdot 100\% = 1,45\%$$

$$7) \quad x = 11,28 \pm 0,184 ;$$

$$\varepsilon = 1,45 \text{ \%}.$$

Mana shu erda, aziz o'quvchim! SIZga kichkina topshiriq! Qarab chiqilgan misoldagi (100 m. masofaga yugurish natijalari bo'yicha) hisob-kitob ishlarini jadval ko'rinishida ifodalash orqali ikki usulning qay biri qulayligini o'zingiz solishtirishni mustaqil bajaring va xulosa chiqaring!

Demak, mazkur (aniq belgilangan bir) sportchining 100 metrga yugurish mashqini 5 marta bajarish natijalari uchun eng oddiy ishlov berish u bu masofani o'rtacha 11,28 s vaqt davomida eng kamida 10,912 s, eng ko'pi bilan 11,464 s vaqt sarflar ekan va hisob-kitoblarimiz natijasida aniqlangan nisbiy xatolik 1,45 % ni tashkil etgani aniqlandi.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.2. INSON GAVDASI SIRTINING YUZASINI O'RGANISH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Jismoniy tarbiya va sport faoliyati amaliyotida keng qo'llanadigan sportchi gavdasi sirtining yuzasi to'g'risida tasavvur shakllantirish va uni hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallash.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati amaliyoti davomida sportchi tanasi sirtining yuzasini bilish zarurati tug'ilib qoladi (umuman, har qanday inson ham o'zining tanasi sirtini bilishga qiziqadi).

Gavdasining massasi  $m$  (kg) va bo'yining uzunligi  $h$  (sm) yig'indisi 160 birlikdan katta bo'lgan insonlar uchun gavda sirtining yuzasi quyidagi Issakson formulasi bo'yicha hisoblab topilishi mumkin ( $m^2$  larda ifodalanadi):

$$S = \frac{100 + m + (h \cdot 160) / 10000}{100}$$

**Kerakli asbob-uskunalar:** chizg'ich yoki tasma (santimetrlı lenta), tarozi (inson tanasi massasini o'lchash uchun), kal'kulyator.

#### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

Bu ishni bajarishda guruh talabalarini 3-4 guruhga bo'lib, har bir guruhda alohida talabalar uchun yuqorida keltirilgan Issakson formulasi bo'yicha gavda sirtining yuzasini hisoblab topib, so'ngra olingan najalar asosida dastlabki ishlov berish va olingan natijalarni guruhlararo o'zaro solishtirish yoki (guruh talabalari soni kam bo'lsa) guruhdagi barcha talabalar uchun hisoblash mumkin.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Massa, kg	Bo'y, sm	S
1			
2			
3			
...			

O'z guruhingizda olingan o'lchashlar natijalarini ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.3. GAVDA TUZILISHINING PROPORTSIYALARI (GTP)NI ANIQLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchi gavdasi tuzilishining proportsiyalari va uning sport faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish va uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), kal'kulyator.

##### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi. Sinaluvchining elka (bu erda qo'lning tirsakdan elkagacha bo'lgan qismi nazarda tutiladi - anatomiya) aylanasi uzunligi va bo'yini aniqlanadi. Gavda tuzilishining o'zaro mos (garmoniya)ligini baholash quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$A = \frac{\text{елка айланаси узунлиги}}{\text{бўйни}} \cdot 100\% \quad (39)$$

**Natijalar va xulosalar:** gavda tuzilishi normal bo'lganida bu nisbatning son qiymati 50 – 55 % ni tashkil qiladi, agar bu nisbat 50 % dan kichik bo'lsa – rivojlanganlik darajasi zaif; 55 % dan kata bo'lsa – rivojlanganlik darajasi yuqori ekanligini anglatadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Elka aylanasi, sm.	Bo'y, sm	A
1			

2			
3			
...			

O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalarini ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.4. QADD - QOMATNI TIK TUTISH (OSANKA) TO'G'RILIGINI ANIQLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchi va umuman salomatligi borasida o'ta muhim o'rin egallaydigan qadd-qomat to'g'riliqi, uning ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni xarakterlovchi xarakteristikalarini aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallah.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), kal'kulyator.

#### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining elkalar kengligi va orqasi (kuraklar kamari) kengligini santimetrli tasma (lenta) yordamida o'lchanadi. Buning uchun o'ng va chap elka bo'g'imlarida chiqib turadigan chetki suyaklar orasidagi masofa o'lchanadi. Old tomondan o'lhash elka kengligini, orqadan o'lhash esa orqa (elka) yoyi kattaligi - uzunligini tavsif (xarakter)laydi.

Qadd - qomatni tik tutish (osanka) ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$A = \frac{\text{елка кенглиги}}{\text{елка ёйни катталиги}} \cdot 100\% \quad (40)$$

**Natijalar:** agar (40) - nisbat bo'yicha hisoblab aniqlangan natija 100 – 110 % oralig'ida bo'lsa, u holda qadd - qomatni tik tutish (osanka) ko'rsatkichi normada bo'ladi. Agar bu natija 90 % dan kam va 125 % dan katta bo'lsa, u holda bu qadd - qomatni tik tutish (osanka)da yaqqol buzilganlik mavjudligidan dalolat beradi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Elka kengligi, sm.	Elka yoyi kattaligi, sm	A
1			
2			
3			
...			

**Ishning natijalari:** olingan natjalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring. O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natjalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### 4.1.5. LATOFAT INDEKSINI O'RGANISH.

**Mashg'ulot maqsadi:** inson, ayniqsa xotin-qizlar, uchun juda muhim ahamiyat kasb etadigan latofat indeksi to'g'risida tasavvur shakllantirish va uni hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallah.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), kal'kulyator.

## NAZARIY MA'LUMOTLAR

«Latofat indeksi (LI)» deb ataladigan va hisoblanadigan koeffitsient katta qiziqishga molik. Uni aniqlash uchun boldir aylanasi uzunligi qiymatini bel aylanasi uzunligi qiymatiga bo'lish kerak, ya'ni:

$$LI = \frac{\text{бодир айланаси узунлиги}}{\text{бел айланаси}}$$

YOshlar uchun bu (LI) nisbat 0,50 ga teng bo'lsa normada, o'rta yoshdagilar uchun norma – 0,47 va keksalar uchun esa norma – 0,45 ga teng.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrali tasma (lenta).

### ISHNI BAJARISH TARTIBI:

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining boldir aylanasi uzunligi va bel aylanasi uzunligini santimetrali tasma (lenta) yordamida o'lchanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Boldir aylanasi uzunligi, sm.	Bel aylanasi	LI
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruhlар va umumiylar uchun aniqlangan Latofat indeksi natijalarini ishchi daftarida qayd eting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)  
O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.6. SALOMATLIK KOEFFITSIENTINI ANIQLASH**

**Mashg'ulot maqsadi:** inson organizmining samarali yoki hech bo'limganda normal faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan salomatlik koeffitsienti to'g'risida tasavvur shakllantirish va uni hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** tonometr, tarozi, santimetrlı tasma (lenta), kal'kulyator.

### **UMUMIY MA'LUMOTLAR**

R.M.Baevskiy tomonidan taklif qilingan salomatlik koeffitsientining modifikatsiyalashtirilgan (shakli o'zgartirilgan) katta qiziqish kasb etadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$SK = 0,011 * YUQCH + 0,014 * SAB + 0,008 * DAB + 0,014 * YO + \\ + 0,009 * M + 0,004 * J - 0,009 * R - 0,273$$

bu erda YUQCH — yurak qisqarishlari chastotasi, SAB — sistolik arterial bosim (mm.sim.ustunida ifodalanadi), DAB — diastolik arterial bosim (mm.sim.ustunida ifodalanadi), YO — qizlarning yoshi, M — gavdaning massasi, J - jinsi (ayol - 2), R - gavdaning uzunligi, sm.larda ifodalanadi.

Arterial bosim organizmdagi qon aylanish tizimi ishini xarakterlaydigan eng muhim parametrlardan biri hisoblanadi. Qon bosimi vaqt birligi davomida yurakni tortib chiqaradigan qon hajmi va qon tomirlarini bunga ko'rsatadigan qarshiligi orqali aniqlanadi. Organizmda qon yurak tomonidan hosil qilinadigan tomirlardagi bosim gradienti ta'siri ostida harakatga kelishi sababli eng katta qon bosim qonning yurakdan chiqishida (chap oshqozonchada), biroz pastroq bosim arteriyalarda, yana ham kamroq bosim kapillyarlarda, eng past bosim esa tomirlarda va yurakka kirishda (o'ng atriumda) kuzatiladi. YUrakdan chiqishda va katta arteriyalarda qon bosimi farqi (5-10 mm.sim.ust.) uncha katta bo'lmaydi.

YUqoridagi son qiymat - sistolik arterial bosim, yurak siqiladigan va qonni arteriyaga siqib chiqaradigan paytida arteriyadagi bosimning son qiymatini ko'rsatadi. U yurakning qisqarish kuchiga, qon aylanish tomirlari devorlarini ko'rsatadigan qarshiligiga va vaqt birligidagi qisqarishlar soniga bog'liq bo'ladi.

Quyidagi raqam - diastolik arterial bosim yurak mushaklarining bo'shashish paytida arteriyalardagi bosimni ko'rsatadi. Bu arteriyalardagi minimal bosim bo'lib, u periferik tomirlardagi qarshilikni aks ettiradi. Qon tomirlar bo'y lab tebranishlar amplitudasi bilan harakatlana borgan sayin qon bosimi kamaya boradi.

Sog'lom odamning qon bosimi uchun tipik (normal) qiymat (sistolik va diastolik) — 120 va 80 mm.sim.ust. Sistolik arterial bosim bilan diastolik bosim orasidagi farq, odatda, pul's bosimi deyiladi va u normada 35-55 mm.sim.ust.ni tashkil etadi (120/80 dan past holat eng **optimal** hisoblanadi). Odam organizmidagi arterial bosim tonometr (avtomatlashtirilmagan sfigmomanometr – quyidagi 11 - a, rasm) yoki avtomatlashtirilmagan stetoskop (11 - b, rasm) yordamida aniqlanishi mumkin.



11-rasm. Arterial bosimni o'lchash asboblari: a-tonometr (avtomatlashtirilmagan sfigmomanometr); b- avtomatlashtirilmagan stetoskop.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), bosim o'lchash qurilmasi: tonometr yoki stetoskop; YUQCHni aniqlash uchun UDS - 3 (universal

dinamografik stend) qurilmasi (uni topish imkoni bo'lmasa sinaluvchi qo'li tomiridagi pul'sni olish ham mumkin), kal'kulyator.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining gavdasi uchun yuqoridagi formulaga kirgan parametrlar YUQT, SAB, DAB va boshqalar o'lchanadi va aniqlanadi. Ma'lumotlar formulaga qo'yib salomatlik koeffitsienti hisoblab topiladi.

**Natijalar:** Har bir kichik guruhlari va umumiyligi guruh uchun aniqlangan salomatlik koeffitsienti natijalarini ishchi daftarida qayd eting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)

YUqorida va quyida (ishlar va topshiriqlarda) zikr etilgan alomatlardan, odatda, o'zini – o'zi nazorat qilish maqsadida foydalaniadi. Bunday o'zini o'zi nazorat qilish faqatgina mustaqil jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini optimal tashkil etish imkonini berib qolmay, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega: insonni tasavvur doirasini kengaytiradi, uni o'zining salomatligi, jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi holati ustidan ongli ravishda nazorat qilishga hamda o'z hayoti rejimini baholashga va shaxsiy gigiena qoidalariiga rioya qilishga o'rgatadi. Biroq, shuni esda tutish kerak–ki, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari effektivligini aniqlash uchun o'zini–o'zi nazorat qilish ma'lumotlaridan foydalinish o'lhashdagi noaniqliklar, sub'ektiv ma'lumotlarga ortiqcha baho berish, o'zini–o'zi nazorat qilish natijalarini malakasiz (noto'g'ri) tavsiflash sababli katta ehtiyyotkorlikni talab qiladi. SHuning uchun o'zini–o'zi nazorat qilish ma'lumotlari, ayniqsa boshlang'ich paytlarda, murabbiy, o'qituvchi, jismoniy tarbiya instruktori va shifokor yordamida baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib, ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarida keltirilgan va inson (sportchi) salomatligi darajasini baholaydigan ko'rsatkichlar orasida, ayniqsa, pul'sni tiklanish koeffitsienti, jismoniy imkoniyatlar indeksi, «Latofat indeksi», antropometrik o'lchamlar indeksi, Kuper testi natijalari va boshqalar katta

ahamiyat kasb etishini hamda qiziqish bilan o'rganilishini va sportchining o'zini o'zi nazorat qilishi maqsadlarida keng foydalanilishini ta'kidlash mumkin.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	YUQCH	SAB	DAB	M	R	SK
1						
2						
3						
...						

O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### 4.1.7. KETLE INDEKSIni aniqlash.

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchi tanasi massasi indeksi, uning umumqabul qilingan va normal xarakteristikalari, ularning ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda ularni hisoblash va aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

Ketle indeksi - inson tanasi massasi indeksi (TMI - *body mass index (BMI)*) - bu semirish yoki vazn etishmasligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lган; boshqacha aytganda inson tanasi massasini uning bo'yiga mos kelish darajasini baholash, shu bilan birga massa normal, etarli emas yoki ortiqcha ekanligini bilvosita baholash imkonini beradigan kattalik.

$$\text{TMI} = \frac{\text{тана массаси}}{\text{бўйнинг квадрати}} = \frac{m}{h^2}$$

bu formulada  $m$  - tana massasi (kg),  $h$  - bo'y (gavda uzunligi, m) va TMI koeffitsienti  $\text{kg} / \text{m}^2$  larda ifodalanadi.

Masalan, inson massasi = 106 kg, bo'yi = 168 sm. Demak, bu holda tana massasi indeksi:

$$\text{TMI} = 106 : (1,68 \times 1,68) = 37,55 \text{ kg} / \text{m}^2.$$

Tana massasi indeksining ko'rsatkichi - tana massasi indeksining mezoni [24] bel'giyalik sotsiolog va statist Adol'f Ketele tomonidan 1869 yilda ishlab chiqilgan. Quyidagi 2-jadvalda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) tavsiyalariga mos holda, tana massasi indeksining turli oraliq intarvallariga mos toifalari keltirilgan.

## 2-jadval

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga mos holda, tana massasi indeksining turli oraliq intarvallariga mos toifalari

<b>Toifa</b>	Tana massasi indeksi diapazoni ( $\text{kg}/\text{m}^2$ )
Tana massasining kritik defitsit qiymati	15 dan kam
Tana massasining yaqqol ifodalangan defitsiti	ot 15,0 do 15,9
Tana massasi defitsiti	ot 16,0 do 18,49
Normal vazn	ot 18,5 do 24,9
Ortiqcha vazn	ot 25 do 29,9
Birinchi darajali (o'rtamiyona) semirish	ot 30 do 34,9
Ikkinchchi darajali (og'ir) semirish	ot 35 do 39,9
Uchinchi darajali (juda og'ir) semirish	40 va undan katta

**Kerakli asbob va uskunalar:** massani o'lhash uchun tarozi; santimetrlı tasma (lenta), kal'kulyator.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining massasi va bo'yini uzunligi (santimetrlı tasma (lenta) yordamida) o'lchanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Massa, kg	Bo'y, m	TMI
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruqlar va umumiylar uchun aniqlangan Ketle indeksi natijalarini ishchi daftariga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.8. SPORTCHI GAVDASINING PROPORTSIONALLIK KOEFFITSIENTINI O'RGANISH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchi gavdasining proporsionallik koeffitsienti, uning normal kattaligi va sport faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uning xarakteristikalarini, aniqlash, hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallash.

Inson gavdasi antropometrik parametrlari bilan bog'liq bo'lgan va keng qo'llanadigan koeffitsientlardan biri - proporsionallik koeffitsienti (PK)dir. PK

odamning tik turgan holatdagi gavda uzunligi va o'tirgan holatdaga gavda uzunligi orqali ifodalanadi va quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$ПК = \frac{\text{тик турганда гавда узунлиги} - \text{ўтирганда гавда узунлиги}}{\text{ўтирганда гавда узунлиги}} \cdot 100 \%$$

Normada u 87-92% oralig'ida tebranadi. Proportsionallik koeffitsienti (PK) sport bilan shug'ullanishda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Masalan, PK ko'rsatkichi past (87 % dan kichik) bo'lgan odamning umumiy og'irlik markazi pastroqda joylashgan bo'ladi va, boshqa hamma sharoitlar bir xil bo'lgan hollarda, fazoda tananing yuksak turg'unligi talab qilinadigan mashqlarni (tog' chang'isi sporti, tramplindan sakrashlar, kurash va boshqalarni) bajarishida ustunlikka ega bo'ladi. YUqori (92 % dan katta) PKga ega bo'lgan sportchilar past ko'rsatkichlilarga nisbatan sakrashlarda va yugurishda ustunlikka ega bo'ladilar. Ayollar uchun aniqlangan PK erlar gavdasi PKidan past bo'ladi.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetri tasma (lenta), kal'kulyator.

### ISHNI BAJARISH TARTIBI:

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining boldir aylanasi uzunligi va bel aylanasi uzunligini santimetri tasma (lenta) yordamida o'lchanadi.

Olingan ma'lumotlar PKni aniqlash formulasiga qo'yib hisoblanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Tik turganda gavda uzunligi, sm.	O'tirganda gavda uzunligi, sm	PK
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruqlar va umumiy guruh uchun aniqlangan proportsionallik koeffitsienti (PK) natijalarini ishchi daftariga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang) O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.9. KO'KRAK QAFASI RIVOJLANISHINING PROPORTSIONALLIK KOEFFITSIENTINI O'RGANISH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** inson hayotiy faoliyati davomida muhim rol' o'ynaydigan ko'krak qafasi rivojlanishi va uning proportsionallik koeffitsienti to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetri tasma (lenta), kal'kulyator.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida sportchining ko'krak qafasi rivojlanishining proportsionallik indeksi son qiymatini bilish ahamiyatli hollar bo'ladi.

Bu (KQRPK) indeks ko'krak qafasini (pauzadagi) aylanasi uzunligi bilan tana uzunligi (bo'y)ning yarmi orasidagi farqqa teng bo'ladi. Uning formulasi:

$$\text{ККРПК} = \text{паузада кўкрак қафаси айланаси узунлиги} - \text{бўйи} / 2$$

Bu indeks uchun normal farq erlar uchun 5 - 8 sm.ni, ayollar uchun esa 3 - 4 sm.ni tashkil qiladi. Agar farq keltirilgan son qiymatlariga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda bu ko'krak qafasini yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi. Agar farq

keltirilgan son qiymatlardan past yoki manfiy qiymatli bo'lsa, u holda bu tor ko'kraklikdan dalolat beradi.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining pauzada ko'krak qafasi aylanasi uzunligi va bo'yni (tanasi uzunligi)ni santimetrli tasma (lenta) yordamida o'lchanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Pauzada ko'krak qafasi aylanasi uzunligi, sm.	Bahobo'yi, sm.	KQRPK
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruqlar va umumiy guruh uchun aniqlangan KQRPK natijalarini ishchi daftariga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)  
O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### **4.1.10. GAVDA TUZILISHI BAQUVVATLIGI KO'RSATKICHINI O'RGANISH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** muhim jismoniy sifatlarni majmuaviy namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lган sportchi gavdasining baquvvatligi ko'rsatkichi va uning ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllanadirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** kal'kulyator.

## NAZARIY MA'LUMOTLAR

Amaliy hayotda va, jumladan, jismoniy madaniyat va sportda ham, inson imkoniyatlari to'g'risida gap ketganda "kuchli" yoki "baquvvat" iboralarini ko'p eshitganmiz. Bu tushunchalar zaminida nima yotadi?

Jismoniy madaniyat va sport faoliyati davomida sportchi gavdasi tuzilishining baquvvatligi ko'rsatkichi (GTBK) aniqlangan va u quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\text{ГТБК} = \text{бўйи (см)} - [\text{масса (кг)} + \text{нафас чиқаришда КҚА (см)}]$$

Konkret insonning GTBK son qiymatlariga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:  
agar GTBK qiymati 10 gacha bo'lsa – gavda tuzilishi baquvvat;  
10-20 oralig'ida bo'lsa - yaxshi;  
21-25 oralig'ida bo'lsa - o'rtacha;  
26-35 oralig'ida bo'lsa – kuchsiz;  
36 dan katta bo'lsa - o'ta kuchsiz **hisoblanadi**.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, gavda tuzilishi baquvvatligi ko'rsatkichini aniqlashda ko'krak qafasi aylanasi uzunligi nafas chiqarilishida aniqlanishi kerak. Misol uchun, bo'yisi 181 sm va massasi 80 kg bo'lган odamning ko'krak qafasi aylanasi uzunligi 90 sm. bo'lsa bu ko'rsatkich 181 - (80+90) = 11 ga teng bo'ladi va bu gavda tuzilshining baquvvatligi yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

**Kerakli asbob va uskunalar:** tarozi va santimetrlı tasma (lenta).

### ISHNI BAJARISH TARTIBI:

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining bo'yisi (tana uzunligi) va ko'krak qafasi aylanasi uzunligini santimetrlı tasma (lenta) yordamida va tarozi yordamida massasi o'lchanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	bo'yi, sm.	Massasi, kg	Nafas chiqarishda KQA	GTBK
1				
2				
3				
...				

**Natijalar:** Har bir kichik guruqlar va umumiy guruh uchun aniqlangan gavda tuzilishi baquvvatligi ko'rsatkichi natijalarini ishchi daftariga kiriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang) O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.11. SPORTCHI O'PKASINING ZARURIY TIRIKLIK SIG'IMI (O'ZTC)NI ANIQLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchining o'pkasi tiriklik sig'imi, uni o'lhash usullari, uning o'lchov birliklari va sport faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), tarozi, kal'kulyator.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

O'pkaning zaruriy tiriklik sig'imi (O'ZTC) - maksimal to'liq gafas olinganda o'pkaga yig'ish mumkin bo'lgan maksimal havo hajmini ifodalaydi. Amaliyotda odam eng chuqr nafas olganda chiqarishi mumkin bo'lgan havoning maksimal hajmi bo'lib, u spirometr yordamida o'lchanadi.

O'ZTC yoki qisqacha O'TC uchta havo sig'implari yig'indisidan iborat bo'ladi:

- nafas olish hajmi – tinch nafas olish holatida nafas olish va nafas chiqarish orasidagi hajm bo'lib, u taminan  $500 \text{ sm}^3$  ni tashkil qiladi;
- nafas olishning zahirali hajmi - tinch holatda nafas olishdan keyin qo'shimcha nafas olish hajmi bo'lib, u  $1500 \text{ sm}^3$  atrofida bo'ladi;
- nafas chiqarishning zahirali hajmi - tinch holatda nafas chiqarishdan keyin qo'shimcha nafas chiqarish hajmi, u taxminan  $1500 \text{ sm}^3$  dan iborat bo'ladi.

SHunday qilib, katta odam o'pkasining o'rtacha tiriklik sig'imi  $3500 \text{ sm}^3$  atrofida ekan. Sportchilarda u, odatda,  $1000—1500 \text{ sm}^3$  ga ko'p bo'ladi, suzuvchilarda esa  $6200 \text{ sm}^3$  gacha etishi mumkin. O'ZTS katta bo'lganda o'pkada havo ancha yaxshi aylanadi (ventilyatsiya bo'ladi) va organizm ko'proq kislorod oladi. O'ZTS tana uzunligi (bo'y) bilan musbat va odamning yoshi bilan manfiy korrelyatsiyalanadi. Semiz, to'la odamlarda O'ZTS  $10—11\%$  ga kam, shuning uchun ularda gaz almashish jarayoni pasaygan bo'ladi.

O'ZTSning normal qiymatlari quyidagi Lyudvig formularsi yordamida hisoblab topiladi:

Аёллар учун (мл):  $[40 \cdot \text{бўйи (см)} + 10 \cdot \text{вазни (кг)}] - 3800$

Эрлар учун (мл):  $[40 \cdot \text{бўйи (см)} + 30 \cdot \text{вазни (кг)}] - 4400$ .

**Kerakli asbob va uskunalar:** tarozi va santimetri tasma (lenta).

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining tana uzunligi (bo'y) santimetri tasma (lenta) va massasi tarozi yordamida o'lchanadi. YUqorida keltirilgan mos formuladan foydalanib O'ZTS yoki O'TS hisoblab topiladi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Bo'yи, sm.	Massasi, kg	O'TS
qizlar			
1			
2			
3			
...			
yigitlar			
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruqlar va umumiylar uchun aniqlangan o'pkaning zaruriy tiriklik sig'imi (O'TC) natijalarini ishchi daftariiga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.12. INSON TANASINING TIRIKLIK (HAYOT) INDEKSINI ANIQLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** inson tanasining tiriklik indeksi, u bilan bog'liq ko'rsatkichlar, ularning o'lchov birliklari, aniqlash usuli to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda ularni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrlı tasma (lenta), tarozi, kal'kulyator.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

Tananing tiriklik (hayot) indeksi (TTI) bevosita yuqorida qarab chiqilgan o'pkaning zaruriy tiriklik sig'imi (O'ZTC) yoki qisqacha o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TC) kattaligi bilan bog'liq bo'lib, uning o'lchov birligi ml/kg va u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\text{ТТИ} = \frac{\text{ўпканинг тириклик сифими}}{\text{тана массаси}}$$

bunda o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TC)  $\text{sm}^3$  yoki ml. larda va tana massasi kg.larda ifodalanadi.

Norma: ayollar uchun 45-55 ml/kg;

Erlar uchun 55-60 ml/kg.

Ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, ko'krak qafasining nafas olish funksiyasi shunchalik yaxshi rivojlanganligini anglatadi. Normadan past ko'rsatkichlar yoki O'TS darajasi etarli emasligidan yoki tananing ortiqcha vaznidan dalolat beradi.

**Kerakli asbob va uskunalar:** tarozi va santimetrali tasma (lenta).

### ISHNI BAJARISH TARTIBI

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sinovda ishtirok etuvchining tana uzunligi (bo'y) santimetrali tasma (lenta) yordamida va massasi tarozida o'lchanadi (O'ZTC uchun oldingi topshiriq natijalaridan foydalansa ham bo'ladi).

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Bo'y, sm.	Massasi, kg	TTI
qizlar			
1			
2			
3			
...			
yigitlar			

1			
2			
3			
...			

Har bir kichik guruhlar va umumiylar uchun aniqlangan tananing tiriklik indeksi (TTI) natijalarini ishchi daftariiga kiriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)  
O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### 4.1.13. QO'LNING KUCH INDEKSINI O'RGANISH.

**Mashg'ulot maqsadi:** qo'lning kuch indeksi, u bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularning o'lchov birliklari, aniqlash formulasi to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

### NAZARIY MA'LUMOTLAR

Amaliyotda qo'lning kuchi to'g'risida ma'lumot kerak bo'lib turishi sababli ham qo'lning kuch indeksi (QKI)ni bilish zarur. U qo'lpanjalarining kuchiga va tana massasiga bog'liq, % larda ifodalanadi va quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$\text{ККИ} = \frac{\text{кучлироқ қўл панжалари кучи}}{\text{тана массаси}} \times 100\%$$

Bunda qo'lpanjalari kuchi va tana massasi kg.larda ifodalanadi.

Bu indeksni o'rganishda eng kuchli qo'l uchun quyidagi normalar mavjud:

Erlar uchun 65 - 80 %;

Ayollar uchun 48 - 50 %.

**Kerakli asbob va uskunalar:** dinamometr, kal'kulyator va tarozi.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Dinamometr yordamida sinovda ishtirok etuvchining eng kuchli qo'lini kuchi va massasi tarozi yordamida o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar formulaga qo'yilib, so'ngra qo'lning kuch indeksi foizlarda topiladi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Kuchli qo'l panjalari kuchi, kg.	Massasi, kg	QKI
qizlar			
1			
2			
3			
...			
yigitlar			
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruhlar va umumiylar uchun aniqlangan qo'lning kuch indeksi natijalarini ishchi daftariga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.1.14. GENCHI SINOVI**

**Mashg'ulot maqsadi:** insonning va ayniqsa sportchining faoliyati davomida o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan nafas olish tizimi va uni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni aniqlash bilan bog'liq sinovlardan biri bo'lган Genche sinovi to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

Genchi sinovi (testi) - maksimal nafas olishdan keyin nafasni saqlab turish vaqtini qayd qilish. Sinaluvchiga avval chuqur nafas olish va keyin maksimal nafas chiqarish taklif qilinadi. Sinaluvchi burni va og'zini berkitgan holda nafasni saqlashga harakat qiladi.

Nafas olish va nafas chiqarish orasidagi nafasni saqlab turish vaqtini qayd qilinadi.

Gench testi kattaligini normasi:

Sog'lom ayol va erlarda 20-40 sekundni, sportchilar uchun - 40-60 sekundni tashkil qiladi [14].

**Kerakli asbob va uskunalar:** sekundomer yoki sekundni qayd qiluvchi soat, kal'kulyator.

#### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi.

Sekundomer yordamida sinovda ishtirok etuvchining nafasni saqlab turish vaqtini o'lchanadi.

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	nafasni saqlab turish vaqtini, s	Norma, s	±

qizlar			
1			
2			
3			
...			
yigitlar			
1			
2			
3			
...			

**Natijalar:** Har bir kichik guruhlar va umumiy guruh uchun aniqlangan Gench testi, ya’ni nafasni saqlab turish vaqtini natijalarini ishchi daftariga kriting va ular uchun dastlabki eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang)

O’lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

#### **4.2. GAVDA TUZILISHI TURLARINI ANIQLASH.**

Tanuning ideal massasini Brok formulasi bo'yicha yanada (oldingi ishda aniqlanganidan ham) aniqroq hisoblab topish mumkin.

Inson tanasining massasi ko'pgina omillarga: tana bo'yiga va jinsiga, tana tuzilishi tipiga va hattoki yoshiga ham bog'liq. Optimal massani hisoblash uchun bir nechta formulalar mavjud. Bular orasida, nisbatan ko'proq foydalaniladigan, Brok indeksi va Brok formulasidan foydalanib har kimning o'zi intiladigan ideal massasini hisoblab topish tartibi bilan tanishamiz. Bu tartib, ya’ni Brok tartibi bo'yicha massani hisoblash uchun o’z bo'yingizni va shu bilan birga tana tuzilishini ham bilish kerak bo'ladi.

Tana tuzilishi tiplari bilan tanishib chiqamiz.

#### **4.2.1. GAVDA UZILISHINING ASOSIY TIPLARI.**

Tana tuzilishining quyidagi uchta asosiy tipi mavjud:

1. astenik;
2. normostenik;
3. giperstenik.

##### **Tana tuzilishining astenik tipi.**

Bu tip guruhibiga kiradigan ayollar, asosan, ozg'in, bo'yi o'rtachadan balandroq ko'rindi, ingichka uzunchoq bo'yinli, elkalari va ko'krak qafasi tor, qo'l va oyoqlar panjalari uzun hamda ingichka (nozik) burunli bo'ladi.

##### **Tana tuzilishining normostenik tipi.**

Bu tip guruhibiga kiradigan ayollar, asosan, o'rtacha bo'yli, beli ingichka (nozik) va oyoqlari xushbichim (to'g'ri) bo'ladi. Uning tanasi o'zaro proportsional o'lchamlarga ega bo'ladi.

##### **Tana tuzilishining giperstenik tipi**

Bu tip guruhibiga kiradigan ayollar, asosan, o'rta bo'yli, keng suyakli, hajmli elka va biroz kaltalashgan qo'l va oyoqlar panjalariga ega bo'ladi. to'liqlikka (semirishga) ortiqcha xayrixohligi mavjud.

Tana tuzilishi tipini qanday aniqlash kerak?

**Ayollarning tana tuzilishi tipini** aniqlash uchun, neobxodimo izmerit' bilak (zapyast'e)ning eng ingichka joyida aylana uzunligini o'lchash kerak.


- Bilak uzunligi 14 sm.dan kam bo'lsa, bu ayol astenik.
- Bilak 14 sm.dan 18 sm.gacha bo'lsa, bu ayolni normostenik ekanligidan;
- Bilak 18 sm. va undan kattaligi, uning giperstenik ekanligidan dalolat beradi.

## Erlarda boshqacha natijalar bo'ladi:

- bilak aylana uzunligi 17 sm.dan kichik bo'lsa – u astenik tipga;
- 17 sm.dan 20 sm.gacha - normostenik tipga;
- 20 sm.dan katta - giperstenik tipga kirishini anglatadi.

SHuningdek, o'z tana tuzilishini inson bo'yini va oyoqlari uzunligi nisbatidan ham aniqlash mumkin.

O'z oyog'imiz uzunligini aniqlaymiz. Buning uchun, biron kishidan santimetrlri tasma (lenta) yordamida tos-son suyagining eng chiqib turgan joyidan polgacha bo'lgan masofani o'lchashda yordam berishini iltimos qiling (12-rasm). O'z bo'yingizni ikkiga bo'lamiz.



12-rasm. Oyoq uzunligini aniqlash.

- Tana tuzilishining astenik tipida oyoq uzunligi o'z bo'yini yarmidan 2-4 sm uzun bo'ladi.
- normostenik tipida oyoq uzunligi bo'yining yarmidan 4-6 sm uzun,
- giperstenik tipda oyoq uzunligi bo'yining yarmidan 6-9 sm uzun bo'ladi.

#### **4.2.2. BROK FORMULASI BO'YICHA IDEAL MASSANI HISOBLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** inson tanasi massasining ideal kattaligi, uni aniqlash uchun standart formulalar, sportchi faoliyatida uning ahamiyati hamda har bir inson o'zining ideal massasi va normalari bilan solishtirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lish hamda uni hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallah.

**Kerakli asbob va uskunalar:** tarozi va santimetrli tasma (lenta), kal'kulyator.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

Brok formulasi bo'yicha ideal massa qanday hisoblanadi:  
Birinchi navbatda, bo'yga bog'liq holda vazn hisoblanadi:  
agar bo'y 165 sm.dan past bo'lsa, u holda tana massasi formulasi:

$$\text{Massa} = \text{bo}'y(\text{sm}) - 100 \text{ bo'ladi};$$

agar bo'y **166 sm.dan 175 sm.gacha oraliqda bo'lsa**, u holda massa formulasi:

$$\text{Massa} = \text{bo}'y(\text{sm}) - 105 \text{ bo'ladi};$$

agar bo'y **175 sm.dan baland bo'lsa**, u holda massa formulasi:

$$\text{Massa} = \text{bo}'y(\text{sm}) - 110 \text{ bo'ladi}.$$

**Keyin tana tuzilishiga tuzatma bilan massani hisoblaymiz.**

Agar tana tuzilishi normostenik bo'lsa, u holda tana massasi o'zgartirilmaydi, agar astenik bo'lsa, u holda massani 10 % ga kamaytiriladi.

Agar giperstenik bo'lsa, u holda massani 10 % ga oshiriladi.

**Va nihoyat, massa yoshga bog'liq tuzatma bilan hisoblab topiladi:**

agar insonni yoshi 40 yoshgacha bo'lsa, u holda massa 10-12 % ga kamaytiriladi;  
agar yosh 50 yoshdan katta bo'lsa, u holda massa 5-7% ga oshiriladi.

**Masalan, Brok formulasi bo'yicha 150 sm.ga teng bo'lgan qizlar va ayollar (bo'yi bir xil 150 sm. va tana tuzilishi har xil bo'lgan 3 ta qizlar) uchun tana ideal massasini hisoblab topaylik.**

Brok formulasi bo'yicha ularning massasi  $150-100 = 50$  kg bo'lishi kerak. Biroq, ularning konstitutsiyalari turlicha.

**Normostenik-qizning** tana normal massasi 50 kg.ligicha qoladi.

**Astenik-qiz** tanasi normal massasi  $50\text{kg} - 10 \% = 45$  kg. bo'lishi kerak.

**Giperstenik-qizning tana normal massasi**  $50\text{kg} + 10\% = 55$  kg. bo'lishi kerak.  
20-30 yoshli qizlarning yoshiga bog'liq tuzatma bilan bemalel tana massasidan yana 5-6 kg.ni ayirib tashlash mumkin. 50 yoshdan keyin esa 2-3 kg. qo'shish kerak bo'ladi.

Brok formulasi bo'yicha 20 yoshli astenik tip tana tuzilishiga ega bo'lgan qizni massasi  $50\text{kg} - 5\text{kg} - 5\text{kg} = 40$  kg. bo'lishi kerak. 50 kg massali giperstenik tipdagi tana tuzilishli qiz massasi  $50\text{kg} + 5\text{kg} + 3\text{kg} = 58$  kg bo'lishi kerak.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil ravishda o'zingizni ideal massangizni kal'kulyatordan foydalanib hisoblang.

Pol' Brokning (dastlabki) 1871 yilda kiritgan va bo'yi 155 sm dan 185 sm gacha oraliqda hamda gavda tuzilishi o'rtacha bo'lgan odamlar uchun quyidagi formulalar asosida aniqlangan:

Ayollar uchun Brok indeksi - ideal gavda massasi : = **(bo'y - 100)·0,85 kg;**

Erlar uchun Brok indeksi - ideal gavda massasi : = **(bo'y - 100)·0,9 kg.**

Biroq, Brok indeksi (formulasi)ning ham Kettle indeksi singari informativligi cheklanganligicha qolgan. Umuman olganda Brok indeksini takomillashtirish maqsadga muvofiq, lekin uning ustunligi shundaki, u juda ham sodda. Har qanday odam ham kal'kulyatorsiz o'z xotirasida o'z bo'yidan 100 ni ayirib va kerakli koeffitsientga ko'paytirib, taxminan vazni normada yoki nomada emasligini bilib olishi mumkin (4-jadval).

#### **4-jadval. Gavdaning "normal" massasini baholash uchun standart formulalar.**

Mezon	Baholash usuli	Norma
Brok	Bo'yi 155 sm dan 165 sm gacha	qolgan birliklar soni

indeksi	bo'lgan inson gavdasining normal massasi bo'yi uzunligidan 100 birlik ayriladi; bo'yi 166-175 sm bo'lganda 105; bo'yi 176 sm va undan ko'p bo'lganda 110 birlik ayriladi	gavdaning (kg larda) normal massasiga mos kelishi kerak. misol: bo'yi 170 sm. normal massa $170-105=65$ kg	
Ketle indeksi	Grammlarda ifodalangan massani sm larda ifodalangan bo'yga bo'linadi	Erlar uchun norma 350-400 g/sm, ayollar uchun 325-375 g/sm	
Gavda massasi indeksi	Gavda (kg) massasini bo'yni (m) kvadratiga bo'lish	Norma 18,5-23; 1 darajali semirish - 24 - 28; 2 darajali semirish - 29 - 35; 3 darajali semirish - 36 va undan ortiq	
Gavda tuzilishi indeksi	$B = \frac{h^2 \cdot k}{1000}$	h-gavdani bo'yi, sm; k-gavda tuzilishi indeksi (gavdaning bir promerini boshqasiga nisbati)	Norma: ayollar uchun = 2,1; erlar uchun = 2,3

Tananing ideal massasi uchun Brok indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{ayollar uchun} = \text{bo}'y (\text{sm}) - (100 + (\text{bo}'y (\text{sm}) - 100)/10);$$

$$\text{erlar uchun} = \text{bo}'y (\text{sm}) - (100 + \text{bo}'y (\text{sm}) - 100)/20).$$

Bu formulaga ko'ra, masalan, bo'yi 175 sm bo'lgan erlarda salomatligini saqlash va o'rtacha davomiylikdagi hayot kechirishi uchun optimal massa deb hisoblanadigan tananing ideal massasi 72 kg, bo'yi 160 sm bo'lgan ayollar uchun esa 54 kg ni tashkil qilishi kerak.

#### **4.2.3. BROK INDEKSINI HISOBLASH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sportchi tanasining ideal massasi, uni xarakterlovchi kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, sport faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni hisoblash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** santimetrli tasma (lenta), tarozi, kal'kulyator.

### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

«Brok indeksi» uning muallifi shifokor Pol' Brok 1868 yilda taklif etgan variantida odamning sm.larda ifodalangan bo'yi bilan doimiy 100 ga teng bo'lган kattalik o'rtasidagi farqdan tashkil topgan. Boshqacha aytganda, insonning «ideal massa»si = bo'y (sm) – 100 teng deb taklif qilgan.

Biroq, bu oddiygina va oson esda qoladigan ifoda - insonlardagi bunday ko'rsatkichlarini mumkin bo'lган hamma og'ishlarini qamrab ola olmasligi tabiiy hol va shuning uchun ham u boshqa tadqiqotchilar tomonidan takomillashtirilgan (modifikatsiya qilingan).

Turli yosh toifalariga mansub odamlar uchun bu indeksga individual tuzatmalar kiritish zarurati vujudga keldi.

Quyidagi variantlar ishlab chiqilgan va kiritilgan:

Odamni bo'yi 165 sm gacha bo'lsa: uning «ideal massasi» = bo'y (sm) -- 100 ga, biroq bo'y 166 dan 175 sm gacha oraliqda bo'lsa, «ideal massa» = bo'y (sm) – 105 ga, 176 sm va undan katta bo'lsa: «ideal massa» = bo'y (sm) – 110 ga teng bo'ladi. Bunday aniqlashtirilgan indeks endi Brugsh indeksi deb ataldi. Ba'zan uni Brok-Brugsh indeksi deb ham aytildi.

Brok indeksi insonning mazkur bo'yi uchun (o'rtacha statistik kattalikka nisbatan) ideal massaning son qiymatini ko'rsatadi [26].

Massa indeksini qo'llashda o'ta ehtiyyot bo'lib, faqat taxminiy baholash uchun qo'llash talab qilinadi. Masalan, uning yordamida professional sportchilarning tana

tuzilishini baholashga urinish noto'g'ri natija berishi mumkin (inleksning yuqori natijasi bu holda muskullarni o'ta rivojlanganligi bilan tushuntiriladi). SHuning uchun tanada yog'ni jamlanish darajasini aniqroq baholash uchun tana massasi indeksi bilan bir qatorda markaziy semirish indeksini ham aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Tana massasi indeksini aniqlashning kamchiliklarini inobatga olgan holda **tana hajmi indeksi** ishlab chiqilgan [2],[3].

Bundan tashqari, tananing normal massasini aniqlash uchun bir qator indekslar qo'llanishi mumkin:

1. Brok indeksi (bo'y 155 - 170 sm bo'lganida qo'llanadi).

$$\text{Tananing normal massasi} = (\text{bo}'y \text{ (sm)} - 100) \pm 10\%.$$

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Bo'y 1, sm.	norma	$\pm$
qizlar			
1			
2			
3			
...			
yigitlar			
1			
2			
3			
...			

1. Breytman indeksi. (bo'y 170 - 185 sm bo'lganida qo'llanadi).

$$\text{Tananing normal massasi} = (\text{bo}'y \text{ (sm)} \cdot 0,7 - 50 \text{ kg}.$$

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Bo'y 1, sm.	norma, kg	$\pm$
qizlar			
1			

2			
3			
...			
yigitlar			
1			
2			
3			
...			

Noorden indeksi. (bo'y 185 sm dan kattabo'lganida qo'llanadi).

$$\text{Tananing normal massasi} = \text{bo}'y(\text{sm}) - (\text{100} + \text{bo}'y(\text{sm}) - \text{100}) / 20.$$

Olingan atijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

Sinaluvchi t.r.	Ko'krak qafasi aylanasi, sm.	Massasi, kg	normal massa, kg	±
qizlar				
1				
2				
3				
...				
yigitlar				
1				
2				
3				
...				

Bo'y-massa ko'rsatkichlardan tashqari, teri qatlamining qalinligini aniqlash usulidan foydalanish mumkin. Bu uslubiyotga ko'ra, teri qatlami qalinligi uchinchi qovurg'a sathida (normada = 1,0 - 1,5 sm) va parasagital kindik sathida (qorin mushakidan to'g'ri chiziq yonida, normada = 1,5 - 1,0 sm) aniqlanadi.

Olingan natijalarini ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang). O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### **4.3. TMILARINING KAMCHILIKLARI VA CHEKLOVLAR**

Butunjahon sog'liqni saqlash toshkiloti tavsiya etgan tana massasi indeksi (TMI) ko'rsatkichlarini tavsifi insonning jinsi va yoshini inobatga olmaydi [1]. Renehan A. G. et all. Body-msss index and insidense of sanser: a systematic review and meta-analysis of prospektive observational stypes //The Lanset. — 2008. — T. 371. — №. 9612. — S. 569—578.

SHunday bo'lsa ham, ko'pchilik mamlakatlar aholisi bo'yicha olingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, erlarda TMI ayollarda aniqlanganiga nisbatan yuqori [4]. Bundan tashqari, o'rta yoshdagi odamlarda yoshlar va qariyalardagiga nisbatan yuqori. Masalan, quyidagi 5-jadvalda AQSH sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan to'plangan AQSH aholisining antropometrik parametrlari bo'yicha aniqlangan TMI qiymatlari keltirilgan [4]. Antropometric Reference data for Children and Adults United States. SDS DHHS (2012).

5-jadval.

AQSH aholisining antropometrik parametrlari bo'yicha aniqlangan TMI qiymatlari  
(AQSH sog'liqni saqlash vazirligi)

20 yosh va undan katta yoshli er va ayollar uchun tananing massa indeksi hamda jinsi va yoshi bo'yicha foizli taqsimoti, 2007-2010 yillar. Manba: Antropometric Reference data for Children and Adults United States - AQSH sog'liqni saqlash vazirligi [5]. Kubo A., Sorley D. A. Body mass index and adenomas of the esophagus on gastric sardia: a systematic review and meta-analysis //Sancer Epidemiology Biomarkers & Prevention. — 2006. — T. 15. — №. 5. — S. 872—878.

↑Sorley D. A., Kubo A. Body mass index and gastroesophageal reflux disease: a systematic review and meta-analysis //The American journal of gastroenterology. — 2006. — Т. 101. — №. 11. — С. 2619—2628.

YOshi	Aholini foizli taqsimoti va ushbu foiz ma'lumotlarida TMI qiymatlari								
	5 %	10 %	15 %	25 %	50 %	75 %	85 %	90 %	95 %
	Erlar uchun TMI qiymati, kg / m <sup>2</sup>								
20 yosh 80+ gacha (o'rtacha)	20,7	22,2	23,2	24,7	27,8	31,5	33,9	35,8	39,2
20 - 29 yosh	19,4	20,7	21,4	22,9	25,6	29,9	32,3	33,8	36,5
30 - 39 yosh	21,0	22,4	23,3	24,9	28,1	32,0	34,1	36,2	40,5
40 - 49 yosh	21,2	22,9	24,0	25,4	28,2	31,7	34,4	36,1	39,6
50 - 59 yosh	21,5	22,9	23,9	25,5	28,2	32,0	34,5	37,1	39,9
60 - 69 yosh	21,3	22,7	23,8	25,3	28,8	32,5	34,7	37,0	40,0
70 - 79 yosh	21,4	22,9	23,8	25,6	28,3	31,3	33,5	35,4	37,8
80 yosh va undan katta	20,7	21,8	22,8	24,4	27,0	29,6	31,3	32,7	34,5
YOshi	Ayollarda TMI, kg / m <sup>3</sup>								
20 yosh 80+ gacha (o'rtacha)	19,5	20,7	21,7	23,3	27,3	32,5	36,1	38,2	42,0
20 - 29 yosh	18,8	19,9	20,6	21,7	25,3	31,5	36,0	38,0	43,9
30 - 39 yosh	19,4	20,6	21,6	23,4	27,2	32,8	36,0	38,1	41,6
40 - 49 yosh	19,3	20,6	21,7	23,3	27,3	32,4	36,2	38,1	43,0
50 - 59 yosh	19,7	21,3	22,1	24,0	28,3	33,5	36,4	39,3	41,8
60 - 69 yosh	20,7	21,6	23,0	24,8	28,8	33,5	36,6	38,5	41,1
70 - 79 yosh	20,1	21,6	22,7	24,7	28,6	33,4	36,3	38,7	42,1
80 yosh va undan	19,3	20,7	22,0	23,1	26,3	29,7	31,6	32,5	35,2

katta								
-------	--	--	--	--	--	--	--	--

## XULOSA

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati davomida va, umuman, o'z salomatligi holatiga befarq bo'lmanan sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan odamlar hayotida ham salomatlikni nazorat qilish, yaxshilash va mustahkamlash borasida nimalarga e'tibor berish kerakligi, bunda qanday ko'rsatkichlar muhimligi va ularni aniqlash (hisoblash) kerakligi, ularning normalari va yaxshilash vosita va usullari har qanday insonga qiziq.

Bunda gavda egiluvchanligini baholash, gavda sirtining yuzasini aniqlash, gavda tuzilishining proportsiyalari, qadd - qomatni tik tutish (osanka) to'g'riliqi, Latofat indeksi, salomatlik koeffitsienti, Kete indeksi, inson tanasi massasi indeksi, gavdaning proportsionallik koeffitsienti, ko'krak qafasi rivojlanishi va uning proportsionallik koeffitsienti, gavda tuzilishi baquvvatligi ko'rsatkichi, o'pkaning zaruriy tiriklik sig'imi, inson tanasining tiriklik indeksi, qo'lning kuch indeksi, nafas olish tizimi bilan bog'liq - Genche sinovi, ideal massaga oid Brok formulasi, aytilgan muhim ko'rsatkichlarning normal kattaliklari va hayotiy (sport) faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar hammani ham qiziqtirishi 'abiyy hol.

## NAZORAT SAVOLLARI

Sportchining egiluvchanlik sifati qanday aniqlanadi?

Natijalarga oddiy ishlov berishning tartibini ayting.

Sportchi gavdasi sirtining yuzasi qanday aniqlanadi?

sportchi gavdasi tuzilishining proportsiyalari qanday formula bilan aniqlanadi?

Qadd-qomat to'g'riliqi formulasini yozing va izohlang.

Latofat indeksi formulasini ayting va tavsiflang.

Sportchi uchun salomatlik koeffitsienti ahamiyati qanday? Formulasini yozing va tushuntiring.

Ketle indeksi nimani ifodalaydi?

Sportchi gavdasining proportsionallik koeffitsienti qandpy aniqlanadi?

Ko'krak qafasi rivojlanishi va uning proportsionallik koeffitsienti normalarini ayting.

Sportchi gavdasining baquvvatligi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

Sportchining o'pkasi tiriklik sig'imi formulasini yozing.

Inson tanasining tiriklik indeksi qanday hisoblanadi?

Sportchi qo'lining kuch indeksini aniqlash formulasini yozing.

Genche sinovi nimani ifodalaydi?

Inson tanasi massasining ideal kattaligi normalarini ayting.

Tana massasi indekslarining afzalliklari va kamchiliklarini izohlang.

## **5-bob. INSON LOKOMOTSIYALARI (HARAKATLARI) BIOMEXANIKASI. LOKOMOTSIYA TURLARI. YOSH BIOMEXANIKASI.**

Hayotda, inson uchun salomatlikdan ham qimmat va bebahohedan hech narsa topilmasligi azaldan ayondir. Ana shu salomatlikning asosi va, ma'lum ma'noda, saqlash, yanada sog'lomlashish, mustahkamlashning asosiy vositasi bu harakatdir. Harakat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi. Harakatlarni ilmiy asosda va rejali boshqarish, harakat xarakteristikalarini nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish sport faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **5.1. STATIK VA DINAMIK ISHLARNING FARQINI O'RGANISH.**

**Mashg'ulot maqsadi:** sport faoliyatida ko'p uchraydigan statik va dinamik ishlar, ular orasidagi farqlar, ularni aniqlash usullari va hisoblash formulalari, sport faoliyatidagi ahamiyati to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda bu ishlarning farqini aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** yuk (sumka, og'ir kitob va shu singarilar), sekundomer (yoki sekund strelkasi bor bo'lgan soat).

**Ishni bajarish tartibi:** ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi. Sinaluvchi qo'llariga yukni oladi va yukni qo'l cho'zilgan holda qo'llarni gorizontal vaziyatgacha ko'taradi. Keyin sekundomer ishga tushiriladi va gorizontal chiziq bilan qo'lni balandligi belgilanadi. Sinaluvchi ko'zlarini yumadi. Quyidagi alomatlar paydo bo'lganda har safar o'sha zahotiyoy sodir bo'lgan vaqt qayd qilinadi:

- a) yukni sekinlik bilan tushirilishi va qo'lni chiziqdan yuqoriga ko'tarilishi (odatda siltash bilan amalga oshiriladi);
- b) qo'lni titrashi, koordinatsiyani yo'qotilishi;

v) qo'lni pastga tushirish – charchashning so'nggi bosqichi – sekundomer to'xtatiladi va yakuniy vaqt belgilanadi.

Sinaluvchi t.r.	a)	b)	v)	yakuniy	Izoh
	holat sodir bo'lgan vaqt				
1					
2					
...					

15 minutdan keyin nazorat tajribasi o'tkaziladi. YUk ko'tariladi va gorizontal belgigacha tushiriladi. Sekundomer ishga tushiriladi. CHarchash keyinroq kuzatiladi, chunki mazkur ish kamroq energiya sarfini talab qiladi.

**Ishning natijalari:** olingen natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring.

O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingen natijalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingen natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingen natijalar asosida xulosa chiqaring.

## 5.2. TOMIRLARDA QON OQISHIGA MUSHAK FAOLIYATINI TA'SIRI

**Mashg'ulot maqsadi:** inson tomirlarida qon oqishida mushak faoliyati ta'sirini ahamiyati va ta'siri to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** sekundomer (yoki sekundli strelkasi bo'lган soat), chilvir.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

ish juftliklarda (guruhlarda) bajariladi. Sinaluvining taxminan bilagini o'rtasidan chilvir bilan bog'lanadi. Tajribani boshlanish vaqt sekundomer yordamida qayd qilinadi. Qon tomirlari shakli (rel'efi) yaqqol ko'ringanda vaqt qayta qayd qilinadi. Keyin qo'lni bo'shatiladi. Sinaluvchi tajribani takrorlaydi. U mushtini siqadi va yoyadi.

**Jadvalni to'ldiring.** Qanday holda qon to'lishi yanada intensivroq sodir bo'lishini aniqlang.

*6-jadval*

Mushak faoliyatini qonni tomirda oqishiga ta'siri natijalari

Bilak mushaklarining holati	Tomirni qon bilan to'lish vaqt
Tinchlikda	
Mushtni siqish va yoyishda	

**Ishning natijalari:** olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring.

O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lhash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### 5.3. TINCHLIKDA VA JISMONIY YUKLAMADAN KEYIN YURAK QISQARISHLARI CHASTOTASINI ANIQLASH

**Mashg'ulot maqsadi:** jismoniy tarbiya va sport faoliyatida yurak qisqarishlari chastotasini ahamiyati, uning optimal qiymatlari va aniqlash usullari hamda vositalari, unga jismoniy yuklamalar bajarilishining ta'siri to'g'risida tasavvur shakllantirish hamda uni aniqlash malaka va ko'nikmalarini egallash.

**Kerakli asbob va uskunalar:** sekundomer (yoki sekundli strelkali soat).

## NAZARIY MA'LUMOTLAR

Insonni yuragi (nomada) bir minutda necha marta urishi (yoki boshqcha aytganda, normal pul's qanday bo'lishi) kerak?

Normal pul's degan tushunchaga yurakning bir minut davomida urishlarining optimal soni ma'nosi kiritilgan. Biroq, bu parametr hamma odamlar uchun bir xil, ya'ni doimiy (konstanta) bo'lib hisoblanmaydi, chunki u insonning yoshiga, faoliyat sohasiga va hatto jinsiga ham bog'liq bo'ladi.

Odamda yurak qisqarishlari chastotasi (YUQCH) kattaligini doimo (ayniqsa, bemorni yoki salomatligidan xavotir kishini) sihat-salomatlik darajasi normal bo'lgan odamning pul'si bilan solishtiriladi. Bu kattalik tinch holatda bir minut davomida taxminan 60-80 yurak urishiga tenglashtiriladi. Biroq, ma'lum sharoitlarda turli odamlar uchun taxminan bu normadan 10 birlikkacha har ikkala tomonga ham og'ish ruxsat etiladi. Masalan, ayollarning yuragi erlarning yuragiga nisbatan minutiga 8-9 zarba ko'p urishi aniqlangan. Professional-sportchilarda esa yurak «ergonomik rejim»da ishlaydi. Bu degani ular uchun minutiga 50 tadan 90 tagacha zarba urib ishlashi optimal yurak urishi hisoblanadi. Sihat-salomat inson yuragi pul'si normasidan yanada jiddiyroq og'ishi insonning yoshi (ulug'ligi) bilan bog'liq.

YOshi katta odamlar uchun normal pul's mo'ljali (orientiri) sifatida ham minutiga 60-80 zarba hisoblanadi. Insonning bunday pul'si - tinch holati uchun norma hisoblanadi, agar ushbu (yoshi katta) odam yurak-qon tomir yoki boshqa YUQCHsiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasalliklarga duch kelmagan bo'lsa.

YOshi katta odamlarda yurak urishi noqulay ob-havo sharoitlarida, jismoniy yuklamalar bajarganda, his-hayajon (emotsional) oshib-toshib (jo'sh urib) ketgan hollarda ko'tarilib ketadi. Pul'sni yoshiga mos keladigan nomaga qaytarish uchun 10 minut dam olish etarli bo'ladi va bu normal fiziologik reaksiya hisoblanadi. Agarda bu dam olishdan keyin ham YUQCH normaga qaytmasa, u holda bu shifokorga murojaat qilish uchun asos bo'la oladi.

Agar yoshi katta er (mujchina) intensiv sport trenirovkalarida shug'ullanib yurgan bo'lsa, u holda uning yuragi uchun tinch holatda minutiga 50 zarba urishi ham normal hisoblanadi. Trenirovkalangan odamning organizmi yuklamalarga tez moslashadi, yurak mushaklari ulg'ayadi va shu tufayli yurakdagi chiqish hajmi ortadi. SHuning uchun uning yuragini organizmada normal qon aylanishini ta'minlash uchun ko'psonli qisqarishlarni amalga oshirishiga zarurat bo'lmaydi (to'g'ri kelmaydi) va bu yurak sekin (bemalo), biroq sifatli ishlayveradi.

Aqliy mehnat bilan band bo'lgan erlarda bradikardiya (bir minutdagi YUQCH 60 zARBADAN kam) kuzatilishi mumkin, biroq uni fiziologik hodisa deb atab bo'lmaydi, chunki hattoki uncha katta bo'lman (ahamiyatsiz) yuklamalar ham bunday erlarda qarama-qarshi holatni – taxikardiyani (minutiga YUQCH 90 zARBADAN ko'p) vujudga keltirishi (chaqirishi) mumkin. Bu yurakning ish faoliyatiga salbiy ta'sir etadi va infarktga yoki boshqa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Erlarning pul'sini normaga (minutiga 60-70 zarba) keltirish uchun ularga ovqatlanishni, kun tartibi (rejim)ni va jismoniy yuklamalarni muvozanatlashtirishga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi.

Ayollar uchun pul's normasi tinch holatda minutiga 70-90 zarba hisoblanadi, biroq bu ko'rsatkichga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ichki organlardagi kasalliklar;
- gormonal fon;
- ayolning yoshi va boshqalar.

Menopauza davrida ayollarda YUQCH normasidan sezilarli ortib ketishlar kuzatiladi. Bu vaqt davomida arterial bosimning keskin o'zgarishlari (sakrashlari) kuzatilishi mumkin. Ko'pchilik ayollar bu davrda sedativ (**Sedativ** (lotincha sedatio — tinchlantrish ma'nosini anglatadi) **vositalar** - markaziy asab tizimiga (MAT) tinchlantruvchi ta'sir ko'rsatadigan dorivor **vositalar**. **Sedativ** (tinchlantruvchi) samara turli tashqi qo'zg'atuvchilarga reaksiyani pasayishida va kunduzni faollikni birmuncha kamayishida namoyon bo'ladi) preparatlarga murojaat qiladilar va bu juda ham foyda bermaydi. Tinch

holatda pul's normadan og'ishi sodir bo'lganida shifokorga murojaat qilish va qo'llab-quvvatlovchi **terapiya** bilan shug'ullanisheng to'g'ri echim hisoblanadi.

## ISHNI BAJARISH TARTIBI

Tinch holatda pul's o'lchanadi. Natija qayd qilinadi. O'rtacha ritmda 20 marta o'tirib-turishlarni basharish kerak. Pul's zARBalarini yuklamadan keyin 10 sekunddan keyin, yana 30, 60, 90, 120, 150 va 180 sekund o'tgandan keyin qayd qiling. Hamma natijalar quyidagi 7-jadvalga kiritiladi.

*7-jadval*

YUQCHni tiklanish dinamikasi

YUklamadan keyingi o'tgan vaqt	Intervaldan keyingi pul's, s							
	10	30	60	90	120	150	180	300
YUQCH								

Olingan ma'lumotlar asosida grafik chizing: abstsissa (X) o'qi bo'yicha vaqtni, ordinata (U) o'qi bo'yicha esa – YUQCH qiymatlari qo'yiladi. Grafikda tinch holatdagi YUQCHning o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlang. Grafikda shu nuqta orqali abstsissa o'qiga parallel holda gorizontal chiziq o'tkaziladi. 20 marta o'tirib-turishlardan keyin YUQCHlari necha marta ortganligini aniqlang. Grafik asosida qancha vaqt o'tgandan keyin YUQCHlari normaga qaytishini aniqlang.

**Natijalar:** agar YUQCH 30% va undan kam bo'lsa – xorosh; agar YUQCH 30% ga ortsa – trenirovkalangan darajasi etarlicha emas. Agar YUQCH 2 minut va undan kam vaqt davomida normaga kelsa – yaxshi; agar 2-3 minutdan keyin kelsa – qoniqarli; 3 va undan ortiq minut davomida kelsa – qoniqarsiz hisoblanadi.

**Ishning natijalari:** olingan natjalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring. O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natjalarni ishchi daftariga

hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## XULOSA

Salomatlikning asosi va uni zaruriy darajasida saqlash, yanada sog'lomlashish, mustahkamlashning asosiy vositasi hamda moddiy boyliklar yaratilishining asosiy manbalaridan biri hisoblangan harakatni ilmiy asosda va rejali boshqarish, harakat xarakteristikalarini nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish hayotda va ayniqsa jismoniy tarbiya va sport faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'limda harakat bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim xarakteristikalardan statik va dinamik ishlar, ular orasidagi farqlar, ularni aniqlash usullari va hisoblash formulalari, sport faoliyatidagi ahamiyati hamda bu ishlarning farqini aniqlash, inson tomirlarida qon oqishida mushak faoliyati ta'siri, yurak qisqarishlari chastotasini ahamiyati, uning optimal qiymatlari va uni aniqlash usullari hamda vositalari, unga jismoniy yuklamalar bajarilishining ta'siri to'g'risida tasavvur shakllantirish shuningdek ularni aniqlash, baholash usul va kerakli formulalaridan foydalanish, olingan natijalarni qayta ishlash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bayon etilgan.

## ***NAZORAT SAVOLLARI***

- 1) Sport faoliyatida statik ish va uning ahamiyati nimadan iborat?
- 2) Dinamik ish nima va u statik ishdan nima bilan farq qiladi?
- 3) Statik va dinamik ishni aniqlash usullarini ayting.
- 4) Statik va dinamik ishni hisoblash formulalarini yozing va tushuntiring.
- 5) Ishning o'lchov birliklarini ayting.
- 6) Inson tomirlarida qon oqishida mushak faoliyati qanday ta'sir o'tkazadi?
- 7) YUrak qisqarishlari chastotasini ahamiyati nimada?
- 8) YUQCHning optimal qiymatlarini ayting va izohlang.
- 9) YUQCHni aniqlash usullari hamda vositalarini tushuntiring.
- 10) YUQCHga jismoniy yuklamalar bajarilishining ta'siri qanday namoyon bo'ladi?

## **6 - bob. AMALIY MASHG'ULOTLAR**

### **Amaliy mashg'ulot № 1**

### **YUGURISH KOORDINATALARI BO'YICHA PROMERNI CHIZISH**

#### **Mashg'ulotning maqsadi.**

- 1) koordinata jadvalini tuzishni o'rghanish;
- 2) berilgan ma'lumotlar asosida masshtab tanlashni o'rghanish;
- 3) yugurish koordinatalari bo'yicha tana tayanch nuqtasi koordinatalarini topishni va inson gavda vaziyati (pozasi) sxemasini (promer)ni chizish malaka va ko'nikmalarini yugurish koordinatalari uchun chizish bilan shakllantirish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

#### **TUSHUNTIRISH QISMI.**

1. Promer (13-rasm) – harakatning fazoviy-vaqt diagrammasi (tana vaziyati sxemasi). U tananing nuqtalari fazoda qaerda joylashganligini va ular ma'lum vaqt intervallaridan keyin o'z vaziyatini qanday o'zgarib borishini ko'rsatadi. Bu tana nuqtalarining tezlik va tezlanishlari kattaligini hisoblash imkonini beradi.

2. Promer maxsus kino- yoki video-suratga olish asosida chiziladi. Bitta tekislikda (masalan, engil atletikada yugurish, uzunlikka sakrash, chang'ida yurish, kon'kida yugurish va shu singarilar) bajariladigan harakatlarni o'rghanish uchun birtekislikdagi kino- yoki video-suratga olish qo'llanadi.

Murakkab fazoviy ko'chishlar (bosqonni, gardishni uloqtirish, gimnastik «Kon»da bajariladigan mashqlar) bilan bajariladigan harakatlarni o'rghanish uchun uchtekslikli kino- yoki video-suratga olish foydalilanadi. Bunda uchta

kino- yoki video-suratga olish apparatlari ularning optik o'qlari o'zaro perpendikulyar bo'ladigan bir-biridan ma'lum masofada joylashtiriladi. Suratga olish yondan, oldindan (yoki orqadan) va yuqoridan (zenitdan suratga olish) amalga oshiriladi. Kino- yoki video- apparat shunday joylashtiriladi-ki, uning bosh optik o'qi harakat yo'naliishiga yoki harakatning asosiy tekisligiga perpendikulyar bo'lishi kerak. Agar-da, apparatning optik o'qi asosiy tekislikka perpendikulyar joylashmagan bo'lsa, u holda tasvirdagi burchaklar haqiqiy egilish (burilish) burchaklariga teng bo'lmaydi. SHuning bilan birga, chiziqli o'lchamlar ham ahamiyatli darajada «bo'yilib» ketadi va bu ularni o'lchashda katta xatoliklarga olib keladi. Bu kino- yoki video-apparat joylashtirilgan joy shtsnday aniqlanishi kerak-ki, rasmga olinadigan ob'ekt lavha (kadr)ga to'lig'icha sig'ishi, apparatning optik o'qi esa qo'chish sohasining markazini qarshisida joylashishi kerak.

Sportchi harakati (ko'chishi)ni suratga olishning minimal chastotasi sekundiga 32 lavhani tashkil qiladi. SHuning bilan birga, bunda lavhalar orasidagi vaqt intervali  $1/32 \approx 0,03$  s.ga teng bo'ladi.

Suratga olishdan oldin sinaluvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tkaziladi. Uning tanasini mos asosiy bo'g'in proektsiyasi nuqtalariga (kengligi 1 sm. va uzunligi 5 sm. bo'lgan) «krest» (krest - o'zaro kesishgan ikki chiziqdan iborat belgi) qo'yiladi. Bo'g'inlar o'qi belgilarini bevosita teriga belgilagan holda, sinaluvchini plavkada (plavka - suzganda kiyiladigan kalta, tor trusik) suratga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Past harorat (temperatura) sharoitlarida suratga olishda sinaluvchiga engil kamzul (kamzulni tanaga nisbatan siljishlari siljishlari minimal bo'ladigan) kiygiziladi va bo'g'inlar o'qlari proektsiyalarini bevosita kamzulda belgilaydilar. Belgilar rangi kiyim rangiga kontrast (kontrast - ko'zga tashlanadigan qarama-qarshilik, keskin farq) bo'lishi kerak.


3. Promerlar kino- yoki video-tasvirlar bo'yicha quyidagi ikki usulda hosil qilinadi:

1) koordinatalar «to'ri»ga (kino-tasmadan - proektor orqali; foto-tasvirdan – epidiaskop orqali); shuning bilan birga, har bir lavhada (yoki suratda) minimum

ikkita mo'ljal (orientir) ularning koordinata to'ridagi tasviri bilan moslashishi kerak;

2) har bir nuqtaning har bir lavha yoki suratdagi koordinatalari bo'yicha; koordinatalar avvaliga har bir surat bo'yicha hisoblanadi va koordinatalar jadvaliga kiritiladi. Har ikkala usulda ham dastavval tasvirning masshtab (odatda, 1:1 yoki 1:10, yaxshisi 1:5) tanlanadi.

4. Koordinatalar to'rige olingan (proektsiyalangan) promer bo'yicha nuqtalar koordinatalari aniqlanadi (hisoblanadi) va ularni koordinatalar jadvaliga kiritiladi. Natijada, ikkala holda ham, promer va keyingi ishlov berish ishlari olib boriladigan koordinatalar jadvali olinadi. (Bu jarayon texnik jahatdan ma'lum qiyinchiliklar hamda vaqt tanqisligi bilan bog'liq bo'lgani sababli biz bu jarayon oxirida olingan 5- va 6-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin; bu jadvallar lavhalar soniga (ushbu holda 10 ga) teng bo'lgan gorizontal satrlar va tasvirlanadigan nuqtalar soniga (8 ga) teng vertikal ustunlardan tashkil topgan bo'ladi).



13-rasm. Inson yugurishi tsiklogrammasi (promer; tushunarli bo'lishi maqsadida 2-lavha uchun har bir biozveno jadvaldagagi mos harflar orqali belgilangan).

## **ISHNI BAJARISH TARTIBI.**

1. Millimetrlı qog'oz (o'lchamlari 200 x 350 mm.dan kam bo'lмаган) olib, unga to'g'ri burchakli XOU koordinatalar tizimini chizamiz. O'qlarni tanlab olib, ularni har 50 mm.da belgilab qo'yamiz.

2. Koordinatlar jadvalini tayyorlash (8- va 9-jadvallar; bu jadvallardagi har bir koordinata mazkur nuqtani OX yoki OU o'qidan olislik masofasini anglatadi).

3. Millimetrlı qog'ozda koordinatalar to'rini belgilab olamiz. Koordinata boshini (O nuqtani) shunday tanlash kerak-ki, OX bo'yicha 8-jadvaldagı X koordinata qiymatlarining eng kattasi va eng kichigi joylashishi hamda OU o'qi bo'yicha ham 9- jadvaldagı X koordinata qiymatlarining eng kattasi va eng kichigi joylashishi kerak bo'ladi. Buning uchun  $S_x$  va  $S_u$  qiymatlarning eng kattasi ( $d$  - barmoqlar vaziyatining 10 -  $S_x$  qiymati bo'lib, u 307 mm.ga teng;  $S_u$  uchun esa s-boshning 4-lavhadagi vaziyati (pozasi) bo'lib, u 149 ga) teng ekanligi 5- va 6-jadvallardan topiladi. SHuningdek, X koordinataning (gorizontal' bo'yicha) eng kichik qiymati  $r$  – boldir-panja bo'g'imini 1-lavhasi bo'lib, u - 9 ga hamda U koordinata (vertikal' bo'yicha)  $r$  - barmoqlarning 2-lavhasi bo'lib, u -7 ga teng ekanligini ham inobatga olish kerak bo'ladi. SHunday qilib, X o'q (gorizontal' bo'yicha) 307 va 9 jami 316 mm. (katak)dan hamda U o'qi (vertikal') bo'yicha esa 149 va 7 jami 156 mm. (katak)dan kam bo'lмаган katakli qog'oz kerak bo'ladi. Biz yuqorida aytgan (200 x 350 mm.) o'lchamli millimetrlı qog'oz bularga juda ham mos. Demak, koordinata boshini shunday tanlash kerakki, OU (vertikal' o'qda) minus – O nuqtadan pastki qismiga kamida 10 katak va musbat - O nuqtadan yuqorida qismiga kamida 150 katak, OX (gorizontal o'qda) manfiy - O nuqtadan qismiga chap kamida 10 va musbat - O nuqtadan o'ng qismiga kamida 310 katak tashlagan holda tanlash maqsadga muvofiq. SHunda, OX o'qi bo'yicha ortiqcha qolgan 40 va OU o'qi bo'yicha qolgan ortiqcha 30 katakni esa millimetrlı qog'ozni ixtiyoriy chekkasida tasvir "chiroyli chiqishi uchun" qoldirsa ham bo'ladi. Eng yaxshisi, adashmaslik uchun, 200 x 350 mm. o'lchamli millimetrlı

qog'ozning chap pastki burchagida (Ox va OU o'qlarini manfiy qismlari uchun) 30 katakdan qoldirib O-nuqtani tanlash ma'qul. Ana shunda 6- va 7-jadvallardagi kattaliklarni 1:1 masshtabida, ya'ni 1 mm. (katakka) bir birlikni qo'yish mumkin va bu qulay.

Bu erda ushbu (9; 145) qo'yilishi kerak bo'lgan nuqta holatini qanday hisoblash qulayligi juda qiziq. Bir tomondan, millimetrlı qog'ozdagi koordinata boshi – O nuqtadan o'ngga tomon 9 katak sanab va yuqoriga  $S_u = 145$  mm.ga mos 145 katak sanab ushbu chiziqlar kesishgan nuqtani topish kerak.

Ikkinchi tomondan, vertikal (OU) o'qdan «150 mm.»-150 katakni olib undan 5 katak kamaytirib - pastga tomon 5 katak sanash va gorizontal (OX) o'q bo'yicha ham «10 mm»-10 katakni olib undan bittta katakni chap tomonga kamaytirib 9 mm.ni hosil qilish juda oson. SHunga o'xshash, masalan, «89» birlikni hosil qilish uchun 100 dan 10 va yana bir katak kamaytirish yoki 111 birlik uchun «100»lik qalin chiziqqa 10 va yana 1 katak o'ngga tomon aniqlash ancha oson.

2. Tanlangan XOU koordinatalar tizimida boshning 1-lavhadagi joylashgan nuqta X koordinatasini (6-jadvaldan)  $S_x = 9$  mm va U-koordinatasini (7-jadvaldan)  $S_y = 145$  mm olib aniqlanadi, bu vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqta – bosh joylashgan nuqta atrofida diametri 10 mm. bo'lgan aylana chizib yoniga lavha tartib raqami va  $g_s$  yozib qo'yish lozim (13-rasmida tushunarli bo'lishi maqsadida 2-lavha uchun har bir biozveno jadvaldagি mos harflar orqali belgilashi ham ko'rsatib qo'yilgan). Iloji boricha, kerakli masofa-kataklar sonini hisoblashlarda millimetrlı qog'ozni ustida qalam bilan chizib – harakatlanmasdan yordamchi (har 10, 50 va 100 mm.da “yo'g'onroq” chiziq bilan belgilangan) chiziqlardan unumli foydalanish kerak.

3. Sportchi tanasi boshqa biozvenolari uchun ham birinchi lavha koordinatalarini ketma - ket joylashtiramiz.

*Izoh: Xatoliklarni oldini olish maqsadida har bir biozveno uchun nuqta hosil qilingan zahoti yoniga birdaniga uning shantli harf belgisini yozish va bitta lavha nuqtalari qo'yilgandan keyin inson tanasi sxemasi bo'yicha birlashtirish ma'qul.*

### 8-jadval

YUgurishda X-koordinatalar son qiymatlari (har bir koordinata nuqtani OX o'qdan mm.larda olislik masofasini anglatadi)


biozven o  $S_x$	Bos h	Elka bo'g'i mi	Tirsak bo'g'i mi	Bilak bo'g'i mi	CHano q-son bo'g'im i	Tizza bo'g'i mi	Boldir- panja bo'g'i mi	Barmo q-lar
1	9	15	6	30	6	10	-9	3
2	38	48	46	71	35	23	5	4
3	68	79	81	105	65	50	19	17
4	99	108	108	131	98	88	53	45
5	129	136	130	151	130	133	94	89
6	159	163	151	167	161	182	150	147
7	190	189	173	186	192	222	204	211
8	221	217	199	210	222	251	256	269
9	252	248	230	242	250	276	286	301
10	282	279	266	281	278	298	296	307

### 9-jadval

YUgurishda U-koordinatalar son qiymatlari (har bir koordinata nuqtani OU o'qdan mm.larda olislik masofasini anglatadi)

	biozven o	Bos h	Elka bo'g'i mi	Tirsak bo'g'i mi	Bilak bo'g'i mi	CHano q-son bo'g'im i	Tizza bo'g'i mi	Boldir- panja bo'g'i mi	Barmo q-lar
$S_y$		s	b	a	m	f	s	r	d
1	145	125	100	89	68	28	0	-8	
2	146	129	105	100	70	33	8	-7	
3	148	132	108	105	73	36	28	4	
4	149	131	106	89	72	34	32	19	
5	146	127	102	88	69	32	36	24	
6	143	126	102	81	70	41	30	15	
7	142	128	106	83	75	53	23	9	
8	143	131	111	87	77	53	18	10	
9	144	131	112	88	75	44	11	4	
10	142	128	107	85	72	36	1	-8	

4. Yelka markazi va tos nuqtalarini tutashtiramiz. Boshqa nuqtalarni ham inson tanasi sxemasi hosil bo'ladigan holda hosil qilingan nuqtalarni birlashtiramiz (14-rasm).



14-rasm. Lavhadagi biozvenolar ifodalangan nuqtalarni inson tanasi sxemasi singari birlashtirish.

5. 2-, 3- va 4-bandlarni tahlil qilinayotgan hamma lavhalar uchun takrorlaymiz.

Millimetrlı qog'ozda 10 ta gavda vaziyati - lavhalardagi nuqtalarni joylashtirib va 14-rasmdagi sxemaga asosan nuqtalarni tutashtirib bo'lgandan keyin gavda vaziyati (pozasi) to'g'rilagini tekshirib chiqish kerak. Bunda, eng avvalo,  $S_x$  va  $S_u$  koordinatalarni almashtirib yuborish sababli chizmadagi gavda vaziyatlari (pozalari) insonning gavda vaziyati (pozasi)ga to'g'ri kelishini, shuningdek gavda vaziyati (pozasi)ni, masalan tizzani juda oldinlab (ortda qolib ketgan, keskin yuqoriga yoki pastga joylashgani), qo'lni tos bilan ulanibqolganini, yoki keskin "sakrab" harakatlangani - o'zgarishi singari "g'aroyib" hollar bo'lmashagini tekshirish kerak.

**Ishning natijalari:** olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## Amaliy mashg'ulot № 2

### SAKRASH KOORDINATALARI BO'YICHA PROMERNI CHIZISH

#### Mashg'ulotning maqsadi.

- 1) koordinata jadvalini tuzishni o'rganish;
- 2) berilgan ma'lumotlar asosida masshtab tanlashni o'rganish;
- 3) sakrash koordinatalari bo'yicha tana tayanch nuqtasi koordinatalarini topishni va inson gavda vaziyati (pozasi) sxemasini (promer)ni chizish malaka va ko'nikmalarini yugurish koordinatalari uchun chizish bilan shakllantirish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

### TUSHUNTIRISH QISMI.

1. Promer (15-rasm) – harakatning fazoviy-vaqt diagrammasi (tana vaziyati sxemasi). U tananing nuqtalari fazoda qaerda joylashganligini va ular ma'lum vaqt intervallaridan keyin o'z vaziyatini qanday o'zgarib borishini ko'rsatadi (joyidan va yugurib kelib sakrashning biroz sekinlashgan jarayoni 16- va 17-rasmlar bilan promerni solishtiring). Bu promer tana nuqtalarining tezlik va tezlanishlari kattaligini hisoblash imkonini beradi.

3. Promer maxsus kino- yoki video-suratga olish asosida chiziladi. Bitta tekislikda (masalan, engil atletikada yugurish, uzunlikka sakrash, chang'ida yurish, kon'kida yugurish va shu singarilar) bajariladigan harakatlarni o'rganish uchun birtekislikdagi kino- yoki video-suratga olish qo'llanadi.

Murakkab fazoviy ko'chishlar (bosqonni, gardishni uloqtirish, gimnastik «Kon»da bajariladigan mashqlar) bilan bajariladigan harakatlarni o'rganish uchun uchtekslikli kino- yoki video-suratga olish foydalilanadi. Bunda uchta kino- yoki video-suratga olish apparatlari ularning optik o'qlari o'zaro perpendikulyar bo'ladigan bir-biridan ma'lum masofada joylashtiriladi. Suratga olish yondan, oldindan (yoki orqadan) va yuqoridan (zenitdan suratga olish) amalga oshiriladi. Kino- yoki video- apparat shunday joylashtiriladi-ki, uning bosh optik o'qi harakat yo'naliishiga yoki harakatning asosiy tekisligiga perpendikulyar bo'lishi kerak. Agar-da, apparatning optik o'qi asosiy tekislikka perpendikulyar joylashmagan bo'lsa, u holda tasvirdagi burchaklar haqiqiy egilish (burilish) burchaklariga teng bo'lmaydi. SHuning bilan birga, chiziqli o'lchamlar ham ahamiyatli darajada «bo'yalib» ketadi va bu ularni o'lchashda katta xatoliklarga olib keladi. Bu kino- yoki video-apparat joylashtirilgan joy shtsnday aniqlanishi kerak-ki, rasmga olinadigan ob'ekt lavha (kadr)ga to'lig'icha sig'ishi, apparatning optik o'qi esa qo'chish sohasining markazini qarshisida joylashishi kerak.


Sportchi harakati (ko'chishi)ni suratga olishning minimal chastotasi sekundiga 32 lavhani tashkil qiladi. SHuning bilan birga, bunda lavhalar orasidagi vaqt intervali  $1/32 \approx 0,03$  s.ga teng bo'ladi.

Suratga olishdan oldin sinaluvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tkaziladi. Uning tanasini mos asosiy bo'g'in proektsiyasi nuqtalariga (kengligi 1 sm. va uzunligi 5 sm. bo'lgan) «krest» (krest - o'zaro kesishgan ikki chiziqdan iborat belgi) qo'yiladi. Bo'g'inlar o'qi belgilarini bevosita teriga belgilagan holda, sinaluvchini plavkada (plavka - suzganda kiyiladigan kalta, tor trusik) suratga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Past harorat (temperatura) sharoitlarida suratga olishda sinaluvchiga engil kamzul (kamzulni tanaga nisbatan siljishlari siljishlari minimal bo'ladigan) kiygiziladi va bo'g'inlar o'qlari proektsiyalarini bevosita kamzulda belgilaydilar. Belgilar rangi kiyim rangiga kontrast (kontrast - ko'zga tashlanadigan qarama-qarshilik, keskin farq) bo'lishi kerak.



3. Promerlar kino- yoki video-tasvirlar bo'yicha quyidagi ikki usulda hosil qilinadi:

- a) koordinatalar «to'ri»ga (kino-tasmadan - proektor orqali; foto-tasvirdan – epidioskop orqali); shuning bilan birga, har bir lavhada (yoki suratda) minimum ikkita mo'ljal (orientir) ularning koordinata to'ridagi tasviri bilan moslashishi kerak;
- b) har bir nuqtaning har bir lavha yoki suratdagi koordinatalari bo'yicha; koordinatalar avvaliga har bir surat bo'yicha hisoblanadi va koordinatalar jadvaliga kiritiladi. Har ikkala usulda ham dastavval tasvirning masshtab (odatda, 1:1 yoki 1:10, yaxshisi 1:5) tanlanadi.


4. Koordinatalar to'riga olingan (proektsiyalangan) promer bo'yicha nuqtalar koordinatalari aniqlanadi (hisoblanadi) va ularni koordinatalar jadvaliga kiritiladi. Natijada, ikkala holda ham, promer va keyingi ishlov berish ishlari olib boriladigan koordinatalar jadvali olinadi. (Bu jarayon texnik jahatdan ma'lum qiyinchiliklar hamda vaqt tanqisligi bilan bog'liq bo'lGANI sababli biz bu jarayon oxirida olingan 10- va 11-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin; bu jadvallar lavhalar soniga (ushbu holda 12 ga) teng bo'lgan gorizontal satrlar va tasvirlanadigan nuqtalar soniga (8 ga) teng vertikal ustunlardan tashkil topgan bo'ladi).



15-rasm. Inson sakrashi tsiklogrammasi (promer; tushunarli bo'lishi maqsadida 1-lavha uchun har bir biozveno jadvaldag'i mos harflar orqali belgilangan).



16-rasm. Joyidan qo'llar yordamida uzunlikka sakrash.



**17-rasm. yugurib kelib uzunlikka sakrash.**

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI.**

1. Millimetrlı qog'oz (o'lchamlari  $200 \times 300$  mm.dan kam bo'lмаган) olib, унга то'ғирибurchakli XOY koordinatalar tizimini chizamiz. O'qlarni tanlab olib, ularни har 50 mm.da belgilab qo'yamiz.
2. Koordinatlar jadvalini tayyorlash (10- va 11-jadvallar; bu jadvallardagi har bir koordinata mazkur nuqtani OX yoki OY o'qidan olislik masofasini anglatadi).
3. Millimetrlı qog'ozda koordinatalar to'rini belgilab olamiz. Koordinata boshini (O nuqtani) shunday tanlash kerak-ki, OX bo'yicha 10-jadvaldagи X koordinata qiymatlarining eng kattasi va eng kichigi joylashishi hamda OY o'qi bo'yicha ham 11- jadvaldagи X koordinata qiymatlarining eng kattasi va eng kichigi joylashishi kerak bo'ladi. Buning uchun  $S_x$  va  $S_y$  qiymatlarning eng kattasi (m - bilak bo'g'imi va d - barmoqlar vaziyatining 12 -  $S_x$  qiymati bo'lib, u 227 mm.ga;  $S_y$  uchun esa s-boshning 10-lavhadagi vaziyati (pozasi) bo'lib, u 129 ga) teng ekanligi 10- va 11-jadvallardan topiladi. SHuningdek, X koordinataning (gorizontal' bo'yicha) eng kichik qiymati r – boldir-panja bo'g'imini 1-lavhasi bo'lib, u -30 ga hamda U koordinata (vertikal' bo'yicha) d - barmoqlarning 1-, 2-, 3-, 4-, 11- va 12-lavhalariga tegishli bo'lib, u -30 ga teng ekanligini ham inobatga olish kerak bo'ladi. SHunday qilib, X o'q (gorizontal' bo'yicha) 227 va 30 jami 257 mm. (katak)dan hamda Y o'qi (vertikal') bo'yicha esa 129 va 30 jami 159

mm. (katak)dan kam bo'limgan katakli qog'oz kerak bo'ladi. Biz yuqorida aytgan (200 x 300 mm.) o'lchamli millimetrlı qog'oz bularga juda ham mos. Demak, shunda koordinata boshini shunday tanlash kerakki, OY (vertikal' o'qda) minus – O nuqtadan pastki qismiga kamida 40 katak va musbat - O nuqtadan yuqorida qismiga kamida 150 katak, OX (gorizontal o'qda) manfiy - O nuqtadan qismiga chap kamida 40 va musbat - O nuqtadan o'ng qismiga kamida 260 katak tashlagan holda tanlash maqsadga muvofiq. SHunda, OX o'qi bo'yicha ham, OY o'qi bo'yicha ham millimetrlı qog'ozni ixtiyoriy chekkasida deyarli ortiqcha joy qolmay tasvir "chiroyli chiqishi uchun" qoldirsa ham bo'ladi. Eng yaxshisi, adashmaslik uchun, 200 x 300 mm. o'lchamli millimetrlı qog'ozning chap pastki burchagida (OX va OY o'qlarini manfiy qismlari uchun) 40 katakdan qoldirib O-nuqtani tanlash ma'qul. Ana shunda 8- va 9-jadvallardagi kattaliklarni 1:1 masshtabida, ya'ni 1 mm. (katakka) bir birlikni qo'yish mumkin va bu qulay.

Bu yerda ushbu qo'yilishi kerak bo'lgan (-9; 120) nuqta holatini qanday hisoblash qulayligi juda qiziq. Bir tomondan, millimetrlı qog'ozdagি koordinata boshi – O nuqtadan chapga tomon -9 katak sanab va yuqoriga  $S_u = 120$  mm.ga mos 120 katak sanab ushbu chiziqlar kesishgan nuqtani topish kerak.

Ikkinchi tomondan, vertikal (OY) o'qdан «150 mm.»-150 katakni olib undan 30 katak kamaytirib - pastga tomon 3x10 katak sanash va gorizontal (OX) o'q bo'yicha ham chapga «10 mm»-10 katakni olib undan bitta katakni o'ng tomonga kamaytirib 9 mm.ni hosil qilish juda oson. SHunga o'xhash, masalan, «89» birlikni hosil qilish uchun 100 dan 10 va yana bir katak kamaytirish yoki 111 birlik uchun «100»lik qalin chiziqqa 10 va yana 1 katak o'ngga tomon aniqlash ancha oson.

2. Tanlangan XOY koordinatalar tizimida boshning 1-lavhadagi joylashgan nuqta X koordinatasini (6-jadvaldan)  $S_x = -9$  mm va Y-koordinatasini (7-jadvaldan)  $S_y = 120$  mm olib aniqlanadi, bu vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqta – bosh joylashgan nuqta atrofida diametri 10 mm. bo'lган aylana chizib yoniga lavha tartib raqami va  $g_s$  yozib qo'yish lozim (15-rasmda tushunarli bo'lishi maqsadida 2-lavha uchun har bir biozveno jadvaldagi mos harflar orqali

belgilashi ham ko'rsatib qo'yilgan). Iloji boricha, kerakli masofa-kataklar sonini hisoblashlarda millimetrlı qog'ozni ustida qalam bilan chizib – harakatlanmasdan yordamchi (har 10, 50 va 100 mm.da “yo'g'onroq” chiziq bilan belgilangan) chiziqlardan unumli foydalanish kerak.

3. Sportchi tanasi boshqa biozvenolari uchun ham birinchi lavha koordinatalarini ketma - ket joylashtiramiz.

*Izoh: Xatoliklarni oldini olish maqsadida har bir biozveno uchun nuqta hosil qilingan zahoti yoniga birdaniga uning shantli harf belgisini yozish va bitta lavha nuqtalari qo'yilgandan keyin inson tanasi sxemasi bo'yicha birlashtirish ma'qul.*

#### 10-jadval

Sakrashda X-koordinatalar son qiymatlari (har bir koordinata nuqtani OX o'qdan mm.larda olislik masofasini anglatadi)

S <sub>x</sub>	Bos h	Elka bo'g'i mi	Tirsak bo'g'i mi	Bilak bo'g'i mi	CHano q-son bo'g'im i	Tizza bo'g'i mi	Boldir- panja bo'g'i mi	Barmo q-lar
	s	b	a	m	f	s	r	d
1	-9	-11	-16	0	-24	-16	-30	-9
2	13	14	20	28	-8	-8	-29	-9
3	30	36	42	46	10	4	-23	-9
4	52	57	62	70	34	29	-7	-9
5	72	73	72	86	56	64	20	4
6	92	90	80	95	81	100	60	40
7	112	108	90	102	103	134	99	83

8	128	124	102	111	125	159	134	142
9	147	134	121	133	146	178	174	193
10	171	147	146	162	167	191	198	220
11	191	187	172	194	187	203	207	227
12	211	211	207	227	207	217	207	227

11-jadval.

YUgurishda Y-koordinatalar son qiymatlari (har bir koordinata nuqtani OY o'qdan mm.larda olislik masofasini anglatadi)

S <sub>y</sub>	biozven o	Bos h	Elka bo'g'i mi	Tirsak bo'g'i mi	Bilak bo'g'i mi	Chano q-son bo'g'im i	Tizza bo'g'i mi	Boldir- panja bo'g'i mi	Barmo q-lar
		s	b	a	m	f	s	r	d
1	120	99	71	73	51	16	-23	-30	
2	120	99	72	85	50	14	-22	-30	
3	123	106	79	94	52	19	-14	-30	
4	126	109	81	90	57	20	-8	-30	
5	128	110	82	75	58	22	12	-4	
6	124	106	80	64	54	20	26	14	
7	122	104	84	64	51	33	29	12	
8	122	108	94	72	59	46	18	-2	
9	128	113	99	79	62	43	5	-9	
10	129	114	96	78	61	32	-9	-16	
11	128	108	88	78	58	25	-15	-30	
12	122	100	72	80	51	18	-22	-30	

4. Elka markazi va tos nuqtalarini tutashtiramiz. Boshqa nuqtalarni ham inson tanasi sxemasi hosil bo'ladigan holda hosil qilingan nuqtalarni birlashtiramiz (14-rasmga qarang).

5. 2-, 3- va 4-bandlarni tahlil qilinayotgan hamma lavhalar uchun takrorlaymiz.

Millimetrali qog'ozda 10 ta gavda vaziyati - lavhalardagi nuqtalarni joylashtirib va 14-rasmdagi sxemaga asosan nuqtalarni tutashtirib bo'lgandan keyin gavda vaziyati (pozasi) to'g'riliqini tekshirib chiqish kerak. Bunda, eng avvalo,  $S_x$  va  $S_y$  koordinatalarni almashtirib yuborish sababli chizmadagi gavda vaziyatlari (pozalari) insonning gavda vaziyati (pozasi)ga to'g'ri kelishini, shuningdek gavda vaziyati (pozasi)ni, masalan tizzani juda oldinlab (ortda qolib ketgan, keskin yuqoriga yoki pastga joylashgani), qo'lni tos bilan ulanib qolganini, yoki keskin "sakrab" harakatlangani - o'zgarishi singari "g'aroyib" hollar bo'lmasligini tekshirish kerak.

**Ishning natijalari:** olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring.  
O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### **Amaliy mashg'ulot № 3**

#### **YUGURISH VA SAKRASH XRONOGRAMMASINI CHIZISH.**

Mashg'ulotning maqsadi: harakatlanish amalining darlari va fazalarini aniqlashni o'rganish. YUgurish va sakrash tsiklogrammasi bo'yicha to'g'ri chiziqli xronogrammani chizishni o'rganish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** Harakatlanish amali tsiklogrammasi. Suratga olish chastotasi,.o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

### NAZARIY MA'LUMOTLAR

Xronogramma – bu harakatlanish fazalari diagrammasi bo'lib, u harakatlanish amali koordinatsion strukturasini asosan sifat jihatidan tahlil qilish uchun material beradi. misol tariqasida, quyidagi rasm-jadvalda yugurish davomidagi ikkilangan qadamning chiziqli xronogrammasi keltirilgan.

tayanchsiz davr 0,292 s		Tayanchli davr 0,125 s		tayanchsiz davr 0,208	
amortizatsiya fazasi		0,083 s	0,042 s	depsinish fazasi	
Sonlar ajralishi 0,083 s	Sonlar birlashishi 0,208 s	Sonlar ajralishi 0,208 s			Sonlar birlashishi 0,125 s
0	2	7		12 lavha №	
0	0,08	0,29		0,50	t, s

Rasm-sxema-diagramma. YUgurish davomidagi ikkilangan qadamning chiziqli xronogrammasi

Xronogramma shunisi bilan qulay-ki, u harakatlanish fazalari nisbatini (harakatlar ritmini) ko'rgazmali tarzda namoyon etish imkonini beradi. SHuningdek, u harakat guruhlari va qatorlari mavjudligini, ya'ni bir vaqtda va ketma-ket bajariladigan harakatlarni ko'rsatadi.

### ISHNI BAJARISH TARTIBI

- TSiklogrammada fazalarni va davrlarni biri-biridan ajralishini (biridan boshqasiga o'tishini) ifodalaydigan momentlarni aniqlash.
  - Xronogrammani hisoblash jadvali namunasini tayyorlash (10-jadval).
  - Jadvalning 1 ustuniga harakatlanish amalining davrlari va fazalarini yozing.
  - Jadvalning 2 ustuniga harakatlanish amalining aniq davri va fazasini boshlanishiga mos lavha tartib raqamini yozing.
  - Jadvalning 3 ustuniga harakatlanish amalining aniq davri va fazasini tugashiga mos keladigan lavha tartib raqamini yozing.
- Izoh: bitta fazaning tugash lavhasi bir vaqt ni o'zida boshqa (keyingi) fazaning boshlinish lavhasi bo'ladi.
- Harakatlanish amali davri yoki fazasi davomiyligini, ya'ni intervallar sonini ( $N$ ) hisoblash va jadvalning 4 ustuniga yozish kerak. Lavhalar orasidagi intervallar soni mazkur davr (yoki faza)ning oxirgi va boshlanish lavhalari tartib raqamlari farqiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\frac{\text{дavr (фаза)}}{\text{давомийлиги}} = \frac{\text{охирги лавҳа}}{\text{тартиб рақами}} - \frac{\text{бошланғич лавҳа}}{\text{тартиб рақами}}$$

- CHiziqli xronogrammani chizing. Harakatlanish amalining davomiyligi va millimetrali qog'ozning o'lchamlaridan kelib chiqqan holda vaqt ni ifodalash uchun mashtab tanlash kerak. So'ngra, davrlar va fazalar ketma-ketligiga mos holda chiziqli xronogramma chiziladi.

12-jadval.

#### Xronogrammani hisoblash jadvali namunasi

harakatlanish amalining davri va fazasi	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi boshlanish lavha tartib	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi oxirgi lavhasi tartib raqami	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi (lavhalar soni)	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi
-----------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------


	raqami			vaqt, s

8. YUgurish va sakrash plenka ma'lumotlari asosida besh ustundan iborat hisoblash jadvali tuziladi. (11- va 12-jadvallar)
9. Jadvallarning ikkinchi ustuniga yugurish va sakrash tsiklogrammasidagi har bir faza (davr)ning nomi 1- ustunga yozib chiqiladi.
10. YUgurish va sakrash plenka materiallari ko'zdan kechirilib har bir faza (davr)ning boshlanish lavhalar tartib raqamlari (nomerlari) 2-ustunga yoziladi.
11. YUgurish va sakrash plenka materiallari ko'zdan kechirilib har bir faza (davr)ning oxirgi lavhalarining tartib raqamlari (nomerlari) jadvalning 3-ustunga yoziladi.
12. Har bir fazaning oxirgi lavha sonidan boshlang'ich lavhaning sonini ayirib tashlab faza davom etgan intervallar miqdori (soni) aniqlanadi va 4-ustunga yoziladi.
13. YUgurish va sakrash jarayonida har bir fazaga ketgan vaqtini rasmga olish chastotasi orqali hisoblab 5-ustunga yoziladi.
14. Bunda sportchi yugurishini suratga olish tezligi sekundiga 32 lavha deb olinadi. Demak, bir lavha uchun  $1/32=0,031$  s vaqt ketgan. Bu ma'lumotlarga asosan 11-jadval to'ldiriladi.
15. Sportchi sakrashi vaqtida apparat 0,31 sekundda 12 lavha rasm olgan. Demak, bir lavhaga ketgan vaqt  $\frac{0,5}{12} = 0,41$ . YA'ni bir lavha rasm olish uchun 0,41 s vaqt ketgan. Bu ma'lumotlarga asosan 12-jadval to'ldiriladi.
16. 11-jadval asosida yugurishning rasmida ko'rsatilganidek to'g'ri chiziqli xronogrammasi millimetrlì qog'ozga chiziladi.
17. 12-jadval asosida sakrashning rasmida ko'rsatilganidek to'g'ri chiziqli xronogrammasi millimetrlì qog'ozga chiziladi.

13-jadval

YUgurishning chiziqli xronogrammasini hisoblash

harakatlanish amalining davri va fazasii	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi boshlanish lavha tartib raqami	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi oxirgi lavhasi tartib raqami	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi (lavhalar soni)	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi vaqt, s
Depsinish	1	2	1	$0,05*1=0,05$ sek
Uchish	2	9	8	$0,05*8=0,4$ sek
Erga qunish	9	10	1	$0,05*1=0,05$ sek




18-rasm. YUgurishning chiziqli xronogrammasi.

14-jadval

Sakrashning chiziqli xronogrammasini hisoblash

harakatlanish amalining davri va fazasii	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi boshlanish lavha tartib raqami	harakatlanish amalining aniq davri va fazasi oxirgi lavhasi tartib raqami	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi (lavhalar soni)	harakatlanish amalining davri va fazasi davomiyligi vaqtin s
Depsinish	1	5	4	$0,041 \times 4 = 0,164$
Uchish	5	11	6	$0,041 \times 6 = 0,246$
Erga qunish	11	12	2	$0,041 \times 2 = 0,082$



19-rasm. Sakrashning chiziqli xronogrammasi.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## Amaliy mashg'ulot № 4

### YUGURISH TSIKLOGRAMMASI ASOSIDA TEZLIK GRAFIGINI CHIZISH.

Mashg'ulotning maqsadi: yugurish tsiklogrammasi ma'lumotlari asosida farqlar usuli bo'yicha chiziqli tezlikni hisoblashni o'rganish. Koordinatalar jadvali orqali yugurish kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun tezlik grafigini chizish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

### NAZARIY QISM

Tezlik-bu vaqt o'tishi bilan jism (nuqta)ning fazoda vaziyatini o'zgarish tezkorligi me'yordir. U o'lchanadigan bosib o'tilgan yo'l ( $\Delta S$ )ni sarflangan vaqt oralig'i ( $\Delta t$ )ga nisbati orqali aniqlanadi. O'tilgan yo'lni (promerdagi ma'lumotlar bo'yicha) aniqlash uchun, masalan, tizza bo'g'ini nuqtasini 1-vaziyatdan (dastlabki holat – d.h.) 3-vaziyatgacha (oxirgi holat-o.h.)  $S_2$  yo'lni aniqlash uchun, bu harakatni ikki: gorizontal va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tashkil etuvchilarga ajratamiz.

Gorizontal yo'nalish bo'yicha bu yo'l d.h. va o.h. orasidagi masofaga, ya'ni  $S_{x_3}-S_{x_1} = \Delta S_{3-1}$  ga teng bo'ladi. Koordinatalar jadvalidan  $S_{x_3} = 50$  va  $S_{x_1} = 10$  larni keltirib qo'yib,  $S_{x_3}-S_{x_1} = 50-10 = 40$  ga ega bo'lamiz. Bu olingan 40 kattalik (promerdagi mm.larda) koordinatalar farqidan ( $\Delta'_x$ ) iborat (mm.larda ifodalangan).

Endi sarf bo'lgan  $\Delta t$  vaqtini qanday topamiz?

Faraz qilaylik, suratga olish chastotasi sekundiga 20 kadr ( $N = 20$ ) bo'lsin. Demak, ikki qo'shni kadrlar orasida o'tadigan vaqt oralig'i  $1/20$  s, biz ikkita har biri  $1/20$  s. bo'lgan interval ( $L = 2$ ) orasidagi  $\Delta S_{3-1}$  vaqtini, ya'ni  $1/10$  s.ni aniqlaymiz.

Promerda aniqlangan  $\Delta S = 40$  mm, bu masshtab hisobga olinmagan holdagi natija. Nuqtaning haqiqiy yo'lini topish uchun bu natijani masshtab kattaligi (1/10)ga bo'lish kerak.

SHunda haqiqiy yo'l quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta SM = 40 \times 10 = 400 \text{ mm.}$$

Vaqt uchun ifodani yozamiz:

$$\Delta t = \frac{L}{M} = \frac{2}{20} = \frac{1}{10} \text{ c}$$

Endi (1-dan 3-vaziyatgacha oraliqdagi) gorizontal tezlikni hisoblash formulasi va qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$V_{x2} = V_{x3-1} = \frac{40 \times 10 \times 20}{2} = 4000 = 4 \text{ m/c.}$$

Xuddi shu yo'l bilan vertikal yo'naliш bo'yicha  $V_y$  ham hisoblanadi.

$V_x$  va  $V_y$  kattaliklarning son qiymatlaridan foydalanib to'liq tezlanish parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni

$$V = \sqrt{V_x^2 + V_y^2}$$

Inson tanasi nuqtalarining tezligi ta'sir ko'rsatayotgan (nuqtaga qo'yilgan) kuchlar ta'siri ostida deyarli uzluksiz o'zgarib turadi: kuch qancha katta bo'lsa, tezlik ham shuncha tez o'zgaradi.

Tezlik vektor kattalik; u kattaligi (son qiymati) va yo'naliшi bilan tavsif (xarakter)lanadi. Uning yo'naliшi to'liq tezlikning parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadigan gorizontal va vertikal tashkil qiluvchilarning yo'naliшiga bog'liq bo'ladi. Umumiy holda ularni strelka yordamida ifodalanadi.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

- YUzasi o'lchamlari 350 x 250 mm bo'lgan millimetrlı qog'oz oling.
- 8-jadvaldan (yugurish tsiklogrammasi uchun X koordinata qiymatlari) koordinatlari asosida (boshning har bir lavhasi uchun) tezlikning mos qiymati

$$V_{xn} = (X_{n+1} - X_{n-1}) * 10$$

hisoblanadi va olingan natija 14-jadvalga kiritiladi.

- 7-jadvaldan (yugurish tsiklogrammasi uchun Y koordinata qiymatlari) koordinatlari asosida (boshning har bir lavhasi uchun) tezlikning mos qiymati

$$V_{un} = (Y_{n+1} - Y_{n-1}) * 10$$

hisoblanadi va olingan natija 15-jadvalga kiritiladi.

- Millimetrlı qog'ozga yugurish videotsiklogrammasi bo'yicha tezlikning (14-jadval)  $V_x$  koordinatalari grafigini chizamiz. Buning uchun X o'qi bo'yicha sportchi tanasi biozvenolarining  $V_x$  koordinatalari, Y o'qi bo'yicha esa lavhalarning tartib raqami ( $N$ ) qo'yiladi. Hosil bo'lgan nuqtalar birlashtirilib biozvenoning tezlik grafigi hosil qilinadi. (Boshqa biozvenolar uchun ham xuddi shunday davom ettiriladi). 18-rasmda, misol tariqasida, bosh (s), bilak (m) va barmoqlar (d) biozvenolari uchun tezlikning  $V_x$  koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi (sm/s larda) tasvirlangan.
- YUqoridagi singari 15-jadvaldan foydalanib yugurish videotsiklogrammasi bo'yicha tezlikning  $V_y$  koordinatalari grafigini millimetrlı qog'ozga chizamiz.

14-jadval.

YUgurish videotsiklogrammasi asosida ( $V_{xn} = (X_{n+1} - X_{n-1}) * 10$  formula bo'yicha hisoblangan) tezlikning  $V_x$  koordinatalari (sm/s larda).

Lavha t/r	$V_{xi}$	bos	Elka	Tirsak	Bilak	CHano	Tizza	Boldir-	Oyoq
		h	bo'g'i mi	bo'g'i mi	bo'g'i mi	q-son bo'g'i mi	bo'g'i mi	panja bo'g'im i	barmo qlari

		s	b	a	m	f	s	r	d
1.	$V_{x1}$	580	660	800	820	580	260	280	20
2.	$V_{x2}$	590	640	750	750	590	400	280	140
3.	$V_{x3}$	610	600	620	600	630	650	480	410
4.	$V_{x4}$	610	570	490	460	650	830	750	720
5.	$V_{x5}$	600	550	430	360	630	940	970	1020
6.	$V_{x6}$	610	530	430	350	620	890	1100	1220
7.	$V_{x7}$	620	540	480	430	610	690	1060	1220
8.	$V_{x8}$	620	590	570	560	580	540	820	900
9.	$V_{x9}$	610	620	670	710	560	470	400	380
10.	$V_{x10}$	600	620	720	780	560	440	200	120


15-jadval.

YUgurish videotsiklogrammasi asosida ( $V_{un} = (X_{n+1} - X_{n-1}) * 10$  formula bo'yicha hisoblangan) tezlikning  $V_u$  koordinatalari (sm/s larda).

Lavha t/r	$V_{yi}$	bos	Elka	Tirsak	Bilak	CHano	Tizza	Boldir-	Oyoq
		h	bo'g'i mi	bo'g'i mi	bo'g'i mi	q-son bo'g'i mi	bo'g'i mi	panja bo'g'im i	barm oqlari
	s	b	a	m	f	s	r	d	
1	$V_{y1}$	20	80	100	220	40	100	160	20
2	$V_{y2}$	30	70	80	160	50	80	280	120
3	$V_{y3}$	30	20	10	-110	20	10	240	260
4	$V_{y4}$	-20	-50	-60	-170	-40	-40	80	200
5	$V_{y5}$	-60	-50	-40	-80	-20	70	-20	-40
6	$V_{y6}$	-40	10	40	-50	60	210	-130	-150
7	$V_{y7}$	0	50	90	60	70	120	-120	-50
8	$V_{y8}$	20	30	60	50	0	-90	-120	-50
9	$V_{y9}$	-10	-30	-40	-20	-50	-170	-170	-180

10	$V_{y10}$	-40	-60	-100	-60	-60	-160	-200	-240
----	-----------	-----	-----	------	-----	-----	------	------	------

**IZOH:** shu paytgacha yugurish tsiklogramma ma'lumotlari asosida biozvenolarning chiziqli tezliklarini hisoblashda har bir zvenoning chekka (birinchi va oxirgi) lavhalari uchun aniqlab bo'lmaydi deb hisoblanar edi [2]. Biroq oraliq lavhalarda foydalangan farqlar usulidan foydalanib (hisoblash formulalariga kichik tuzatma kiritish orqali, ya'ni chekkadagi ikki qo'shni lavhalar ko'rsatkichlari farqini olib, sarflangan vaqtning yarmiga tuzatish kiritib) biozvenolarning chekka hadlari uchun ham chiziqli tezligi va tezlanishlarini hisoblash imkonini mavjud va qo'llanmada uning natijalari keltirilgan.



20-rasm. YUgurish tsiklogrammasi asosida bosh (s), bilak (m) va barmoqlar (d) biozvenolari uchun tezlikning  $V_x$  (sm/s larda) koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

**Amaliy mashg'ulot № 5**  
**SAKRASH TSIKLOGRAMMASI ASOSIDA TEZLIK GRAFIGINI**  
**CHIZISH.**

Mashg'ulotning maqsadi: yugurish tsiklogrammasi ma'lumotlari asosida farqlar usuli bo'yicha chiziqli tezlikni hisoblashni o'rganish. Koordinatalar jadvali orqali sakrash kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun tezlik grafigini chizish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

### NAZARIY QISM

Tezlik-bu vaqt o'tishi bilan jism (nuqta)ning fazoda vaziyatini o'zgarish tezkorligi me'yordir. U o'lchanadigan bosib o'tilgan yo'l ( $\Delta S$ )ni sarflangan vaqt oralig'i ( $\Delta t$ )ga nisbati orqali aniqlanadi. O'tilgan yo'lni (promerdagi ma'lumotlar bo'yicha) aniqlash uchun, masalan, tizza bo'g'ini nuqtasini 1-vaziyatdan (dastlabki holat – d.h.) 3-vaziyatgacha (oxirgi holat-o.h.)  $S_2$  yo'lni aniqlash uchun, bu harakatni ikki: gorizontal va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tashkil etuvchilarga ajratamiz.

Gorizontal yo'nalish bo'yicha bu yo'l d.h. va o.h. orasidagi masofaga, ya'ni  $S_{x_3} - S_{x_1} = \Delta S_{3-1}$  ga teng bo'ladi. Koordinatalar jadvalidan  $S_{x_3} = 50$  va  $S_{x_1} = 10$  larni keltirib qo'yib,  $S_{x_3} - S_{x_1} = 50 - 10 = 40$  ga ega bo'lamiz. Bu olingan 40 kattalik (promerdagi mm.larda) koordinatalar farqidan ( $\Delta'_x$ ) iborat (mm.larda ifodalangan).

Endi sarf bo'lgan  $\Delta t$  vaqtini qanday topamiz?

Faraz qilaylik, suratga olish chastotasi sekundiga 20 kadr ( $N = 20$ ) bo'lsin. Demak, ikki qo'shni kadrlar orasida o'tadigan vaqt oralig'i  $1/20$  s, biz ikkita har

biri  $1/20$  s. bo'lgan interval ( $L = 2$ ) orasidagi  $\Delta S_{3-1}$  vaqtini, ya'ni  $1/10$  s.ni aniqlaymiz.

Promerda aniqlangan  $\Delta S = 40$  mm, bu masshtab hisobga olinmagan holdagi natija. Nuqtaning haqiqiy yo'lini topish uchun bu natijani masshtab kattaligi ( $1/10$ )ga bo'lish kerak.

SHunda haqiqiy yo'l quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta' SM = 40 \times 10 = 400 \text{ mm.}$$

Vaqt uchun ifodani yozamiz:

$$\Delta t = \frac{L}{M} = \frac{2}{20} = \frac{1}{10} \text{ c}$$

Endi (1-dan 3-vaziyatgacha oraliqdagi) gorizontal tezlikni hisoblash formulasi va qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$V_{x2} = V_{x3-1} = \frac{40 \times 10 \times 20}{2} = 4000 = 4 \text{ m/c.}$$

Xuddi shu yo'l bilan vertikal yo'naliш bo'yicha  $V_y$  ham hisoblanadi.

$V_x$  va  $V_y$  kattaliklarning son qiymatlaridan foydalanib to'liq tezlanish parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni

$$V = \sqrt{V_x^2 + V_y^2}$$

Inson tanasi nuqtalarining tezligi ta'sir ko'rsatayotgan (nuqtaga qo'yilgan) kuchlar ta'siri ostida deyarli uzlusiz o'zgarib turadi: kuch qancha katta bo'lsa, tezlik ham shuncha tez o'zgaradi.

Tezlik vektor kattalik; u kattaligi (son qiymati) va yo'naliшi bilan tavsif (xarakter)lanadi. Uning yo'naliшi to'liq tezlikning parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadigan gorizontal va vertikal tashkil qiluvchilarning yo'naliшiga bog'liq bo'ladi. Umumiy holda ularni strelka yordamida ifodalanadi.

## **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

1. YUzasi 350 mm x 250 mm bo'lgan millimetrlı qog'oz oling.
2. 10-jadvaldan (sakrash videootsiklogrammasi uchun X koordinata qiymatlari) koordinatlari asosida (boshning har bir lavhasi uchun) tezlikning mos qiymati

$$V_{xi} = (\Delta X_i = X_{i+1} - X_{i-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natija 16-jadvalga kiritiladi.

3. 11-jadvaldan (sakrash videootsiklogrammasi uchun U koordinata qiymatlari) koordinatlari asosida (boshning har bir lavhasi uchun) tezlikning mos qiymati

$$V_{ui} = (\Delta Y_i = Y_{i+1} - Y_{i-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natija 17-jadvalga kiritiladi.

4. Millimetrlı qog'ozga sakrash videootsiklogrammasi bo'yicha tezlikning (16-jadval)  $V_x$  koordinatalari grafigini chizamiz. Buning uchun X o'qi bo'yicha sportchi tanasi biozvenolarining  $V_x$  koordinatalari, Y o'qib o'yicha esa lavhalarning tartib raqami ( $N$ ) qo'yiladi. Hosil bo'lgan nuqtalar birlashtirilib biozvenoning tezlik grafigi hosil qilinadi. (Boshqa biozvenolar uchun ham xuddi shunday davom ettiriladi). 19-rasmda, misol tariqasida, bosh(s), bilak(m) va barmoqlar(d) biozvenolari uchun tezlikning  $V_x$  koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi (sm/s larda) tasvirlangan .
5. YUqoridagi singari 17-jadvaldan foydalanib sakrash videootsiklogrammasi bo'yicha tezlikning  $V_y$  koordinatalari grafigini millimetrlı qog'ozga chizamiz.

16-jadval.

Sakrash videootsiklogrammasi asosida ( $V_{xi} = (X_{i+1} - X_{i-1}) * 10$  formula bo'yicha hisoblangan) tezlikning  $V_x$  koordinatalari (sm/s larda).

Lavha t/r	$V_{xi}$	bosh	Elka bo'g'imi	Tirsak bo'g'imi	Bilak bo'g'imi	CHanoq- son bo'g'imi	Tizza bo'g'imi	Boldir- panja bo'g'imi	Oyoq barmoq- lari
		s	b	a	m	f	s	r	d
1.	$V_{x1}$	440	500	720	560	320	160	20	0
2.	$V_{x2}$	390	470	580	460	340	200	70	0
3.	$V_{x3}$	390	430	420	420	420	370	220	0
4.	$V_{x4}$	420	370	300	400	460	600	430	130
5.	$V_{x5}$	400	330	180	250	470	710	670	490
6.	$V_{x6}$	400	350	180	160	470	700	790	790
7.	$V_{x7}$	360	340	220	160	440	590	740	1020
8.	$V_{x8}$	350	260	310	310	430	440	750	1100
9.	$V_{x9}$	430	230	440	510	420	320	640	780
10.	$V_{x10}$	440	530	510	610	410	250	330	340
11.	$V_{x11}$	400	640	610	650	400	260	90	70
12.	$V_{x12}$	400	480	700	660	400	280	0	0

17-jadval.


Sakrash videootsiklogrammasi asosida ( $V_{ui} = (U_{i+1} - U_{i-1}) * 10$  formula

bo'yicha hisoblangan) tezlikning  $V_u$  koordinatalari (sm/s larda).

Lavha t/r	$V_{yi}$	bosh	Elka bo'g'imi	Tirsak bo'g'imi	Bilak bo'g'imi	CHanoq- son bo'g'imi	Tizza bo'g'imi	Boldir- panja bo'g'imi	Oyoq barmoq- lari
		s	b	a	m	f	s	r	d
1	$V_{y1}$	0	0	20	240	-20	-40	20	0
2	$V_{y2}$	30	70	80	210	10	30	90	0
3	$V_{y3}$	60	100	90	50	70	60	140	0
4	$V_{y4}$	50	40	30	-190	60	30	260	260
5	$V_{y5}$	-20	-30	-10	-260	-30	0	340	440

6	$V_{y6}$	-60	-60	20	-110	-70	110	170	160
7	$V_{y7}$	-20	20	140	80	50	260	-80	-160
8	$V_{y8}$	60	90	150	150	110	100	-240	-210
9	$V_{y9}$	70	60	20	60	20	-140	-270	-140
10	$V_{y10}$	0	-50	-110	-10	-40	-180	-200	-210
11	$V_{y11}$	-70	-140	-240	20	-100	-140	-130	-140
12	$V_{y12}$	-120	-160	-320	40	-140	-140	-140	0

**IZOH:** shu paytgacha sakrash tsiklogramma ma'lumotlari asosida biozvenolarning chiziqli tezliklarini hisoblashda har bir zvenoning chekka (birinchi va oxirgi) lavhalari uchun aniqlab bo'lmaydi deb hisoblanar edi [2]. Biroq oraliq lavhalarda foydalangan farqlar usulidan foydalanib (hisoblash formulalariga kichik tuzatma kiritish orqali, ya'ni chekkadagi ikki qo'shni lavhalar ko'rsatkichlari farqini olib, sarflangan vaqtning yarmiga tuzatish kiritib) biozvenolarning chekka hadlari uchun ham chiziqli tezligi va tezlanishlarini hisoblash imkonи mavjud va qo'llanmada uning natijalari keltirilgan.



21-rasm. Sakrash tsiklogrammasi asosida bosh (s), bilak (m) va barmoqlar (d)

biozvenolari uchun tezlikning  $V_x$  (sm/s larda) koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi .

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### **Amaliy mashg'ulot № 6.**

## **YUGURISH TSIKLOGRAMMASI ASOSIDA TEZLANISH GRAFIGINI CHIZISH.**

Mashg'ulotning maqsadi: CHiziqli tezlik ma'lumotlari asosida farqlar usuli bo'yicha tezlanishni hisoblashni o'rGANISH.

Koordinatalar jadvali orqali yugurish kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun tezlanish grafigini chizish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

### **NAZARIY QISM**

Tezlanish – bu tezlikning vaqt o'tishi bilan o'zgarish tezkorligi me'yori. U tezlik orttirmasini (musbat-ortishi yoki manfiy-kamayishini) shu orttirmaga sarflangan vaqt intervaliga nisbati bilan aniqlanadi (o'lchanadi). Tezlanishni, ham tezlik singari ikki: gorizontal va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tashkil etuvchilar bo'yicha hisoblash qulay.

Agar tizza bo'g'ini nuqtasining 2-vaziyatdagi gorizontal tezligi 4,0 m/s ga, 4-vaziyat momentidagi tezligi (u koordinatalar farqi bo'yicha hisoblanadi)  $S_{x4} - S_{x2} = 133-50=83$  mm. bo'lsa, u holda tezlik orttirmasi  $V_{x4} - V_{x2} = 8,3-4,0 = 4,3$  m/s. ga teng bo'ladi.

Bu tezlik orttirmasi  $1/10$  s. (suratga olish chastotasi sekundiga 20 kadr bo'lgan holda ikki interval;  $N = 20$ , va  $L = 2$ ) vaqt davomida sodir bo'ldi.

Demak, tezlanish quyidagiga teng bo'ladi:

$$a_{x3} = \frac{\Delta V}{\Delta t} = \frac{\Delta'' s M N^2}{L^2} = \frac{43 \times 10 \times 20 \times 20}{4} = 43 \text{ m/c}^2.$$

Bu erda  $\Delta''$ s = 43 - birinchi ikkita farq (tezlik)larning farqi yoki «ikkinchil farq».

Bu tezlanish – yo'lning 2- va 4- vaziyatlar orasidagi qismidagi o'rtachasi; uni oraliq 3-vaziyat momentidagi oniy tezlanish deb hisoblash mumkin.

Aynan shu yo'l bilan o'sha nuqtaning o'sha vaqt momentidagi vertikal tezlanishi hisoblanadi:

$$\Delta''_{y3} = \Delta''_{y2} - \Delta''_{y4} = -4 - 8 = -12$$

$$a_{y3} = \frac{\Delta V}{\Delta t} = \frac{\Delta'' s M N^2}{L^2} = \frac{-12 \times 10 \times 20 \times 20}{4} = -12 \text{ m/c}^2$$

$a_x$  va  $a_y$  kattaliklarning son qiymatlaridan foydalanib to'liq tezlanish parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni:

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2}$$

Tezlanish vektor kattalik; u kattaligi (son qiymati) va yo'nalishi bilan tavsif (xarakter)lanadi. Uning yo'nalishi to'liq tezlanishning parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadigan gorizontal va vertikal tashkil qiluvchilarning yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Umumiy holda ularni strelna yordamida ifodalanadi.

## **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

1. YUzasi 350 mm x 250 mm bo'lgan 2 dona millimetrlı qog'oz oling.
2. 14-jadvaldan (yugurish kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun  $V_x$  koordinata qiymatlari)  $V_x$  qiymatlar asosida (har bir biozvenoning har bir lavhasi uchun) tezlanishning mos qiymati

$$a_{xi} = (V_{xi+1} - V_{xi-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natijalar 18-jadvalga kiritiladi

18. 15-jadvaldan (yugurish kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun  $V_y$  koordinata qiymatlari)  $V_y$  qiymatlar asosida (har bir biozvenoning har bir lavhasi uchun) tezlanishning mos qiymati

$$a_{yi} = (V_{yi+1} - V_{yi-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natija 19-jadvalga kiritiladi

4. Millimetrlı qog'ozga yugurish tsiklogrammasi bo'yicha tezlanishning (18-jadval)  $a_x$  koordinatalari grafigini chizamiz. Buning uchun Y o'qi bo'yicha sportchi tanasi biozvenolarining  $a_x$  koordinatalari, X o'qib o'yicha esa lavhalarning tartib raqami (N) qo'yiladi. Hosil bo'lgan nuqtalar birlashtirilib biozvenoning tezlanish grafigi hosil qilinadi. (Boshqa biozvenolar uchun ham xuddi shunday davom ettiriladi). 20-rasmda, misol tariqasida, bosh(s), bilak (m) va barmoqlar (d) biozvenolari uchun tezlanishning  $a_x$  koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi ( $sm/s^2$  larda) tasvirlangan.

5. YUqoridagi singari 19-jadvaldan foydalanib yugurish kino- yoki video-tsiklogrammasi bo'yicha tezlanishning  $a_y$  koordinatalari grafigini millimetrlı qog'ozga chizamiz.

18-jadval.

YUgurish kino- yoki video-tsiklogrammasi asosida  
tezlanishning  $a_x$  koordinatalari ( $\text{sm/s}^2$  larda).

Lavha t/r	$a_{xi}$	bos	Elka	Tirsak	Bilak	CHano	Tizza	Boldir-	Oyoq
		h	bo'g'i mi	bo'g'i mi	bo'g'i mi	q-son bo'g'i mi	bo'g'i mi	panja bo'g'i mi	barmo q-lari
	s	b	a	m	f	s	r	d	
1.	$a_{x1}$	200	-400	-1000	-1400	200	2800	0	2400
2.	$a_{x2}$	300	-600	-1800	-2200	500	3900	2000	3900
3.	$a_{x3}$	200	-700	-2600	-2900	600	4300	4700	5800
4.	$a_{x4}$	- 100	-500	-1900	-2400	0	2900	4900	6100
5.	$a_{x5}$	0	-400	-600	-1100	-300	600	3500	5000
6.	$a_{x6}$	200	-100	500	700	-200	-2500	900	2000
7.	$a_{x7}$	100	600	1400	2100	-400	-3500	-2800	-3200
8.	$a_{x8}$	- 100	800	1900	2800	-500	-2200	-6600	-8400
9.	$a_{x9}$	- 200	300	1500	2200	-200	-1000	-6200	-7800
10.	$a_{x10}$	- 0	200	0	1000	1400	0	-600	-4000
									-5200


19-jadval.

YUgurish kino- yoki video-tsiklogrammasi asosida tezlanishning  $a_y$   
koordinatalari ( $\text{sm/s}^2$  larda).

Lavha t/r	$a_{yi}$	bosh	Elka	Tirsak	Bilak	CHanoq-son	Tizza	Boldir-panja	Oyoq barmoqlari
			bo'g'imi	bo'g'imi	bo'g'imi	bo'g'imi	bo'g'imi	bo'g'imi	

		s	b	a	m	f	s	R	d
1	$a_{y1}$	200	-200	-400	-1200	200	-400	2400	2000
2	$a_{y2}$	100	-600	-900	-3300	-200	-900	800	2400
3	$a_{y3}$	-500	-1200	-1400	-3300	-900	-1200	-2000	800
4	$a_{y4}$	-900	-700	-500	300	-400	600	-2600	-3000
5	$a_{y5}$	-200	600	1000	1200	1000	2500	-2100	-3500
6	$a_{y6}$	600	1000	1300	1400	900	500	-1000	-100
7	$a_{y7}$	600	200	200	1000	-600	-3000	100	1000
8	$a_{y8}$	-100	-800	-1300	-800	-1200	-2900	-500	-1300
9	$a_{y9}$	-600	-900	-1600	-1100	-600	-700	-800	-1900
10	$a_{y10}$	-600	-600	-1200	-800	-200	200	-600	-1200

**IZOH:** shu paytgacha yugurish tsiklogramma ma'lumotlari asosida biozvenolarning chiziqli tezlanishlarini hisoblashda har bir zvenoning chekka (birinchi va oxirgi) lavhalari uchun aniqlab bo'lmaydi deb hisoblanar edi [2]. Biroq oraliq lavhalarda foydalangan farqlar usulidan foydalanib (hisoblash formulalariga kichik tuzatma kiritish orqali, ya'ni chekkadagi ikki qo'shni lavhalar ko'rsatkichlari farqini olib, sarflangan vaqtning yarmiga tuzatish kiritib) biozvenolarning chekka hadlari uchun ham chiziqli tezligi va tezlanishlarini hisoblash imkonи mavjud va qo'llanmada uning natijalari keltirilgan.



22-rasm. YUgurish tsiklogrammasi asosida bosh (s), bilak (m) va barmoqlar (d) biozvenolari uchun hisoblangan  $a_x$  ( $\text{sm/s}^2$  larda) koordinatalar bo'yicha aniqlangan tezlanishning  $a_x$  koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### Amaliy mashg'ulot № 7.

## SAKRASH TSIKLOGRAMMASI ASOSIDA TEZLANISH GRAFIGINI CHIZISH.

Mashg'ulotning maqsadi: Koordinatalar jadvali orqali sakrash kino- yoki video-tsiklogrammasi uchun tezlanish grafigini chizish CHiziqli tezlik ma'lumotlari asosida farqlar usuli bo'yicha tezlanishni hisoblashni o'rGANISH.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari  $250 \times 350$  mm. bo'lgan millimetrlidagi qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich.

## NAZARIY QISM

Tezlanish – bu tezlikning vaqt o'tishi bilan o'zgarish tezkorligi me'yori. U tezlik orttirmasini (musbat-ortishi yoki manfiy-kamayishini) shu orttirmaga sarflangan vaqt intervaliga nisbati bilan aniqlanadi (o'lchanadi). Tezlanishni, ham tezlik singari ikki: gorizontal va vertikal yo'nalishlar bo'yicha tashkil etuvchilar bo'yicha hisoblash qulay.

Agar tizza bo'g'ini nuqtasining 2-vaziyatdagi gorizontal tezligi 4,0 m/s ga, 4-vaziyat momentidagi tezligi (u koordinatalar farqi bo'yicha hisoblanadi)  $S_{x4} - S_{x2} = 133-50=83$  mm. bo'lsa, u holda tezlik orttirmasi  $V_{x4} - V_{x2} = 8,3-4,0 = 4,3$  m/s. ga teng bo'ladi.

Bu tezlik orttirmasi 1/10 s. (suratga olish chastotasi sekundiga 20 kadr bo'lgan holda ikki interval;  $N = 20$ , va  $L = 2$ ) vaqt davomida sodir bo'ldi.

Demak, tezlanish quyidagiga teng bo'ladi:

$$a_{x3} = \frac{\Delta V}{\Delta t} = \frac{\Delta'' s M N^2}{L^2} = \frac{43 \times 10 \times 20 \times 20}{4} = 43 m/c^2.$$

Bu erda  $\Delta''s = 43$  - birinchi ikkita farq (tezlik)larning farqi yoki «ikkinchi farq».

Bu tezlanish – yo'lning 2- va 4- vaziyatlar orasidagi qismidagi o'rtachasi; uni oraliq 3-vaziyat momentidagi oniy tezlanish deb hisoblash mumkin.

Aynan shu yo'l bilan o'sha nuqtaning o'sha vaqt momentidagi vertikal tezlanishi hisoblanadi:

$$\Delta''_{y3} = \Delta''_{y2} - \Delta''_{y4} = -4 - 8 = -12$$

$$a_{y3} = \frac{\Delta V}{\Delta t} = \frac{\Delta'' s M N^2}{L^2} = \frac{-12 \times 10 \times 20 \times 20}{4} = -12 m/c^2$$

$a_x$  va  $a_y$  kattaliklarning son qiymatlaridan foydalanib to'liq tezlanish parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni:

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2}$$

Tezlanish vektor kattalik; u kattaligi (son qiymati) va yo'nalishi bilan tavsif (xarakter)lanadi. Uning yo'nalishi to'liq tezlanishning parallelogramm qoidasi bo'yicha aniqlanadigan gorizontal va vertikal tashkil qiluvchilarning yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Umumiy holda ularni strelka yordamida ifodalanadi.

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

1. YUzasi 350 mm x 250 mm bo'lgan millimetrli qog'oz oling.
2. 16-jadvaldan (sakrash tsiklogrammasi uchun  $V_x$  koordinata qiymatlari)  $V_x$  qiymatlar asosida (har bir biozvenoning har bir lavhasi uchun) tezlanishning mos qiymati

$$a_{xi} = (V_{xi+1} - V_{xi-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natijalar 20-jadvalga kiritiladi

3. 17-jadvaldan (sakrash tsiklogrammasi uchun  $V_y$  koordinata qiymatlari)  $V_y$  qiymatlar asosida (har bir biozvenoning har bir lavhasi uchun) tezlanishning mos qiymati

$$a_{yi} = (V_{yi+1} - V_{yi-1}) * 10$$

formula bo'yicha hisoblanadi va olingan natija 21-jadvalga kiritiladi

4. Millimetrali qog'ozga sakrash tsiklogrammasi bo'yicha tezlanishning (20-jadval)  $a_x$  koordinatalari grafigini chizamiz. Buning uchun Y o'qi bo'yicha sportchi tanasi biozvenolarining  $a_x$  koordinatalari, X o'qib o'yicha esa lavhalarning tartib raqami (N) qo'yiladi. Hosil bo'lган nuqtalar birlashtirilib biozvenoning tezlanish grafigi hosil qilinadi. (Boshqa biozvenolar uchun ham xuddi shunday davom ettiriladi). 21-rasmda, misol tariqasida, bosh(s), bilak (m) va barmoqlar (d) biozvenolari uchun tezlanishning  $a_x$  koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi ( $\text{sm}/\text{s}^2$  larda) tasvirlangan.

5. YUqoridagi singari 21-jadvaldan foydalanib sakrash tsiklogrammasi bo'yicha tezlanishning  $a_y$  koordinatalari grafigini millimetrali qog'ozga chizamiz

20-jadval.

Sakrash kino- yoki video-tsiklogrammasi asosida  
tezlanishning  $a_x$  koordinatalari ( $\text{sm}/\text{s}^2$  larda).

Lavha nr	$a_{xi}$	bosh	Elka bo'g'imi	Tirsak bo'g'imi	Bilak bo'g'imi	CHanoq- son bo'g'imi	Tizza bo'g'i mi	Boldir- panja bo'g'imi	Oyoq barmoq -lari	
		S	b	a	m	f	s	r	d	
1.	$a_{x1}$	-	1000	-600	-2800	-2000	400	800	1000	0
2.	$a_{x2}$	-500	-700	-3000	-1400	1000	2100	2000	0	
3.	$a_{x3}$	300	-1000	-2800	-600	1200	4000	3600	1300	
4.	$a_{x4}$	100	-1000	-2400	-1700	500	3400	4500	4900	
5.	$a_{x5}$	-200	-200	-1200	-2400	100	1000	3600	6600	
6.	$a_{x6}$	-400	100	400	-900	-300	-1200	700	5300	
7.	$a_{x7}$	-500	-900	1300	1500	-400	-2600	-400	3100	
8.	$a_{x8}$	700	-1100	2200	3500	-200	-2700	-1000	-2400	
9.	$a_{x9}$	900	2700	2000	3000	-200	-1900	-4200	-7600	
10.	$a_{x10}$	-300	4100	1700	1400	-200	-600	-5500	-7100	


11.	$a_{x11}$	-400	-500	1900	500	-100	300	-3300	-3400
12.	$a_{x12}$	0	-3200	1800	200	0	400	-1800	-1400

21-jadval.

Sakrash kino- yoki video-tsiklogrammasi asosida tezlanishning  $a_y$  koordinatalari ( $\text{sm/s}^2$  larda).

Lavhat/r	$a_{yi}$	bosh	Elka	Tirsak	Bilak	CHanoq-son	Tizza	Boldir-panja	Oyoq barmoqlari
		s	b	a	m	f	s	r	d
1	$a_{y1}$	600	1400	1200	-600	600	1400	1400	0
2	$a_{y2}$	600	1000	700	-1900	900	1000	1200	0
3	$a_{y3}$	200	-300	-500	-4000	500	0	1700	2600
4	$a_{y4}$	-800	-1300	-1000	-3100	-1000	-600	2000	4400
5	$a_{y5}$	-	1100	-1000	-100	800	-1300	800	-900
6	$a_{y6}$	0	500	1500	3400	800	2600	-4200	-6000
7	$a_{y7}$	1200	1500	1300	2600	1800	-100	-4100	-3700
8	$a_{y8}$	900	400	-1200	-200	-300	-4000	-1900	200
9	$a_{y9}$	-600	-1400	-2600	-1600	-1500	-2800	400	0
10	$a_{y10}$	-	1400	-2000	-2600	-400	-1200	0	1400
11	$a_{y11}$	-	1200	-1100	-2100	500	-1000	400	600
12	$a_{y12}$	-	1000	-400	-1600	400	-800	0	-200

**IZOH:** shu paytgacha sakrash tsiklogramma ma'lumotlari asosida biozvenolarning chiziqli tezlanishlarini hisoblashda har bir zvenoning chekka (birinchi va oxirgi) lavhalari uchun aniqlab bo'lmaydi deb hisoblanar edi [2]. Biroq oraliq lavhalarda foydalangan farqlar usulidan foydalanib (hisoblash formulalariga kichik tuzatma kiritish orqali, ya'ni chekkadagi ikki qo'shni lavhalar ko'rsatkichlari farqini olib, sarflangan vaqtning yarmiga tuzatish kiritib) biozvenolarning chekka hadlari uchun ham chiziqli tezligi va tezlanishlarini hisoblash imkonini mavjud va qo'llanmada uning natijalari keltirilgan.



23–rasm. Sakrash tsiklogrammasi asosida hisoblangan  $V_x$  kattaliklar bo'yicha aniqlangan bosh(s), bilak(m) va barmoqlar(d) biozvenolari uchun tezlanishning  $a_x$  ( $\text{sm}/\text{s}^2$  larda) koordinatalari kattaligini lavha tartib raqamiga bog'liq holda o'zgarish grafigi.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

**Amaliy mashg'ulot № 8.**  
**AYLANMA HARAKAT BURCHAK TEZLIGINI HISOBLASH VA**  
**GRAFIGINI QURISH (CHIZISH).**

**Mashg'ulotning maqsadi:** jismning fazodagi burchakli vaziyatini aniqlashni o'rganish (burchakli koordinatalarni o'qish);  
jismoniy tarbiya va sport faoliyatida aylanma harakatning o'rni va ahamiyati  
to'g'risida tasavvur hosil qilish hamda bunday harakatni bajarayotgan sportchining  
burchak tezligini hisoblash va grafigini chizish malaka va ko'nikmalarini  
shakllantirish.

Farqlar usulidan foydalanib burchak tezlikni hisoblash;

Burchak xarakteristikalarining aylanma grafigini chizishni o'rganish

**Kerakli asbob va vositalar:** to'sinda katta aylanish mashqini bajarayotgan  
sportchi gavdasi harakatining biokinematik sxemasi, millimetrlı qog'oz, chizg'ich,  
burchak o'lchagich (transportir), tsirkul', qora va rangli qalamlar, o'chirg'ich.

**NAZARIY MA'LUMOTLAR.**

Qo'zg'almas o'qqa nisbatan sportchi tanasining hamma nuqtalari turli  
radiusdagi aylanalar chizgan holda harakatlansa, bunday harakat aylanma harakat  
deb aytiladi. Bunda aylanma harakat qilayotgan sportchining tanasi yoki uni ayrim  
bioqismlarining burilish burchagi yoki burilish burchagini o'zgarishi o'rganiladi.


Burchakli vaziyatlar, burchak tezlik va tezlanish jismning biron nuqtasi uchun  
emas, balki butkul (yaxlit) jism uchun aniqlanadi va ushbu kattaliklarni aniqlash  
uchun jismda uni tanitadigan (anglash uchun xizmat qiladigan) chiziq kerak  
bo'ladi. Biz qarab chiqayotgan (to'sinda orqaga katta aylanish) misolda bunday  
chiziq tananing UOM bo'yicha aniqlanadi (19-rasm). Sanoq yo'nalishini - soat  
strelkasi harakati yo'nalishi bo'yicha gimnastikachi harakati tomonga olamiz.  
O'lchov birliklari - burchak graduslari. Burchakli vaziyatni hisobga olish har bir

holatda (pozada) vertikalga nisbatan soat strelkasi bo'yicha to'sindan UOM orqali o'tkazilgan UOM radiusigacha transportir yordamida amalga oshiriladi (burchakli koordinata). Gimnastikachi tanasining burchak tezligini aniqlashning bunday usuli shartlidir. Gap shundaki, qattiq jism sifatida o'zgarib turadigan nuqtalar tizimining bunday burchak tezligi bo'lmaydi. Qattiq jismning har bir nuqtasida chiziqli tezlikning radius uzunligiga (nuqtadan aylanish o'qigacha masofaga) nisbati shu jism uchun doimiy (o'zgarmas) kattalik hisoblanadi va aynan shu qattiq jismning burchak tezligi ( $\omega$ ) bo'ladi.

Bir nechta jismlar tizimida nuqtalar tezliklari faqat ularning radiuslariga emas, balki zvenolarning bir-biriga nisbatan harakat tezligiga ham bog'liq bo'ladi. Demak, turli nuqtalardagi tezlik kattaligini ularning radiuslariga nisbati har xil va (yaxlit qattiq jism uchun bitta) burchak tezlik mavjud bo'lmaydi. Agar shartli chiziqni ( $r$ ) tanlab, uning burchak koordinatalari va ko'chishlari aniqlansa, u holda burchak tezlik ( $\omega$ )ning aylanish o'qiga nisbatan gimnastikachi tanasi vaziyatining o'zgarish tezligini taxminan aks ettiradigan son qiymatini olish mumkin.

Markazzdan intilma kuchlar, gimnastikachi tanasi va uning vazni ta'siri ostida to'sin egiladi va aylanish markazi siljyidi; bu siljish inobatga olinsa hisob-kitob ishlari ancha murakkablashadi. SHuning uchun ham bu siljishlar inobatga olinmaydi. O'lchangan burchak koordinatalar ( $\phi$ ) 20-jadvalda keltirilgan.

Burilish burchagini birligi radian (qisqacha rad.). Matematikada burchak birligi radian sifatida uzunligi radiusga teng bo'lgan yoyga (aylanma yoyiga) tiraluvchi markaziy burchak qabul qilingan.



24-rasm. Burilish burchagi va uning birligi.

AOV burchak berilgan va markazi O nuqdada bo'lgan R radiusli aylana bu burchak tomonlarini A va V nuqtalarda kesib o'tgan bo'lsa, u holda markazi O nuqtada bo'lgan R radiusli aylananing AV yoyi uzunligini radiusga nisbatiga teng bo'lgan son burchakni radian o'lchovi deb aytiladi.

$$1 \text{ rad} \approx 57,3^\circ = 57^\circ 17'44''.$$

$$1^\circ = 0,0175 \text{ rad.}$$

Ushbu ifodalarda minut va sekund yoy birliklari keltirilgan. shu o'rinda, anglashilmovchilik bo'lishini oldini olish maqsadida, minut va sekund yoy birliklaridan tashqari hayotda va fanda aynan xuddi shunday nomlar bilan vaqt birliklari ham keng qo'llaniladi. Vaqtning o'lchov birligi sifatida ishlatiladigan minut va sekund, yoy birliklaridan farqli o'laroq,  $^m$  va  $^s$ , masalan  $25^m 42^s$  ko'rinishida ifodalanadi. SHuning bilan birga quyidagi munosabatlarni ham bilib qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi.  $1' = 60''$  va  $1^m = 60^s$ . (e'tibor bering: bu birliklarning o'qilishi bir xil bo'lsa ham, ularni yozilishi, ma'nosи, ahamiyati va ishlatilishi turlicha).

Aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining burilish burchagi  $\phi$  ni shu burilish uchun ketgan vaqt  $t$  ga nisbati bilan o'lchanadigan kattalik burchak tezlik deb aytiladi,  $\omega$  bilan belgilanadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\omega = \frac{\phi}{t} \quad (1)$$

Sport amaliyotida, odatda, aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining aylanish tezligi minutdagi aylanishlar soni orqali ifodalanadi. Bunda burchak tezlik  $\omega$  bilan aylanishlar chastotasi  $v$  orasidagi bog'lanish quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\omega = 2 \cdot \pi \cdot v \quad (2)$$

Aylanma harakat qilayotgan sportchi gavdasining burchak tezligi gavdaning ikkita qo'shni holatlari orasidagi burilish burchagi ayirmasi

$$\Delta\varphi = \varphi_2 - \varphi_1 \quad (3)$$

ni shu burilish uchun ketgan vaqt t ga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin, ya'ni:

$$\omega = \frac{\Delta\varphi}{t} \quad (4)$$

Oldingi amaliy mashg'ulotlarimizdan (sakrash kinotsiklogrammasi bo'yicha tezlik grafigini chizish va boshqalarda)

$$t = \frac{\beta}{\gamma} \quad (5)$$

ekanligi ma'lum. Bu erda  $\beta$  - biokinematik sxemasi tuzilgan sportchining katta aylanishini ramga olish chastotasi,  $\gamma$  - sportchi tanasi yoki bioqismi o'rGANILAYOTGAN oraliqlar soni.


(5) formulani (4) formulaga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$\omega = \frac{\Delta\varphi \cdot \gamma \cdot 0,0175}{\beta} = \Delta\varphi \cdot k \cdot \frac{pad}{c} \quad (6)$$

Aylanayotgan tanada yoki bioqismda olingan nuqta o'tgan yo'lning shu yo'lni o'tish uchun sarflangan vaqtga nisbati (yoki nuqtani vaqt birligida o'tgan yo'li) bilan o'lchanadigan kattalik **chiziqli tezlik** deb aytildi. Chiziqli tezlikning kattaligi aylanayotgan nuqtaning aylanish markazidan uzoqligiga – radiusga to'g'ri proportional bo'lib, aylanish radiusi qancha katta bo'lsa, chiziqli tezlik ham shunchalik katta qiymatga ega bo'ladi.

Ma'lum burchak tezlik  $\omega$  bilan yakkacho'pda katta aylana mashqini bajarayotgan sportchi tanasi yoki bioqismining chiziqli tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = \omega \cdot R \quad (7).$$



**25-rasm.** Yakkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining  $\varphi$  burilish burchak son qiymatlari tasvirlanishi

### ISHNI BAJARISH TARTIBI.

1. Yakkacho'nda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchi harakatlarini sekundiga 24 lavha o'tkazib rasmga olamiz.

2. Kinoplyonka asosida aylanayotgan sportchining kinotsiklogrammasini millimetrlidagi qog'ozga chizamiz (yuqorida keltirilgan 19 – rasmni millimetrlidagi qog'ozga ko'chiring /2/).

3. Hisob boshi sifatida yakkacho'p ustuni chizig'idan o'tkazilgan to'g'ri chiziqni olamiz. Yakkacho'nda katta aylana mashqini bajarayotgan sportchi soat mili bo'yicha harakat qilmoqda deb qabul qilamiz.

4. Sportchi tanasining φ aylanish burchaklarini hisob boshi chizig'iga nisbatan aniqlaymiz, uni transportir yordamida o'lchaymiz va (/2/ qo'llanmadagi) 20 – jadvalni tegishli ustuniga yozamiz. (E'tibor bering: jadvalda burchak qiymatlari berilgan, ularni to'g'rilinga ishonch hosil qiling!)

5. Sportchi tanasi burchak tezligini (ikkinchi lavhasi uchun) aniqlash maqsadida (xuddi sakrash va yugurish kinotsiklogrammasi asosida tezlikni aniqlaganimiz singari) kinotsiklogrammaning uchinchi lavhasi uchun berilgan qiymatidan birinchi lavha uchun berilgan qiymatni ayiramiz, ya'ni

$$\omega_2 = \varphi_3 - \varphi_1.$$

Hosil bo'lgan natijani 20 – jadvalning burchak tezligi ω ni topish ustunining ikkinchi lavhasi to'g'risiga yozamiz.

5. Qolgan barcha lavhalar uchun ω burchak tezlikni quyidagi

$$\omega_i = \varphi_{i+1} - \varphi_{i-1}$$

formula bo'yicha hisoblaymiz. Bu erda i - lavha tartib raqami bo'lib, u (22 – jadvaldagisi ma'lumotlarga mos holda) i = 2, 3, 4, . . . , 24 qiymatlarni qabul qiladi. Olingan burchak tezlik qiymatlarini 11 – jadvalning tegishli ustun va lavhalarto'g'risiga yozamiz va shu bilan jadval to'ldiriladi.

7. 22 – jadvalda keltirilgan yakkacho’pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining aylanish burchaklari va burchak tezliklarining qiymatlari graduslarda ifodalangan. Ularni radian o’lchoviga o’tkazish kerak va buning uchun yuqorida keltirilgan (6) formuladan foydalanamiz.

8. 22 – jadval ma’lumotlari asosida burchak tezligining aylanma chizmasini chizish uchun millimetrlı qog’ozga 19 – rasmdagi kinotsiklogrammaga o’xhash lavhalar chizig’i hisoblangan φ burchakning son qiymatlarini transportir yordamida belgilab chizamiz (20 - rasm).

9. Burchak tezligini aylanma chizmasini chizish uchun 20 – rasmda ifodalangan radiuslar bo’ylab burchak tezligining 22 – jadvalda keltirilgan son qiymatlarini qo’yib chiqamiz (bunda  $1^{\circ}$  burchakni 1 mm ga teng deb olish tavsiya etiladi).

10. Radiuslarda burchak tezlik hosil bo’lgan nuqtalarni birlashtirib, natijada burchak tezligining aylanma chizmasini hosil qilamiz (19 – rasmi bиринчи учта лавхаси misol tariqasida keltirilgan)

11. Hosil qilingan chizma yakkacho’pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining burchak tezligi bo’yicha o’tgan yo’ldir.


12. Hosil bo’lgan burchak tezligining aylanma chizmasiga qarab yakkacho’pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining burchak tezligi va uning o’zgarishi o’rganiladi.

22- jadval

#### Aylanma harakatning burchak tezligini aniqlash

Lavha t/r	Burilish burchagi, φ	Burchak tezligi, ω	Lavha t/r	Burilish burchagi, φ	Burchak tezligi, ω
1.	3	-	13	166	45
2.	11	14	14	189	44
3.	17	16	15	210	39
4.	27	16	16	228	40
5.	33	19	17	250	44

6.	46	23	18	272	40
7.	56	26	19	290	35
8.	72	30	20	307	32
9.	86	33	21	322	26
10.	105	36	22	333	23
11.	122	39	23	345	19
12.	144	44	24	356	12
			25	356	-



26-rasm. Yakkacho'nda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining burilish burchak tezligi ( $\omega$ ) son qiymatlari tasvirlanishi

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## **Amaliy mashg'ulot № 9**

### **AYLANMA HARAKAT BURCHAK TEZLANISHINI HISOBLASH VA GRAFIGINI QURISH (CHIZISH).**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida aylanma harakatning o'rni va ahamiyati to'g'risida tasavvur hosil qilish hamda bunday harakatni bajarayotgan sportchining burchak tezlanishini hisoblash va grafigini chizish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Farqlar usulidan foydalanib burchak tezlanishni hisoblash.

Burchak xarakteristikalarining aylanma grafigini chizishni o'rganish.

**Kerakli asbob va vositalar:** to'sinda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchi gavdasi harakatining biokinematik sxemasi, millimetrlı qog'oz, chizg'ich, burchak o'lchagich (transportir), tsirkul', qora va rangli qalamlar, o'chirg'ich.

#### **NAZARIY MA'LUMOTLAR**

Burchakli vaziyatlar, burchak tezlik va tezlanish jismning biron nuqtasi uchun emas, balki butkul (yaxlit) jism uchun aniqlanadi va ushbu kattaliklarni aniqlash uchun jismda uni tanitadigan (anglash uchun xizmat qiladigan) chiziq kerak bo'ladi. Biz qarab chiqayotgan (to'sinda orqaga katta aylanish) misolda bunday chiziq tananing UOM bo'yicha aniqlanadi (19-rasm). Sanoq yo'nalishini - soat strelkasi harakati yo'nalishi bo'yicha gimnastikachi harakati tomonga olamiz. O'lchov birliklari - burchak graduslari. Burchakli vaziyatni hisobga olish har bir holatda (pozada) vertikalga nisbatan soat strelkasi bo'yicha to'sindan UOM orqali o'tkazilgan UOM radiusigacha transportir yordamida amalga oshiriladi (burchakli koordinata). Gimnastikachi tanasining burchak tezligini aniqlashning bunday usuli shartlidir. Gap shundaki, qattiq jism sifatida o'zgarib turadigan nuqtalar tizimining bunday burchak tezligi bo'lmaydi. Qattiq jismning har bir nuqtasida chiziqli

tezlikning radius uzunligiga (nuqtadan aylanish o'qigacha masofaga) nisbati shu jism uchun doimiy (o'zgarmas) kattalik hisoblanadi va aynan shu qattiq jismning burchak tezligi ( $\omega$ ) bo'ladi.

Bir nechta jismlar tizimida nuqtalar tezliklari faqat ularning radiuslariga emas, balki zvenolarning bir-biriga nisbatan harakat tezligiga ham bog'liq bo'ladi. Demak, turli nuqtalardagi tezlik kattaligini ularning radiuslariga nisbati har xil va (yaxlit qattiq jism uchun ular bitta) bir xil kattalikdagi burchak tezlik mavjud bo'lmaydi. Agar shartli chiziqni ( $r$ ) tanlab, uning burchak koordinatalari va ko'chishlari aniqlansa, u holda burchak tezlik ( $\omega$ )ning aylanish o'qiga nisbatan gimnastikachi tanasi vaziyatining o'zgarish tezligini taxminan aks ettiradigan son qiymatlarini olish mumkin.

Markazdan intilma kuchlar, gimnastikachi tanasi va uning vazni ta'siri ostida to'sin egiladi va aylanish markazi siljiydi; bu siljish inobatga olinsa hisob-kitob ishlari ancha murakkablashadi. SHuning uchun ham bu siljishlar inobatga olinmaydi. O'lchangan burchak koordinatalar ( $\phi$ ) jadvalda keltirilgan.

Aylanma harakat qilayotgan sportchining tanasi yoki uni ayrim bioqismlarining asosiy va muhim xarakteristikalaridan biri burchak tezlanishidir. O'zgaruvchan burchak tezligi bilan harakatlanayotgan sportchi tanasi burchak tezligi o'zgarishining shu o'zgarish sodir bo'lishi uchun ketgan vaqtga nisbati bilan ifodalanadigan kattalik burchak tezlanish deb aytildi,  $\varepsilon$  bilan belgilanadi va quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$\varepsilon = \frac{\omega_2 - \omega_1}{t} \quad (1)$$

Bu erda  $\omega_1$  - aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining o'lchash boshlangan paytdagi burchak tezligi,  $\omega_2$  - o'lchash oxiridagi burchak tezligi,  $t$  - vaqt.

Agar aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasi yoki uning bioqismlari o'zgarmas burchak tezligi bilan harakat qilsa, ularning chiziqli tezliklari ham

o'zgarmas bo'ladi. U holda sportchi tanasi yoki uning bioqismlari nuqtalariga o'tkazilgan urinmalar chiziqli tezlikni ko'rsatib, ularning faqat yo'nalishlarigina o'zgaradi xolos.

Harakat yo'nalishi bunday o'zgarishining o'ziga xos ko'rsatkichlaridan biri markazga intilma tezlanish  $a_n$  (normal tezlanish) bo'lib, u aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining burchak tezligi kvadratiga va aylanish radiusiga to'g'ri proportsional bo'ladi, ya'ni :

$$a_n = \omega^2 \cdot R \quad (2)$$

O'zgaruvchan burchak tezligi bilan aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining aylanishida faqat burchak tezligining yo'nalishigina o'zgarib qolmay, balki uning kattaligi (moduli) ham o'zgaradi. Burchak tezligi kattaligining o'zgarishini tangentsial tezlanish  $a_m$  xarakterlaydi.

Aylanayotgan tananing tangentsial tezlanishi  $\varepsilon$  - burchak tezlanishi va  $R$  - aylanish radiusiga to'g'ri proportsionaldir, ya'ni

$$a_m = \varepsilon \cdot R \quad (3).$$

Aylanma harakat qilayotgan sportchining umumiy tezlanishi  $a_n$  - normal tezlanish va  $a_m$  - tangentsial tezlanishlarning geometrik yig'indisidan iborat bo'ladi.

$$\overrightarrow{a} = \overrightarrow{a}_n + \overrightarrow{a}_m \quad (4).$$

Aylanma harakat qilayotgan sportchi tanasining burchak tezligi berilgan biokinematik sxema asosida o'rganilayotganligi sababli burchak tezlanishni ham

shu asosda o'rganib (oldingi amaliy mashg'ulotlarga qarang) (1) formulani quyidagicha yozamiz:

$$\varepsilon = \frac{\Delta \omega}{\Delta t} = \frac{\Delta \omega \cdot \gamma}{\beta} \quad (5).$$

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI.**

1. YAkkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchi harakatlari uchun burchak tezlanishni aniqlashni misol tariqasida o'rganamiz.
2. 8 – amaliy mashg'ulotdagi 22 – jadval asosida quyidagi 23 – jadvalni tuzamiz.
3. 22 – jadvaldagi burchak tezligi son qiymatlari ko'chirib yoziladi va shu asosda burchak tezlanishning son qiymatlari hisoblab topiladi. Buning uchun hisob boshi sifatida yakkacho'p ustuni chizig'idan o'tkazilgan to'g'ri chiziqni olamiz. YAkkacho'pda katta aylana mashqini bajarayotgan sportchi soat mili bo'yicha harakat qilmoqda deb qabul qilamiz.
4. Sportchi tanasi burchak tezlanishini (ikkinchi lavhasi uchun) aniqlash maqsadida (xuddi sakrash va yugurish kinotsiklogrammasi asosida tezlikni hamda aylanma harakat uchun burchak tezlikni aniqlaganimiz singari) kinotsiklogrammaning uchinchi lavhasi uchun berilgan  $\omega$  ni qiymatidan birinchi lavha uchun berilgan  $\omega$  qiymatini ayiramiz va (5) formula asosida ikkinchi lavhasi uchun burchak tezlanishni hisoblab, natijani 23 – jadvalni tegishli ustuningning ikkinchi lavhasi to'g'risiga yozamiz.
5. Qolgan barcha lavhalar uchun  $\varepsilon$  burchak tezlanishni quyidagi

$$\varepsilon_i = \omega_{i+1} - \omega_{i-1}$$

formula bo'yicha hisoblaymiz. Bu erda  $i$  - lavha tartib raqami bo'lib,  $u$  ( $20 - jadvaldag'i ma'lumotlarga mos holda$ )  $i = 2, 3, 4, \dots, 24$  qiymatlarni qabul qiladi. Olingan burchak tezlanish qiymatlarini  $16 - jadvalning$  tegishli ustun va lavhalarto'g'risiga yozamiz va shu bilan jadval to'ldiriladi.

6. YAkkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining tezlanishi pastga tushish vaqtida musbat qiymatga, yuqoriga ko'tarilish paytida esa manfiy qiymatga ega bo'lganligi uchun uning chizmasini chizishda aylanish markazi sifatida yakkacho'p o'qi olinadi. SHu o'qdan o'tadigan ixtiyoriy radiusli aylana uning hisob boshi sifatida nol' deb qabul qilinadi.

7. 19 – rasmda (/2/ qo'llanmaga qarang) yakkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchi burchak tezlanishining chizmasi dastlabki uchta lavha uchun 21 - jadval ma'lumotlari asosida misol tariqasida keltirilgan. Qolgan lavhalar mustaqil o'rganish uchun qoldirildi.

8. 19 – rasm millimetrlı qog'ozga ko'chirib olinadi. SHu rasmdagi aylanish radiuslari bo'ylab 21 – jadvalda keltirilgan tezlanishning son qiymatlari 3 – lavhadan boshlab qo'yiladi va nuqtalar hosil qilinadi (bunday chiziqlar aniqroq chiqishlari uchun  $1^\circ$  burchak tezlanishni 5 mm.ga teng deb olish maqsadga muvofiq).


9. Hosil bo'lgan nuqtalarni birlashtirib yakkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining burchak tezlanishi chizmasi hosil qilinadi va shu chizma asosida sportchining aylanma harakati o'rganiladi.

23- jadval

#### Aylanma harakatning burchak tezlanishni aniqlash

Lavha t/r	Burilish tezligi, $\omega$	Burchak tezlanishi $\varepsilon$	Lavha t/r	Burilish tezligi, $\omega$	Burchak tezlanishi $\varepsilon$
13.	-	-	13	45	0
14.	14	-	14	44	- 6

15.	15	2	15	39	- 4
16.	16	3	16	40	5
17.	19	7	17	44	0
18.	23	7	18	40	- 9
19.	26	7	19	35	- 8
20.	30	7	20	32	- 9
21.	33	6	21	26	- 9
22.	36	6	22	23	- 7
23.	39	6	23	19	- 11
24.	44	6	24	12	-
			25	-	-



27-rasm. Yakkacho'pda katta aylanish mashqini bajarayotgan sportchining burilish burchak tezlanishi ( $\varepsilon$ ) son qiymatlari tasvirlanishi

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### **Amaliy mashg'ulot № 10**

## **FOYDALI MEXANIK ISHNI VA UNING O'RTACHA QUVVATINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi.** Harakatning energetik xarakteristikalarini analitik usul bilan aniqlash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

### **BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR.**

Agar qattiq jismga ta'sir ko'rsatayotgan kuchning kattaligi o'zgarmas bo'lib qolsa, u holda bu kuchning to'g'ri chiziqli ko'chishda (A) bajargan ishi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$A = F S \cos\alpha, \quad (31)$$

bunda  $\alpha$  - kuch vektori yo'nalishi bilan ko'chish vektori yo'nalishi orasidagi burchak.

Ko'pchilik hollarda harakatlarni bajarishda kuch doimiy bo'lib turavermaydi, balki harakatni o'zi oz-mi ko'p-mi darajada murakkab, hattoki egri chiziqli bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda kuchni bajargan ishi (jismning harakat traektoriyasini kichik bo'laklarga bo'lingan deb tasavvur qilib) quyidagi formula bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$A = \Sigma F \cos\alpha dS, \quad (32)$$

bunda  $dS$  - traektoriya bo'ylab o'lchangan cheksiz kichik ko'chish. Biz qarayotgan holda  $\alpha = 0$ , chunki ko'chish va kuchning ta'sir yo'naliishlari o'zaro mos tushib turibdi.

Fizikada, jumladan, biomexanikada asosiy o'lchov birliklardan biri bo'lgan kuch, umumiy holda, mexanikaning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan Nyutonning ikkinchi qonuni hamda ushbu qonunda ifodalangan massa va tezlanish to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni bilish maqsadga muvofiq (oldingi mavzularda sportchining harakati davomida yugurish va sakrash koordinatalari asosida turli biozvenolarning tezligi va tezlanishi to'g'risida tasavvur va etarlicha miqdoriy ma'lumotlarga ega bo'lgansiz). Demak, Nyutonning ikkinchi qonuni matematik ifodasi

$$F = m \cdot a$$

asosida endi (sportchining massasini bilgan holda) kuch kattaligini hisoblash mumkin.

Quvvat ( $N$ ) ishni bajarishga sarflangan vaqt bo'yicha ishni tavslif (xarakter)laydi:

$$N = A / t = F \cdot V$$

Ilgarilanma ko'chishda jismning kinetik energiyasini o'zgarishi quyidagi ifodadan hisoblab topilishi mumkin:

$$\Delta E = m (V_2^2 - V_1^2) / 2, \quad (36)$$

bunda  $V_2$  va  $V_1$  - jismning oxirgi va boshlang'ich tezliklari.

## **ISHNI BAJARISH TARTIBI.**

1. YUgurish va sakrash tsiklogrammasidagi koordinata, tezlik va tezlanish kattaliklaridan foydalanib turli biozvenolar uchun va turli lavhalar orasidagi quyidagi kattaliklarni:
  - A) bajarilgan foydali mexanik ishni,
  - B) shu oraliqda sportchi foydali mexanik ishining quvvatini
  - V) energiyaning o'zgarishini hisoblang.
2. Olingan natijalarni quyidagi jadvalga kriting.

T.r.	Boshang'ich lavha t.r.	Oxirgi lavha t.r.	bajarilgan foydali mexanik ish	foydali mexanik ishining quvvati	energiyaning o'zgarishi
	YUgurish tsiklogrammasi bo'yicha				
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
	Sakrash tsiklogrammasi bo'yicha				
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					

**Ishning natijalari:** olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring. Hisoblashlarni kamida olti marta (III-IV, IV-V, IV-VI, III-VII, V-IX va IV-X lavhalar orasida) takrorlab, olingan natijalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

### Amaliy mashg'ulot № 11

## DINAMOMETR VOSITASIDA KINESTETIK SEZGINI ANIKLASH

**Mashg'ulotning maqsadi:** panja dinamometri yordamida muskul kuchining sezgirlingi bo'yicha insonning kinestetik sezgirlingini aniqlashni o'rganish va sportchining muskul sezgirlingini baholash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

### NAZARIY QISM.

Odatda, biz muskul sezgirlingi to'g'risida o'ylab ham ko'rmaymiz. SHu bilan birga, usiz qoshiqdagi ovqatni biz, hatto, og'izga to'g'ri olib borishni, yozishni ham amallay olmagan bo'lardik yoki pianinochilar usiz umuman hech ish qila olmagan bo'lar edi. Ko'zni yumgan holatda, har bir inson, xatosiz va aniq hozirgi paytda o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i qanday vaziyatda va qaerda ekanligini aytib berishi, ushbu barmoq bilan burunni uchiga tegishi mumkin. Insonda o'z gavdasi va uning zvenolari ustidan bunday nazorat jarayonini proprioreceptorlar ta'minlaydilar; ular - muskul sezgirlingi organlari hisoblanadi.

«Proprios» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda «shaxsiy» ma'nosini anglatadi. Retseptor - bu katak bo'lib, u tashqi dunyodan signallarni qabul qiladi va

ularni fiziologik uyg'onishga aylantiradi. Proprietseptiv sezgilar insonga ma'lum bir jism qismlarining tinch holatdagi vaziyatini hamda amalga oshirilayotgan harakatlar paytida ularning holatini o'zgarishiga oid ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyatini beradi. Proprietseptorlardan kelib tushadigan ma'lumotlar insonga doimo o'z qaddi-qomatini va ixtiyoriy harakatlar aniqligini nazorat qilish, tashqi qarshilikka qarshi kurashishda, masalan yukni ko'tarishda yoki siljitimda, muskullar qisqarish kuchi miqdorini me'yorlash imkonini beradi. Proksimal muskullarning burchakli holati o'zgarishini qabul qilish chegarasi distal muskullarnikiga nisbatan: elka muskullarida 0,2-0,4 gradusga va qo'llar barmoqlari muskullarida taxminan 1 gradusga past. Harakatlarning burchak tezligi ortib borishi bilan mazkur chegara ham ortadi; shu munosabat bilan bajarilayotgan harakatlarning aniqligi pasayadi. Insonning ixtiyoriy muskul qisqarishlari kuchini differentsiallash qobiliyati Veber-Fexner qonuniga bo'ysunadi. Bu qobiliyat ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan eng kichik va eng katta muskul zo'riqishlarida kamayadi.

Sog'lom inson ongli holatda o'z barmoqlarining holatini va harakatlarini sezishi mumkin. SHu bilan birga, xususiy (muskul) va tashqi (passiv) harakatni sezish qobiliyatlari deyarli teng (masalan, elka burchak o'zgarishini  $0,5^{\circ}$  ga oshiradi). Odam, shuningdek, o'zining harakatiga o'zi, xususan buyumning vazni, ko'rsatayotgan qarshilikni etarli darajada aniq (solishtirganda xatolik 10 % dan oshmagan holda) qayd etishi mumkin.

Keyingi yillarda fiziologlar aynan proprietseptorlarga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Muskul urchuqlarining (urchuq - ip yigirish qurilmasi) ishi o'ylaganidan ham ancha murakkab bo'lib chiqdi. Asab tizimi faoliyatining ko'pgina muhim muammolari ularning misolida, xususan to'g'ri va teskari aloqalar muammosi, o'rganiladi. Fiziologlar tili bilan gaplashishlarda kibernetika yoki informatsiya nazariyasidan olingan iboralar yildan yilga tobora ortib bormoqda. Bu hol tasodifiy emas, chunki dunyoda inson ongidan ham mukammalroq kibernetik qurilma mavjud emas. Haqiqatan ham, ong buyruq beradi; masalan muskullarga, asab impul'slarini yuboradi va ular buning natijasida qisqaradi - qo'llar yoki

oyoqlar harakatga keladi. Bu biokibernetik ma'noda to'g'ri aloqa. O'z navbatida, muskullar doimiy ravishda asab impul'slari kodi yordamida ongga o'z holatlari haqida «xabar beradilar». Bu endi teskari aloqa bo'ladi.

Muskullarning mexanik qisqarishida ushbu urchkqlarda asab impul'slari paydo bo'ladi. Asab to'qimalari orqali impul'slar elka miyasiga, keyin esa bosh miyaga tomon «yuguradilar». Ushbu asab to'qimalari - organizmdagi eng yo'g'on to'qimalardan hisoblanadi. Aniqlanishiga ko'ra, to'qima qanchalik yo'g'on bo'lsa, u orqali impul'slar shunchalik tez uzatilar ekan. SHuning uchun mazkur to'qimalar orqali proprietseptorlardan miyaga tomon impul'slarni tarqalish tezligi juda katta bo'lib, uning son qiymati  $100 \frac{m}{c}$  gacha etadi, ya'ni taxminan  $360 \frac{km}{coam}$  ga teng.

Muskul sezirligi insonga o'zining har bir muskulini, erda mustahkam turgan butun gavdasini sezish imkoniyatini beradi.

### ***Muskul sezgirligi turlari.***

Proprioretseptsiya tufayli inson tayanch harakatlanish apparati mushaklari holatini, harakatining yo'nalishi va tezligini hamda muskul kuchini sezishi mumkin.

***Holatni sezishi*** – har bir mushakning, va ularning yig'indisi sifatida butun gavdaning holati va vaziyati qanday burchak ostida joylashganligini sezish qobiliyati.

***Vaziyatni sezishi*** – uglomer (burchakni o'lchaydigan qurilma) yordamida o'r ganiladi. Sportchi dastlabki vaziyatda tik turgan holatda qo'lini yon tomonga ko'taradi va uni  $90^0$ li burchak ostida egadi, keyin burchak aniqlanguncha ko'z qiri bilan harakatni nazorat qilib tirsak bo'g'inini takror egadi. Odatda, quyidagi uchta vaziyat: o'tkir ( $90^0$  dan kichik), to'g'ri ( $90^0$ ) va o'tmas ( $90^0$  dan katta) burchak tanlanadi. Keyin ushbu test 6 – 8 marta, faqat ko'z qiri bilan nazorat qilmagan holatda, takrorlanadi. Xatoligi  $10^0$  dan ortmaydigan proprietseptiv sezgirlik normal hisoblanadi. Agar xatolik ushbu qiymatdan katta bo'lsa, proprietseptiv sezgirlik past deb baholanadi. Mazkur test gavdaning turli qismlari vaziyatini ko'z qiri bilan

nazorat qilmasdan qayd etish zarur bo'lgan akrobatikada, sport gimnastikasida, suvga sakrashda, figurali uchishda, batutda sakrashda va boshqalarda qo'llanadi.

***Harakat sezgirligi*** – bu muskullarning harakati yo'nalishi va tezligi to'g'risida ma'lumot (informatsiya). Inson muskulning qisqarishi natijasidagi faol harakatni ham, tashqi sabablar vujudga keltiradigan passiv harakatni ham qabul qiladi. Qabul qilish chegarasi muskullarning egilish burchagi o'zgarish amplitudasiga va tezligiga bog'liq bo'ladi.

***Harakatlanish (muskul-mushakli)*** analizator markaziy asab tizimiga organizmning harakatda ishtirok etayotgan (miyaning katta yarimsharlarida harakatlanish sohasi mavjud) hamma tashkiliy qismlarini harakatning har bir momentidagi holati va kuchlanishiga oid signal yuborib turadi. Faol jismoniy tarbiya mashqlari bilan muntazam shug'ullanganda bosh miya qobig'i o'zining faoliyati plastikligi sababli funksional o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir mobaynida ularning faoliyati koordinatsiyalanadi: mashqni bajarish buyrug'i va uning bajarilishini ko'rsatilishi eshitish va ko'rish analizatorlari tomonidan qabul qilinadi; bu uyg'onish kinestezik (harakatlanish) kataklariga o'tadi va u talab qilingan harakatni chaqiradi.

***Berilgan harakatlarni takrorlash aniqligini fazoda aniqlashda*** kinematometrdan foydalilanadi. Harakatlanish analizatori uning turli zvenolarining faoliyati bilan bog'liq. Harakatlanish analizatorining funksional holatini baholash uchun proprietseptiv sezgirligi tadqiq qilinadi. Kinematometrdan foydalaniib berilgan harakatlarni fazoda qayta takrorlash aniqligi aniqlanadi. Tadqiqot quyidagidan iborat: sportchi barmoqlari holatini kinematometr mahkamlangan ma'lum burchakkacha o'zgartiradi, keyin 10 sekunddan so'ng avval vizual kuzatish bilan, keyin kuzatmasdan (ko'zlarni yumgan holatda) mazkur harakat takrorlanadi. Qayta takrorlash aniqligi trenirovkaga bog'liq. Harakatlanish analizatori akrobatika, suvga sakrash, sport gimnastikasi, batutda sakrash, chang'ida sakrash singari va boshqa sport turlarida katta rol' o'ynaydi.

***Kuch sezgirligi*** – bu harakatlanish yoki bo'g'inni ma'lum holatda ushlab turish uchun ta'sir ko'rsatadigan muskul kuchlanishini baholash qobiliyati.

**Kinestetik sezgirlik (kuch sezgirligi)** panja dinamometri yordamida tadqiq qilinadi. Avval maksimal kuch aniqlanadi. Keyin sportchi dinamometrga qaragan holda 3-4 marta siqish maksimal kuchlanishining 50 % iga teng bo’lgan kuchlanish bilan siqadi. Undan keyin mazkur kuchlanish ko’z bilan kuzatmagan holatda 3-5 marta takrorlanadi (takrorlashlar orasidagi tanaffus – 30 s.). Kuchning sezgirligi panjaning siqish kuchi haqiqiy kattaligidan berilgan qiymatini og’ish kattaligi orqali (% larda) aniqlanadi va baholanadi. Agar panjaning siqish kuchi haqiqiy va berilgan kattaligi o’rtasidagi farq 20 % dan ortmasa, kinestetik sezgirlik (kuch sezgirligi) – muskul kuchlanishini aniqlash qobiliyati normal deb baholanadi.

### ISHNI BAJARISH TARTIBI.

1. Ishni boshlashdan oldin nazariy qismini diqqat-e’tibor bilan o’rganing hamda insonning kinestetik sezgirligi to’g’risidagi asosiy tushunchalar va iboralarning mazmun-mohiyatini o’zlashtiring. O’lchash natijalarini kiritish uchun jadvalni tayyorlang (22-jadvalga qarang). Talabalar orasidan ishchi guruhi tuzish va dinamometr yordamida panja siqish kuchini o’lchash uchun ikki talabani tanlab olish. Panja dinamometrining yaroqliligini va ko’rsatishlari aniqligini tekshirish. Dinamometr yordamida turli rejimlarda: vizual nazorat bilan va usiz beshkarrali takrorlash bilan ishtirokchilarning panja siqish kuchini o’lchash. Panja dinamometri ko’rsatkichlarini 24-jadvalga kriting.

2. quyidagi formula bo’yicha sportchining panjasি siqish maksimal kuchining o’rtacha arifmetik qiymatini aniqlang:

3.

$$\overline{F_m} = \frac{1}{5} \cdot (F_{m1} + F_{m2} + F_{m3} + F_{m4} + F_{m5}) .$$

Vizual nazorat ostida panja maksimal siqish kuchi 50 % ini 5 marta o’lchash natijalarining o’rtacha arifmetik qiymatini aniqlang:

$$\overline{F_k} = \frac{1}{5} \cdot (F_{k1} + F_{k2} + F_{k3} + F_{k4} + F_{k5}) .$$

Vizual nazoratsiz panja maksimal siqish kuchi 50 % ini 5 marta o'lhash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlang:

$$\overline{F_o} = \frac{1}{5} \cdot (F_{o1} + F_{o2} + F_{o3} + F_{o4} + F_{o5}) .$$

Sportchi panja siqilishining berilgan va haqiqiy kuchlanishi o'rtasidagi foizlarda ifodalangan farqni haqiqiy kuchlanish o'rtachasiga nisbatini quyidagi formula orqali hisoblang:

$$\delta = \frac{\left| \overline{F_k} - \overline{F_o} \right|}{\overline{F_k}} \cdot 100 \% ,$$

bu erda  $\delta$  - sportchi panja kuchlanishining berilgan va haqiqiy qiymatlari o'rtasidagi farqni kuchlagish o'rtacha arifmetik qiymatiga nisbati (nisbiy xatolik) bo'lib, u foizlarda ifodalanadi,  $\left| \overline{F_k} - \overline{F_o} \right|$  - sportchi panja kuchlanishining berilgan va haqiqiy qiymatlari o'rtasidagi farq moduli (absolyut xatolik).

Agar  $\delta < 20 \%$  bo'lsa, sportchining muskul kuchlanishi normal deb aniqlanadi.  $\delta > 20 \%$  bo'lganda esa sportchi muskul kuchlanishi normaga mos kelmasligi aniqlangan bo'ladi.

Hisoblash ishlari natijalari asosida har bir ishtirokchining kinestetik sezgirligi (kuch sezgirligi) holatini sifat jihatdan baholang.

24-jadval.

Panja dinamometri yordamida sportchi panja siqilish kuchini o'lhash natijalari.

	Panja dinamometri yordamida panja siqilish kuchini o'lhash rejimi
--	-------------------------------------------------------------------

t.r.	vizual nazorat		vizual nazoratsiz
	panja siqilish maksimal kuchi, N	panja siqilish maksimal kuchining 50 % i, N	panja siqilish maksimal kuchining 50 % i, N
1			
2			
3			
4			
5			
o'rtacha arifmetik qiymati			

#### Topshiriqlar:

1. Insonning kinestetik sezgirligi to'g'risida asosiy tushunchalar va iboralarni o'rghanish.
2. Ishni bajarish tartibi bilan tanishib chiqish.
3. O'lchash natijalari qayd etiladigan jadvalni tayyorlash (jadvalga qarang).
4. Talabalar orasidan ikki kishini tanlab olish va ular bilan birgalikda panja dinamometri ko'rsatkichlari aniqligini tekshirish.
5. Har bir ishtirokchining mos rejimda (vizual nazorat bo'lganda va vizual nazorat bo'limganda) aniqlangan panja siqilish kuchi qiymatini aniqlash.
6. Ishtirokchilar panjasini siqilish kuchini besh karra takrorlash bilan o'lchash.
7. Har bir ishtirokchi uchun alohida vizual nazorat bo'lgan va vizual nazorat bo'limgan hollarda qayd etilgan panja siqilish kuchlari o'rtasidagi farqni hisoblash.
8. Vizual nazoratda panja siqilish maksimal kuchi uchun o'rtacha arifmetik qiymatni hisoblang.
9. Vizual nazoratda panja siqilish maksimal kuchining 50 % i uchun o'rtacha arifmetik qiymatni hisoblang.

10. Vizual nazoratsiz panja siqilish maksimal kuchining 50 % i uchun o'rtacha arifmetik qiymatni hisoblang.
11. O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqarish.

**Amaliy mashg'ulot. № 12.**

**ODAM TANASI UMUMIY OG'IRLIK MARKAZINI ANALITIK  
USUL BILAN ANIQLASH.**

Mashg'ulotning maqsadi: gavda tizimlarining UOM holatini analitik usul bilan aniqlashni o'rghanish.

Dastlabki ma'lumotlar: jismoniy mashq fazasining promeri. Odam gavdasi massasi.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari  $250 \times 350$  mm. bo'lgan millimetrlı qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich, kal'kulyator.

***ISHNI BAJARISH TARTIBI:***

1. Gavda UOM holatini hisoblash jadvali blankasidan 3 dona tayyorlang.
2. Barcha jadvallarda 1, 2 va 5 ustunlarni to'ldiring. Gavda bo'g'inlari og'irlik markazlarining nisbiy og'irliklari va nisbiy radiuslarining qiymatlarini jadval (2- ilova)dan oling.
3. Gavda bo'g'inlarining absolyut og'irliklarini hisoblang:

$$R = 0,01 \cdot m \cdot R_{nis.}, \quad (6)$$

bunda,  $m$ - sinovdan o'tkazilayotgan sportchi gavdasining massasi.  
Natijalarni 3-ustunga yozing.

4. Promerda gavda bo'g'inlari uzunliklarini o'lchang (bosh va qo'llar kaftlaridan tashqari). Ma'lumotlarni 4–ustunga yozing.

5. Promerda gavda bo'g'inlari og'irlilik markazlarining radiuslari kattaliklarini hisoblang:

$$R_{om} = l \cdot R_{nisb.om}, \quad (7)$$

bunda,  $l$  – bo'g'in uzunligi. Natijalarni 6–ustunga yozing.

6. Promerda gavda bo'g'inlari og'irlilik markazlarini belgilang.

7. Promerda gavda bo'g'inlari og'irlilik markazlarining koordinatalarini aniqlang, bosh va qo'llar kaftlarinikini ham. Ma'lumotlarni 7– va 9– ustunlarga yozing.

8. Jadvalning 3 va 7, 3 va 9 ustunlaridagi mos ravishdagi qatorlarini ko'paytirgan holda gavda bo'g'inlari og'irlilik kuchi momentlarini ( $r_x$  va  $r_y$ ) hisoblang. Natijalarni mos ravishda 8- va 10 ustunlarga yozing.

9. Og'irlilik kuchi momentlarining summasini ( $\Sigma r_x$  va  $\Sigma r_y$ ) hisoblang.

10. Gavda UOM koordinatalarini

$$X = \frac{\sum x \cdot p_x}{P}$$

$$Y = \frac{\sum y \cdot p_y}{P}$$

formulalardan foydalangan holda hisoblang. Gavda UOM holatini promerda belgilang.

11. Promerning qolgan kadrlari uchun 4 – 10 bandlarni qaytaring.

**Misol:** tayanch nuqtalarining koordinatalari (25–jadval) berilgan, gavda massasi 45 kg. Gavdaning sxemasini tuzing. Gavda UOM holatini aniqlang.

25 - jadval.

### UOM koordinatalarini hisoblash

<b>Bo'g'in</b>	<b>P,%</b>	<b>P,kg</b>	<b><i>l,</i> mm</b>	<b>R<sub>nisb.o.m.</sub></b>	<b>R<sub>o.m.</sub> mm</b>	<b>X, mm</b>	<b>px, kg mm</b>	<b>Y, mm</b>	<b>ry, kg mm</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>
Bosh	7	3,15	—	—	—	30	94,50	45	141,75
Tana	43	19,35	36	0,44	16	49	948,15	27	522,45
O'ng elka	3	1,35	17	0,47	8	26	35,10	27	36,45
CHap elka	3	1,35	14	0,47	7	41	55,35	43	58,05
O'ng bilak soha	2	0,90	17	0,42	7	20	18,00	11	9,90
CHap bilak soha	2	0,90	15	0,42	6	59	53,10	43	38,70
O'ng kaft	1	0,45	—	—	—	15	6,75	0	0
CHap kaft	1	0,45	—	—	—	72	32,40	40	18,00
O'ng son	12	5,40	27	0,44	12	71	383,40	11	59,40
CHap son	12	5,40	23	0,44	10	79	426,60	25	135,00
O'ng boldir	5	2,25	20	0,42	8	93	209,25	5	11,50
CHap boldir	5	2,25	28	0,42	12	95	213,75	22	49,50
O'ng oyok tovoni	2	0,90	10	0,44	4	109	98,10	1	0,90
CHap oyoq tovoni	2	0,90	12	0,44	5	107	96,30	5	4,50

$$R = 45 \text{ kg}; \quad \Sigma x r_x = 2670,75 \text{ kg mm}; \quad \Sigma u r_y = 1085,85 \text{ kg mm}.$$

Gavda nisbiy og'irliliklari ( $R_{nisb.}$ , %) va og'irlilik markazlarining nisbiy radiuslari ( $R_{nisb.o.m.}$ ) qiymatlari 1-jadval (2-ilova)dan olingan. Masalan, son uchun proksimal oxiridan mos ravishda 12% va 0,44%. SHunda, sonning absolyut og'irligi 5,40 kg ga teng. Promerda o'ng sonning uzunligi ( $l$ ) 27 mm

ga teng. Demak, tos–son bo’g’imidan sonning og’irlik markazigacha bo’lgan masofa 12 mm ga teng ( $27 * 0,44 = 12$ ). O’ng sonning o’qiga, tos–son bo’g’imidan 12 mm masofada belgi qo’yamiz. Ushbu belgining koordinatalri (o’ng sonning og’irlik markazi):

$$X = 71 \text{ mm}, Y = 11 \text{ mm}.$$

SHundan keyin,

$$X \text{ o’qi bo’yicha: } xr_x = 5,40 \times 71 = 383,40 \text{ (kg mm)}$$

va

$$Y \text{ o’qi bo’yicha: } ur_y = 5,40 \times 11 = 59,40 \text{ (kg mm)}$$

og’irlik kuchi momentini hisoblaymiz.

Gavda bo’g’inlari og’irlik kuchi momentlari summasini hisoblaymiz:

$$\sum xr_x = 94,50 + \dots + 96,30 = 2670,75 \text{ (kg mm);}$$


$$\sum ur_y = 141,75 + \dots + 4,50 = 1085,85 \text{ (kg mm).}$$

Gavda UOM koordinatalarini hisoblaymiz:

$$X = 2760,75 / 45 = 59 \text{ (mm),}$$

$$Y = 1085,85 / 45 = 24 \text{ (mm).}$$

Rasmida gavda UOM holatini belgilaymiz (20- rasm).



28 – Rasm. Gavda bo’g’inlari og’irlik markazlari va UOM ko’rsatilgan gavdaning 14 bo’g’inli sxemasi.

Olingan natijalarini hisobot daftariga kiriting va rasmdagidek chizmada ifodalang.

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosalar chiqaring.

### Amaliy mashg'ulot № 13

## **YUGURIB KELIB YADRONI IRG'ITISH SPORT TEKNIKASINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi.** Ko'po'zgaruvchili regressiya tenglamalaridan foydalaniib jismoniy mashqni bajarish texnikasini baholashni o'rGANISH.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari 250 x 350 mm. bo'lgan millimetrlidagi qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich, kal'kulyator.

### **BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR.**

Ko'po'zgaruvchili regressiya tenglamalari, yugurib kelib yadroni irg'itish natijalari bilan testlar natijalarini bog'laydigan tenglamalar hisoblanadi.

Ana shunday yo'l bilan yadroni irg'itish bo'yicha sport natijasi ( $Y$ ) bilan yotgan holda shtangani ko'tarib – tushirish (jim  $x_1$ ), elkada shtanga bilan o'tirib – turishlar ( $x_2$ ), joyida turib yadroni uloqtirish ( $x_3$ ), joyida turib yuqoriga sakrash ( $x_4$ ), boshi uzra yadroni uloqtirish ( $x_5$ ) natijalari orasidagi bog'lanish aniqlangan:

$$Y_1 = 7,455 + 0,010 \cdot x_1 + 0,028 \cdot x_2, \quad (43)$$

$$Y_2 = 0,252 + 0,953 \cdot x_3 + 0,023 \cdot x_4 - 0,0001 \cdot x_5. \quad (44)$$

YAdroni irg'itish texnikasi samaradorligini baholash me'yorlari 26-jadvalda keltirilgan. Test natijalari esa 27-jadvalda keltirilgan.

### *26-jadval*

YAdroni uloqtirish texnikasi samaradorligini baholash

$Y_{\text{haqiqiy}} - Y_{\text{hisob.}}$	>1,65 m	0-1,65 m	0- -1,65 m	< -1,65 m
samaradorlik	a'lo	yaxshi	o'rtacha	yomon

### **ISHNI BAJARISH TARTIBI.**

- O'tkazilgan test (27-jadvaldagi) ma'lumotlarini (43) va (44) tenglamalarga qo'ying, yugurib kelib yadroni irg'itish bo'yicha kutiladigan natijalarni, ya'ni  $Y_{\text{hisob.1}}$  va  $Y_{\text{hisob.2}}$  larni hisoblang; olingan natijalarni 28-jadvalga kriting.

### *27-jadval*

Testda olingan ma'lumotlar va yadro yadro uloqtirishda harakatlanish (ta'sir) natijalari

Nº	X <sub>1</sub> , kg	X <sub>2</sub> , kg	X <sub>3</sub> , m	X <sub>4</sub> , sm	X <sub>5</sub> , m	Y haqiqiy, m
1	2	3	4	5	6	7
1	140	182	12,96	59	15,59	13,96
2	140	182	14,10	60	14,84	15,60
3	140	182	13,80	53	16,51	13,73
4	140	182	13,10	53	15,13	12,70
5	169	220	11,62	53	14,12	13,61
6	169	220	13,53	59	16,01	15,31
7	169	220	12,80	53	16,14	15,92
8	169	220	13,71	60	14,24	16,99
9	115	146	13,61	58	14,90	14,38
10	115	146	11,83	55	15,07	11,03

11	115	146	12,86	58	16,00	12,35
12	115	146	12,90	59	14,99	12,89
13	128	163	13,75	61	16,52	12,57
14	128	163	13,84	52	15,38	14,07
15	128	163	12,90	59	15,24	14,97
16	128	163	11,52	54	14,90	11,66
17	155	192	14,14	58	16,21	14,38
18	155	192	11,54	52	15,24	14,30
19	155	192	12,79	53	16,28	14,40
20	155	192	12,79	53	16,28	14,98
21	155	192	14,22	14,22	15,15	16,11

2. Haqiqiy ( $Y_{haqiqiy}$ ) va kutiladigan 1- va 2- ( $Y_{hisob.}$ ) natijalarini va ularning haqiqiy qiymat bilan farqlarini hisoblab, olingan natijalarni 28-jadvalga kriting.
3. Olingan farqlarni 26-jadvaldagi ma'lumotlar bilan solishtiring va xulosa chiqarib uni 28-jadvalni mos ustunlariga yozing.

### 28-jadval

Haqiqiy (test) va kutilayotgan natijalarni solishtirish va xulosalar chiqarish

1.	$Y_{haqiqiy}$	$Y_{hisob.1}$	farq	xulosa	$Y_{hisob.2}$	farq	xulosa
2.	13,96						
3.	15,60						
4.	13,73						
5.	12,70						
6.	13,61						
7.	15,31						
8.	15,92						
9.	16,99						

10.	14,38						
11.	11,03						
12.	12,35						
13.	12,89						
14.	12,57						
15.	14,07						
16.	14,97						
17.	11,66						
18.	14,38						
19.	14,30						
20.	14,40						
21.	14,98						
22.	16,11						

4. Aynan shu ijro etuvchi tomonidan yugurib kelib yadroni uloqtirish texnikasi to'g'risida xulosa chiqaring.

5. Quyidagi savolga javob bering: mazkur matematik modeldan foydalanib yadroni uloqtirish texnikasining samaradorligini baholashda ahamiyatli farq bo'lishini imkonli bormi?

**Ishning natijalari:** olingan natijalarни ishchi daftarga hujjatlashtiring.

Jadvalning 1-, 2- va 5- ustunlarida keltirilgan haqiqiy va hisoblangan (kutilayotgan) kattaliklarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, ular uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## Amaliy mashg'ulot № 14

### **INSON TANASI UZUNLIGINI BASHORAT (PROGNOZ) QILISH VA UOM HOLATINI HISOBLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MATEMATIK MODEL ANIQLIGINI BAHOLASH.**

**Ishning maqsadi.** Pedagogik-biomexanik nazoratni amalga oshirishda regressiya tenglamalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash. O'lchashlarning absolyut va nisbiy xatoliklarini hisoblashni o'rganish. Tarozida tortish (o'lchash) yo'li bilan tananing UOMni aniqlash bilan tanishish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** o'lchamlari  $250 \times 350$  mm. bo'lgan millimetrlidagi qog'oz, qora va rangli qalamlar, lineyka, o'chirg'ich, kal'kulyator.

### **BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR.**

Ilmiy tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, ko'po'lchamli regressiya tenglamalari tananing antropometrik ko'rsatkichlari bilan uning UOM vaziyatini bog'liqligini ifodalashi mumkin. CHunonchi, ota-onaning antropometrik parametrlari o'sib borishi bilan ularning farzandini o'sishi bog'liqligini (5) va (6) formulalar orqali ifodalash mumkin.

YOsh bolalarning keljakdagi bo'yisi (tana uzunligi)ni otasini ( $l_o$ ) va onasini ( $l_m$ ) bo'yisi orqali quyidagi tenglamalar asosida aniqlash mumkin:

$$O'g'il bolaning kelgusidagi bo'yini o'sishi = (l_e + 1,08 l_a) / 2, \quad (5)$$

$$Qiz bolaning kelgusidagi bo'yini o'sishi = (l_a + 0,923 l_e) / 2. \quad (6)$$

SHuningdek, V.N. Seluyanov ma'lumotlariga ko'ra, erlar uchun yotgan asosiy stoyka (stoyka – (sport va harbiyda) gavdani (qaddni) qimirlatmay tikka turish) holatida gavdasi uzunligi (bo'y) quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Y_{UOM_e} = 11,066 + 0,675 x_1 - 0,173 x_2 - 0,299 x_3, \quad (7)$$

bunda  $x_1$  – tik turgan holatdagi bo'yi,  $x_2$  - boldir aylanasi uzunligi,  $x_3$  - bo'yi minus oyoq uzunligi.

L.P. Raytsina ma'lumotlariga ko'ra ayollarda aynan shu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Y_{UOM_a} = -4,667 + 0,289 x_1 + 0,383 x_2 + 0,301 x_3, \quad (8)$$


bunda  $x_1$  - oyoq uzunligi,  $x_2$  - yotgan holatdagi bo'yi,  $x_3$  - tos kengligi.

**Kerakli asbob va uskunalar.** Tarozi, taxta, o'lchash lentasi (reletka yoki lineyka).

### ISHNI BAJARISH TARTIBI.

2. O'lchashlar (tadqiqot) natijalari uchun bayonnomma (protokol) nusxasini tayyorlang (quyidagi misoldagi 29-jadval singari).
3. Taxtaning uzunligi (d) va taxtaning taroziga bosim kuchini (R) o'lchang. Olingan natijalarni bayonnomma (29-jadval)ga kriting.
4. (7) va (8) formulalarga kirgan antropometrik parametrlarni o'lchang va olingan natijalarni 27-jadvalga kriting.


Izoh: oyoq uzunligi 23 – rasmdagidek o'lchanadi; tos kengligi esa old qovurg'a bilan qorin orasidagi nuqtalar orasidagi masofaga teng bo'ladi.



29-rasm. Oyoq uzunligini o'lhashga oid.

4. Sinaluvchilarning massalari ( $m$ ) o'lchanadi. Natijalar 29-jadvalga yoziladi.
5. Sinaluvchi bilan taxtaning taroziga bosim kuchini ( $R_{t.}$ ) o'lchang. Natijani 27-jadvalga kriting.
6. Sinaluvchilarning jinsini inobatga olgan holda  $Y_{UOM1}$ ning kattaligini hisoblang. Natijani 29-jadvalga kriting.
7. Tarozida tortish (o'lhash) usuli bo'yicha tananing UOM vaziyatini quyidagi formulaga ko'ra hisoblang:

$$Y_{uom2} = d \cdot (R_{t.} - R) / m, \quad (45)$$



30-rasm. (Tarozida) o'lhash usuli bilan UOMni aniqlashda o'lhash taxtasida insonni turishining printsipial sxemasi.

8. Tananing UOMni matematik modeldan foydalanib aniqlashda o'lchashlarning absolyut xatoligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$\Delta Y_{uom} = Y_{uom2} - Y_{uom1} \quad (46)$$

12. Tananing UOMni matematik modeldan foydalanib aniqlashda o'lchashlarning nisbiy xatoligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$\varepsilon = (\Delta Y_{uom} / Y_{uom1}) \cdot 100\% \quad (47)$$

10. (5) yoki (6) formulalardan foydalanib o'zingizni faraz (tasavvur) qilinadigan bo'yingizni hisoblang.

11. (46) va (47) formulalardan foydalanib matematik modeldan foydalanib tananing uzunligi (bo'y)ni bashorat (prognoz) qilishdagi o'lchashlarning absolyut va nisbiy xatoliklarini aniqlang.

12. olingan natijalarni ishchi daftarga hujjatlashtiring. O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalarni ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

13. Tananing UOMni aniqlash va tana uzunligi (bo'yni) bashorat (prognoz) qilishda matematik modeldan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida xulosa chiqaring.

*Izoh.* Agar o'lchashlarning nisbiy xatoligi  $\pm 5\%$  dan katta bo'lmasa, u holda tadbiq qilinayotgan matematik model' pedagogik - biomexanik tahlillar uchun qo'llanishi mumkin.

### Misol.

29-jadval

Inson tanasi UOM holatini matematik model va (tarozida) tortish usulidan foydalanib aniqlash

T.r. №	jinsi	X <sub>1</sub> , sm	X <sub>2</sub> , sm	X <sub>3</sub> , sm	U uom 1, sm	m, kg	R <sub>to'la</sub> , kg	U uom 2, sm	ε, %
1	Er	175	38	80	98,0	68	42,980	97,0	1,7
2									
3									
4	Ayo 1	99	164	24	94,0	55	36,400	96,0	-2,1
5									
6									

**Izoh.** Taxtaning uzunligi (d) 200 sm, taxtani taroziga bosim kuchi (R) 10 kg.

Uyga topshiriq: O'z xususiy ma'lumotlaringizdan foydalanib:  $l_e = 180$  sm,  $l_a = 172$  sm,  $l_{o'lchash} = 187$  sm, o'z bo'yingizni (5)-formula bo'yicha boshorat qiling, shuningdek boshoratning absolyut va nisbiy xatoligini aniqlang:

$$l_{\text{bashorat.}} = (180 + 1,08 * 172) / 2 = 182,9 \text{ (sm).}$$

$$\Delta l = 187 - 182,9 = 4,1 \text{ (sm).}$$

$$\varepsilon = 4,1 / 182,9 = 2,2\%$$

**Xulosa.** Tananing UOMi holatini aniqlash va gavda uzunligi (bo'y)ni bashorat (prognoz) qilish uchun matematik modellardan foydalanish pedagogik - biomexanik nazoratni amalga oshirish uchun etarli bo'ladigan natijalarini beradi. O'lchashlarni kamida besh marta takrorlab, olingan natijalarini ishchi daftariga hujjatlashtirib, olingan natijalar uchun eng oddiy ishlov berishni bajaring (birinchi topshiriqqa qarang).

O'lchash va hisoblashda olingan natijalar asosida xulosa chiqaring.

## XULOSA

Sportchi harakatlarini o'rganish jarayonida promerdan foydalaniladi. Promer – harakatning fazoviy-vaqt diagrammasi (tana vaziyati sxemasi). U tananing nuqtalari fazoda qaerda joylashganligini va ular ma'lum vaqt intervallaridan keyin o'z vaziyatini qanday o'zgarib borishini ko'rsatadi. Bu tana nuqtalarining tezlik va tezlanishlari kattaligini hisoblash imkonini beradi. U maxsus kino- yoki video-suratga olish asosida chiziladi. Bitta tekislikda bajariladigan harakatlarni o'rganish uchun birtekislikdagi kino- yoki video-suratga olish qo'llanadi.

Koordinatalar to'riga olingan (proektsiyalangan) promer bo'yicha nuqtalar koordinatalari aniqlanadi (hisoblanadi) va ularni koordinatalar jadvaliga kiritiladi. Natijada promer va keyingi ishlov berish ishlari olib boriladigan koordinatalar jadvali olinadi. Tanlangan XOU koordinatalar tizimida biozvenolarning tsiklogrammasi chiziladi va bu ma'lumotlar asosida kinematik xarakteristikalar aniqlanadi va tahlil qilinib, xulosa chiqariladit.

Qo'zg'almas o'qqa nisbatan sportchi tanasining hamma nuqtalari turli radiusdagi aylanalar chizgan holda harakatlansa, bunday harakat aylanma harakat deb aytildi. Bunda aylanma harakat qilayotgan sportchining tanasi yoki uni ayrim bioqismlarining burilish burchagi yoki burilish burchagining o'zgarishi o'rganiladi.

Ushbu bo'limda, shuningdek, Harakatning energetik xarakteristikalarini analitik usul bilan aniqlash, panja dinamometri yordamida muskul kuchining sezgirligi bo'yicha insonning kinestetik sezgirligini aniqlash hamda sport faoliyatida bashorat qilishda regressiya tenglamalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun materiallar keltirilgan.

## NAZORAT SAVOLLARI.

1. Promer nima?
2. Promer nimalarni aniqlash va o'rganish imkonini beradi?
3. CHiziqli xronogramma nima va u nimani ifodalaydi?
4. YUgurish va sakrash tsiklogrammalarini chizishda koordinatalar tizimi o'qlari bo'yab qanday kattaliklar qo'yiladi?
5. YUgurish va sakrash tsiklogrammalari asosida biozvenolar tezligini hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?
6. YUgurish va sakrash tsiklogrammalari asosida tezlanishni hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?
7. YUgurish va sakrash tsiklogrammalari asosida tezlik va tezlanishni hisoblashda qanday usuldan foydalaniladi?
8. YUgurish va sakrash tsiklogrammalari asosida hisoblangan biozvenolar tezligi grafigini chizishda koordinatalar tizimi o'qlari bo'yab qanday kattaliklar qo'yiladi?
9. YUgurish va sakrash tsiklogrammalari asosida hisoblangan biozvenolar tezlanishi grafigini chizishda koordinatalar tizimi o'qlari bo'yab qanday kattaliklar qo'yiladi?
10. Aylanma harakatlanayotgan gimnastikachining harakatini o'rganishda qanday chizmadan foydalaniladi?
11. Aylanma harakatlanayotgan gimnastikachining burchak tezligini hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?
12. Aylanma harakatlanayotgan gimnastikachining burchak tezlanishini hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?
13. Aylanma harakatda burilish burchagi o'lchov birligini yozing va izohlang.
14. Insonning kinestetik sezgirligini va unga oid asosiy iboralarning mazmun-mohiyatini qanday tushunasiz?
15. Sportchining kinestetik sezgirlini aniqlash nima uchun amalga oshirilishini izohlab bering.

16. Sportchining kinestetik sezgirligini baholashda panja siqilish kuchini o'lchash qanday va qaysi qurilma bilan amalga oshiriladi ?
17. Sportchiningkinestetik sezgirligi (kuch sezgirligi) qanday baholanadi?
18. Gavda UOM koordinatalarini aniqlash formulasini yozing.
19. Pedagogik-biomexanik nazoratni amalga oshirishda regressiya tenglamalaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida fikringiz qanday?
20. O'lhashlarning absolyut va nisbiy xatoliklarini hisoblash formulalarini yozing va izohlang.
21. Nisbiy va absolyut xatoliklar farqini ayting va tushuntiring.
22. Qanday hollarda tadbiq qilinayotgan matematik model' pedagogik - biomexanik tahlillar uchun qo'llanishi mumkin?

## 7. SOHA BO'YICHA XORIJUY ADABIYOT MANBALAR MA'LUMOTLARI BILAN SOLISHTIRISH

Mavjud ilmiy-uslubiy va davriy adabiyotlar materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari materiallari bo'yicha ishlanmalar va ularni amalda qo'llanishi masalasida deyarli o'zgarishlar kuzatilmaydi. Xususan, yugurish va sakrash tsiklogrammalari asosida biozvenolarning tezlik va tezlanish kattaliklarini hisoblash borasida shu paytgacha mamlakatimiz o'quv yurtlaridagidek, ya'ni muallif [2] taklif qilgan variantda o'rganilmoqda [12, 16, 17, 18]. Boshqacha aytganda ushbu muhim kinematik xarakteristikalar - biozvenolarning tezlik va tezlanishlarini hisoblash hamon chekka (dastlabki va oxirgi) lavhalar uchun amalga oshirilganligi mavjud emas.

Sportchi tanasi indekslariga oid ma'lumotlarda ko'pchilik mamlakatlar ahолиси bo'yicha олинган statistik ma'lumotlarga ko'ra, erlarda tana massasi indeksi (TMI) ayollarda aniqlanganiga nisbatan yuqori<sup>[4]</sup>. SHuningdek, o'rta yoshdagi odamlarda yoshlar va qariyalardagiga nisbatan yuqori. Masalan, AQSH sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan to'plangan AQSH aholisining antropometrik parametrlari (20 yosh va undan katta yoshli er va ayollar uchun tananing massa indeksi hamda jinsi va yoshi bo'yicha foizli taqsimoti, 2007-2010 yillar. Manba: Antropometric Reference data for Children and Adults United States - AQSH sog'liqni saqlash vazirligi<sup>[5]</sup>. Kubo A., Sorley D. A. Body mass index and adenocarcinomas of the esophagus and gastric cardia: a systematic review and meta-analysis //Sancer Epidemiology Biomarkers & Prevention. — 2006. — T. 15. — №. 5. — S. 872—878.

↑Sorley D. A., Kubo A. Body mass index and gastroesophageal reflux disease: a systematic review and meta-analysis //The American journal of gastroenterology. — 2006. — T. 101. — №. 11. — S. 2619—2628.) bo'yicha aniqlangan TMI qiymatlariga<sup>[4]</sup> Antropometric Reference data for Children and Adults United States. SDS DHHS (2012), ko'ra, mamlakat aholisini foizli taqsimoti va ushbu foiz ma'lumotlarida quyidagicha manzara aniqlangan: 20 shdan 80 yoshgacha bo'lган oraliqdagi erlarda ham ayollarda ham bunday foizli taqsimot yosh ulg'ayib borgan sayin notekis o'zgarishi (o'sishi) kuzatilgan. Jumladan, 20 - 29 yoshli erlarda ushbu foizli taqsimot 19,4 dan 36,5 % gacha va ayollarda esa 19,8 dan 43,9 % gacha deyarli tekis ortib borgan. SHuningdek 30 - 39 yoshli erlarda 21,0 dan 40,5 % gacha va ayollarda 19,4 dan 41,6 % gacha; 40 - 49 yoshli erlarda 21,2 % dan 39,6 % gacha va ayollarda esa 19,3 % dan 43,0 % gacha; 50 - 59 yoshli jrlarda 21,5 % dan 39,9 % gacha va ayollarda 19,7 % dan 41,8 % gacha; 60 - 69 yoshli erlarda 21,3 % dan 40,0 % gacha va ayollarda 20,7 % dan 41,1 % gacha; 70 - 79 yoshli erlarda 21,4 % dan 37,8 % gacha va ayollarda 20,1 % dan 42,1 % gacha notekis ortib borishi aniqlangan.

Umuman, 20 yoshdan 80 gacha yoshli erlarda (o'rtacha) 5, 10, 15, 26, 50, 75, 85, 90, 95 % lilar ulushi taxminan 20,7 dan 39,2 % oralig'ida; ayollarda esa

aynan shu ko'rsatkichlar 19,5 dan 42,0 % gacha oralig'ida bo'lган. 80 yoshdan katta erlarda ushbu ko'rsatkich 20,7 dan 34,5 % gacha; ayollarda esa 19,3 % dan 35,2 % gacha oraliqda tebranadi.

Harakatning muhim kinematik xarakteristikalaridan hisoblangan tezlik va tezlanishlarni biozvenolarning chekka lavhalari uchun ham hisoblash ta'lim oluvchilarning hodisa to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirishga va materialni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi. shuning uchun ham mazkur o'quv qo'llanma - praktikumda ushbu masalada, birinchi yaqinlashishda bo'lsa ham, ijobjiy o'zgarish kiritilgan. Bunda, ya'ni chekka (dastlabki va oxirgi) lavhalardan boshqa - oraliq lavhalar uchun tezlik va tezlanishni hisoblangani kabi farqlar usuli yordamida hisoblanadi, faqat farqi shunda-ki, chekka hadlar uchun ushbu ko'rsatkichlar hisoblanganida qo'shni lavhalar koordinatalari (yoki tezlik kattaliklari) olinadi va shunga mos ravishda bu ikki qo'shni lavhalarni o'tish uchun sarflangan vaqt kamligi inobatga olinadi.

Hisoblash natijalari, ya'ni ushbu birinchi yaqinlashishda olingan ko'rsatkichlar boshqa (oraliq) lavhalar ko'rsatkichlari bilan tartibi bir xilligi va mantiqan davomiyligi bilan mazkur yondashish to'g'riliгини tasdiqlash imkonini beradi.

## **SPORT BOIMEXANIKASIDAN MASALA YECHISH UCHUN TAVSIYALAR.**

Masala yechish har qanday fanni ham, ayniqsa, tabiiy fanlarni turli darajalarda: dastlabki, maktabda yoki maxsus fizik bilimlar darajalarida to’laqonli o’rganishning ajralmas va muhim qismi hisoblanadi.

Chuqr va hartomonlama bilimga ega bo’lgan tabiiy fan o’qituvchisini, yoki umuman yosh mutaxassisni, tayyorlashda mazkur fan bo’yicha masalalar yechishning algoritmini mukammal bilish va ushbu algoritmni qo’llash malaka va ko’nikmalariga ega bo’lishi juda muhim hisoblanadi. Chunki, fizik qonun va jarayonlarni tushunish va tasavvur qilish qobiliyati va darajasi to’g’risida xulosa chiqarish uchun ushbu ma’lumotlarni aniq fizik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, ya’ni masalalar yechish uchun qo’llay olishiga bog’liqdir. Ko’p yillik pedagogik tajriba esa o’rganuvchilarni aksariyat hollarda “Nimadan boshlamoq kerak?” degan savol, ya’ni fizik qonunlarning o’zini qo’llash emas, balki qaysi qonunni va nima sababdan aynan ushbu konkret hodisa yoki jarayonni tahlil qilish uchun aynan ushbu qonunni tanlash zarurligini aniqlash yoki tasavvur qilish qiyinaydi. Ana shu masala yechish yo’lini tanlash, ya’ni o’rganilayotgan fizik jarayonni qaysi qonunlar asosida tasavvur va tavsif qila olish fizikani chuqr va hartomonlama tushunishdan dalolat beradi. Masalani matnini to’liq va diqqat bilan o’qib chiqmasdan (bir nechta satrini o’qib chiqish bilanoq) boshlang’ich shartdagi ma’lumotlarni, ya’ni kattaliklarning son qiymatlarini shoshilib tanlangan formulaga keltirib qo’yib, shoshilinch natija olishga harakat qilish hollari ham uchraydi.

Xo’sh, “Masala eshishni qanday boshlamoq, uni qanday amalga oshirmoq va qanday tamomlamoq kerak?” degan savolni tug’ilishi, tabiiy hol.

Bu savolga javob aniq: masala yechishning to’liq algoritmini mukammal bilish va undagi sodir bo’layotgan jarayonni to’liq tasavvur qilish va “jarayonni avtomatik holda” bajara olish kerak, ya’ni algoritmni bilish hamda uni amalda qo’llash malaka va ko’nikmalariga ega bo’lish ham nazariy bilimlarni takrorlash va

mustahkamlash, ham amaliy jihatdan qo'llashni, va oxir oqibatda, izlanuvchi shaxs o'z bilimini boyitib, tasavvur va fikrlash doirasini kengaytirib boradi hamda har qanday masalani turli usul va yollar bilan yechishni tezlashtiradi.

Masala yechish uslubiyotiga taalluqli bo'lgan uslubiy va boshqa adabiyotlarni tahlil qilish va ish tajribasini umumlashtirish biomexanikadan masalalarni yechishning algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq degan xulosaga olib keladi:

**1-bosqich.** Biomexanika fani bo'yicha har bir masalani yechishning dastlabki bosqichida ixtiyoriy biomexanik masaladagi jarayonni to'liq tasavvur etishi va ushbu jarayon fizik qonunlarning qaysi birlariga yoki qaysi qonunning xususiy holi yoki ko'rinishi yotishini aniq bilishi, bunday ma'lumotlarni bilgan holda kursning mazkur bo'limiga tegishli bo'lgan shu masalaga tegishli nazariyani, ya'ni qonun, ta'rif, matematik ifoda va ularning o'lchov birliklarini bat afsil bilishi (yoki o'rganishi) yoki takrorlashi tavsiya etiladi.

**2-bosqich.** Masalada ko'rileyotgan jarayon yoki hodisani biomexanik tizim bo'lgan srotnching jismoniy tarbiya va srotn faoliyatiga bog'liqligi hamda ularga aloqador bo'lgan qonuniyatlar o'rganiladi.

**3-bosqich.** Masala yechish uni diqqat bilan o'qish va shartlarini aniqlashdan boshlanadi. SHu sababli masala shartini o'qish bilanoq, darhol asosiy e'tiborni izlanayotgan kattalikning miqdoriga qaratmaslik kerak va uni tezda hisoblashga harakat qilmaslik tavsiya etiladi. Masalada aytilgan hodisa va jarayonlarni yaxshilab tushunish, tasavvur qilish va ularning asosida yotgan qonunlarni, jumladan srotn faoliyati va musobaqalarga bog'liq bo'lgan qonuniyatlarini ham, esga olish kerak.

**4-bosqich.** Masalaning shartida kattaliklar turli birliklar tizimida berilgan bo'lsa, ularni yagona – (eng ko'p qo'llanadigan va qulay) xalqaro SI birliklar tizimiga keltirish zarur.

**5-bosqich.** Masalada chizma yoki sxema berilgan bo'lsa, uni diqqat bilan o'rganib, to'g'ri va aniq ko'chirib olmoq hamda diqqat bilan o'rganish talab etiladi. Agar masala shartida chizma berilmagan bo'lsa, masalani shartiga ko'ra

jarayon yoki hodisani va mazmunini to'la va batafsil ifodalovchi chizma yoki sxema chizib olish tavsiya etiladi.

**6-bosqich.** Harakatdagi biomexanik tizimga, ya'ni srortchiga ta'sir qilayotgan kuchlarni aniqlashtirib, chizmada ifodalash zarur.

**7-bosqich.** Sanoq tizim kiritiladi, ya'ni

- 1) Sanoq (boshi) jismi tanlanadi,
- 2) koordinatalar tizimi tanlanadi va kiritiladi,
- 3) koordinata boshi aniqlanadi,
- 4) masofani o'lhash qurilmasi va o'lchov birligi tanlanadi,
- 5) vaqtning boshi aniqlanadi,
- 6) vaqtni o'lhash qurilmasi va o'lchov birligi tanlanadi.

Koordinata o'qlarini biotizimga (Srortchi organizmiga) ta'sir etuvchi kuchlarning yo'nalishini hisobga olgan holda yo'naltirish zarur.

**8-bosqich.** Harakatdagi biotizim, ya'ni srortchi organizmi uchun asosiy tenglamani vektor ko'rinishida yozib olamiz. So'ngra o'rganilayotgan harakatni vektor ko'rinishida ifodalovchi asosiy tenglamani harakatni skalyar ko'rinishda ifodalovchi tenglama yoki tenglamalar tizimiga o'tkazamiz.

Buning uchun vektor ko'rinishidagi asosiy tenglamada ifodalangan vektor kattaliklarni OX va OY koordinata o'qlariga alohida-alohida rroektsiyalarini olamiz. Ushbu o'rinda rroektsiyalashni amalga oshirish jarayonida ishora va burchaklarga alohida e'tibor berib, ularni aniq va to'g'ri olish muhim ahamiyatga ega ekanligini eslatish zarur.

Skalyar ko'rinishda hosil bo'lgan tenglamalar masala matniga ko'ra turli izlanayotgan mexanik (masalan, o'tilgan masofa, tezlik, tezlanish va boshqa) kattaliklarning matematik ifodalarini va ular asosida miqdoriy kattaliklarni aniqlash yoki hisoblash imkonini beradi.

**9-bosqich.** Hosil qilingan matematik ifoda yoki formula ko'rinishidagi natija yoki natijalarining to'g'riligini tekshirib tahlil qilish tavsiya etiladi. Olingan natijaning to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan keyin hisoblash amallarini bajarish tavsiya etiladi.

**10-bosqich.** YEchilgan masala mazmunini muhokama qilish, kengaytirish, shartlarini o'zgartirishni o'ylab ko'rish yoki masala tuzishga harakat qilish kerak. Ushbu bosqichda talabalarni, faqatgina dars davomida emas, balki darsdan keyin ham o'ylash, fikrlash va hatto fikrlash doirasini kengaytirish maqsadlari ko'zda tutiladi.

Masala yechish jarayoni, ko'p jihatdan, ilmiy izlanishga o'xshaydi. Haqiqiy ilmiy izlanishdagi singari, keyingi harakatlar yoki keyingi olinadigan matematik ifoda yoki natija har doim ham oldindan ayon bo'lavermaydi. Har bir masalani yechish jarayoni oldindan belgilab qo'yilgan amallar tartibi bilan aniqlanmaydi. Hech qanday universal usul ishlab chiqishning iloji yo'q. Masala yechish jarayonida qonunlarni va, ayniqsa, saqlanish qonunlarini ishonch bilan qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lmoq kerak.

### BIOMEXANIKA (KINEMATIKA VA DINAMIKA)DAN MASALA YECHISH NAMUNALARI.

**1-masala.** Futbolkoptogining massasini 450 gramm, radiusini 15 santimetr, ichidagi havoning bosimini normal atmosfera bosimidan 1 atmosfera ortiq deb hisoblab koptokni devor bilan to'qnashib qaytishi uchun qancha vaqt sarflanishini (to'qnashish vaqtini) aniqlang. Koptokni devorga nisbatan harakati perpenikulyar deb olinsin.

Berilgan :


$$\begin{aligned}m &= 450 \text{ g} \\R &= 15 \text{ sm} \\p - p_{\text{atm}} &= 1 \text{ atm} \\t &=?\end{aligned}$$

Yechish :

Umumiy holda, koptok devorga urilish natijasida deformatsiyaga uchraydi. Koptok juda kichik tezlik bilan harakatlanib kelib devorga urilsa, u holda deformatsiya ham juda kichik qiymatga ega bo'ladi va koptokning shakli deyarli sferik ko'rinishda va uning devor bilan uchrashgan sirti esa juda kichik bo'ladi.

Avval koptokka qanday kuchlar ta'sir etishini aniqlab olaylik. Devor bilan to'qnasishdan oldin harakatdagi koptokka ichkaridan va tashqaridan ta'sir etayotgan atmosfera bosimi kuchlari o'zaro bir-biriga teng bo'ladi.

To'qnasish jarayonida bo'nday bo'lmaydi. Haqiqatan ham avval koptokning bitta nuqtasi devorga bevosita tegadi, undan keyin esa ushbu nuqta atrofida unga nisbatan to'qnasish sohasi kengaya boradi va doiraga aylanadi. Shuning bilan birga



1- rasm. To'qnasish paytida koptokka ta'sir etuvchi kuchlar

koptokning ichidagi havoning ma'lum bir qismi koptokni tark etadi. Natijada atmosfera havosining kompensatsiya qilinmagan bosim kuchi paydo bo'ladi, uning yo'nalishi devorga tomon yo'nalgan va son qiymati atmosfera bosimini to'qnashuv yuzasiga ko'paytmasiga teng bo'ladi.

To'qnasish paytida koptok ichidagi havoning  $P$  bosimini, statik deformatsiya holatidagidek, barcha nuqtalarda bir xil deb hisoblash mumkin. Shuning uchun, koptok ichidagi havo devor bilan to'qnashib torgan qobiqqa  $P \cdot S$  ga teng bo'lgan kuch bilan ta'sir etadi. Qiymati xuddi shunday, biroq yo'nalishi qarama-qarshi bo'lgan kuch ushbu qobiqqa devor tomonidan koptokka ta'sir etadi.

Shunday qilib, koptokni devorga urilib to'qnashishi paytida koptokka ta'sir etadigan kuchlarning yig'indisi devordan koptokka tomon yo'nalgan bo'lib, uning qiymati

$$F = (P - P_{atm}) \cdot S \quad (1)$$

ga teng bo'ladi.

Agar x orqali koptokning deformatsiyasini, ya'ni devorga urilgan tomonidagi radiusini qisqarishini va r orqali koptokni yalpaygan qismining – aylananing radiusini belgilasak, quyidagi ifoda o'rinli bo'ladi (Bu yerda R koptokning radiusi) :

$$r = \sqrt{R^2 - (R - x)^2} = \sqrt{2 \cdot R \cdot x - x^2} \quad (2)$$

Shuning uchun koptokni to'qnashish sohasining yuzasi quyidagiga teng bo'ladi :

$$S = \pi \cdot r^2 = 2 \cdot \pi \cdot R \cdot x \cdot \left(1 - \frac{x}{2 \cdot R}\right) \quad (3)$$

koptokning ichidagi havo bosimini o'zgarish miqdori juda kichik bo'lganligi sababli uni inobatga olmasa ham bo'ladi. Bu degani koptok hajmimi ozgina  $\Delta V$  ga o'zgarishini to'qnashishdan oldingi  $V$  hajmga  $\frac{\Delta V}{V}$  nisbati  $\frac{x}{R}$  nisbat bilan deyarli bir xil bo'lishini anglatadi. Koptokni deformatsiyasini kichik deb hisoblasak (bu tabiiy hol), ya'ni  $x \ll R$  ekanini inobatga olsak, (3) formuladagi hisobga olmasa bo'ladigan darajadagi nisbatan kichik bo'lgan  $\frac{x}{2 \cdot R}$  hadni tashlab yuboramiz.

Shunday qilib, to'qnashuv paytida koptokka ta'sir etuvchi kuchlar yig'indisi

$$F = (P - P_{atm}) \cdot S = 2 \cdot \pi \cdot R \cdot (P - P_{atm}) \cdot x = k \cdot x \quad (4)$$

Ko'inishiga keladi va koptokning deformatsiyasi  $x$  ga proportsional bo'ladi. Bunday kuch ta'siri ostida koptok markazining harakati chastotasi quyidagi formula orqali aniqlanadigan garmonik harakatdan iborat bo'lmog'i lozim :

$$\omega^2 = \frac{k}{m} = \frac{2 \cdot \pi \cdot R \cdot (P - P_{atm})}{m} \quad (5)$$

bu yerda  $m$  – koptokning massasi.

Koptokning devorga urilish natijasida olgan deformatsiyasi faqat siqilish va o'zo'mniga qaytish (hech qachon dastlabki holatga nisbatan kengaymasligi aniq) hamda koptok devordan qaytishi sababli ushbu "tebranish" T davrning faqatgina yarmi davomida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, koptokni devorga urilish jarayonining davom etish vaqtini quyidagiga teng bo'ladi :

$$\tau = \frac{T}{2} = \frac{\pi}{\omega} = \sqrt{\frac{\pi \cdot m}{2 \cdot R \cdot (P - P_{atm})}} \quad (6)$$

olingan formuladan ba'zi xulosalar chiqarish mumkin :

- koptokni ichidagi havoning bosimi qancha katta bo'lsa, uning devorga urilish jarayonining davom etish vaqtini shuncha kam bo'lar ekan ;
- ushbu vaqt koptokni to'qnashish arafasidagi tezligi  $V_0$  ga bog'liq emas

Endi (6) formuladan foydalaniib, izlanayotgan koptokni devorga urilish jarayonining davom etish vaqtini aniqlashimiz mumkin.

$$m = 450 \text{ g} = 0,45 \text{ kg}$$

$$R = 15 \text{ sm} = 0,15 \text{ m}$$

$$\begin{aligned}
\tau &= \sqrt{\frac{3,14 \cdot 0,45 \text{ kg}}{2 \cdot 0,15 \text{ m} \cdot 1 \text{ atm}}} = \sqrt{\frac{1,413}{0,3} \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \text{atm}}} = \sqrt{4,71 \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot 1,013 \cdot 10^5 \text{ Pa}}} = \\
&= \sqrt{\frac{4,71}{101300} \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \text{Pa}}} = \sqrt{0,000047 \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \frac{\text{N}}{\text{m}^2}}} = 0,0022 \sqrt{\frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\text{N}}} = \\
&= 0,0022 \sqrt{\frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\text{s}^2}}} = 0,0022 \sqrt{\text{s}^2} = 0,0022 \text{ s} = 2,2 \cdot 10^{-3} \text{ s}
\end{aligned}$$

Demak, harakatdagi koptokni devorga urilish jarayonining davom etish vaqtini soniyaning mingdan bir ulushidan kattaroq ekan.

**2-masala.** Daryoda o'rnatilgan ikki belgi orasidagi masofani sportchi suvning oqimi bo'yicha 8 daqiqa davomida, oqimga qarshi esa 12 daqiqa davomida suzib o'tdi. Xuddi shu masofani sportchi tinch (harakatsiz) suvda qancha vaqtida suzib o'tishini aniqlang.

Berilgan :	Yechish :
$t_1 = 8 \text{ min}$ $t_2 = 12 \text{ min}$ $t = ?$	Boshlang'ich shartdagi belgilar orasidagi masofani S orqali, sportchini tinch suvdagi harakat tezligini v orqali, suvning harakat tezligini u orqali belgilaymiz. Bu holda sportchini oqim bo'yicha harakat tenglamasi

$$S = (v + u) \cdot t_1 \quad (1)$$

Shunga o'xshash oqimga qarshi harakati uchun

$$S = (v - u) \cdot t_2 \quad (2)$$

Bu yuqoridagi (1) va (2) tenglamalardan

$$\tau = \frac{S}{v} \quad (3)$$

karralikni topish zarur.

Ularni shunday ko'inishda o'zgartirgan holda ko'chirib yozamiz-ki, kattaliklar orasidagi **u** dan qutulish mumkin bo'lsin, ya'ni :

$$\frac{S}{t_1} = v + u \quad (4)$$

$$\frac{S}{t_2} = v - u \quad (5)$$

Ushbu (4) va (5) tenglamalarni hadma-had qo'shish natijasida quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz.

$$\frac{S}{t_1} + \frac{S}{t_2} = 2 \cdot v \quad (6)$$

(6) tenglamadagi **v** kattalikni qiymatini (3) tenglamaga keltirib qo'yamiz va izlanayotgan vaqt t uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz, ya'ni :

$$\begin{aligned} \tau &= \frac{S}{v} = \frac{S}{\frac{1}{2} \cdot \left( \frac{S}{t_1} + \frac{S}{t_2} \right)} = \frac{S}{\frac{1}{2} \cdot \left( \frac{1}{t_1} + \frac{1}{t_2} \right)} = \\ &= \frac{1}{\frac{1}{2} \cdot \frac{t_1 + t_2}{t_1 \cdot t_2}} = \frac{2 \cdot t_1 \cdot t_2}{t_1 + t_2} \end{aligned}$$

So'nggi ifodaga kattaliklarning masalani boshlang'ich shartidagi qiymatlarini keltirib qo'yamiz va izlanayotgan natijani aniqlaymiz, ya'ni :

$$t = \frac{2 \cdot 8 \text{ min} \cdot 12 \text{ min}}{8 \text{ min} + 12 \text{ min}} = \frac{2 \cdot 8 \cdot 12}{20} \frac{\text{min}^2}{\text{min}} = \frac{48}{5} \text{ min} = 9 \frac{3}{5} \text{ min} = 9,6 \text{ min} = 9 \text{ min } 36 \text{ s}$$

**3-masala.** Ikki sportchi velosipedda 130 metr masofadan bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakatlana boahladilar. Birinchi sportchi  $18 \frac{km}{soat}$  boshlang'ich tezlik bilan tepalikka qarab  $20 \frac{sm}{s^2}$  tezlanishda harakatlanmoqda. Ikkinci velosipedchi esa tepalikdan  $5,4 \frac{km}{soat}$  boshlang'ich tezlik bilan  $0,2 \frac{m}{s^2}$  tezlanishda tepalikdan pastga tomon harakatlanmoqda. Velosipedchilarning harakat boshlanganidan qancha vaqt dan so'ng uchrashishlari va uchrashguncha ularning har biri qancha masofa o'tganligini aniqlang.

Berilgan	Yechish
$S = 130 \text{ m}$ $V_{01} = 18 \frac{km}{soat}$ $a_1 = 20 \frac{sm}{s^2}$ $V_{02} = 5,4 \frac{km}{soat}$ $a_2 = 0,2 \frac{m}{s^2}$ $S_1 = ?$ $S_2 = ?$ $t = ?$	<p>Ushbu masalani yechishda asosiy formula hisoblangan o'zgaruvchan harakatda yo'1 formulasi, y'ani</p> $S = V_0 \cdot t + \frac{a \cdot t^2}{2} \quad (1)$ <p>matematik ifodadan foydalanamiz.</p> <p>Mazkur masala shartiga ko'ra kattaliklarning o'lchov birligiga e'tibor bersak, ular turli birliklar tizimlarida ifodalanganligini ko'ramiz. Yuqorida aytib o'tilganidek, bunday birliklarni bitta tizimga keltirish zarur, ya'ni yoki hamma birliklar Xalqaro SI tizimiga, yoki tizimdan tashqi birliklarda ifodalaniши zarur.</p>

Boshqacha aytganda, yoki barcha berilgan birliklarni

$\frac{km}{soat}$  va  $\frac{km}{soat^2}$  orqali, yoki  $\mathbf{m}$ ,  $\frac{m}{s}$  va  $\frac{m}{s^2}$  orqali ifodalash kerak.

Tushunarli bo'lishi uchun biz ikkala variantni ham qarab chiqamiz.

a) barcha birliklarni SI birliklar sistemasiga o'tkazamiz.

Buning uchun quyidagilarni esga olamiz

$$1\text{km} = 1000 \text{ m}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm} = 1000 \text{ mm}$$

$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

$$1 \text{ soat} = 60 \text{ min} = 3600 \text{ s}$$

$$1 \text{ min} = 60 \text{ s}$$

$$1 \text{ m} = 0,001 \text{ km} = 10^{-3} \text{ km.} = \frac{1}{1000} \text{ km}$$

$$1 \text{ sm} = 0,01 \text{ m} = 10^{-2} \text{ m} = \frac{1}{100} \text{ m} \quad 1 \text{ mm} = 0,001 \text{ m} = 10^{-3} \text{ m} = \frac{1}{1000} \text{ m}$$

$$1 \text{ s} = \frac{1}{3600} \text{ soat} \quad 1 \text{ s} = \frac{1}{60} \text{ min}$$

Demak, umumiy masofa **S** har bir velosipedchi bosib o'tgan masofalarning yig'indisiga teng bo'lai, ya'ni

$$S = S_1 + S_2 \quad (1)$$

Tepalikka tomon ko'tarilib borayotgan bиринчи sportchining harakati uchun yo'l formulasini quyidagicha yozamiz :

$$S_1 = V_{o1} \cdot t + \frac{a_1 \cdot t^2}{2} \quad (2)$$

Xuddi shunga o'xshash ikkinchi velosipedchi uchun

$$S_2 = V_{o2} \cdot t + \frac{a_2 \cdot t^2}{2} \quad (3)$$

Ikkala sportchi bosib o'tgan masofalarning yig'indisi **S** uchun (1) ko'rinishga ega bo'lган matematik ifodadan bиринчи sportchi bosib o'tgan masofa  $S_1$  uchun quyidagi formulaga ega bo'lamiz  $S_1 = S - S_2$ . (4)

(4) formuladagi  $S_1$  va  $S_2$  kattaliklarning o'rniga masofalarning matematik ifodalarini (2) va (3) formulalardan keltirib qo'yamiz va quyidagi tenglamani hosil qilamiz (Bu yerda tepalikka tomon ko'tarilib borayotgan bиринчи sportchining harakati sekinlanuvchan harakat ekanligini inobatga olsak, (2)-ifodadagi  $a_1$  tezlanishning qiymati manfiy, ya'ni kamayuvchan bo'lishini ham hisobga olish zarur).

$$V_{o1} \cdot t - \frac{a_1 \cdot t^2}{2} = S - (V_{o2} \cdot t + \frac{a_2 \cdot t^2}{2}) \quad (5)$$

Shunday qiliib, masala yechilishi uchun zarur bo'lган matematik ifodani hosil qildik.

Ushbu ifodaga murojaat qilishdan oldin masala shartiagi kattaliklar o'lchov birliklarini SI birliklar sistemasiga o'tkazamiz.

$$V_{o1} = 18 \frac{km}{soat} = 18 \cdot \frac{1000 m}{3600 s} = \frac{18 \cdot 5 m}{18 s} = 5 \frac{m}{s}$$

$$V_{o2} = 5,4 \frac{km}{soat} = 5,4 \cdot \frac{1000 m}{3600 s} = \frac{5,4 \cdot 5 m}{18 s} = 1,5 \frac{m}{s}$$

$$a_1 = 20 \frac{sm}{s^2} = 20 \cdot \frac{\frac{1}{100} m}{s^2} = \frac{20 m}{100 s^2} = 0,2 \frac{m}{s^2}$$

Demak, masalaning boshlang'ich shartiga ko'ra ikkala sportchining tezlanishining son qiymati o'zaro teng bo'lib, ishoralari qarama-qarshi ekan, ya'ni

$$|a_1| = |a_2| = |a|.$$

Ushbu ma'lumotni inobatga olgan holda (5) ifodani quyidagicha yozish mumkin.

$$V_{o1} \cdot t - \frac{a \cdot t^2}{2} = S - V_{o2} \cdot t - \frac{a \cdot t^2}{2} \quad (6)$$

Hosil qilingan (6) ifodani noma'lum t – vaqtga nisbatan yechib quyidagiga ega bo'lamiz.

$$V_{o1} \cdot t + V_{o2} \cdot t = S \quad (7)$$

$$t = \frac{S}{V_{o1} + V_{o2}} \quad (8)$$

Hosil qilingan (8) ifodaga masala shartidagi kattaliklarning son qiymatlarini keltirib qo'yamiz, ya'ni

$$t = \frac{130 m}{5 \frac{m}{s} + 1,5 \frac{m}{s}} = \frac{130 m}{6,5 \frac{m}{s}} = 20 s$$

Endi sportchilar harakat boshlangandan uchrashguncha ketgan vaqtning son qiymatini, ya'ni  $t = 20 s$  ni (2) va (3) yo'1 formulalariga qo'yamiz va sportchilarning har birini uchrashgunca bosib o'tgan masofalarini aniqlaymiz.

$$S_1 = 5 \frac{m}{s} \cdot 20 s - \frac{0,2 \frac{m}{s^2} \cdot (20 s)^2}{2} = 100 m - 40 m = 60 m.$$

Ikkinci sportchini uchrashguncha bosib o'tgan masofasini ikki usul bilan aniqlash mumkin. Shuni ham ta'kidlash lozim-ki, agar masalani yechilishida tanlangan yo'1 to'g'ri va hisoblash jarayonida xatoga yo'1 qo'yilmagan bo'lsa, u holda ikkala usulda olingan natijalar o'zaro teng bo'lmos'hish kerak.

1) Yuqorida keltirilgan (1) formuladan foydalanib, ya'ni

$$S_2 = S - S_1 = 130 \text{ m} - 60 \text{ m} = 70 \text{ m}.$$

2) Yuqorida keltirilgan (3) formuladan foydalanib, ya'ni

$$S_2 = 1,5 \frac{\text{m}}{\text{s}} \cdot 20 \text{ s} + \frac{0,2 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot (20 \text{ s})^2}{2} = 30 \text{ m} + 40 \text{ m} = 70 \text{ m}.$$

Olingan natijalar tanlangan yo'l to'g'ri va xatoga yo'l qo'yilmagan ekanligini ko'rsatib turibdi.

b) barcha birliklarni sistemadan tashqi birliklarga (metr (**m**) dan kilometr (**km**)ga ) o'tkazamiz.

$$S = 130 \text{ m} = 130 \cdot \frac{1}{1000} \text{ km} = \frac{130}{1000} \text{ km} = 0,13 \text{ km}.$$

$$\begin{aligned} a_1 &= 20 \frac{\text{sm}}{\text{s}^2} = 20 \cdot \frac{\frac{1}{100000} \text{ km}}{\left(\frac{1}{3600} \text{ soat}\right)^2} = \frac{20 \cdot 3600^2 \text{ km}}{100000 \text{ soat}^2} = \\ &= \frac{20 \cdot 12960000}{100000} \frac{\text{km}}{\text{soat}^2} = 2592 \frac{\text{km}}{\text{soat}^2} \end{aligned}$$

(8) ifodadan foydalanib sportchilar harakat boshlab uchrashguncha ketgan vaqtini aniqlaymiz, ya'ni

$$t = \frac{0,13 \text{ km}}{18 \frac{\text{km}}{\text{soat}} + 5,4 \frac{\text{km}}{\text{soat}}} = \frac{0,13 \text{ km}}{23,4 \frac{\text{km}}{\text{soat}}} = 0,005 (5) \text{ soat}$$

Usbu olingan natijani sekundlarda ifodalaymiz va shu bilan ikki usulni o'zaro solishtiramiz.

$$0,005(5) \text{ soat} = 0,005(5) * 3600 \text{ s} = 20 \text{ s}$$

(Yana bir marta to'g'ri yo'lda ekanligimizni tekshirib oldik).

$$\begin{aligned} S_1 &= 18 \frac{\text{km}}{\text{soat}} \cdot 0,005 (5) \text{ soat} - \frac{2592 \frac{\text{km}}{\text{soat}^2} \cdot (0,005 (5) \text{ soat})^2}{2} = \\ &= 0,1 \text{ km} - \frac{2592 \cdot 0,000031 \text{ km}}{2} = 0,1 \text{ km} - \frac{0,08 \text{ km}}{2} = \\ &= 0,1 \text{ km} - 0,04 \text{ km} = 0,06 \text{ km}. \end{aligned}$$

Ikkinchisportchini uchrashguncha bosib o'tgan masofasini,yuqorida ta'kidlanganidek, ikki usul bilan aniqlaymiz va shu bilan birga masalani yechilish yo'li to'g'ri va hisoblash jarayonida xatoga yo'l qo'yilmaganligini tekshirib olamiz.

1) Yuqorida keltirilgan (1) formuladan foydalanib, ya'ni

$$S_2 = S - S_1 = 0,13 \text{ km} - 0,06 \text{ km} = 0,07 \text{ km}.$$

3) Yuqorida keltirilgan (3) formuladan foydalanib, ya'ni

$$\begin{aligned} S_2 &= 5,4 \frac{\text{km}}{\text{soat}} \cdot 0,005 (5) \text{ soat} + \frac{2592 \frac{\text{km}}{\text{soat}^2} \cdot (0,005 (5) \text{ soat})^2}{2} = \\ &= 0,03 \text{ km} + \frac{2592 \cdot 0,000031 \text{ km}}{2} = 0,03 \text{ km} + \frac{0,08 \text{ km}}{2} = \\ &= 0,03 \text{ km} + 0,04 \text{ km} = 0,07 \text{ km}. \end{aligned}$$

Masalaning har ikki usulni qo'llashdagi natijasi aynan tengligi aniqlandi. Demak, ikkala usul natijalari o'zaro teng ekan. Bu tanlangan yo'l to'g'riliqi va hisoblash jarayonida xato qilinmaganligini ko'rsatadi.

**4-masala.** Futbolchi tomonidan yuqoriga tik tepilgan koptok 5 soniyadan keyin yerga qaytib tushdi. Koptok harakat boshlanishida qanday boshlang'ich tezlikka ega bo'lgan va u qanday balandlikkacha kotarilganini aniqlang.

Berilgan :	Yechish :
$t = 5 \text{ s}$	Yuqoriga tik (vertikal yo'nalishda) tepilgan jismning vaqtini ixtiyoriy paytidagi tezligi
$g = 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$	$v_t = v_0 - g \cdot t \quad (1)$
$v_0 = ?$	va ushbu jismning harakat tenglamasi
$h = ?$	$h = v_0 \cdot t - \frac{g \cdot t^2}{2} \quad (2)$
	Ushbu masalani yechish jarayonida bir qarashda ahamiyatga ega bo'lmaganday tuyuladigan yoki birdaniga e'tiborni jaib qilmayigan yoki osongina e'tibordan chetda qolib ketadigan,

biroq masalani to'g'ri va aniq echish nuqtai nazaridan juda muhim bo'lган томони инобатга олиниши шарт.

Bu ham bo'lsa, harakatlanayotgan jism (bizni misolimizda bu vertikal yo'nalishda harakatlana boshlagan koptok) eng yuqori balandlikkacha bo'lган masofani ikki marta (ya'ni bir marta yuqoriga – vertikal va ikkinchi marta pastga – qarama-qarshi yo'nalishda) bosib o'tadi. Ushbu faktini inobatga olishda (1) va (2) formulalardagi, yoki masofani ikki barobar katta ekanligi uchun kerakli tuzatmalar kiritish zarur bo'ladi. Boshqacha aytganda **h · 2** singari tuzatma kiritilishi zarur.

Demak, qaralayotgan masaladaga (1) va (2) formulalar o'rniغا quyidagi formulalar juftligidan foydalanish mumkin bo'ladi

$$V_t = V_0 - g \cdot t \quad (1)$$

va

$$2 \cdot h = V_0 \cdot t - \frac{g \cdot t^2}{2} . \quad (3)$$

Masalani shartiga e'tibor berilsa, harakat boshlanishi arafasida, ya'ni koptok tepilishi paytida  $h \approx 0$ , ya'ni koptok bilan yer orasidagi masofa hisobga olinmasa bo'laigan darajada kichik.

Ana shu boshlang'ich shartdan va (3) formuladan foydalanib koptokni boshlang'ich tezligi  $V_0$  ning qiymatini aniqlaymiz.

$$0 = V_0 \cdot t - \frac{g \cdot t^2}{2} .$$

bu formuladan

$$V_0 \cdot t = \frac{g \cdot t^2}{2} .$$

$$V_0 = \frac{g \cdot t}{2} = \frac{9,8 \frac{m}{s^2} \cdot 5 s}{2} = \frac{49 \frac{m}{s}}{2} = 24,5 \frac{m}{s} .$$

Endi, masalani shartidagi yana bir muhim momentga e'tibor berish zarur.

Koptok o'z harakati jarayonida trayektoriyaning eng yuqori nuqtasiga eytganida uning tezligi  $\mathbf{V} = 0$  bo'ladi, ya'ni koptok juda ham qisqagina vaqtga bo'lsa-da to'xtaydi va shundan so'ng yerni tortish kuchi sababli pastga, ya'ni yerga tomon harakatlana boshlaydi.

Vaqtning ma'lum bir t paytida sodir bo'lgan ana shu hodisani matematik ifodasini quyidagicha yozamiz :  $V_t = 0$

U holda vaqtning ixtiyoriy t paytidagi tezlikning (1) formulasidan quyidagi ifodani yozish mumkin :  $0 = V_0 - g \cdot t$

va bu formuladan koptokning boshlang'ich tezligi  $V_0$  uchun quyidagi formulaga ega bo'lamiz :  $V_0 = g \cdot t$

Bundan  $t = \frac{V_0}{g}$

va  $t$  vaqtning ushbu matematik ifodasini yuqoridagi (3) formulaga keltirib qo'yamiz. Oddiy matematik amallar yordamida izlanayotgan  $h$  balandlik uchun quyidagi formulani hosil qilamiz.

$$2 \cdot h = V_0 \cdot t - \frac{g \cdot t^2}{2} = V_0 \cdot \frac{V_0}{g} - \frac{g \cdot V_0^2}{2 \cdot g^2} = \frac{V_0^2}{2 \cdot g} .$$

bundan

$$\begin{aligned} h &= \frac{V_0^2}{4 \cdot g} = \frac{(24,5 \frac{m}{s})^2}{4 \cdot 9,8 \frac{m}{s^2}} = \frac{600,25 \frac{m^2}{s^2}}{39,2 \frac{m}{s^2}} = \\ &= \frac{600,25}{39,2} \frac{\frac{m^2}{s^2}}{\frac{m}{s^2}} = 15,3125 \frac{m^2 \cdot s^2}{m \cdot s^2} = 15,3125 \text{ m} \end{aligned}$$

Demak,  $V_0 = 24,5 \frac{m}{s}$

$$h = 15,3125 \text{ m} = 15 \text{ m } 31,25 \text{ sm} .$$

**5-masala.** Parashyut bilan sakrovchi sportchi planerdan sakragandan so'ng

2 soniyadan keyin parashyut ochilgan bo'lsa :

- ochilmagan parashyut bilan birga sportchi 2 s davomida o'tgan masofani
- sportchini parashyut ochilgan paytdagi tezligini aniqlang.

Berilgan :

$$t = 2 \text{ s}$$

$$g = 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$$

$$V_0 = 0$$

$$h = ?$$

$$V = ?$$

Yecish :

Planerden sakrab ochilmagan parashyut bilan birga harakatlanayotgan sportchi pastga tomon erkin tushayotgan jism singari harakatlanadi va uning parashyut ochilgan paytdagi tezligini

$$V_t = V_0 - g \cdot t$$

tenglamaga hamda boshlang'ich shartdagi

$$V_0 = 0$$

ma'lumotlarga ko'ra hisoblaymiz, ya'ni

$$V = g \cdot t = 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 2 \text{ s} = 19,6 \frac{\text{m}}{\text{s}}$$

lanerden sakrab parashyut ochilgan paytgacha o'tgan 2 s vaqt davomida o'tgan masofa esa quyidagi formula orqali aniqlanadi :

$$h = V_0 \cdot t - \frac{g \cdot t^2}{2}$$

Ushbu formulaga kattaliklarni mos qiymarlarin keltirib qo'yamiz va izlanayotgan masofani aniqlaymiz.

$$h = 0 \cdot 2 \frac{\text{m}}{\text{s}} + \frac{9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot (2 \text{ s})^2}{2} = 0 + \frac{9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 4 \text{ s}^2}{2} = 9,8 \cdot 2 \text{ m} = 19,6 \text{ m}$$

Demak,  $V = 19,6 \frac{\text{m}}{\text{s}}$

$$h = 19,6 \text{ m}$$

**6-masala.** Sportchi 0,2255 tonna massaga ega bo'lган shtangani ko'krakdan kuch bilan ko'tarmoqda. Agar shtangani boshlang'ich vaziyatdagi yerdan balandligi 1550 millimetr, ko'targandan keyingi balandligi 2250 millimetr bo'lsa, sportchini ushbu mashqni bajarish jarayonida qancha ish bajarganini aniqlang.

Berilgan :

$$\begin{aligned}m &= 0,2255 \text{ t} \\h_1 &= 1550 \text{ mm} \\h_2 &= 2250 \text{ mm}\end{aligned}$$

$$A = ?$$

Yechish :

$$\begin{aligned}\text{Dastavval berilgan kattaliklar qiymatini ifodalagan} \\&\text{birliklarni bitta (SI) tizimiga keltirish zarur, ya'ni} \\m &= 0,2255 \text{ t} = 0,2255 \cdot 1000 \text{ kg} = 225,5 \text{ kg} \\h_1 &= 1550 \text{ mm} = 1550 \cdot \frac{1}{1000} \text{ m} = \frac{1550}{1000} \text{ m} = 1,55 \text{ m} \\h_2 &= 2250 \text{ mm} = 2250 \cdot \frac{1}{1000} \text{ m} = \frac{2250}{1000} \text{ m} = 2,25 \text{ m}\end{aligned}$$

Izlanayotgan – sportchining bajargan ishi shtanganing keyingi va dastlabki vaziyatlaridagi potentsial energiyalar farqiga teng bo’ladi, ya’ni :

$$\begin{aligned}A &= E_{p1} - E_{p2} = m \cdot g \cdot h_2 - m \cdot g \cdot h_1 = \\&= m \cdot g \cdot (h_2 - h_1) = 2255 \text{ kg} \cdot 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot (2,25 \text{ m} - 1,55 \text{ m}) = \\&= 225,5 \cdot 9,8 \cdot 0,7 \cdot \frac{\text{kg} \cdot \text{m}^2}{\text{s}^2} = 1546,93 \cdot \text{N} \cdot \text{m} = 1546,93 \text{ J} = \\&= 1,54693 \text{ kJ} \approx 1,55 \text{ kJ}\end{aligned}$$

**7-masala.** Oldingi, ya’ni 6-masaladagi shartlarga asoslanib, mashqni bajarish uchun 3,5 soniya vaqt sarflagan bo’lsa, sportchi organizmini – biotizimni quvvatini aniqlang.

Berilgan :

$$m = 0,2255 \text{ t}$$

$$g = 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$$

$$h_1 = 1550 \text{ mm}$$

$$h_2 = 2550 \text{ mm}$$

$$t = 3,5 \text{ s}$$

Yechish :

Oldingi masaladagi singari, barcha birliklarni SI tizimiga o’tkazamiz.

$$m = 225,5 \text{ kg}$$

$$h_1 = 1,55 \text{ m}$$

$$h_2 = 2,55 \text{ m}$$

Izlanayotgan biotizim – sportchi organizmining quvvati

$$P = ?$$

$$P = \frac{A}{t}$$

ya’ni, quvvat son jihatdan tizim tomonidan bajarilgan ishni ushbu ishni bajarish uchun sarflangan vaqtga nisbatiga tengligiga asoslanib aniqlanadi.

5-masalada aniqlangan sportchi bajargan iashning qiymatidan foydalanib organizmni quvvatini hisoblaymiz :

$$P = \frac{1546,93 \text{ J}}{3,5 \text{ s}} = 441,98 \text{ Vt} \approx 442 \text{ Vt}$$

**8-masala.** 0,725 kiloNyuton kuch ta'siri ostida jismni 2550 millimetr masofaga siljitan biomexanik tizim 924,375 Joul ish bajargan bo'lsa, siljish yo'nalishi bilan kuchni ta'sir yo'nalishi orasidagi burchakni aniqlang.

Berilgan :	Yechish :
$F = 0,725 \text{ kN}$ $s = 2550 \text{ mm}$ $A = 924,375 \text{ J}$ $\alpha = ?$	<p>Birinchi navbatda barcha o'lchov birliklarini bitta tizimga o'tkazish zarur.</p> $F = 0,725 \text{ kN} = 0,725 \cdot 1000 \text{ N} = 725 \text{ N}.$ $s = 2550 \text{ mm} = 2550 \cdot \frac{1}{1000} \text{ m} = 2,55 \text{ m}$

Ishni ifodalaydigan asosiy formula esa quyidagiga teng ekanini esga olamiz

$$\mathbf{A} = \mathbf{F} \cdot \mathbf{s} \cdot \mathbf{Cos} \alpha$$

Ushbu formuladan izlanayotgan  $\alpha$  kattalikning kosinusini uchun quyidagi matematik ifodani yozamiz.

$$\cos \alpha = \frac{A}{F \cdot s}$$

U holda quyidagi natijaga ega bo'lamiz.

$$\cos \alpha = \frac{924,375 \text{ J}}{725 \text{ N} \cdot 2,55 \text{ m}} = \frac{924,375 \text{ N} \cdot \text{m}}{1848,75 \text{ N} \cdot \text{m}} = 0,5$$

Bundan  $\alpha = \arccos 0,5 = 30^\circ$ .

**9-masala.** Massasi 72 kilogramm bo'lган parashyutchining harakati boshlangandan 2 soniya o'tganida uning erkin tushishi natijasida uning og'irlilik kuchini bajargan ishini toping.

Berilgan :

$$\begin{aligned}V_0 &= 0 \\g &= 9,81 \frac{m}{s^2} \\m &= 72 \text{ kg} \\t &= 2 \text{ s}\end{aligned}$$

A = ?

Yechish :

Erkin harakatlanib pastga tushayotgan jismning ixtiyoriy t paytdagi tezligi va yo'1 formulasi uchun quyidagilarni yozamiz :

$$V_t = V_0 + g \cdot t \quad (1)$$

$$h = V_0 \cdot t + \frac{g \cdot t^2}{2} \quad (2)$$

Harakat boshlangandan 2 s o'tgan paytda sportchi qancha masofani o'tganini aniqlaymiz, ya'ni :

$$h = 0 \cdot 2 + \frac{9,8 \frac{m}{s^2} \cdot (2s)^2}{2} = 9,8 \cdot 2m = 19,6m$$

Og'irlik kuchining bajargan ishi esa sportchining potentsial energiyasiga teng bo'ladi, ya'ni :

$$\begin{aligned}E_p &= m \cdot g \cdot h = 72 \text{ kg} \cdot 9,81 \frac{m}{s^2} \cdot 19,6 \text{ m} = \\&= 72 \cdot 9,81 \cdot 19,6 \frac{kg \cdot m^2}{s^2} = 13843,87 \text{ J.}\end{aligned}$$

**10-masala.** Sportchi 500 metr masofani rekord vaqtda 54,5 soniya vaqt davomida 867 Vatt foydali quvvatni rivojlantira olgan bo'lsa, u yugurish jarayonida o'rtacha qancha kuch sarflagan ?

Berilgan :

$$\begin{aligned}s &= 500 \text{ m} \\t &= 54,5 \text{ s} \\P &= 867 \text{ Vt}\end{aligned}$$

Yechish :

Tizimning harakati bilan bog'liq bo'lgan kattaliklardan quvvat, tezlik va kuch ozaro quyidagi munosabatda ekanligini hamda tezlik formulasini eslaymiz :

F = ?

$$P = F \cdot V \quad (1)$$

$$V = \frac{s}{t} \quad (2)$$

(1) va (2) formulalardan foydalanib izlanayotgan F kuch uchun quyidagi matematik ifodani hosil qilamiz :

$$F = \frac{P}{V} = \frac{\frac{P}{s}}{\frac{t}{s}} = \frac{P \cdot t}{s^2} = \frac{867 \cdot Vt \cdot 54,5 s}{500 m} = \frac{867 \cdot 54,5}{500} \frac{Vt \cdot s}{m} = \\ = 94,503 \frac{s}{m} = 94,503 \frac{J}{m} = 94,503 \frac{N \cdot m}{m} = 94,503 N$$

So'nggi natijani keltirib chiqarish jarayonida quyidagi formulalar va ulardag'i kattaliklarning o'lchov birliklaridan foydalanildi :

tizimning quvvati	$P = \frac{A}{t}$	va	$1Vt = \frac{1J}{1s}$
tizim bajargan ish	$A = F \cdot s$	va	$1 J = 1N \cdot 1m$ .

**11-masala.** Massasi 73,5 kilogramm bo'lgan sportchi yugurishning boshlanishida 3 soniya vaqt davomida  $9 \frac{m}{s}$  tezlikka erishishi uchun qanday quvvatni rivojlantirishi kerak bo'ladi ?

Berilgan :

$$\begin{aligned} m &= 73,5 \text{ kg} \\ t &= 3 \text{ s} \\ V &= 9 \frac{m}{s} \end{aligned}$$

Yechish :

Ushbu masala oldingi, ya'ni 8-masalaga o'xshashliga sababli unda ishlatalgan formulalardan foydalanishimiz tabiiy. Jumladan quvvat, tezik va kuch kabi kattaliklarning o'zaro munosabatlardan foydalanamiz.

$$P = ?$$

$$P = F \cdot V \quad (1)$$

Bulardan tashqari Nyutonning ikkinchi qonuni matematik ifodasi

$$F = m \cdot a , \quad (2)$$

harakatdagi jismning tezlanishi formulasini umumiyo ko'rinishi

$$a = \frac{V_t - V_0}{\Delta t} \quad (3)$$

kabi formulalardan foydalanamiz.

Masalaning boshlang'ich shartlariga murojaat etilganda, quyidagilar yozilishi mumkin :  $\Delta t = 3 s$

$$V_0 = 0 \quad V_t - V_0 = 9 \frac{m}{s}$$

Ushbu ma'lumotlar asosida tezlanishning (3) ifodasidan quyidagini olamiz :

$$\alpha = \frac{9 \frac{m}{s}}{3s} = 3 \frac{m}{s^2}$$

(1) va (2) formulalar asosida quyidagini yozamiz va izlanayotgan quvvatning son qiymatini hisoblaymiz :

$$P = F \cdot V = m \cdot a \cdot V = 73,5 \text{ kg} \cdot 3 \frac{m}{s^2} \cdot 9 \frac{m}{s} = 73,5 \cdot 3 \cdot 9 \text{ Nt} = 1984,5 \text{ Nt.}$$

$$\text{Chunki, } 1 \frac{kg \cdot m^2}{s^3} = 1 \frac{N \cdot m}{s} = 1 \frac{J}{s} = 1 \text{ Nt.}$$

$$1 \frac{kg \cdot m}{s^2} = 1 \text{ N}$$

Demak, massasi 73,5 kilogramm bo'lgan sportchi yugurishning boshlang'ich fazasida

3 soniya vaqt davomida  $9 \frac{m}{s}$  tezlikka erishishi uchun son qiymati **P = 1984,5 Watt** ga teng bo'lgan quvvatni rivojlantirishi kerak bo'lar ekan.

### **EGRI CHIZIQLI HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISH.**

**12-masala.** Darvozadan 45 metr uzoqlikda turgan futbolchi tomonidan gorizontga nisbatan qanday burchak ostida tepilgan koptok raqib darvozasiga borib tushishini aniqlang. Koptokning boshlang'ich tezligini  $3,2 \frac{m}{s}$  va koptokni harakatlanish vaqtini 22 soniya deb olinsin.

Berilgan :

$$\begin{aligned}s &= 45 \text{ m} \\ V_0 &= 3,2 \frac{\text{m}}{\text{s}} \\ t &= 22 \text{ s} \\ \alpha &= ?\end{aligned}$$

Yechish :

Koordinata boshi sifatida koptokni tepilayotgan joyini tanlaymiz.  
Boshlang'ich tezlik  $\mathbf{V}_0$  vektor kattalik bo'lib, uning x va y o'qlardagi proyektsiyasini, mos ravishda,  $V_{0x}$  va  $V_{0y}$  orqali belgilaymiz.

Rasmdagi tezlik vektorining proyektsiyalari uchun quyidagilarni yozamiz :



$$V_{0x} = V_0 \cdot \cos \alpha$$

$$V_{0y} = V_0 \cdot \sin \alpha$$

Koptokning harakatidagi yo'l tenglamasi

$$s = V_{0x} \cdot t + \frac{a \cdot t^2}{2}$$

Ushbu formuladagi noma'lum kattalik –  $a$  tezlanishni

$$V = \sqrt{2 \cdot a \cdot s}$$

formauladan aniqlash mumkin.

$$a = \frac{V_0^2}{2 \cdot s} = \frac{(3,2 \frac{\text{m}}{\text{s}})^2}{2 \cdot 45 \text{ m}} = \frac{10,24 \frac{\text{m}^2}{\text{s}^2}}{90 \text{ m}} = \frac{10,24}{90} \frac{\text{m}}{\text{s}^2} = 0,114 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$$

Yuqoridagi yo'l tenglamasini aniqlashtirib yozamiz :

$$s = V_0 \cdot t \cdot \cos \alpha + \frac{a \cdot t^2}{2}$$

Bu tenglamadan noma'lum kattalik  $\alpha$  ni aniqlash imkonini beradigan quyidagi formulaga ega bo'lamic :

$$\begin{aligned}
 \cos \alpha &= \frac{s - \frac{\alpha \cdot t^2}{2}}{V_0 \cdot t} = \frac{45 \text{ m} - \frac{0,114 \frac{m}{s^2} \cdot (22 \text{ s})^2}{2}}{3,2 \frac{m}{s} \cdot 22 \text{ s}} = \\
 &= \frac{45 \text{ m} - \frac{0,114 \cdot 484}{2} \text{ m}}{70,4 \text{ m}} = \frac{45 \text{ m} - \frac{55,176}{2} \text{ m}}{70,4 \text{ m}} = \frac{45 - 27,6}{70,4} = \\
 &= \frac{17,4}{70,4} = 0,247 \approx 0,25
 \end{aligned}$$

$$\alpha = \arccos 0,25 = 55^0$$

Demak, raqib darvozasiga nisbatan 45metr masofada turgan koptokni gorizontga nisbatan taxminan  $55^0$  burchak ostida yo' naltirilsa, koptok darvozaga tushishi mumkin ekan.

**13-masala.** Ikki sportchi – gimnastikachilar snaryadda oldinga tomon katta aylanish mashqini bajarmoqda. Aylanishning birinchi choragi birinchi gimnastikachi uchun 24 lavhani, ikkinchi gimnastikachi uchun esa 22 lavhani tashkil qildi. Mazkur kinoplenka asosida tuzilgan promerlarda gimnastikachilarning ushslash nuqtasidan son bo'g'imigacha bo'lган masofa, mos ravishda, 48 millimetr va 44 millimetr ekanligi aniqlangan bo'lsa, qaysi gimnastikachining son bo'g'im tezligi katta ekanligini harakatning birinchi choragi uchun aniqlang.

Promerlar mavjesi  $\frac{1}{25}$  va kinosyomka sur'ati  $24 \frac{\text{lavha}}{\text{s}}$  deb olinsin.

Berilgan :	Yechish :
$\varphi_1 = \varphi_2 = 90^\circ = \frac{\pi}{2} \text{ rad}$ $r_1 = 48 \text{ mm}$ $r_2 = 44 \text{ mm}$ $n_1 = 24 \text{ lavha}$ $n_2 = 22 \text{ lavha}$ $n = 24 \frac{\text{lavha}}{\text{s}}$ $M = \frac{1}{25}$ $V_1 = ?$ $V_2 = ?$	<p>Aylana bo'ylab harakat qilayotgan gimnastikachilarning chiziqli tezliklari, mos ravishda, quyidagi formulalardan aniqlanadi :</p> $V_1 = \omega_1 \cdot r_1$ $V_2 = \omega_2 \cdot r_2$ <p>bu yerda <math>\omega_1</math> va <math>\omega_2</math>, mos ravishda, 1- va 2-sportchi-larning burchak tezliklari, <math>r_1</math> va <math>r_2</math> esa mahkamlangan aylanish o'qidan sportchining son bo'g'migacha bo'lган masofa, ya'ni radiusdir.</p>

Ular natural holatda quyidagicha o'lchanadi :

$$r_1 = 48 \text{ mm} \cdot \frac{1}{M} = 48 \text{ mm} \cdot 25 = 1200 \text{ mm} = 1,2 \text{ m}$$

$$r_2 = 44 \text{ mm} \cdot \frac{1}{M} = 44 \text{ mm} \cdot 25 = 1100 \text{ mm} = 1,1 \text{ m}$$

Har bir sportchining burchak tezligi quyidagi  $\omega = \frac{\varphi}{t}$  formuladan foydalanib aniqlanadi, ya'ni.

$$\omega_1 = \frac{\varphi_1}{t_1} = \frac{\frac{\pi}{2} \text{ rad}}{t_1} = \frac{1,57 \text{ rad}}{t_1}$$

$$\omega_2 = \frac{\varphi_2}{t_2} = \frac{\frac{\pi}{2} \text{ rad}}{t_2} = \frac{1,57 \text{ rad}}{t_2}$$

Ushbu formulalardagi  $t_1$  va  $t_2$  kattaliklarning son qiymatlari quyidagi formalalardan aniqlanadi :

$$t_1 = \frac{n_1}{n} = \frac{24 \text{ lavha}}{24 \frac{\text{lavha}}{\text{s}}} = 1 \text{ s}$$

$$t_2 = \frac{n_2}{n} = \frac{22 \text{ lavha}}{24 \frac{\text{lavha}}{\text{s}}} = \frac{11}{12} \text{ s}$$

Har bir sportchining burchak tezligini hisoblaymiz :

$$\omega_1 = \frac{1,57 \text{ rad}}{1 \text{ s}} = 1,57 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

$$\omega_2 = \frac{1,57 \text{ rad}}{\frac{11}{12} \text{ s}} = \frac{1,57 \cdot 12}{11} \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

va ularning tezligini

$$V = \omega \cdot r$$

formula asosida hisoblaymiz, ya'ni

$$V_1 = \omega_1 \cdot r_1 = 1,57 \frac{\text{rad}}{\text{s}} \cdot 1,2 \text{ m} = 1,884 \frac{\text{m}}{\text{s}}$$

$$V_2 = \omega_2 \cdot r_2 = 1,57 \frac{\text{rad}}{\text{s}} \cdot 1,1 \text{ m} \cdot \frac{12}{11} = 1,727 \frac{\text{m}}{\text{s}} \cdot \frac{12}{11} = 1,884 \frac{\text{m}}{\text{s}}$$

Demak, birinchi gimnastikachining tezligi ham ikkinchi gimnastikachi tezligi ham son qiymati jihatidan o'zaro bir xil ekan, yoki boshqacha aytganda birinchi gimnastikachi ikkinchi gimnastikachi bilan sinxron holatda harakatlanayotgan ekan.

## **“SPORT BIOMEXANIKASI” FANINI O’RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARНИ QO’LLANISHI**

Keyingi yillarda ko’pchilik tomonidan muvaffaqiyat bilan amaliyotda keng qo’llanib kelayotgan ilg’or pedagogik texnologiyalar qatoriga ”Klaster”, ”CCharxpakalak”, ”Kichik guruhlarda ishlash”, ”Muammoli vaziyat”, ”FSMU (Fikringizni bayon eting; fikringiz bayoniga Sabab ko’rsating; ko’rsatilgan sababni tushuntiruvchi Misol keltiring; fikringizni Umumlashtiring)”, ”Nima uchun”, ”Romashka”, ”Aqliy hujum”, ”Bumerang”, ”**B-B-B** (Bilaman; Bilishni xohlayman; Bilib oldim)”, ”Blits o’yin”, ”Davra suhbati”, ”Domino”, ”Ishbilarmonlik o’yini”, ”Yelpig’ich”, ”So’nggi so’zni menga qoldiring”, ”Venn diagrammasi”, ”Loyiha”, ”Bahs-munozara”, ”Baliq skeleti”, ”T - sxema texnikasi” singari usullarni kiritish mumkin.

### **“SPORT BIOMEXANIKASI” FANINI O’RGANISHDA “KLASTER” USULINI QO’LLANISHI.**

«Tarmoqlar» (Klaster) **usuli** - ta’lim oluvchilarga berilgan mavzu xususida erkin o’ylash va turli javoblar o’rtasidagi bog’liqlik to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi usuldir.

Bu usulning ma’nosи – fikrlarning tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo’lib, u ta’lim oluvchi - talabalarni biron bir mavzuni chuqur o’rganishlariga yordam beradi. Ta’lim oluvchi -talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’langan holda tarmoqlashlariga o’rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o’rganishdan avval ta’lim oluvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. SHuningdek, o’tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda ta’lim oluvchi-talabalarni shu mavzu bo’yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

**Klasterni tarqatish** – bu pedagogik strategiya xisoblanib, talabalarga qandaydir mavzuni o’rganishda erkin va ochiq fikrlash imkoniyatini o’rgatadi.

U ma’lum bir tizim bo'yicha fikrlarni o'zaro bog'liqligi haqidagi tasavvurlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu esa fikrlarni jamlashning to'g'ri chiziqli bo'lмаган shakli hisoblanadi. U asosan miya qanday faoliyat yuritsa xuddi shunday ishlaydi.


Mazkur strategiya fikrlash faoliyatini shunday jamlaydiki, natijada ta'lim oluvchilar yangi tashkil topayotgan tizim yoki chizmali tasverni sifatli tarzda o'z onglariga jamlab oladilar. Bu shunday strategiyaki, u tasavvurda paydo bo'lgan mavzu yoki asosiy tushuncha haqida o'z bilimiga tushunarli yondashishni talab etadi.

Klasterni tarmoqlash quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

1. O'z miyangizga nima fikr kelsa barchasini boricha yozasiz. Mazmunini muhokama qilmasdan boricha yozing.
2. YOzuv mazmunidagi orfografik xato va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Vaqt tugamasdan oldin yozishdan to'xtamang, agar miyangizga yangi fikrlar kelmay qolsa unda alohida qog'ozga rasm chizing va fikr qayta paydo bo'lishi bilan yana yozishda davom eting.
4. Iloji boricha ko'proq tarmoqlarni bog'lashga harakat qiling. Fikrlar sifatini va uning bog'lanish chegarasi kattalashuvini chegaralamang.

Klasterni tarmoqlashtirishning ko'rinishi yakka tartibda va guruhli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Guruhli faoliyatda u guruh ishtirokchilarining g'oyalari o'rtasidagi bog'lovchi (karkas) vazifasini bajaradi.

“Biomexanik parametrlar” tushunchasi uchun klasterni tarmoqlanishi



Demak, “Biomexanika” fanini o’rganishda ta’lim oluvchilarning ma’lum mavzu bo’yicha o’zlashtirgan bilimlarini chuqur o’rganishlariga yordam beradi, talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’langan holda tarmoqlashlariga o’rgatadi hamda o’tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish va ta’lim oluvchi-talabalarni shu mavzu bo’yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

## BIOMEXANIKA FANINI O’RGANISH JARAYONIDA “CHARXPALAK” USULINI QO’LLASH.

Ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarida pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llanishiga oid, xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan,

ko'plab tadqiqot natijalarini uchratish mumkin. Jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qabul qilish bo'yicha pedagoglarni E.M.Rodjers tasnifi bo'yicha quyidagi 5 ta turli guruhlarga bo'lish mumkin:



1 - rasm. Innovatsion texnologiyalarni qabul qilish bo'yicha pedagoglar guruhlari (E.M.Rodjers tasnifi bo'yicha).

Hozirgi kunga kelib ilgarilar eshitmagan pedagogik texnologiyalarni o'rghanish va ta'lim tizimida qo'llash eng oddiy holga aylanib qoldi va ularni o'zlashtirmaganlar esa zamondan ortda qolib keta boshladilar. SHu parametr bo'yicha pedagoglarni (E.M.Rodjers tasnifi bo'yicha) quyidagi guruhlarga: novatorlar, yangilikni erta tadbiq qiluvchilar, dastlabki tadbiq qiluvchilar, kech tadbiq etuvchilar va ikkilanuvchilarga bo'lish mumkin (1 – rasm).

Ana shunday ilg'or pedagogik texnologiyalar qatoriga ko'pchilik tomonidan keng qo'llanib kelayotgan "Charxpak", "Kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli vaziyat", "Rolli o'yin", "FSMU (Fikringizni bayon eting; fikringiz bayoniga Sabab ko'rsating; ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi Misol keltiring;

fikringizni Umumlashtiring)", "Nima uchun", "Qor uyumi", "Romashka", "Aqliy hujum", "Bumerang", "**B-B-B** (Bilaman; Bilishni xohlayman; Bilib oldim)", "Blits o'yin", "Davra suhbati", "Domino", "Ishbilarmonlik o'yini", "Elpig'ich", "Sinkveyn", "So'nggi so'zni menga qoldiring", "9-olmos birligi", "Yunaltiruvchi matn", "Pinbord", "Venn diagrammasi", "Loyiha", "Bahs-munozara", "Insert", "Klaster", "Baliq skeleti", "T - sxema texnikasi" singari usullarni kiritish mumkin.

Charxpalak usuli - zamonaviy pedagogik texnologiya hisoblanadi. U o'quv fanining bitta mavzusi yoki bo'limi tugallanganda o'tilgan materialni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq nazorat o'tkazish uchun qo'llashga mo'ljallangan. Quyidagi jadvalda "Inson tanasining mexanik harakati" mavzusi bo'yicha talabalarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilishda qo'llash maqsadida ishlab chiqilgan sxemasi keltirilgan.

mexanik harakat uchun sifat, xarakteristika	metr (m)	sekund (s)	m / s	vektor kattalik	skalyar kattalik	$m / s^2$	tezlanuvchan	sekinlanuvcha	nolga
tezlanishni o'lchov birligi (SI)					*				
mexanik harakatda siljish birligi (SI)	*								
tekis harakatda jism tezlanishi qiymati ... teng									*
vaqtini o'lchov birligi (SI)		*							
ko'chish qanday kattalik?			*						
tezlik qanday kattalik				*					
tezlanish $> 0$ bo'lsa bunday mexanik harakat ...						*			
tezlikni o'lchov birligi (SI)		*							
masofa qanday kattalik					*				

tezlanish < 0 bo'lsa bunday mexanik harakat ...							*	
jism tinch turganda uning tezligi ... ga teng								*
kuch qanday kattalik			*					
vaqt qanday kattalik				*				
bir xil tezlikda harakatlanayotgan ikki jism tezliklari farqi ... ga teng								*
mexanik harakatda bajarilgan ish qanday kattalik				*				
uzunlik, radiusni o'lchov birligi (SI)	*							

SHunday qilib, adabiyot manbalarida keltirilgan ma'lumotlar biomexanika fanini o'rghanish doirasida zamonaviy pedagogik texnolgiyalardan foyalanishning keng imkoniyatlari majud. Bunga "CCharxpak" usulini qo'llash misol bo'lishi mumkin.

Bunda talaba:

- 1) biomexanika fani bo'yicha bilimlarini namoyon qiladi va mustahkamlaydi;
- 2) informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini takrorlaydi va mustahkamlaydi;
- 3) yangi pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi bilimlarni egallaydi, ularni amalda qo'llash malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladi.

## BIOMEXANIKA FANINI O'RGANISHDA "DOMINO" USULIDAN FOYDALANISH.

Domino - ta'lim oluvchi (shug'ullanuvchi)ning mulohaza qilishi, fikrlash doirasini kengaytirishi, bor bilim va ko'nikmalarini ishga tushirib qaror qabul

qilishiga asoslangan o'yinli pedagogik texnologiya usuli bo'lib, ta'lim oluvchidan o'tilgan mavzu yoki bo'lim bo'yicha chuqur nazariy bilimni, bu bilimlarni amaliy qo'llash malaka va ko'nikmalarini, tezkor fikrlash, qaror qabul qilish va o'ta katta tezlikda uni amalga oshirishni talab qiladi. SHuning bilan birga, bu o'yin - usul qo'llash va bajarish davomida turli "Domino toshlari"ni bir nechta variantlardan anig'ini tanlash uchun keng fikrlash doirasasi va topqirlik zarur bo'ladi.

Biz "Biomexanika" fanini o'rganish doirasida "Inson harakatining kinematik xarakteristikalarini"ni o'rganish bo'yicha bilimlarni tekshirish maqsadida domino usulini qo'llashni misol tariqasida qarab chiqamiz. Buning uchun avvaliga oldindan tayyorlangan savollar va ularning javoblari asosida har biri ikki qismdan (savol va javob) tashkil topgan domino toshlari tayyorlanadi. Ularning sxematik ko'rinishi quyidagi rasmida keltirilgan ("toshlar" xuddi domino o'yinidagi singari aralash va tartibsiz holda yotibdi).

метр	Вактни ўлчов бирлиги (СИ)	траектория	Траекториянинг узунлиги
метр / секунд	Тезлик формуласи	секунд	Тезланиш формуласи
$v = \frac{s}{t}$	Тезлик, тезланиш, куч	скаляр катталик	Масофани ўлчов бирлиги (СИ)
$a = \frac{v - v_0}{\Delta t}$	Тезланиши ўлчов бирлиги (СИ)	<b>ва ҳоказолар</b>	


Endi bu yerda hal qilinishi bo'lган masala ixtiyoriy "tosh"ning chap (yuqori) qismida joylashtirilgan savolning javobini boshqa qaysidir "tosh"dan topishimiz va ularni yonma-yon joylashtirishimiz kerak, ya'ni:

скаляр катталик	Масофани ўлчов бирлиги (СИ)	метр	Вактни ўлчов бирлиги (СИ)
-----------------	-----------------------------	------	---------------------------

masofani o'lchov birligi (SI) savol va uning javobi (metr) yonma-yon joylashtiriladi. Endi "Vaqtni o'lchov birligi (SI) savolning javobi joylashgan "tosh"ni topib uni yoniga (yoki ostiga) joylashtiramiz, ya'ni:



Endi bu “tosh”ni tagiga tezlanish formulasini keltirib qo’yamiz va hokazo. Oxirida quyidagidek barcha savollar va ularning yonida to’g’ri javoblar joylashtirilgan yopiq kontur hosil bo’ladi.



Xulosa. Demak, biomexanika fani doirasida zamonaviy pedagogik texnolgiyalardan foyalanishning keng imkoniyatlari majud. Bunga “Domino” usulini qo’llash misol bo’lishi mumkin.

Bunda talaba:

- 1) biomexanika fani bo'yicha bilimlarini namoyon qiladi va mustahkamlaydi;
- 2) informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini takrorlaydi va mustahkamlaydi;
- 3) yangi pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi bilimlarni egallaydi, ularni amalda qo'llash malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN QISQARTMALAR RO'YXATI**

$M_{tashqi}$  – tashqi kuchlar momenti

$M$  - kuch momenti

GTP - gavda tuzilishi proportsiyalari

UOM - umumiy og'irlik markaz

ZOM - gavda zvenolarining og'irlik markazi

YUQCH - yurak qisqarishlari chastotasi

$g$  – erkin tushish tezlanishi

$J$  – inertsiya momenti

$\Delta L$  - jismning kinetik momentini o'zgarishi

$m$  – jism massasi

$N$  – quvvat

$V_1$  – jismning boshlang'ich tezligi

$V_2$  – jismning oxirgi tezligi

$\Delta\varphi$  - burchak siljishlari

## **SPORT BIOMEXANIKASI BO'YICHA NAZORAT TESTLARI**

### **BIOMEXANIKAGA KIRISH**

1. Reflektorli nazariyaning asosina kim yaratgan?:
  - a) I.P.Pavlov
  - b) R. Dekart
  - v) D. Borelli
  - g) L. Fisher
2. Biomexanikaning fan sohasi sifatida boshlanishiga kim asos solgan?:
  - a) R. Dekart
  - b) V.I. Dubrovskiy
  - v) V.S. Gurfinkel'
  - g) D. Borelli
3. Jismoniy mashqlar biomexanikasi kim tomonidan ishlab chiqilgan?:
  - a) R. Dekartom
  - b) L. Fisherom
  - v) P.F. Lesgaftom
  - g) V.B. Korenbergom
4. Harakatlarni boshqarish jarayonlarini kim nazariy asoslagan?:
  - a) V.A.Utkin
  - b) P.F. Lesgaft
  - v) N.A. Bernshteyn
  - g) L. Braun
5. Skeletli mushaklarning ishini tashkil qilishda sinergiya tamoyilini kim aniqlagan?:
  - a) N.A. Bernshteyn
  - b) V.S. Gurfinkel'
  - v) T. SHvann

g) R. Broun

6. Tirk to'qimalarning va uyg'onuvchi tizimlarning fiziologik labilligi to'g'risidagi ilmiy ishlar kim iomonidan amalga oshirilgan?
  - a) N.E. Vvedenskiy
  - b) N.A. Bernshteyn
  - v) V.S. Gurfinkel'
  - g) A. A. Uxtomskiy
7. Asab markazlarining faoliyatida dominantlarni kim kashf etgan?
  - a) A.N. Krestovikov
  - b) A. A. Uxtomskiy
  - v) N.E. Vvedenskiy
  - g) R. Guk
8. Kim harakatlar koordinatsiyasini, harakatlantiruvchi shartli reflekslar shakllanishini batafsil o'rgangan?
  - a) A. A. Uxtomskiy
  - b) G.I. Popov
  - v) N.E. Vvedenskiy
  - g) A.N. Krestovikov
9. Kim Funktsional (dinamik) anatomiyanı jismoniy tarbiya va sport masalalariga qo'llagan holda ishlab chiqqan?
  - a) V.S. Farfel'
  - b) L.V. Chxaidze
  - v) M.F. Ivanitskiy
  - g) N.M. Sechenov
10. Quyidagilarning qaysi biri biomexanikaning bo'limi hisoblanmaydi:

- a) dinamik biomexanika
  - b) umumiy biomexanika
  - v) differentsiyal biomexanika
  - g) xususiy biomexanika
11. Biomexanikada nechta sath (daraja) o'zaro farqlanadi?
- a) 6
  - b) 4
  - v) 3
  - g) 8
12. Kim harakatlarni qayd qilishning takomillishgan uslubiyotini ishlab chiqqan?
- a) A.S.Aruin
  - b) L. Fisher
  - v) D.D. Donskoy
  - g) V.M.Zatsiorskiy

## KINEMATIKA

1. Harakatlanayotgan nuqta (jism) tomonidan mazkur sanoq tizimiga nisbatan hosil qiladigan (xarakterlaydigan) chiziq - bu:
- a) yo'l
  - b) traektoriya
  - v) sanoq nuqtasi
  - g) moddiy nuqta
2. Insonni fazoda mo'ljal (orientir) olish qobiliyati unda ... mavjudligi bilan aniqlanadi.
- a) o'rta qulog'i
  - b) bosh miyaning katta yarimsharlari

- v) miyacha
- g) vestibulyar apparat
3. Agar, traektoriyaning hamma qism (bo'lak)larida o'rtacha tezlik bir xil bo'lsa, u holda bunday harakat ... deb aytildi.
- a) teng uzoqlashuvchi harakat
- b) tekis tezlanuvchan harakat
- v) tekis harakat
- g) dinamik harakat
4. Jism siljishi intervalini vaqt intervaliga nisbatining vaqt intervalini cheksiz kamaytirgandagi limiti - bu:
- a) oniy tezlik
- b) tekis harakat tezligi
- v) tekis tezlanuvchan harakat tezligi
- g) dinamika
5. Harakatlar takrorlanuvchanligining vaqtga bog'liq me'yori - bu:
- a) harakat ritmi
- b) harakat tezligi
- v) harakat bir tekisligi
- g) harakat tempi
6. Tezlanish SI tizimda qanday o'lchov birlikda ifodalanadi?
- a)  $\text{m}/\text{s}^2$
- b)  $\text{m}/\text{s}$
- v)  $V_t$
- g)  $\text{km}/\text{m}$

7. Agar jism vertikal holatda pastga otilgan bo'lsa, u holda uning traektoriyasi - vertikal chiziq, harakati esa ... harakat hisoblanadi.
- a) tekis sekinlanuvchan
  - b) tekis o'zgaruvchan
  - v) tekis tezlanuvchan
  - g) tekis
8. Jism (nuqta) radius-vektori burilish burchagini burilish sodir bo'lgan vaqtiga nisbati - bu...
- a) aylanish chastotasi
  - b) aylanish davri
  - v) burchak tezlik
  - g) tezlik vektori
9. Traektoriyaning mazkur nuqtasini juda kichik intervalida hisoblangan burchak tezlikning o'zgarishini shu o'zgarish vaqtiga nisbati - bu:
- a) chiziqli tezlanish
  - b) vektor tezlanish
  - v) erkin tushish tezlanishi
  - g) burchak tezlanish
10. «Kinematika» bo'limi nimani o'rganadi:
- a) mexanik harakatni, bu harakat sabablarini aniqlamagan holda
  - b) to'qimalarning mexanik xossalarini
  - v) tirik mavjudotlarning harakatlanish faoliyatini
  - g) hayot faoliyatida vujudga keladigan mexanik hodisalar
11. Harakat davomiyligi qanday formula bilan aniqlanadi:
- a)  $N = 1 / \Delta t$ .
  - b)  $\Delta t_{2-1} : \Delta t_{2-3} : \Delta t_{4-3} \dots$

v)  $\Delta t = t_{\text{oxiri}} - t_{\text{bosh}}$

g)  $V = dx / dt$ .

12. Markazaga intilma tezlanish kattaligi qanday formula orqali aniqlanadi:

a)  $v = N/t$

b)  $T = t / N$

v)  $E = d \omega / d t$

g)  $a_{ts} = V^2 / R = \omega^2 \cdot R$

### **HARAKAT DINAMIKASI. SAQLANISH QONUNLARI.**

1. Jism inertligining miqdoriy me'yori bu - ...

a) inertsial tizim

b) kuch

v) massa

g) hajm

2. Jismning massasi qaysi formula bo'yich hisoblanadi:

a)  $F = m \cdot a$

b)  $m = (a_e/a_j) \cdot m_e$

v)  $F_0 = F_1 + F_2 + \dots$

g)  $t \cdot a = F$

3. SI tizimda kuchning o'lchov birligi nima?

a)  $a_T$

b)  $1N = 1 \text{ kg} \cdot \text{m/s}^2$

v)  $a_e$

g)  $m_e = 1$

4. Teng ta'sir etuvchi kuchning jism aylananing ushbu momentida turgan radiusga proektsiyasi bu - ...
- a) markazga intilma kuch
  - b) tangentsial kuch
  - v) kuch
  - g) dinamik kuch
5. Kuch kattaligini uning elkasiga ko'paytmasi ... deb aytildi.
- a) inertsiya
  - b) inertsiya momenti
  - v) kuch moment
  - g) kuch
6. Inertsiya momenti ... formula bo'yicha aniqlanadi.
- a)  $M = \pm F h$
  - b)  $J = m R^2$
  - v)  $\varepsilon = M / J$
  - g)  $F_{m.i} = m \cdot a_{m.i}$
7. Faol harakatlarni badarishda mushaklar bajaradigan ish nima debaytiladi?
- a) o'zgarmas ish
  - b) kuch ishi
  - v) dinamik ish
  - g) energetik sarfli ish
8. ... ga ... kuch momenti ( $M$ ) deb aytildi.
- a) Kuchni uning elkasiga ko'paytmasi
  - b) Aylanish o'qidan kuchning ta'sir chizig'igacha bo'lgan eng qisqa masofa
  - v) Jismi barcha nuqtalarining inertsiya momentlari yig'indisi

- g) Mazkur o'qqa nisbatan inertsiya momentini aylanish burchak tezligiga ko'paytmasiga teng bo'lган kattalik
9. Unga nisbatan jismning zarralariga ta'sir etuvchi og'irlilik kuchlari momentlarining yig'indisi nulga teng bo'lган nuqta bu - ...
- a) moment qoidasi
  - b) farqsiz tezlanish
  - v) jismning muvozanat holati
  - g) jismning og'irlilik markazi
10. Qo'zg'almas o'q atrofida aylanadigan (buriladigan) qattiq (ko'pincha sterjen' shaklida) jism bu ...
- a) balansir
  - b) blok
  - v) richag
  - g) qo'zg'almas blok
11. Saggital tekislikda boshning harakatini yoki muvozanatini ta'minlaydigan richag bu ...
- a) ikkinchi tip richag
  - b) birinchi tip richag
  - v) uchinchi tip richag
  - g) to'rtinchi tip richag
12. ... kuchda yutuq bermaydi, biroq uning yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatini beradi.
- a) birinchi tip richag
  - b) qo'zg'almas blok
  - v) ikkinchi tip richag
  - g) balansir

13. Mexanoterapiyadan foydalaniladigan balansli mayatnikda ... qo'llanadi.
- a) ikkinchi tip richag
  - b) birinchi tip richag
  - v) blok
  - g) langarcho'p (balansir)
14. Insonning elkasi ... tamoyili (printsipi) bo'yicha ishlaydi.
- a) birinchi tip richag
  - b) qo'zg'aluvchi blok
  - v) ikkinchi tip richag
  - g) langarcho'p (balansir)
15. Jismni yopiq kontur bo'yicha ko'chirishda bajargan ishi nulga teng bo'ladigan kuch ... kuch deb aytiladi.
- a) konservativ
  - b) doimiy (konstanta)
  - v) statik
  - g) dinamik
16. Konservativ kuchning jismni berilgan holatdan tanlangan sanoq sathiga (darajasiga) o'tishida bajargan ishiga teng bo'lган skalyar kattalikka ... deb aytiladi.
- a) to'liq mexanik energiya
  - b) to'liqmas mexanik energiya
  - v) jismning potentsial energiyasi
  - g) jismning statik energiyasi
17. To'liq mexanik energiya quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:
- a)  $A_{1-2} = -A_{2-1}$

- b)  $E = E_K + E_P$
- v)  $E = E_K - E_P$
- g)  $A_{1-2} = + A_{2-1}$

18. Erkin jismlar tizimining kinetik energiyasi va uning impul'si ... da saqlanadi.
- a) absolyut elastikmas to'qnashishda
  - b) absolyut elastik to'qnashishda
  - v) real to'qnashishda
  - g) vektor to'qnashishda

## **INSONNING HARAKATLANISH APPARATI BIOMEXANIKASI**

1. CHetlashtiruvchi mushaklar ... deb aytildi.
  - a) sfinkter
  - b) abduktor
  - v) antagonist
  - g) adduktor
2. Bir xil tipdagи harakatlarni bajaradigan mushaklar bu - ...
  - a) sinergistla
  - b) antagonistla
  - v) protraktorlar
  - g) adduktorlar
3. Mushaklarning tolalari qisqargandagi uni qisqarishi holatida kuchlanish doimiy qolishi ... deb aytildi.
  - a) inertsion
  - b) izometrik
  - v) izotonik

- g) sinergetik
4. Vestibulyar apparatini tadqiq qilish uchun ... namunasidan foydalaniladi.
- a) K. Kollen
  - b) R.I. Ayzman
  - v) L. Braun
  - g) D. Romberg
5. Vestibulyar analizatorning sezgirlik chegarasi (porog)ni aniqlash imkoniyatini beradigan test ... testi deb aytildi.
- a) D. Romberg
  - b) L. Braun
  - v) A. YArotskiy
  - g) A. Baranov
6. Inson (hayvon)ning fazoda faol ko'chish (siljish)larini vujudga keltiradigan (chaqiradigan) o'zaro moslashgan harakatlari to'plami ... deb aytildi.
- a) harakatlanish reaktsiyasi
  - b) harakatlanish faolligi
  - v) yurish
  - g) lokomotsiya
7. Mushaklarni qisqarishi mumkin bo'limgan (ikkala uchlari ham qo'zg'almas mahkamlangan holda) kuchlanish ortib borsa ... deb aytildi.
- a) izometrik
  - b) izotonik
  - v) statik
  - g) inertsion

8. Tabiiy lokomotsiyalar (yurish, yugurish, chirmashib chiqish, sakrashlar) va ularning koordinatsiyalanishi ... yoshda shakllanidi.
- a) 2 yoshgacha
  - b) 1,5 yoshgacha
  - v) 2 yoshdan 5 yoshgacha
  - g) 7 yoshdan 12 yoshgacha
9. Harakatlar koordinatsion mexanizmlarini shakllanishi ... tugallanadi.
- a) 7 yoshda
  - b) 16-17 yoshda
  - v) 5 yoshda
  - g) 20-25 yoshda
10. Minimal vaqt oralig'ida bajariladigan harakatlanish ta'siri bu - ...
- a) chaqqonlik
  - b) kuch
  - v) chidamlilik
  - g) tezkorlik
11. Tezkorlikni rivojlantirishda ... yoshda eng katta samaraga erishiladi.
- a) 8 yoshdan 16 yoshgacha
  - b) 3 yoshdan 5 yoshgacha
  - v) 7 yoshdan 12 yoshgacha
  - g) 12 yoshdan 20 yoshgacha
12. Yangi harakatlarni tez egallash va harakatlanish faoliyatini kutilmaganda o'zgargan sharoitlarning talablariga mos qayta qurish qobiliyati bu ...
- a) tezkorlik
  - b) siljuvchanlik
  - v) chidamlilik

g) chaqqonlik

13. Markazga intilma tezlanish formulasini ko'rsating.

a)  $a = \frac{V^2}{R} \cdot t$

b)  $a_t = m^* V / g h$

v)  $a = \frac{V^2}{R}$

g)  $a = h^* V / m g$

14. «Biomexanika» fani ... tashkil topgan.

- a)... umumiy, differentsiyal, xususiy biomexanikadan
- b)... biokinematika, xususiy biomexanika va biodinamikadan
- v)... biodinamika va sport turlari mexanikasidan
- g)... Sport mashqlari biomexanikasi, umumiy va xususiy biomexanikadan hamda aerodinamikadan

15. Sakrash va yugurish kinotsiklogrammasini chizishda koordinata o'qlariga qanday kattaliklar qo'yildi ?

- a). X o'qiga lavhalar tartib raqami, U o'qiga tezlikning koordinatalari
- b). X o'qiga lavhalar tartib raqami, U o'qiga tezlanishning koordinatalari
- v). X o'qi bo'ylab X va U o'qi bo'ylab U koordinatalar qiyatlari qo'yildi
- g). X o'qiga tezlik koordinatalari, U o'qiga lavhalar tartib raqami.

GLOSSARY			
Ibora	ta'rif	Rus tilidagi ta'rif	Definition in English

Boshqarish	Tizimning biron-bir holatini xohlangan holga keltirish	privedenie sostoyaniya kakoy-libo sistemy v jelaemoe sostoyanie	bringing any system to the desired state
Tahlil qilish	yunoncha ἀνάλυσις – bo'laklash, hadlarga bo'lish, saralash) – tadqiqot ob'ektlarining alohida qismlarini ajratish va o'rganish bilan xarakterlanadigan tadqiqot usuli	(dr.-grech. ἀνάλυσις — razlojenie, raschlenenie, razborka) — metod issledovaniya, xarakterizuyushchiysya vydeleniem i izucheniem otdel'nykh chastej ob'ektov issledovaniya.	Something to think a certain way given up searching for, or to prove the method (method).
Harakatlanish (motorli) test	Asosida harakatlanish topshirig'i yotadiga test	test, v osnove kotorogo lejt dvigatel'noe zadanie	The test in which basis the motorial task lies
Diskret natijalar	Butun son orqali ifodalanadigan natijalar	rezul'taty, vyrajennye tselym chislom	The outcomes expressed by an integral number
O'lhash	Bir tomondan, o'rganilayotgan hodisalar bilan, ikkinchi tomondan, sonlar o'rtasida o'zaro moslikni aniqlash	ustanovlenie sootvetstviya mejdu izuchaemyimi yavleniyami, s odnoy storony, i chislami, s drugoy	Correspondence establishment between studied appearances, on the one hand, and numbers, with another
O'lhash qurilmasi	Bir yoki bir nesta omillarni o'lhash	sistemnaya sovokupnost'	system set of functionally

	uchun mo'ljallangan funktsional o'zaro bog'liq yoki bog'liq bo'lmanan priborlar, qurilmalar, yordamchi qurilma (kostruktiv) elementlarining tizimli to'plami	funktional'no vzaimosvyazannix ili nesvyazannix priborov, ustroystv, vspomogatel'nyx konstruktivnyx elementov, prednaznachennaya dlya izmereniya odnogo ili neskol'kix izmeryaemyx faktorov	interconnected or unconnected devices, devices, auxiliary structural elements, designed to measure one or several measured factors
Model'	U yoki bu ob'ekt, jarayon, hodisaning namunasi (standarti, etaloni)	obrazets (standart, etalon) togo ili inogo ob'ekta, jarayona, yavleniya	sample (standard) of a particular object, process, phenomenon
Uzluksiz natijalar	Kasr sonlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan natijalar	rezul'taty, kotorые mogut vyrajat'sya drobnym chislom	Outcomes which can express fractional number
Tizim	Yagona yaxlitni tashkil qiladigan elementlar to'plami	sovokupnost' elementov, obrazuyushchix edinoe tseloe	aggregate of elements forming a single whole
TSiklogramma	TSiklik jarayonni grafik ifodalanishi	graficheskoe izobrajenie tsiklicheskogo protsessa	Graphic representation of the cyclic process
Xronogramma	Harakatlanish faza (davr)i diagrammasi	Diagramma dvigatel'noy fazы (perioda)	Motor phase diagram (period)

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Allamuratov SH.I., Nurmuxammedov A.M., «Sport biomexanikasi», Toshkent, 2009.
2. Axmedov B.A. «Biomexanikadan amaliy mashg'ulot», Toshkent, 1993
3. Barantsev S.A., Vozrastnaya biomexanika osnovnykh vidov dvijeniy shkol'nikov. / - M.: Sovetskiy sport, 2014. - 304 c.
4. Begun P. I., Afonin P. N., Borisova T.S., Modelirovanie v biomexanike / metod. rekomendatsii / Minsk : BGMU, 2009. 39 s.
5. Gaverdovskiy YU. K. Obuchenie sportivnym uprajneniyam. Biomexanika. Metodologiya. Didaktika / - M.: Fizkul'tura i sport, 2007. — 912 s.
6. Bernshteyn N.A. Fiziologiya dvijeniya i aktivnost'. – M.: FiS, 1990.
7. Germanov G.N., Osnovy biomexaniki: dvigatel'nye sposobnosti fizicheskie kachestva., uchebn.posobie, M.: izd-vo YUrayt, 2017, M.: izd-vo YUrayt, 2019, 224 s.
8. Djalilov A.A., Merkur'ev K.L. Biomexanika dvigatel'noy deyatel'nosti (PDF) Uchebnoe posobie. - Tol'yatti: Tol'yattinskiy gosudarstvennyy universitet (TGU), 2019. - 178 s.
9. Zagrevskiy V.I., Zagrevskiy O.I. Biomexanika fizicheskix uprajneniy (PDF) Uchebnoe posobie.— Tomsk: Izdatel'skiy dom Tomskogo gos. universiteta, 2018. - 262 s. - ISBN 978-5-94621-685-2
10. Kashuba V.A., Biomexanika osanki. / - M.: Sovetskiy sport, 2003. - 280 c.
11. Korenberg V. B. Osnovy sportivnoy kineziologi. M.: Sovetskiy sport, 2006.
12. Medvedev, V.G. Sportivnaya biomexanika: Raschetno-graficheskie raboty : ucheb. posobie / Ros. gos. un-t fiz. kul'tury, sporta, molodezhi i turizma (GTSOLIFK), - M. : 2018 .- 60 s. : il. — ISBN 978-5-905563-98-

- 0 .— Rejim dostupa: <https://rucont.ru/efd/675662>.
13. Nachinskaya S.V. Biomexanika. M.: Akademiya, 2005.
  14. Pokatilov A.E., Zagrevskiy V.I., Lavshuk D.A. Biodinamicheskie issledovaniya sportivnykh uprajneniy v usloviyakh uprugoy orogoy (PDF) Monografiya. — Minsk: Izdatel'skiy tsentr BGU, 2008. — 291 s.
  15. Popov G.I., Biomexanika dvigateľnoy deyatel'nosti: Uchebnik / - M.: Academia, 2018. - 88 c.
  16. Raschetnye metody opredeleniya biomexanicheskix xarakteristik tela cheloveka i ego dvijeniy : Laboratornyy praktikum / G. B. SHatskiy; UO "Vitebskiy gos. un-t im. P. M. Masherova"; - Vitebsk: Izd-vo UO "VGU im. P. M. Masherova", 2004. — 57 s. — ISBN 985-425-318-X.
  17. SHalmanov An.A., SHalmanov Al.A., Lukunina E.A., Medvedev V.G., Laboratornyy praktikum po biomexanicheskoy dvigateľnoy deyatel'nosti. – M.: RGUFKSMiT, 2016 g., 93 s.
  18. Antropometric Reference data for Children and Adults United States. SDS DHHS (2012).

***SI Xalqaro birliklar tizimiga kirmaydigan o'lchov birliklari***

SI ga kirmaydigan quyidagi o'lchov birliklari, “O'lchashlar bosh konferentsiyasi” qarori bilan „SI bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin“.

<b>O'lchov birliklari</b>	<b>Xalqaro nomlanishi</b>	<b>Belgilanishi</b>		<b>SI o'lchov birliklarida</b>
		<b>o'zbekcha</b>	<b>xalqaro</b>	
<u>daqiqa</u>	minute	min	min	60 s
<u>soat</u>	hour	soat	h	60 min = 3600 s
<u>sutka</u>	day	sut	d	24 soat = 86 400 s
<u>gradus</u>	degree	°	°	( $\pi/180$ ) rad
<u>burchak minutı</u>	minute	'	'	(1/60)° = ( $\pi/10\ 800$ )
<u>burchak sekundi</u>	second	"	"	(1/60)' = ( $\pi/648\ 000$ )
<u>litr</u>	litre (liter)	L	l, L	1/1000 m <sup>3</sup>
<u>Tonna</u>	tonne	t	t	1000 kg
<u>elektronvolt</u>	electronvolt	eV	eV	$\approx 1,60217733 \times 10^{-19}$ J
<u>massaning atom birligi</u>	unified atomic mass unit	a. e. m.	u	$\approx 1,6605402 \times 10^{-27}$ kg
<u>astronomik birlik</u>	astronomical unit	a. birl.	ua	$\approx 1,49597870691 \times 10^{11}$ m
<u>dengiz mili</u>	Nautical mile	mil		1852 m (aniq)
<u>uzel</u>	knot	uz		1 soatda bosib o'tilgan 1 dengiz mili = (1852/3600) m/s
<u>ar</u>	are	a	a	$10^2$ m <sup>2</sup>
<u>hektar</u>	hectare	ga	ha	$10^4$ m <sup>2</sup>
<u>bar</u>	bar	bar	bar	$10^5$ Pa
<u>angstrom</u>	ångströ	Å	Å	$10^{-10}$ m

<u>barn</u>	Barn	b	b	$10^{-28} \text{ m}^2$
-------------	------	---	---	------------------------

2-ilova.

Jadval

### Gavda UOM koordinatalarini hisoblash uchun jadval

Bo'g'in	P,%	P,kg	$l,$ mm	R nisb.o.m.	R <sub>o.m.</sub> mm	X, mm	px, kg mm	Y, mm	ry, kg mm
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Bosh	7			—					
Tana	43			0,44					
O'ng elka	3			0,47					
CHap elka	3			0,47					
O'ng bilak soha	2			0,42					
CHap bilak soha	2			0,42					
O'ng kaft	1			—					
CHap kaft	1			—					
O'ng son	12			0,44					
CHap son	12			0,44					
O'ng boldir	5			0,42					
CHap boldir	5			0,42					
O'ng oyok tovoni	2			0,44					
CHap oyoq tovoni	2			0,44					

## TEST JAVOBLARI :

### BIOMEXANIKAGA KIRISH

Savol t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
to'g'ri javob	b	g	v	v	b	a	b	g	v	a	v	b

### KINEMATIKA

Savol t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
to'g'ri javob	b	g	v	a	g	a	b	v	g	a	v	g

### HARAKAT DINAMIKASI. SAQLANISH QONUNLARI

Savol t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
to'g'ri javob	v	b	b	a	v	b	v	a	g	v	b	b	g	v	a	v	b	b

### INSONNING HARAKATLANISH APPARATI BIOMEXANIKASI

Savol t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
to'g'ri javob	b	a	v	g	v	g	a	v	b	g	a	g	v	a	V

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
1-bob	O'QUV - TRENIROVKA JARAYONINI O'RGANISH VA TAKOMILLASHTIRISH UCHUN BIOMEXANIK USULLARNI QO'LLANISHI	11
1.1	Biomexanik tadqiqot usullari va vositalari	11
1.2	SI Xalqaro birliklar tizimi	16
1.3	Kattalikni ma'lum o'lchov birligidan boshqasiga o'tkazish	26
2-bob	GRAFIKLAR VA MATEMATIK MODELLAR KO'RINISHIDA IFODALANGAN MA'LUMOTLAR BO'YICHA BIOMEXANIK XARAKTERISTIKALARINI ANIQLASH	31
2.1	Grafiklarga ishlov berish.	31
2.2	Matematik modellardan foydalaniб pedagogik - biomexanik nazorat qilish xususiyatlari	35
3 - bob	BIOMEXANIK XARAKTERISTIKALARINI FOTOKINOMATERIALLAR ASOSIDA ANIQLASH	40
3.1	Joy dasturini aniqlash.	44
3.2	Mo'ljal (orientatsiya) dasturini aniqlash	47
3.3	Gavdaning vaziyati (pozasi) o'zgarishi dasturini aniqlash	50
3.4	Harakat dinamik xarakteristikalarini aniqlash	55
3.5	Harakatning energetik xarakteristikalarini aniqlash	58

4-bob	SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR	62
4.1	Inson harakatlanish apparatining biomexanikasi. Biomexanik tadqiqot va jismoniy tarbiya va sportda nazorat qilish usullari.	62
4.1.1	Gavda egiluvchanligini baholash	63
4.1.2	Inson gavdasi sirtining yuzasini o'rganish.	66
4.1.3	Gavda tuzilishining proportsiyalari (GTP)ni aniqlash	67
4.1.4	Qadd - qomatni tik tutish (osanka) to'g'riliгини aniqlash	68
4.1.5	Latofat indeksini o'rganish.	70
4.1.6	Salomatlik koeffitsientini aniqlash	71
4.1.7	Ketle indeksini aniqlash.	75
4.1.8	Sportchi gavdasining proportsionallik koeffitsientini o'rganish.	77
4.1.9	Ko'krak qafasi rivojlanishining proportsionallik koeffitsientini o'rganish.	79
4.1.10	Gavda tuzilishi baquvvatligi ko'rsatkichini o'rganish.	80
4.1.11	Sportchi o'pkasining zaruriy tiriklik sig'imi (O'ZTS)ni aniqlash.	82
4.1.12	Inson tanasining tiriklik (hayot) indeksini aniqlash.	82
4.1.13	Qo'lning kuch indeksini o'rganish.	86
4.1.14	Genchi sinovi	88
4.2	GAVDA TUZILISHI TURLARINI ANIQLASH	90
4.2.1	Gavda tuzilishining asosiy tiplari	90
4.2.2	Brok formulasi bo'yicha ideal massani hisoblash.	92
4.2.3	Brok indeksini hisoblash.	95
4.3	TMilarining kamchiliklari va cheklovlar	99
5-bob	INSON LOKOMOTSIYALARI (HARAKATLARI) BIOMEXANIKASI. LOKOMOTSIYA TURLARI. YOSH BIOMEXANIKASI.	98
5.1	Statik va dinamik ishlarning farqini o'rganish	98
5.2	Tomirlarda qon oqishiga mushak faoliyatini ta'siri	102

5.3	Tinchlikda va jismoniy yuklamadan keyin yurak qisqarishlari chastotasini aniqlash	105
6-bob	<b>AMALIY MASHG'ULOTLAR</b>	110
1	YUgurish koordinatalari bo'yicha promerni chizish	110
2	Sakrash koordinatalari bo'yicha promerni chizish	118
3	YUgurish va sakrash xronogrammasini chizish.	127
4	YUgurish tsiklogrammasi asosida tezlik grafigini chizish.	132
5	Sakrash tsiklogrammasi asosida tezlik grafigini chizish.	138
6	YUgurish tsiklogrammasi asosida tezlanish grafigini chizish.	144
7	Sakrash tsiklogrammasi asosida tezlanish grafigini chizish.	149
8	Aylanma harakat burchak tezligini hisoblash va grafigini qurish.	155
9	Aylanma harakat burchak tezlanishini hisoblash va grafigini qurish.	164
10	Foydali mexanik ishni va uning o'rtacha quvvatini aniqlash	170
11	Dinamometr vositasida kinestetik sezgini aniklash	174
12	Odam tanasi umumiy og'irlilik markazini analistik usul bilan aniqlash.	181
13	YUgurib kelib yadroni irg'itish sport texnikasining samaradorligini aniqlash	185
14	Inson tanasi uzunligini bashorat (prognoz) qilish va UOM holatini hisoblash uchun foydalilaniladigan matematik model aniqligini baholash.	189
7	Soha bo'yicha xorijiy adabiyot manbalar ma'lumotlari bilan solishtirish	197
	<b>SPORT BOIMEXANIKASIDAN MASALA YECHISH UCHUN TAVSIYALAR.</b>	192
	<b>BIOMEXANIKA (KINEMATIKA VA DINAMIKA)DAN</b>	196

	<b>MASALA YECHISH NAMUNALARI.</b>	
	<b>EGRI CHIZIQLI HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISH.</b>	212
	<b>“SPORT BIOMEXANIKASI” FANINI O’RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO’LLANISHI</b>	215
	<b>SPORT BIOMEXANIKASIBO’YICHA NAZORAT TESTLARI</b>	224
	Glossariy	236
	ADABIYOTLAR RO’YXATI	239
	1-ilova. SI Xalqaro birliklar tizimiga kirmaydigan o’lchov birliklari	241
	2-ilova. Gavda UOM koordinatalarini hisoblash uchun jadval	242
	TEST JAVOBLARI	244

## ОГЛАВЛЕНИЕ

	Введение	3
1- глава	Применение биомеханических методов для изучения и совершенствования учебно-тренировочного процесса	11
1.1	Методы и средства биомеханических исследований	11
1.2	Международная система единиц СИ	16
1.3	Перевод величины из одной единицы измерения в другую	26
2- глава	Определение биомеханических характеристик по данным, выраженным в виде графиков и математических моделей	31
2.1	Обработка графиков	31
2.2	Особенности педагогико-биомеханического контроля с помощью математического моделирования	35
3 - глава	Определение биомеханических характеристик на основе фотокиноматериалов	40
3.1	Определение программу места	44
3.2	Определение программу ориентирования	47
3.3	Определение программу изменения позы туловища	50
3.4	Определение динамических характеристик движения	55
3.5	Определение энергетических характеристик движения	58
4- глава	<b>ЗАДАНИЯ ДЛЯ СЕМИНАРСКИХ ЗАНЯТИЙ</b>	62
4.1	Биомеханика двигательного аппарата человека. Биомеханические исследования и методы контроля в физической культуре и спорте	62
4.1.1	Оценка гибкости туловища	63
4.1.2	Изучение площади поверхности туловища человека	66
4.1.3	Определение пропорций строения туловища (ПСТ)	67
4.1.4	Определение правильности осанки	68

4.1.5	Определение индекса привлекательности	70
4.1.6	Определение коэффициента здоровья	71
4.1.7	Определение индекса Кетле	75
4.1.8	Изучение коэффициента пропорциональности тулowiща спортсмена	77
4.1.9	Определение коэффициента пропорциональности развития грудной клетки	79
4.1.10	Изучение показателя мощности строения тулowiща	80
4.1.11	Определение необходимого жизненного объема легких спортсмена	82
4.1.12	Определение жизненного индекса тела человека	82
4.1.13	Изучение индекса силы рук	86
4.1.14	Тест Генчи	88
4.2	Определение видов строения тулowiща	90
4.2.1	Основные типы строения тулowiща	90
4.2.2	Вычисление идеальную массу по формуле Брок	92
4.2.3	Вычисление индекса Брок	95
4.3	Недостатки и ограничения ИМТ (индексов массы тела)	99
5-глава	<b>БИОМЕХАНИКА ЛОКОМОЦИЙ (ДВИЖЕНИЙ). ВИДЫ ЛОКОМОЦИЙ. ВОЗРАСТНАЯ БИОМЕХАНИКА</b>	102
5.1	Изучение разницу статических и динамических работ	103
5.2	Воздействие мышечной деятельности на кровоток в венах	104
5.3	Определение частот сокращения сердца в покое и после физической нагрузки	105
6-глава	<b>ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ</b>	110
1	Начертить промер по координатам бега	110
2	Начертить промер по координатам прыжка	118
3	Начертить хронограмму бега и прыжка	127

4	Начертить график скорости на основе циклограммы бега	132
5	Начертить график скорости на основе циклограммы прыжка	138
6	Начертить график ускорения на основе циклограммы бега.	144
7	Начертить график ускорения на основе циклограммы прыжка.	149
8	Вычисление и построение графика угловой скорости вращательного движения.	155
9	Вычисление и построение графика углового ускорения вращательного движения.	164
10	Определение полезную механическую работу и ее среднюю мощность	170
11	Определение кинестетическую чувствительность посредством динамометра	174
12	Определение общего центра тяжести тела человека аналитическим методом	181
13	Определение эффективности спортивной техники метания ядра с разбега	185
14	Оценка точности математической модели, используемых для прогнозирования длины тела и вычисления положения ОЦТ	189
7	Сравнение с данными, приведенными в зарубежных источниках литературы в данной области	197
	<b>Рекомендации для решения задач по спортивной биомеханике</b>	192
	Примеры решения задач по биомеханике (кинематика и динамика).	196
	Решение задач по криволинейному движению	212
	<b>Применение педагогических технологий при изучении «Спортивной биомеханике»</b>	215
	<b>Контрольные тесты по «Спортивной биомеханике»</b>	224

	Глоссарий	236
	Список литературы	239
	Приложение-1. Единицы измерения, не входящие в Международную систему единиц СИ	241
	Приложение-2. Таблица для вычисления координат ОЦТ тела	242
	Ответы тестов	244